

T.M. KARALIYEV, R. B. QURBONOV, M.S. RUSTAMOV

BANKLARDA BUXGALTERIYA HISOBI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAHSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

T.M.KARALIYEV, R.B.QURBONOV, M.S.RUSTAMOV

**BANKLARDA
BUXGALTERIYA
HISOBI**
(BUXGALTERIYA O‘TKAZMALARI BILAN)

O‘quv qo‘llanma

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta mahsus ta‘lim vazirligining
muvofiglashtiruvchi Kengashi tomonidan tavsiya etilgan*

«ZEBO PRINT»
TOSHKENT – 2021

UO`K: 657.1:336.71(075.8)

KBK: 65.052ya73

K 24

Karaliyev T.M., Qurbonov R.B., Rustamov M.S.

Banklarda buxgalteriya hisobi [Matn]: o'quv qo'llanma / T.M. Karaliyev, R.B. Qurbonov, M.S. Rustamov. -Toshkent: «ZEBO PRINT», 2021. - 344 b.

Taqrizchilar:

Omonov A. A. – TMI “Bank ishi” kafedrası mudiri, i.f.d., prof.

Toymuxamedov. I.R. – TDIU “Bank ishi va investitsiyalar” kafedrası dotsenti, i.f.n.

Ushbu o'quv qo'llanma “Banklarda buxgalteriya hisobi” fani bo'yicha tasdiqlangan fan va ishchi dasturlari asosida tayyorlangan bo'lib, unda banklarda buxgalteriya hisobining mazmuni bayon etilgan.

Ushbu o'quv qo'llanmada banklarda buxgalteriya hisobining tashkil etilishi, banklarda ishlatiladigan hujjatlar va ularning turlari, bank mijozlariga hisobvaraqlar ochish tartibi batafsil yoritilgan. Ma'lumki, banklar mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonida juda ko'plab operatsiyalarni bajaradi, bu operatsiyalarning buxgalteriya hisobini to'g'ri va o'z vaqtida yuritish iqtisodiyotdagi hisob-kitoblarni tezlashtirish, xo'jalik yurituvchi subektlarning o'zaro majburiyatlarini bajarishga yordam beradi. Ushbu o'quv qo'llanmada banklar tomonidan bajariladigan operatsiyalar, jumladan, naqd pulsiz hisob-kitoblar, qimmatli qog'ozlar, kassa, kredit operatsiyalari hamda banklararo hisob-kitoblar, ularning hisobi va rasmiylashtirilishi buxgalteriya o'tkazmalari bilan batafsil yoritib berilgan. Bankning moddiy va nomoddiy aktivlari, bank daromadlari va xarajatlarining buxgalteriya hisobini yuritish tartiblariga ham alohida o'rin berilgan. Jumladan, o'quv qo'llanma banklarda buxgalteriya hisobini o'rganuvchi iqtisodiy oliy o'quv yurtlari bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan. Bundan tashqari, o'quv qo'llanmadan iqtisodchilar, hisobchilar, bankirlar va o'qituvchilar ham foydalanishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 28-dekabrda 676-sonli buyrug'iga asosan o'quv qo'llanma sifatida nashr etishga ruxsat berildi.

ISBN 978-9943-7921-4-2

KIRISH

O'zbekistonda hozirgi kunda Markaziy bank va tijorat banklaridan tashkil topgan bank tizimi faoliyat ko'rsatmoqda. Respublika bank tizimini izchil ravishda isloh qilish orqali uning mustahkam va barqarorligini ta'minlashga alohida ahamiyat berilmoqda. Natijada bank tizimida yuqori natijalarga erishilmoqda.

Bozor iqtisodiyoti qolaversa, xalqaro ijtimoiy va iqtisodiy aloqalarning globallashuvi sharoitida barcha xo'jalik yurituvchi subyektlardagi kabi banklarda ham bajarilayotgan operatsiyalar buxgalteriya hisobida hisobga olib boriladi. Banklarda buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etish katta ahamiyatga ega, chunki buxgalteriya hisobi va nazoratning samarali tashkil etilishi bank funktsiyalarining to'g'ri bajarilishini ta'minlaydi. Shuningdek, tijorat banklar 2021 yil 1 yanvardan boshlab MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritish, 2021 yil yakunlaridan boshlab o'zining moliyaviy hisobotlarini Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tayyorlash lozimligi bank operatsiyalarini MHXS lari asosida hisobga olishni talab qiladi¹.

Hozirgi kunda banklarning barcha operatsiyalari jahon tajribasidan foydalangan holda bajarilmoqda. Bank operatsiyalarining buxgalteriya hisobini milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda xalqaro andozalarga javob beradigan tarzda olib borish uchun banklar buxgalteriya hisobining yangi hisobvaraqlar rejasi ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etildi. "Banklarda buxgalteriya hisobi" fani orqali talabalarga ushbu hisobvaraqlar rejasi asosida bank operatsiyalarining buxgalteriya hisobi va rasmiylashtirish tartibi o'rgatiladi.

Ushbu o'quv qo'llanma "Banklarda buxgalteriya hisobi" fani bo'yicha tasdiqlangan fan hamda ishchi dastur asosida yaratilgan bo'lib, unda banklarda buxgalteriya hisobining tashkil etilishi, banklarda ishlatiladigan hujjatlar va ularning turlari, bank mijozlariga hisobvaraqlar ochish tartibi batafsil yoritilgan.

Ma'lumki, banklar mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonida juda ko'plab operatsiyalarini bajaradi, bu operatsiyalarning buxgalteriya hisobini to'g'ri va o'z vaqtida yuritish iqtisodiyotdagi hisob-kitoblarni tezlashtirish, xo'jalik yurituvchi subektlarning o'zaro majburiyatlarini bajarishga yordam beradi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning qo'shimsa chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4611-sonli Qarori

Ushbu o'quv qo'llanmada banklar tomonidan bajariladigan operatsiyalar, jumladan, naqd pulsiz hisob-kitoblar, qimmatli qog'ozlar, kassa, kredit operatsiyalari hamda banklararo hisob-kitoblar, ularning hisobi va rasmiylashtirilishi buxgalteriya o'tkazmalari bilan batafsil yoritib berilgan. Bankning moddiy va nomoddiy aktivlari, bank daromadlari va xarajatlarining buxgalteriya hisobini yuritish tartiblariga ham alohida o'rin berilgan.

Banklarda bajariladigan operatsiyalarning buxgalteriya hisobini tashkil etish tartibi o'quv qo'llanmaning 14 ta bobida yoritib berilgan.

O'quv qo'llanmaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, barcha mavzularning matnlarida asosan bankning buxgalteriya o'tkazmalariga urg'u berilgan bo'lib, talabalarni mustaqil ishlashi uchun masalalar ham berib borilgan. Shuningdek, qo'llanmaning oxirida talabalarning fanni mukammal o'zlashtirishlarini ta'minlash maqsadida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi, hujjatlarning namunalari va banklarda buxgalteriya ishini o'rganish bo'yicha boshqa qator ilovalar keltirilgan.

I BOB. BANKLARDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL QILINISHI

Tayanch soʻz va iboralar. Bank buxgalteriya hisobi, hisobvaraqlar rejasi, bosh daftar, balans passiv hisob varaqlar, ikki yoqlama yozuv.

1.1. Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil qilinishi

Banklarda buxgalteriya hisobining yuritilishi, buxgalteriya ishining toʻgʻri tashkil etilishi va nazoratning aniq olib borilishi bankning oʻz vazifalarini toʻgʻri bajarishini, mavjud va boʻlgʻusi investorlar, kreditorlar, hukumat muassasalari, vazirliklar, idoralar, jamoatchilik va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar, shuningdek, bank rahbariyati va xodimlari uchun bank faoliyatiga haqqoniy baho berish imkonini yaratadigan aniq va foydali axborot olishni taʼminlaydi. Buning uchun buxgalterlardan muayyan bilimlar, buxgalteriya hisobi va hisobotining asosiy tamoyillari hamda uslublarini tushunish talab qilinadi.

Tijorat banklari bank operatsiyalarini amalga oshirishda va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirishda Markaziy bankning meʼyoriy hujjatlariga va amaldagi qonunchilikka qatʼiy rioya qilishlari lozim.

Bank hisobvaraqlar rejasi bank operatsiyalarining buxgalteriya hisobini aks ettirish uchun asos boʻlib xizmat qiladi.

Hisobvaraqlar rejasi bank operatsiyalarining hisobini yuritish, tahlil qilish, guruhlash va ularga doir hisobotlarni tuzishda qoʻllanadigan Bosh kitob hisobvaraqlarini roʻyxatidan iboratdir.

Bosh daftardagi hisobvaraqlarni kodlash tizimi besh xonali sonidan iborat boʻlishi lozim. Hisobvaraqlarni eslab qolish oson boʻlishi maqsadida aktiv hisobvaraqlarning kodlari toq, passiv hisob varaqlariniki esa juft qilib belgilangan. Balans hisobvaraqlarida hisob ikki yoqlama yozuv usulida yuritiladi. Operatsiyalar mablagʻlarning harakatidan qatʼiy nazar, amalga oshirilgan kuni buxgalteriya hisobida aks etiriladi.

Koʻzda tutilmagan holatlar hisobvaraqlarida hisob ikki yoqlama yozuv usulida yuritiladi. Bunda har bir yoki bir nechta koʻzda tutilmagan holatlar hisobvaraqlariga mos keluvchi kontr-hisobvaraqlar mavjud. Balans hisobotida va shu kabi boshqa hisobotlarda faqat asosiy koʻzda tutilmagan holatlar hisobvaraqlari aks ettiriladi. Bu hisobotlarda kontr hisobraqamlar aks ettirilmaydi.

1.2. Tijorat banklarining hisobvaraqlar rejasi va undagi o'zgarish

Tijorat banklarining hisobvaraqlar rejasi buxgalteriya hisobining ko'p valyutali tizimiga asoslangan bo'lib, chet el valyutasidagi operatsiyalarning hisobi yuritilishi mumkin bo'lgan barcha hisobvaraqlarda xorijiy valyutadagi operatsiyalar hisobini aks ettirish imkonini beradi. Har bir valyuta turi bo'yicha sintetik hisobni yuritish uchun-alohida Bosh kitob, analitik hisobni yuritish uchun esa Yordamchi kitoblar ochiladi. Har bir valyuta bo'yicha Yordamchi kitoblardagi summalar yig'indisi Bosh kitoblarning tegishli balans hisobvaraqlaridagi summalar yig'indisiga mos kelishi kerak. Bank tomonidan amalga oshiriladigan har bir operatsiya tegishli valyuta turi bo'yicha Bosh va Yordamchi kitoblarda ro'yxatga olinishi kerak. Hisobot sanasida Bosh kitoblarning xorijiy valyutalar bo'yicha jami summalari milliy valyutaga o'tkaziladi va hisobot davri davomida amalga oshirilgan barcha operatsiyalar bo'yicha bankning jamlanma balansi tuziladi.

Hisobvaraqlarni kodlashtirish quyidagi maqsadlar uchun ishlab chiqilgan:

* hisobvaraqlarning Bosh va Yordamchi kitoblarda joylanishini engillashtirish;

* hisobvaraqlarni bir tizimda tasniflash va guruhlashga yordam berish;

* hisob jarayonlarini avtomatlashtirishni engillashtirish;

* operatsiyalar yozuvini tezlashtirish.

Balans hisobvaraqlarining Bosh kitobda kodlashtirilish tizimi quyidagi sxema bo'yicha beshta belgidan iboratligi qabul qilingan:

Bundan tashqari, operatsiyalarni boshqarish maqsadida Yordamchi kitoblarga Markaziy bank, tijorat banklari boshqarmalari hamda tijorat banklari boshqarishi uchun zarur bo'lgan batafsil axborotlar bilan ta'minlovchi qo'shimcha ma'lumotlar kiritiladi.

Hisobvaraqlar rejasida har bir hisobvaraqning aktiv yoki passiv bo'lishi aniq belgilab qo'yilgan, aktiv-passiv qoldiqlarga ega bo'ladigan ayrim hisobvaraqlar bundan mustasno.

S	MM	SS
C	Hisobvaraqlar turkumi (kategoriyasi):	
1	Aktiv	
2	Majburiyatlar	
3	Kapital	
4	Daromadlar	
5	Xarajatlar	
9	Ko'zda tutilmagan holatlar	
MM	Hisobvaraqlar turkumiga tegishli asosiy hisobvaraqlar (birinchi tartib)	
SS	Asosiy hisobvaraqlarga tegishli subhisobvaraqlar (ikkinchi tartib)	

1-rasm. Bank hisobvaraqlari tuzilishi¹

Raqamli kodlashtirishga quyidagi zarur shartlar joylashtirilgan:

- jamlanma hisobvaraqlar uchun MM va/yoki SS nol raqamlariga ega (masalan, 10000-“Aktivlar”, 10100-“Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari” va boshqalar);

- “Aktivlar” bo‘limidagi “... zararlarni qoplash zahirasi” sarlavhali subhisobvaraqlar uchun SS o‘rnida 99 raqam qabul qilingan.

Yordamchi kitobda shaxsiy hisobvaraqlar quyidagi sxema bo‘yicha kodlashtiriladi:

Hisobvaraqlar rejasi – buxgalteriya hisobi bo‘yicha hisobvaraqlarning ularning iqtisodiy mazmuniga ko‘ra bir tizimga solingan ro‘yxatdir.

Aktiv hisobvaraqlarga:

1. “Aktivlar” – 10000;
2. “Xarajatlar” – 50000;
3. “Ko‘zda tutilmagan holatlar” – 90000 bo‘limlaridagi balans hisobvaraqlari kiradi.

Passiv hisobvaraqlarga:

1. “Majburiyatlar” – 20000;
2. “Kapital” – 30000;
3. “Daromadlar” – 40000 bo‘limlaridagi balans hisobvaraqlari taalluqlidir.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan 2004 yil 17 iyul, 15/3-son bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi”

CCCC VVV K SSSSSSSS NNN

CCCC - Balans hisobvarag'i	VVV - Valyuta kodi	K - Nazorat kaliti	SSSSSSS - Bank kodi yoki mijoz kodi	NNN - Hisobvaraqlarning tartib raqami
----------------------------------	-----------------------	-----------------------	---	---

2-rasm. Bank hisobvaraqlari tuzilishi¹

Tijorat banklarida hisobvaraqlar qo'yidagi turlarga bo'linadi; aktiv hisobvaraqlar, passiv hisobvaraqlar, kontrar hisobvaraqlar, kontraktiv hisobvaraqlar, kontr passiv hisobvaraqlar, tranzit hisobvaraqlarga va doimiy hisobvaraqlarga bo'linadi.

Doimiy hisobvaraqlar deb nomlanishining sababi – ular har bir hisobot davri yakunida yopiladigan vaqtinchalik hisobvaraqlardan farqli o'laroq, doimiy saldoga ega bo'lishlari mumkin. Doimiy hisobvaraqlar balansda ko'rsatiladi, shuning uchun ham bu hisobvaraqlar **balans hisobvaralari deb** nomlanadi: bular aktivlar, majburiyatlar va xususiy sarmoya hisobvaraqlaridir. Doimiy hisobvaraqlar: aktiv, passiv va kontrar (kontraktiv va kontrpassiv) bo'lishi mumkin.

Aktiv hisobvaraqlarda turli aktivlar aks ettiriladi va ular faqat debet saldosi ega bo'ladi. Aktivlarning ko'payishi ushbu hisob varaqlarning debetida aks ettiriladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan 2004 yil 17 iyul, 15/3-son bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi"

Aktiv hisobraqamning tuzilishi¹

Aktiv	
Debet	Kredit
<i>Saldo</i>	
<i>Ko'payish</i>	
Oxirgi qoldiq = <i>Saldo+ko'payish-kamayish</i>	

Passiv hisobvaraqlar majburiyatlar va sarmoyaning oshishini aks ettirish uchun mo'ljallangan, faqatgina kredit saldosi ega bo'ladi, majburiyatlar va sarmoya oshishi mazkur hisobvaraqlarning kreditida aks ettiriladi.

2-jadval

Passiv hisobraqamning tuzilishi²

Passiv	
Debet	Kredit
<i>Saldo</i>	
<i>Kamayish</i>	<i>Ko'payish</i>
Oxirgi qoldiq = <i>Saldo+ko'payish-kamayish</i>	

Kontraktiv hisobvaraqlar saldosi hisobotda ularning sof (balans) qiymatini aks ettirish uchun asosiy vositalarning eskirishi misol bo'ladi. Asosiy vositalarning eskirishi hisobvaraqlari balansda ularning boshlang'ich qiymatini kamaytirib ko'rsatadi.

Kontrpassiv hisobvaraqlar sotib olingan xususiy aksiyalarni misol qilib keltirish mumkin, hisobotda ustav kapitalining haqiqiy hajmini aks ettirish uchun "Ustav sarmoyasi" hisobvarag'i saldosi uning saldosi chegiriladi.

Hisobvaraqlar rejasida **tranzit hisobvaraqlar** – daromad va xarajatlar hisobvaraqlaridan iborat va hisobvaraqlarni joylashtirish tartibi bo'yicha "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" shakliga muvofiq keladi. Ularning tranzit (vaqtinchalik) hisobvaraqlar deb atalishining sababi, shundaki, ular har bir hisobot davrining oxirida yopiladi hamda keyingi hisobot davrining

¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan 2004 yil 17 iyul, 15/3-son bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasini"

² O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan 2004 yil 17 iyul, 15/3-son bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasini"

boshida nollik saldogaga ega bo'ladi. Hisobvaraqlar rejasida "jamlama" hisobvaraqlar tushunchasi, ilova hisobvaraqlar mavjud emas, ya'ni ikkinchi tartib hisobvaraqlari jamlama hisobvaraqlarining tahliliy tarkibiy qismlaridir.

Balansdan tashqari hisobvaraqlar - bu bankga qarashli bo'lmagan, lekin vaqtinchalik tasarrufida bo'lgan, aktivlarni bori va harakati, shartli huquqlar va majburiyatlar haqidagi axborotni umumlashtirishga mo'ljallangan schyotlar. Bu schyotlar boshqa schyotlar bilan o'zaro bog'lanmaydi va bankning hisobotida aks ettirilmaydi.

Aktivlarning real qiymatini aks ettirish maqsadida "Aktivlar" bo'limiga kontr-aktiv hisobvaraqlari, majburiyatlarning real qiymatini aks ettirish maqsadida esa "Majburiyatlar" bo'limiga kontr-passiv hisobvaraqlar kiritilgan.

"Ko'zda tutilmagan holatlarlar" bo'limiga operatsiyalarni ikki yoqlama yozuv uslubi bo'yicha aks ettirish va amalga oshirilgan operatsiyalarning to'g'riligini qo'shimcha nazorat qilish imkonini beruvchi kontr-aktiv hisobvaraqlar kiritilgan.

Ba'zi hisobvaraqlardan tashqari "Aktivlar" likvidlilik, "Majburiyatlar" esa muddatlilik tamoillariga asosan tasniflangan.

Mazkur hisobvaraqlar rejasida har bir ikkinchi tartibli balans hisobvarag'i uchun hisobvaraqlar ta'rifi berilgan bo'lib, unda hisobvaraqlarning debeti va krediti bo'yicha qanday operatsiyalarni aks ettirish, hamda analitik hisobini yuritish ko'rsatilgan. Batafsil analitik hisob yuritish uchun banklarda shaxsiy hisobvaraqlardan tashqari qo'shimcha jurnal hisobi va reestrlar yuritilishi mumkin.

"Daromadlar" va "Xarajatlar" bo'limi uchun analitik hisob ko'rsatilmagan bo'lib, ushbu bo'limlardagi hisobvaraqlar bank ichki hisobvaraqlari hisoblanadi. Tijorat banklari Markaziy bank talablari va ichki hisob siyosatidan kelib chiqqan holda ushbu hisobvaraqlarda analitik hisobni qanday yuritishni o'zlari belgilaydilar.

Buxgalteriya hisobida balansga chiqish, o'z vaqtida "inson ongining mo'jizasi" sifatida baholangan ikki yoqlama yozuv uslubini qo'llash hisobiga erishiladi. Ikkiyoqlama yozuv qoidasiga muvofiq bir operatsiya ikki marta qayd etiladi. Natijada ularning aylanma summaları ham va ulardan hosil bo'lgan qoldiq summaları ham bir-biriga teng bo'lishi ta'minlanadi. Buxgalter tili bilan gapirganda debet aylanma kredit aylanmaga, aktiv hisobvaraqlar qoldig'i esa passiv hisobvaraqlar qoldig'iga teng bo'lishi

lozim. Qoldiq summalar tengligi buxgalteriya balansini nomini olgan va uni quyidagi matematik tenglik bilan ifodalash mumkin.

$$\text{Aktiv} = \text{Majburiyat} + \text{Kapital} \quad (1)$$

Ushbu tenglik bank resurslari (aktivlar) bilan bank kapitali (passivlar) summalarini o'zaro mosligini ifodalaydi va mulk egasiga o'z mulkining butligini nazorat qilish imkonini beradi. Binobarin, o'sha vaqtda buxgalteriya hisobining nazorat vazifasi uning asosiy maqsadi sifatida maydonga chiqdi.

Tijorat banklarida bajariladigan operatsiyalarni buxgalteriya balansida aks ettirish uchun quyidagicha to'rtta o'zgarish asosida provodka (buxgalteriya yozuvlari) beriladi:

Birinchi o'zgarish. Bank balansining faqatgina aktiv qismida o'zgarish yuz berib, natijada ushbu o'zgarish balans umumiy qiymatining o'zgarishiga olib kelmaydi ya'ni bu $A(-)$, $A(+)$ tarzida ifodalanadi.

Banklarda buxgalteriya hisobi fani amaliy fan bo'lganligi uchun har bir keltirgan fikrlarimizni masalalar echish orqali isbotlaymiz. Masala: 2019 yil 15 iyul kuni AT "Asakabank" Yunusobod filialida bank ish kuni boshlanishida bank aylanma kassasidan 5000000 so'm naqd pul, pul almashtirish shaxobchasiga operatsiyalarni boshlash uchun berildi. Buxgalteriya yozuvi (provodka) bering.

Har doim masalani ishlash uchun hech ham qo'rqish kerak emas, matematikada bir oltin qoida bor "agar masala shartlarini yaxshi tushunsang 70 foizga masala echildi" degan qoida. Shunga asosan avval masalani qisqacha tushunib dastlabki, qadamlarni tashlaymiz. Masalada ikkita tomon ishtirok etayotganini ta'kidlab o'tish kerak. Unga ko'ra masalani qisqacha ko'rinishi:

1. Bank aylanma kassasi – 10101 hisobraqamida yuritiladi, A – aktiv bundan pul kamayapdi 5000000 so'mga (-);

2. Pul almashtirish shaxobchasi – 10103 hisobraqamida yuritiladi, A – aktiv bunga pul kelib tushayapdi 5000000 so'm (+);

Bank balansidagi birinchi o‘zgarish¹

10101		10103	
Debet	Kredit	Debet	Kredit
	5000000	5000000	

bor: **Debet 10103 – 5000000** sababi bu hisobraqamni faqat **Debet** qismida pul bor.

Kredit 10101 – 5000000 sababi bu hisobraqamni faqat **Kredit** qismida pul bor.

Bajarilgan provodka natijasida bank balansining aktiv qismida bir hisob varaqdan 5000000 so‘m kamayib, balansning boshqa bir aktiv hisob raqamiga 5000000 so‘m kelib tushdi. Bunda balansda faqat o‘rin almashish holati sodir bo‘ldi, lekin pul bankdan chiqib ketmadi. Balans umumiy qiymati o‘zgarmay qoldi.

Ikkinchi o‘zgarish. Bank balansining faqatgina passiv (majburiyatlar) qismida o‘zgarish yuz berib, natijada ushbu o‘zgarish balans qiymatining o‘zgarishiga olib kelmaydi, ya‘ni bu (P(-), P(+)) tarzida ifodalanadi.

Masala: 2019 yil 8 avgust kuni AT “Aloqabank” Mirobod filialining mijozi bo‘lgan “Polaris” qo‘shma korxonasi olingan tovarlar uchun 2000000 so‘m pulni “Malika” xususiy korxonasiga pul ko‘chirish yo‘li orqali to‘lab berdi. 2 ta mijoz ham shu bank xizmatidan foydalanadi. Buxgalteriya provodkasini bering.

Dastlab biz masalani shartini sodda ko‘rinishga keltirib olamiz.

1. “Polaris” q/k – 20214 hisobi hisobraqamida yuritiladi. Passiv (P-) bo‘ladi. 2000000 so‘m;

2. “Yulduz” x/k – 20208 hisobi hisobraqamida yuritiladi. Passiv (P+) bo‘ladi. 2000000 so‘m.

¹ Muallif tomonidan me‘yoyoriy-huujjatalar asosida tuzildi.

Bank balansidagi ikkinchi o'zgarish¹

20214		20208	
Debet	Kredit	Debet	Kredit
2000000			2000000

bor: **Debet 20214 – 2000000** sababi bu hisobraqamni faqat **Debet** qismida pul bor.

bor: **Kredit 20208 – 2000000** sababi bu hisobraqamni faqat **Kredit** qismida pul bor.

Bajarilgan provodka natijasida bank balansining passiv qismida bir hisob varaqdan 2000000 so‘m kamayib, balansning boshqa bir passiv hisob raqamiga 2000000 so‘m kelib tushdi. Bunda balans passiv qismida faqat o‘rin almashish holati sodir bo‘ldi, lekin pul bankdan chiqib ketmadi. Balans umumiy qiymati o‘zgarmay qoldi.

Uchinchi o'zgarish. Bank balansida bir vaqtning o'zida aktiv qismida ham passiv qismida ham ko'payish yuz berib natijada bank balansi shuncha summaga ko'payadi.

Masala: 2019 yil 16 iyul kuni AT “Aloqabank” Samarqand filialiga jismoniy shaxs Bozorov Davron 1000000 so‘m naqd pulini “Navro‘z” nomli muddatli omonatga topshirdi. Buxgalteriya yozuvlarini bering.

Dastlab biz masalani shartini sodda ko‘rinishga keltirib olamiz.

1. Jismoniy shaxs muddatli depozitlari – 20606 hisobi hisobraqamida yuritiladi. Passiv (P+) bo‘ladi. 1000000 so‘m;

2. Bank aylanma kassasi – 10101 hisobi hisobraqamida yuritiladi. Aktiv (A+) bo‘ladi. 1000000 so‘m. (bank kelgan ketgan barcha naqd pullar aylanma kassa orqali amalga oshiriladi)

¹ Muallif tomonidan me'yoriy-huujjatalar asosida tuzildi.

Bank balansidagi uchinchi o'zgarish¹

20606		10101	
Debet	Kredit	Debet	Kredit
	1000000	1000000	

Debet 10101 – 1000000 sababi bu hisobraqamni faqat **Debet** qismida pul bor;

Kredit 20606 – 1000000 sababi bu hisobraqamni faqat **Kredit** qismida pul bor.

Bajarilgan provodka natijasida bank balansining bir vaqtning o'zida passiv qismida ham aktiv qismida ham 1000000 so'mga ko'paydi. Balans umumiy qiymatini 1000000 so'm oshdi.

To'rtinchi o'zgarish. Bank balansida bir vaqtning o'zida aktiv qismida ham passiv qismida ham kamayish yuz berib natijada bank balansi shuncha summaga kamayadi.

Masala: 2019 yil 12 iyul kuni ATIB "Ipotekabank" Samarqand filiali mijozlari «Foton» AJ talab qilib oliguncha depozit hisobvarag'i bo'yicha - xodimlarga ish xaqi berish uchun kassadan 14506000 so'm olindi.

Dastlab biz masalani shartini sodda ko'rinishga keltirib olamiz.

1. «Foton» AJ - 20210 hisobi hisobraqamida yuritiladi. Passiv (P-) bo'ladi. 14506000 so'm;

2. Bank aylanma kassasi – 10101 hisobi hisobraqamida yuritiladi. Aktiv (A+) bo'ladi. 14506000 so'm. (bank kelgan ketgan barcha naqd pullar aylanma kassa orqali amalga oshiriladi)

¹ Muallif tomonidan me'yoriy-huquqiy asosida tuzildi.

Bank balansidagi to'rtinchi o'zgarish¹

20210		10101	
Debet	Kredit	Debet	Kredit
14506000			14506000

Debet 20210 – 14506000 sababi bu hisobraqamni faqat **Debet** qismida pul bor.

Kredit 10101 – 14506000 sababi bu hisobraqamni faqat **Kredit** qismida pul bor.

Bajarilgan provodka natijasida bank balansining bir vaqtning o'zida passiv qismida ham aktiv qismida ham 14506000 so'mga kamayadi. Balans umumiy qiymatini 14506000 so'mga oshdi.

Yuqorida keltirilgan o'zgarishlar asosida banklarda buxgalteriya yozuvlari amalga oshirilib boriladi.

Yana e'tibor berilishi kerak ya'ni 3 ta holat mavjud bo'lib ular quyidagilar:

1. Bir bank filiali (bo'limi)ning 2 ta mijozi o'rtasida bo'ladigan moliyaviy munosabatlarda bariladigan operatsiyalarning buxgalteriya yozuvlari (provodkalari);

2. Bir bankning turli xil filiali (bo'limi)ning 2 ta mijozi o'rtasida bo'ladigan moliyaviy munosabatlarda bariladigan operatsiyalarning buxgalteriya yozuvlari (provodkalari);

3. Har xil banklarning filiali (bo'limi)ning 2 ta mijozi o'rtasida bo'ladigan moliyaviy munosabatlarda bariladigan operatsiyalarning buxgalteriya yozuvlari (provodkalari);

Nazorat savollari va topshiriqlar.

1. Banklarda buxgalteriya hisobining predmeti.
2. Banklarda buxgalteriya hisobining usullari va tamoyillari.
3. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvarqlar rejasini tuzilishi va uning asosiy bo'limlari tavsifi.
4. Bank balansi va uning tuzilishi.
5. Banklarda analitik va sintetik hisobni yuritish (Bosh va yordamchi kitoblar).

¹ Muallif tomonidan me'yoriy-hujjatalar asosida tuzildi.

I bob bo'yicha masala va mashqlar.

1. Masala. 2020 yil 30 sentabr kuni AT "Aloqabank" Samarqand filialiga Qurbonov Rufat uzining ortirgan 100000 so'm pul mablagini "Qaldirg'och" nomli muddatli omonatga topshirdi. Buxgalteriya o'tkazmasi berilsin.

2. Masala. Mijozga ssudadan foydalanilganligi uchun 300000 so'mlik foizlar hisoblandi. Mijoz hisob raqamida 200000 so'm mavjud. Buxgalteriya o'tkazmasi berilsin.

3. Masala. Bank xizmatchilariga 152000 so'm miqdorda naqd pulda ish haqi berildi. Ish haqidan qo'yidagi ajratmalar o'tkaziladi: 1) Daromad solig'i uchun 12000 so'm; 2) Nafaqat fondiga -500 so'm. Buxgalteriya o'tkazmasi berilsin.

4. Masala. Bank xodimiga xizmat safari xarajatlari uchun 500000 so'm berildi. 450000 so'm sarflanganligi to'g'risidagi hisobot qabul qilindi. Buxgalteriya yozuvi berilsin.

5. Masala. Aktsiyalar nominal qiymatidan ortiq qiymatga realizatsiya qilinsa. Buxgalteriya o'tkazmasi berilsin.

Testlar

1. Quyidagi hisobvaraqlardan qaysi biri aktiv hisobvaraqlar hisoblanadi?

- a. 30000, 40000
- b. 20000, 30000
- c. 10000, 50000
- d. 20000, 30000, 40000

2. Banklarda aholi omonatlari bilan bog'liq operatsiyalar qanday operatsiyalar hisoblanadi?

- a. aktiv operatsiya
- b. passiv operatsiya
- c. kredit operatsiya
- d. muqobil operatsiya

3. Tijorat banklarining hisobvaraqlar rejasida kapital kategoriyasi qaysi raqamlardan boshlanadi.

- a. 30000
- b. 10000
- c. 90000
- d. 50000

4. Bankda malumotlarni detallashtirib ko'rsatuvchi hisobvaraqlar

deb:

- a. sintetik
- b. aktiv
- c. passiv
- d. analitik

5. Banklarda sintetik hisobi qaysi shaklida hisobga olinadi?

- a. Shaxsiy hisob varaqlarda, kartochkalarda, maxsus buxgalteriya kitobida, kassa jurnalida;
- b. Shaxsiy hisob varaqlarida yig'ma varaqlarida, buxgalteriya jurnallarida, tekshiruv qaydnomalarida;
- c. Buxgalteriya jurnalida, kassa jurnallarida yig'mavaraqlarda, kunlik balansda, tekshirish qaydnomalarida;
- d. Oborot qaydnomalarida, kunlik balansda, shaxsiy hisob varaqlarda.

6. Tijorat banklarning hisobvaraqlar rejasida kassa qaysi hisobvaraqda hisobga olinadi:

- a. 10301
- b. 10000
- c. 20000
- d. 45994

7. Banklarda buxgalteriya balansi qachon tuziladi?

- a. Kunlik, yillik, oylik
- b. Oylik, yillik, yarim yillik
- c. Kunlik, oylik, yarim yillik
- d. Oylik, kunlik

8. Bank faoliyatining zarurligini hisoblash uchun qaysi elementdan foydalanadilar?

- a. Inventarizatsiya
- b. Kalkulyatsiya
- c. Baxolash
- d. Hisobot

9. Mablag'lar va xo'jalik jarayonlarining umumlashgan hisobi deganda qanday hisobvaraqlar tushiniladi?

- a. Aktiv
- b. Analitik
- c. Passiv
- d. Sintetik

Tayanch soʻz va iboralar. ikki yoqlama yozuv, hisob siyosati, kunlik balans, debet, kredit, yozish va tuzatish, tuzatish orderlari.

2.1. Banklarda ish kuni va hujjatlar aylanishini tashkil etish

Buxgalteriya xodimlarining ish kuni shunday tashkil etilishi kerakki, bunda bank tomonidan amaliyot kuni davomida ijroga qabul qilingan pul hisob-kitob hujjatlari dastlabki va joriy nazoratdan oʻtkazilib, ular oʻz vaqtida ijro etilishi, yaʼni hisobvaraqlar boʻyicha operatsiyalar buxgalteriya hisobida aks ettirilib, kunlik balans hisoboti tuzilishi hamda keyingi bank ish kuni dan kechiktirmasdan bajarilgan barcha operatsiyalar yakuniy nazoratdan oʻtkazilishi shart.

Har bir bank quyida keltirilgan talablarga rioya qilgan holda, amaliyot kuni davomida mijozlarga xizmat koʻrsatish va hujjatlar aylanish tartibini mustaqil belgilaydi:

- banklar yangi ish kunini Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankning hisobkitob markazida ochilgan tashqi (“21302-Rezident bankning vakillik hisobvaragʻi”) vakillik hisobvaragʻining kun boshiga aylanma va qoldiq summalarini, oʻzlarining ichki (“10301-Markaziy bankdagi vakillik hisobvaragʻi”) vakillik hisobvaragʻining aylanma va qoldiq summolari bilan mosligini tekshirish bilan boshlashadi. Ichki va tashqi vakillik hisobvaragʻi aylanma va qoldiq summalarini mosligini tasdiqlash uchun HKM ga elektron fayl yuboradi;

- HKM tijorat banklari yuborgan elektron faylni qabul qilib oladi va bankning tashqi va ichki vakillik hisobvaraqlar qoldiq summalarini dasturiy ravishda taqqoslaydi hamda ularni mosligini tasdiqlab banklarga qaytaradi. Vakillik hisobvaraqlar qoldiq summolari mos kelmasa, mavjud farq bartaraf etilmaguncha bank amaliyot kuni ochilmaydi hamda banklararo toʻlovlarni amalga oshirishga ruxsat etilmaydi;

- HKM dan tasdiq (W-fayl) olgandan soʻng, banklarga banklararo toʻlovlarni amalga oshirish uchun ruxsat beriladi;

- filiallari mavjud bank filiallariga “Toʻlov markazi”da ochilgan tashqi (“22204-Bosh bank-filiallarga toʻlanadigan mablagʻlar”) va filiallarda ochilgan (“16103-Bosh bank / filiallardan filiallararo va banklararo hisob-kitoblar boʻyicha olinadigan mablagʻlar”) ichki vakillik hisobvaraqlar qoldiq

summasini mosligini tasdiqlash Bosh bank tomonidan amalga oshiriladi. Filiallar ichki vakillik hisobvarag'i (16103) va "To'lov markazi"da ochilgan tashqi (22204) vakillik hisobvarag'i o'rtasida farq mavjud bo'lsa, ushbu filialga uni bartaraf etmaguncha filiallararo va banklararo to'lovlarni amalga oshirish va yangi kunga o'tib ishlashga ruxsat etilmaydi;

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning farmoyishiga asosan bank ish kuni qonun hujjatlariga asosan uzaytirilmagan bo'lsa filiallararo va ichki to'lovlar bank ish kuni davomida soat 17-00 ga qadar amalga oshiriladi. Filiallararo to'lovlar bir bank mijozlari o'rtasida amalga oshirilishini inobatga olib, bank o'z mijozlaridan to'lov hujjatlarini qabul qilish vaqtini o'zi mustaqil ravishda belgilaydi. Ichki to'lovlar qatoriga kassa amallari, to'lanishi va olini shi lozim bo'lgan foizlar hisobini hisoblash hamda xodimlarga ish haqi hisoblash va shunga o'xshash amallar kiradi;

- banklararo to'lovlar bo'yicha banklar mijozlaridan bank amaliyot kuni davomida qabul qilingan to'lov hujjatlari bo'yicha buxgalteriya o'tkazmalarini bank ish kunining soat 15-00 ga qadar amalga oshirib soat 16-00 ga qadar HKMga etkazibamalga oshmay qolgan hujjat bo'yicha bank javobgar hisoblanadi, bundan bankka taalluqli bo'lmagan tashqi omillar mustasno;

- banklararo byudjet to'lovlari HKMga soat 16-00 dan 16-30 ga qadar yuboriladi, soat 16-30 dan kech yuborilgan banklararo byudjet to'lovlari HKM tomonidan qaytarib yuboriladi. Bank aybi bilan amalga oshmay qolgan hujjat bo'yicha bank javobgar hisoblanadi, bundan bankka taalluqli bo'lmagan tashqi omillar mustasno;

- banklar soat 16-30 dan to 17-00 ga qadar o'zlarida byudjet to'lovlariga ochilgan tranzit hisobvara qoldiqlarini HKM orqali O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmalar HKMlarida ochilgan byudjet tranzit hisobvarag'iga o'tkazishlari shart. Bank aybi bilan amalga oshmay qolgan hujjat bo'yicha bank javobgar hisoblanadi, bundan bankka taalluqli bo'lmagan tashqi omillar mustasno;

- HKM banklarga banklararo to'lovlar tugaganligi to'g'risida ma'lumotni soat 17-20 da jo'natadi, shundan so'ng banklar o'rtasida banklararo to'lovlar to'xtatiladi.

Markaziy bankning farmoyishiga asosan bank ish kuni qonun hujjatlariga asosan uzaytirilmagan bo'lsa, bank shu kunning o'zida bank ish kuni yakunlangandan so'ng, ya'ni soat 18-00 dan so'ng yoki agarda Markaziy bankning farmoyishiga asosan bank ish kuni qonun hujjatlariga asosan

uzaytirilgan bo'lsa keyingi bank ish kuni soat 10-00 dan kechiktirmagan holda Markaziy bankka elektron balans (0106BS) hisobotini jo'natadilar.

Banklarda ish kuni bank operatsiyalari buxgalteriya hisobotida to'liq aks ettirilib, kunlik balans hisoboti tahlil qilinib, bank filiali rahbari hamda bosh buxgalteri tomonidan imzolangandan so'ng yakunlanadi.

2.2. Banklarda ichki nazoratni tashkil etish

Buxgalteriya hisobining yuritilishi, buxgalteriya ishining to'g'ri tashkil etilishi va nazoratning aniq olib borilishi bankning o'z vazifalarini to'g'ri bajarishini, mavjud va bo'lg'usi investorlar, kreditorlar, hukumat muassasalari, vazirliklar, idoralar, jamoatchilik va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar, shuningdek, bank rahbariyati va xodimlari uchun bank faoliyatiga haqqoniy baho berish imkonini yaratadigan aniq va foydali axborot olishni ta'minlaydi.

Banklarda buxgalteriya hisobi ishlarini yuritish va buxgalteriya apparatini tashkil qilish tamoyillari, mijozlarga xizmat ko'rsatish hamda hujjatlar aylanmasini yo'lga qo'yish usullari to'g'risida ko'rsatmalar berilgan, bank operatsiyalari hisobini yuritish va ularni nazorat qilish qoidalari hamda bajarilgan bank operatsiyalarining qonuniyligi bo'yicha javobgarlik belgilangan. Shuningdek, quyidagilarni ta'minlash maqsad qilib qo'yilgan:

- hisob-kitob, kassa, valyuta, kredit hamda boshqa bank operatsiyalarini to'g'ri bajarish hamda ularni buxgalteriya hisobi va hisobotida o'z vaqtida va aniq aks ettirish;

- bank aktivlari, majburiyatlari, daromadlari va xarajatlari hamda kapitali holati va ulardagi o'zgarishlar to'g'risida ishonchli ma'lumotlar to'plash;

- bankning moliyaviy holati, moliyaviy holatidagi o'zgarishlar va moliyaviy natijalari to'g'risidagi va bank rahbariyati faoliyatiga baho beruvchi moliyaviy hisobotlarni tuzish uchun xizmat qiluvchi axborotlar tizimini yaratish;

- bank ish kuni tartibiga qat'iy rioya qilish, mijozlarga tez va aniq xizmat ko'rsatish;

- hisob-kitoblardagi mablag'lar aylanishini tezlashtirish;

- bankdan chiqayotgan hujjatlarni tegishli tarzda rasmiylashtirish va buning natijasida ulardan foydalanishni osonlashtirish, shuningdek, boshqa banklarda ushbu hujjatlar bilan operatsiyalar bajarilishini hamda ular tomonidan xizmat ko'rsatuvchi mijozlarning operatsiyalari hisobini yuritishni

belgilangan talablarga muvofiq lashtirishni tashkil etish;

- bankdagi pul mablagʻlari, moddiy qimmatliklar, shuningdek, qatʻiy hisobda turuvchi blankalar kamomadi yoki ortiqchaligiga yoʻl qoʻymaslik hamda belgilangan tartibda ularning saqlanishini tashkil etish;

- operatsiyalarning qonuniyligi hamda toʻgʻriligini doimiy ichki nazorat va auditdan oʻtkazish, ularning natijalari boʻyicha maʼlumotnomalar tuzish va rasmiylashtirish imkoniyatini yaratish;

- zamonaviy kompyuter texnikasi vositalaridan foydalangan holda bank operatsiyalari hisobini dasturiy amalga oshirish, hisob ishlarini yuritish hamda hisobotlar tuzishda mehnat va mablagʻ sarfini qisqartirish.

Amalga oshirilgan operatsiyalarni amalga oshirish, rasmiylashtirish, hisobini yuritish va nazorat qilish toʻgʻrisidagi talablari barcha banklar uchun majburiydir.

Banklar belgilangan asosiy qoidalar doirasida oʻzlarining ish xususiyatlarini hisobga olgan holda ichki buxgalteriya hujjatlarini yuritish tartibini belgilashlari Bank xodimlari buxgalteriya hisobida aks ettirilgan bank siriga oid maʼlumotlarni Oʻzbekiston Respublikasining “Bank siri toʻgʻrisida”gi qonuni talablariga qatʻiy amal qilgan holda sir saqlashlari lozim.

Buxgalteriya hisobining yuritilishi, buxgalteriya ishining toʻgʻri tashkil etilishi va nazorat qilish maqsadi quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

- bank amaliyot kuni - bank ish kunining bir qismi boʻlib, bankka kelib tushgan barcha pul hisob-kitob hujjatlarini qabul qilish, rasmiylashtirish va buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aks ettirish uchun ajratilgan vaqt;

- bank buxgalteriya apparati - pul hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish, bank operatsiyalarini ichki nazoratdan oʻtkazish hamda ularni hisob registrlarida qayd etish bilan shugʻullanuvchi xodimlar guruhi;

- bank ish kuni - qonun hujjatlari bilan belgilangan kun ichida oʻqatilgan ish vaqti;

- bank operatsiyalari ichki nazorati - bank rahbariyati va barcha bank xodimlari tomonidan kunlik bank operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida ularning qonunchilikka mosligi, samaradorligi, yuqori malakada bajarilishi va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini taʼminlash tizimi.

Ichki nazorat maʼlum yoki aniq vaqt mobaynida amal qilinishi lozim boʻlgan tartib yoki qoida boʻlmasdan, balki u bankning barcha boʻgʻinlarida kunlik bank operatsiyalarning boshlanishidan tortib tugagunga qadar doimiy

yuritiladigan bank faoliyatining ajralmas qismidir.

Ichki nazorat o'z navbatida dastlabki nazorat, joriy nazorat va yakuniy nazoratga bo'linadi;

- bosh kitob - hisobvaraqlar rejasidagi ikkinchi tartibli hisobvaraqlari qoldiqlarining ro'yxati;

- buxgalteriya hisobi registrlari - ikkiyoqlama yozuv usulida operatsiyalar qayd etiladigan jumallar, qaydnomalar, daftarlari va tasdiqlangan blanklar;

Bek-ofis - bankning tarkibiy qismi bo'lib, Front-ofis tomonidan dastlabki nazoratdan o'tgan va ijro uchun taqdim qilingan operatsiyalarni joriy nazoratdan o'tkazish va bank operatsiyalarini amalga oshiruvchi buxgalterlar guruhi.

Bek-ofisning asosiy vazifasi Front-ofis tomonidan dastlabki nazoratdan o'tkazilib, ma'qullangan barcha bank operatsiyalarni qaytadan joriy nazoratdan o'tkazib, ularni ikkiyoqlama yozuv yordamida buxgalteriya registrlarida qayd etish va tegishli hisobotlar tayyorlashdan iborat.

Bek-ofis mijozlar bilan bevosita muloqotda bo'lmaydi. U, mijozlar operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish bo'yicha Front-ofis bilan, bankning ichki moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish bo'yicha bank ma'muriyati bilan aloqada bo'ladi.

Bek-ofisga Bek-ofis boshlig'i rahbarlik qiladi va u o'z navbatida bank rahbariga bo'ysunadi;

dastlabki nazorat - Front-ofis yoki mas'ul ijrochi buxgalter tomonidan operatsiyalarni bajarmasdan oldin ularning qonunchilikka mos ekanligini aniqlash bo'yicha amalga oshiriladigan nazorat;

yordamchi kitob - bosh kitob hisobvaraqlariga ochiladigan shaxsiy hisobvaraqlar, shuningdek alohida mablag'lar turi va qimmatliklar bo'yicha yuritiladigan kartochka, kitob yoki jumallar;

joriy nazorat - Bek-ofis yoki nazoratchi buxgalter tomonidan Front-ofis yoki mas'ul ijrochi buxgalter ma'qullagan barcha bank operatsiyalarining qonunchilikka mosligini aniqlash maqsadida qaytadan amalga oshiriladigan nazorat. Joriy nazorat pul hisob-kitob hujjatlarining asl va elektron nusxalarining bir-biriga mosligini tekshirishni ham o'z ichiga oladi;

mas'ul ijrochi buxgalter - mijozlarning pul hisob-kitob hujjatlarini to'g'ri rasmiylashtirilganligi va bank operatsiyalarining qonuniyligini dastlabki nazoratdan o'tkazib, ularni buxgalteriya hisobida aks ettirishga tayyorlovchi buxgalter;

minibank - bank filiali binosidan tashqarida, lekin o'zi joylashgan viloyat-shahar hududida joylashgan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tegishli normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq faoliyat yurituvchi bank filialining tarkibiy tuzilmasi;

nazoratchi buxgalter - mas'ul ijrochi buxgalter tomonidan dastlabki nazoratdan o'tkazilgan barcha bank operatsiyalarini joriy nazoratdan o'tkazib amalga oshiruvchi buxgalter;

Front-ofis - bankning tarkibiy qismi bo'lib, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan bank operatsiyalarini amalga oshirishda bank mijozlari bilan bevosita muloqotda bo'lgan holda ularga barcha bank xizmatlari ko'rsatuvchi xodimlar guruhi. Ushbu guruhga Front-ofis boshlig'i rahbarlik qiladi.

Front-ofisning asosiy vazifasi mijozlar topshirig'i hamda bank ichki faoliyati bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan operatsiyalarning qonunchilikka mos ekanligini aniqlash va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirishga tayyorlashdan iborat;

yakuniy nazorat - amaliyot kun tugagandan so'ng, keyingi bank ish kunidan kechikmagan holda Front-ofis yoki mas'ul ijrochi buxgalter va Bek-ofis yoki nazoratchi buxgalter tomonidan bajarilgan barcha bank operatsiyalarining qonunchilikka mosligi va maqsadga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida amalga oshiriladigan nazorat;

Yakuniy nazorat bank Boshqaruvi tashkil qilgan Yakuniy nazorat xizmati tomonidan amalga oshiriladi va u, faqat bank Boshqaruviga bo'ysunadi.

Yakuniy nazorat xizmati buxgalteriya apparati bir butun yaxlit bo'lgan banklarda buxgalteriya apparati ichida, Front-ofis va Bek-ofisga bo'lingan banklarda esa Bek-ofisi tarkibida alohida bo'lim sifatida tashkil qilinadi.

Banklarda buxgalteriya operatsiyalari 3 usulda: dastlabki nazorat, joriy nazorat va yakuniy nazoratdan o'tkaziladi.

Dastlabki nazorat Front-ofis xodimlari (agar, bank tarkibiy tuzilmasi Front-ofis va Bek-ofisga bo'lingan bo'lsa) yoki mas'ul ijrochi buxgalter tomonidan operatsiyalarni bajarmasdan oldin ularning samaradorligini, bankning ichki siyosatiga hamda amaldagi qonunchilikka mos ekanligini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. Agar, operatsiyalar xorijiy valyutada xalqaro shartnomalar asosida amalga oshirilsa, shartnoma shartlariga rioya qilinishi lozim. Mijozlardan pul hisob-kitob hujjatlarini qabul qilishda, ularning O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan shakldagi blankda yozilib to'g'ri rasmiylashtirilganligi, barcha rekvizitlar to'liq va to'g'ri to'ldirilganligi, ushbu pul hi-

sob-kitob hujjatlarida bo'yash, chizish va tuzatishga yo'l qo'yilmaganligi, shu jumladan hisobvaraqlari tasarruf etuvchilarning imzolari va muhr izi taqdim etilgan namunalarga mos kelishi tekshiriladi.

Agar, mijoz taqdim qilgan pul hisob-kitob hujjatlarida belgilangan talablarga zid kamchilik va nuqsonlar aniqlansa, to'lov hujjatlari mijozga ijroga qabul qilinmasdan qaytarilishi lozim. Summasi, mijozlar nomi va ularning hisobvaraqlari raqami o'zgartirilgan to'lov hujjatlari, hatto mijozlar tomonidan o'zaro kelishilgan tartibda tuzatish kiritilgan bo'lsa ham ijro uchun qabul qilinmaydi.

To'lov talabnomalari sana bank qabul qilgan sanaga mos tushadigan reestri bor bo'lgan holatda inkassaga qabul qilinadi. Agarda bank hisobvarag'i shartnomasida boshqacha tartib ko'zda tutilmagan bo'lsa, to'lov topshiriqnomasi bank tomonidan mijozning talab qilib olguncha depozit hisobvarag'ida to'lov uchun etarli mablag'lar mavjud bo'lgandagina qabul qilinadi. *Budjetga va byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlar bo'yicha taqdim qilingan to'lov topshiriqnomalari mijozning hisobvarag'ida to'lov uchun etarli mablag'lar mavjud bo'lmaganda 2-son kartotekaga kiritiladi va quyidagicha buxgalteriya utkazmasi bilan bosh kitobda aks ettiriladi:*

Debet 90963-o'z vaqtida to'lanmagan hisob-kitob hujjatlari;

Kredit 96321 kontr hisob varag'i.

To'lov topshiriqnomalari va naqd pulni qo'yish uchun foydalaniladigan e'lonlarning sanasi uni bankka taqdim etilgan sana bilan bir xil bo'lishi kerak, aks holda ular ijro uchun qabul qilinmaydi. Mas'ul ijrochi buxgalter yoki Front-ofis xodimi to'lov hujjati nusxalarini imzolashdan oldin, ularni solishtirib, o'zaro bir xilligiga ishonch hosil qilishi lozim. Shundan so'ng, ijro etish sana ko'rsatilgan holda mas'ul xodim imzosi bilan tasdiqlangan va unga biriktirilgan bank shtampi qo'yilgan hujjatning oxirgi nusxasi mijozga qaytariladi. Ushbu nusxa hujjatlar ijro uchun qabul qilinganini tasdiqlovchi tilxat vazifasini bajaradi.

Naqd pulni berishda ishlatiladigan cheklar to'ldirilgan kundan boshlab, 10 kalendar kun davomida bank tomonidan qabul qilinadi. Mas'ul xodim qabul qilingan naqd pul chekining sanani, chekni topshirgan xo'jalik sub'ektining nomini va hisobvaraq raqamini, olinadigan mablag'ning raqam va so'z bilan yozilgan summasini tekshiradi, chekdagi imzolar va muhr izini o'zidagi imzo namunalari bilan solishtiradi. Shuningdek, naqd pul cheklarini belgilangan tartibda rasmiylashtirilganligini tekshirib chiqadi.

Front-ofis xodimi yoki mas'ul ijrochi buxgalter mijozlardan qabul qilingan barcha pul hisob-kitob hujjatlarining asl nusxalariga asosan ma'lumotlarni dasturga kiritadi va to'lov hujjatlarini imzolab, elektron to'lov tizimi orqali ularni joriy nazoratdan o'tkazish uchun Bek-ofis yoki nazoratchi buxgalterga yuboradi.

Bek-ofis xodimi yoki nazoratchi buxgalter bank ichki hujjat aylanish tartibiga asosan Front-ofis yoki mas'ul ijrochi buxgalterdan kelib tushgan pul hisob-kitob hujjatlarining asl va elektron nusxalarini qabul qilgandan keyin joriy nazoratni amalga oshiradi.

Joriy nazoratda dastlabki nazoratdan o'tkazilgan to'lov hujjatlarining to'g'ri rasmiylashtirilganligi va ularning elektron nusxalarining to'g'ri rasmiylashtirilganligi qaytadan tekshiriladi hamda ulardagi imzolar va muhr izini o'zlarida mavjud imzolar va muhr izi namunalari bilan solishtiriladi. To'lov hujjatlarining asl nusxasida Frontofis xodimi yoki mas'ul ijrochi buxgalterning imzolari va shtampi borligini hamda ularni o'zida mavjud bo'lgan imzo namunalariga mos kelishini tekshiradi.

Shuningdek, Front-ofis xodimi yoki mas'ul ijrochi buxgalteri pul hisob-kitob hujjatlarida bo'yash, chizish va tuzatishga yo'l qo'yilmaganligiga ishonch hosil qilishi lozim.

Bek-ofis xodimi yoki nazoratchi buxgalter naqd pul cheki va e'lonnomani o'matilgan tartibda tekshirib, ularni imzolab Front-ofis xodimi yoki mas'ul ijrochi buxgalterga qaytaradi. Bek-ofis xodimi yoki nazoratchi buxgalter tomonidan bankning ichki moliya-xo'jalik operatsiyalari bo'yicha kelib tushgan to'lov hujjatlarining asl va elektron nusxalari hamda ushbu operatsiyalami amalga oshirish uchun asos bo'lgan bank tegishli bo'linmalarining Xizmat farmoyishlarining nusxalari to'g'ri rasmiylashtirilganligi, xato va kamchiliklar yo'qligi tekshiriladi.

Pul hisob-kitob hujjatlarining asl nusxalari yoki ularning elektron faylida xato va kamchiliklar aniqlanganda, Bek-ofis xodimi yoki nazoratchi buxgalter to'lov hujjatining asl nusxasiga imzo chekmasdan ularning xato va kamchiliklarini ko'rsatgan holda Front-ofis yoki mas'ul ijrochi buxgalterga ijrosiz qaytaradi.

Bek-ofis xodimi yoki nazoratchi buxgalter tomonidan joriy nazorat natijalari ijobiy bo'lgan taqdirda, u to'lov hujjatining asl nusxasiga imzo chekadi va uni Bekofis boshlig'iga yoki bosh buxgalterga tasdiqlash uchun jo'natadi. Bek-ofis boshlig'i yoki bosh buxgalter belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, dastlabki va joriy nazoratdan o'tgan pul hisob-

kitob hujjatlarining asl va elektron nusxalarini qabul qilib oladi va ushbu to'lov hujjatlarida qonunchilik hamda bankning ichki siyosatida o'tatilgan talablarga rioya qilinishi bo'yicha umumiy nazoratni amalga oshiradi.

Bek-ofis boshlig'i yoki Bosh buxgalter barcha pul hisob-kitob hujjatlarining asl va elektron nusxalariga o'tatilgan tartibda imzo chekib, tasdiqlaydi va buxgalteriya o'tkazmalarini amalga oshiradi. Bank rahbari buyrug'i bilan to'lovlarni tasdiqlash boshqa bank xodimiga topshirilishi mumkin.

Banklarda amaliyot kuni yakunlangandan so'ng, kunlik operatsiya hujjatlari o'tatilgan tartibda tikilib va rasmiylashtirilib yakuniy nazoratdan o'tkazish uchun yakuniy nazorat xizmati xodimlariga topshiriladi va ularga elektron ma'lumotlar bazasiga kirish uchun ruxsat beriladi.

Yakuniy nazorat xizmati tomonidan keyingi bank ish kunidan kechikmagan holda elektron ma'lumotlar bazasiga kirib, bankda amalga oshirilgan barcha operatsiyalar Bosh va yordamchi kitoblardagi amal qilib turgan shaxsiy hisobvaraqlarda to'g'ri aks ettirilganligini pul hisob-kitob hujjatlarining asl nusxalari bilan solishtirib tekshirishdan o'tkazilishi shart. Tekshirish natijalari dasturiy bayonnoma bilan rasmiylashtirilishi va kunlik yig'majildga tikilishi shart.

Kunlik chop etilib, yig'majildga tikilgan balans ma'lumotlari bilan uning elektron balans ma'lumotlari bir-biriga mos kelmagan holda, zudlik bilan rahbariyatga ma'lumot beriladi va shu kunning o'zida uning sabablari to'g'risida Bek-ofis boshlig'i yoki bosh buxgalter va xavfsizlik va axborotni muhofaza qilish xizmati xodimlari ishtirokida dalolatnoma tuziladi. Bundan tashqari, yakuniy nazorat xodim bank operatsiyalarini bajarish uchun asos bo'lgan barcha hujjatlarni talab qilishga va ular asosida operatsiyalar qanchalik darajada to'g'ri va maqsadga muvofiq bajarilganligi bo'yicha bank rahbariyatiga xulosa berishi mumkin.

2.3. Buxgalteriya hisobidagi xato yozuvlarni tuzatish

Xatolarni to'g'rilash va hisob siyosatidagi o'zgarishlar bo'yicha tuzatishlar kiritishda, hisobvaraqlarning ta'riflarida ko'zda tutilmagan bo'lsa ham hisobvaraqlarning debet va kreditlari bo'yicha tuzatish o'tkazmalari berishga ruxsat beriladi.

Kunlik balans hisobotlari va shaxsiy hisobvaraqlarga qo'lda biron-bir tuzatishlar qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

Summalarni o'chirib yozish va tuzatish, shuningdek o'chiruvchi suyuqliklardan foydalanib, ularga tuzatishlar kiritish qat'iy taqiqlanadi.

Bank ish kuni yakunlanib, balans hisoboti tuzilib O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga jo'natilganidan so'ng, xato yozuvlar aniqlangan hollarda, ushbu xato yozuvlar kiritilgan hisobvaraqlarga ertasi bank ish kuni teskari buxgalteriya yozuvlari kiritish (storno berish) yo'li bilan, tuzatish memorial orderlari asosida to'g'rilanishi lozim. Bunday hollarda hisobvaraqlardan summalar mijozlarning rozilgisiz hisobdan chiqariladi. Bu haqda bank bilan mijoz o'rtasida tuzilgan shartnomada ko'rsatib o'tilgan bo'lishi shart.

Tuzatish orderlari, agar mijozlarga bitta bank filiali xizmat ko'rsatsa to'rt nusxada tuzilishi lozim. Ularning birinchi nusxasi order bo'lib xizmat qiladi, ikkinchi va uchinchi nusxalari mijozlar uchun debet va kredit yozuvlari bo'yicha bildirishnomalar bo'lib hisoblanadi, to'rtinchi nusxa esa order kitobchasida qoladi. Bu kitobcha bosh buxgalter yoki uning o'rinbosarida saqlanishi lozim. Orderlarga boshqa hujjatlardan farqlanadigan tartib raqamlari qo'yilishi shart.

Tuzatish orderi matnida qachon va qaysi hujjatda xato yozuvga yo'l qo'yilgani ko'rsatilishi kerak. Agar unga mijoz arizasi sabab bo'lgan bo'lsa, shu sabab ko'rsatiladi. Bunda memorial orderning to'rtinchi nusxasining orqa tomonigi kimning aybi bilan xatolikka yo'l qo'yilganligi qayd etiladi, ijrochining, shuningdek noto'g'ri yozuvni nazoratdan o'tkazgan shaxsning lavozimi va familiyasi ko'rsatiladi. Tuzatish memorial orderlari tuzilishida asos bo'lgan arizalar kitobga tikilgan memorial orderlar bilan birga saqlanishi lozim.

Summasi keyinchalik teskari buxgalteriya o'tkazmalari bilan tuzatilgan shaxsiy hisobvaraqdagi xato yozuv qarshisiga albatta "To'g'rilangan" belgisi qo'yilishi, to'g'rilash kiritilgan sana va to'g'rilangan memorial orderining raqami ko'rsatilishi shart. Bu qayd to'g'rilangan memorial orderini imzolagan bosh buxgalter yoki uning o'rinbosari (bo'lim boshlig'i) imzosi bilan tasdiqlanadi.

Bosh buxgalter to'g'rilangan memorial orderlarning kitobchada qolgan nusxalaridan foydalanib, xodimlarning ishidagi xatolar hisobini yuritadi va ushbu xatolar cabablarini o'rganib ishni yaxshilash choralarini ko'radi.

Banklararo va filiallararo elektron to'lovlar bo'yicha xatolarni memorial orderlar bilan to'g'rilash qat'iy man etiladi. Banklararo va filiallararo elektron to'lovlar bo'yicha xatolarni to'g'rilash uchun xatolikka yo'l qo'ygan (tashabbuskor) bank filiali, xato elektron to'lovi jo'natilgan (benifitsiar)

bankka "Lotus-Notes" aloqa elektron pochta orqali xato o'tkazilgan to'lov to'g'risidagi ma'lumotni ko'rsatgan holda, xato yuborilgan to'lov xujjatini qaytarish to'g'risida iltimosnoma xati jo'natadi. Bu holda, xato o'tkazilgan mablag'ni qaytarilmasligidan qat'i nazar, tashabbuskor bank mablag'ni xatolik aniqlangan kundan keyingi bank ish kunidan kechiktirmasdan "19997 – Boshqa aktivlar" hisobvarag'i orqali oluvchining hisobvarag'iga o'tkazishi shart.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Bank hujjatlarining mazmuni, ahamiyati, turlari va ularning tavsifi.
2. Elektron xujjatlar va ularni shakllantirish.
3. Banklarda hujjatlar aylanishini tashkil qilish, buxgalteriya hujjatlarini saqlash tartibi, arxivlashtirish.
4. Bank ichki nazorati, uning turlari va ahamiyati, ichki nazoratni tashkil qilish, dastlabki nazorat, joriy nazorat, so'ngi nazorat.

II bob bo'yicha masala va mashqlar.

1-masala. Bank buxgalteriya hisobi bo'limi bek – ofis xodimi tomonidan front – ofisda qabul qilingan to'lov topshiriqnomasi to'liq rasmiylashtirilmagan hujjat deb ko'rsatilgan holda qaytarildi. Aniqlanilishicha to'lov hujjatida shartnomaning tartib raqami ko'rsatilmagan ekan. Bank rahbariyati ushbu xolat bo'yicha front – ofis xodimiga «xayfsan» e'lon qilish to'g'risida qaror chiqardi.

Bek – ofis xodimlarining xatti – xarakati asoslanganmi? Asoslangan bo'lsa, bu holat qaysi normativ hujjatlarda aks ettirilgan? Aksincha xolatdachi?

2-masala. Tijorat banklari buxgalteriya hisobining quyidagi hisobvaraqlari berilgan:

Oldi sotdi qimmatli qog'ozlari.

Xorijiy korxonalariga investitsiya qilingan xususiy kapital.

Kafolat va kafilliklar.

Bankning asosiy vositalari.

Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar.

Forfard bitimlari.

Joriy yil sof foydasi (zarar)

Chiqarilgan aktsiyadorlik kapitali-imtiyozli.

Eskirish xarajatlari.

Transport vositalarining eskirish summasi.

Olingan kreditlar bo'yicha garov sifatida berilgan qimmatli qog'ozlar.

Investitsiyalardan olingan foyda va devidentlar.

Topshiriqlar: 1. Yuqorida keltirilgan hisobvaraqlardan qaysilari aktiv, ikkinchi tartibli va balans hisobvaraqlari ekanligini aniqlang;

2. Yuqorida keltirilgan hisobvaraqlardan qaysilari passiv, birinchi tartibli. ko'zda tutilmagan xolatlar hisobvaraqlari ekanligini aniqlang.

3-masala. Tijorat banklari buxgalteriya hisobining ko'yidagi hisobvaraqlari berilgan:

Jismoniy shaxslarning plastik kortochkalaridagi mablag'lar.

Bankomaddagi naqd pullar.

Tijorat bankining O'zRMBidagi vakillik hisobvarag'i.

Bank tomonidan chiqarilgan aktsiyalar.

Chiqarilgan obligatsiyalar.

Ro'yxatdan o'tkazilgan aktsiyadorlik kapitali-oddiy.

Zaxira kapitali.

Xorijiy valyutaradagi foyda.

“Spot»bitimi bo'yicha xorijiy valyutalardagi foyda.

Qisqa muddatli ssudalar bo'yicha foizli xarajatlar.

To'lov muddatini kutayotgan hisob- kitob hujjatlari.

Boshqa banklardan olingan qisqa muddatli ssudalar bo'yicha foizli xarajatlar.

Topshiriqlar: 1. Keltirilgan hisobvaraqlardan qaysilari birinchi tartibli va qaysilari ikkinchi tartibli hisobvaraqlar ekanligini aniqlang;

2. Yuqoridagi keltirilgan hisobvaraqlar “hisobvaraqlar rejasi”ning qaysi bo'limlariga tegishli ekanligini aniqlang.

4-masala. Tijorat banklari buxgalteriya hisobining quyidagi hisobvaraqlari berilgan:

Bankning boshqa bankdagi hisobvaraqlari.

Ma'muriy xarajatlar.

Boshqa banklarning hisobvaraqlari.

Kassada naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari.

Bankning qimmatli qog'ozlari blankalari.

Bankning ssuda berish majburiyati.

Topshiriqlar: 1. Keltirilgan hisobvaraqlardan qaysilari balans va qaysilari balansdan tashqari hisobvaraqlar ekanini aniqlang;

2. Keltirilgan hisobvaraqlardan qaysilari aktiv va qaysilari passiv

hisobvaraqlar ekanini aniqlang.

5-masala. «Ipoteka» bankida «Krash» QK hisobvarag'i bo'yicha quyidagi operatsiyalar amalga oshirildi:

- ishchilarga ish xaqi to'lash uchun 1650000 so'm naqd pul oldi.

- «Shrek» xususiy firmasidan sotilgan tovarlar uchun 1620350 so'm pul mablag'i kelib tushdi. (hisobvarag'i «Davr» bankida)

- 650000 so'mni o'ziga tegishli bo'lgan debet plastik kartochkasiga o'tkazdi.

Topshiriqlar: 1. Amalga oshirilgan operatsiyalar «Ipoteka» banki balansiga qanday ta'sir ko'rsatdi.

2. Buxgalteriya provodkalarini tuzing.

Testlar

1. Mijozdan naqd pul kiritilishda e'lonnomaning qaysi qismi mijozga qaytariladi?

- order
- e'lonnoma
- memorial order
- kvitansiya

2. Banklarning daromadlari qanday hisob varaqlarda hisobga olinadi?

- aktiv hisobvarag'da
- passiv hisobvarag'da
- aktiv-passiv hisobvarag'da
- diskont hisobvarag'da

3. Quyidagi hisobvaraqlarning qaysi birini barchasi passiv hisobvaraqlar hisoblanadi?

- 30000, 50000
- 10000, 30000
- 10000, 50000
- 20000, 30000, 40000

4. Bank xarajatlari qanday hisob varaqlarda hisobga olinadi?

- aktiv hisobvarag'da
- passiv hisobvarag'da
- aktiv-passiv hisobvarag'da
- diskont hisobvarag'da

5. Banklarda hisoblangan, lekin undirib olinmagan daromadlar

qanday hisob varaqlarda hisobga olinadi?

- a. aktiv hisobvarag'da
- b. passiv hisobvarag'da
- c. aktiv-passiv hisobvarag'da
- d. diskont hisobvarag'da

6. Mablag'lar va xo'jalik jarayonlarining umumlashgan hisobi deganda qanday hisobvaraqlar tushiniladi?

- a. Aktiv
- b. Analitik
- c. Passiv
- d. Sintetik

7. Shaxsiy hisobvaraqlar qaysi hujjatda qayd qilinadi?

- a. Har bir kartotekada
- b. Kassa jumallarida
- c. Buxgalteriya daftorida
- d. Buxgalteriya kitobida.

8. Shaxsiy hisobvaraqlar nechta raqamdan iborat?

- a. 9 ta
- b. 11 ta
- c. 20 ta
- d. 18 ta

III BOB. MIJOZLARGA HISOBVARAQ OCHISH VA YURITISH TARTIBI

Tayanch soʻz va iboralar. bank hisobvaragʻi, jamgʻarma depozit hisobvaragʻi, muddatli depozit hisobvaragʻi, ssuda hisobvaragʻi, talab qilib olinguncha depozit hisobvaragʻi.

3.1. Mijozlarga hisobvaraq ochish va uni yuritish

Tijorat banklarida mijozlarga hisobraqamlar ochish Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009 yil 27 apreldagi “Oʻzbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank hisobvaraqlari toʻgʻrisida”gi 1948-son yoʻriqnoma asosida amalga oshiriladi.

bank hisobvaragʻi - bank hisobvaragʻi shartnomasini tuzish orqali bank mijoz (hisobvaraq egasi) hisobvaragʻiga kelib tushgan pul mablagʻlarini qabul qilish va kiritib qoʻyish, mijozning hisobvaragʻidagi tegishli mablagʻlarni oʻtkazish va berish hamda hisobvaraq boʻyicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish toʻgʻrisidagi topshiriqlarni bajarish vazifasini oʻz zimmasiga olishi natijasida bank va mijoz oʻrtasida vujudga keladigan munosabatlarni amalga oshirish vositasi.

jamgʻarma depozit hisobvaragʻi - bu mijozlarning davriy badallari asosida shakllanib, muayyan maqsadni amalga oshirish uchun jamgʻariladigan va shu maqsad uchun yoʻnaltiriladigan yoxud shartnoma bekor qilinishi natijasida qaytariladigan mablagʻlar hisobi yuritiladigan hisobvaraq;

muddatli depozit hisobvaragʻi - shartnomada qatʻiy kelishilgan muddatga qoʻyilgan mijozlarning mablagʻlari hisobi yuritiladigan hisobvaraq;

ssuda hisobvaragʻi - belgilangan tartibda mijozlarga berilgan kreditlarning hisobi yuritiladigan hisobvaraq;

talab qilib olinguncha depozit hisobvaragʻi - mijozlarning birinchi talabi bilanoq beriladigan yoki oʻtkazib beriladigan mablagʻlarning hisobi yuritiladigan hisobvaraq.

Mijozlar banklarda quyidagi turdagi hisobvaraqlarni ochishlari mumkin:

- a) talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari;
- b) jamgʻarma depozit hisobvaraqlari;
- v) muddatli depozit hisobvaraqlari;
- d) boshqa depozit hisobvaraqlari.

Oʻz faoliyatini yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshirmoqchi

bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga ustav kapitalini shakllantirish uchun davlat ro'yxatidan o'tgunlariga qadar ta'sischilarning (ishtirokchilarning) dastlabki badallarini kiritish uchun milliy va/yoki chet el valyutasida vaqtinchalik (mablag' yig'ish uchun) 29801 - «Mijozlar bilan hisob-kitoblar» hisobvarag'i ochilishi mumkin.

Mijozning asosiy hisobvarag'i yopilayotgan bankda quyidagi buxgalteriya yozuvlari beriladi:

Debet 202xx – mijozning talab qilib olinguncha saqlanadigan hisobvaraqlari

Kredit 10301 - O'zRMBdagi vakillik hisobvarag'idan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar - Nostro

Asosiy hisob varaq ochayotgan bank tegishli hujjatlar asosida quyidagi buxgalteriya yozuvlarini amalga oshiradi:

1. *Mijozning asosiy hisobvarag'idagi qoldiq summasi vaqtinchalik hisobvaraqa kirim qilinadi:*

Debet 10301 - O'zRMBdagi vakillik hisobvarag'idan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar - Nostro

Kredit 29801 - «Mijozlar bilan hisob-kitoblar»

2. *Shundan so'ng yangi bankda mijozga asosiy hisobvaraq ochiladi va pullar o'tkazib beriladi:*

Debet 29801 - «Mijozlar bilan hisob-kitoblar»

Kredit 202xx – mijozning talab qilib olinguncha saqlanadigan hisobvaraqlari

Sudning bank hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yish to'g'risidagi tegishli qarori taqdim etilganda, banklar keyingi ish kunidan kechiktirmay xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning hisobvaraqlarini yopadilar. Bunda, korxonalarining yopiladigan hisobvaraqlaridagi mablag'lari qoldiqlari bank tomonidan foydalanish huquqisiz maxsus hisobvaraqlarga o'tkaziladi. *Korxonalarining bankka to'lash uchun taqdim etilgan kreditlik qarzi esa alohida ko'zda tutilmagan holatlar hisobvarag'iga o'tkaziladi.*

Debet 202xx – mijozning talab qilib olinguncha saqlanadigan hisobvaraqlari

Kredit 29842 - «Harakatsiz depozit majburiyatlari».

3.2. Milliy valyutada talab qilib olinguncha, jamg'arma, muddatli va boshqa depozit hisobvaraqlarini ochish tartibi

Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari bo'lgan rezident yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda dehqon xo'jaliklari tomonidan milliy valyutada talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari ochish uchun bankka quyidagi hujjatlar taqdim qilinadi:

a) hisobvaraq ochish to'g'risida ariza;

b) keltirilgan shaklga muvofiq imzolar namunalari qo'yilgan ikki dona varaqcha;

v) mijoz nomidan pul-hisob-kitob hujjatlarini imzolash vakolatiga ega shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjati (pasport yoki uni o'rmini bosadigan hujjat). Shaxsni tasdiqlovchi hujjatdan nusxa olinib, asli qaytarib beriladi.

Tadbirkorlik faoliyati sub'ekti bo'lmagan rezident yuridik shaxslar hamda Budjetdan mablag' oluvchilar tomonidan milliy valyutada talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari ochish uchun bankka quyidagi hujjatlar taqdim qilinadi:

a) hisobvaraq ochish to'g'risida ariza;

v) keltirilgan shaklga muvofiq imzolar namunalari va muhr izi qo'yilgan ikki dona varaqcha.

g) tadbirkorlik faoliyati sub'ekti bo'lmagan rezident yuridik shaxslar tomonidan ta'sis hujjatlari (ta'sis shartnomasi, ustav) hamda ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar, shuningdek yuridik shaxs nomidan pul-hisob-kitob hujjatlarini imzolash vakolatiga ega shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjati (pasport yoki uni o'rmini bosadigan hujjat). Ushbu hujjatlardan nusxa olinib, asli qaytarib beriladi;

d) davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo'yilganligini tasdiqlovchi hujjat (ma'lumotnoma).

Rezident yuridik shaxslarning vakolatxonalari va filiallariga talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari ochish uchun vakolatxona va filiallar tomonidan bankka quyidagi hujjatlar taqdim qilinadi:

a) hisobvaraq ochish to'g'risida ariza;

b) yuridik shaxsning iltimosnomasi (iltimosnomada yuridik shaxsning «Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami» va «Xos raqami» ko'rsatilgan bo'lishi shart);

v) tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari uchun keltirilgan shaklga muvofiq imzolar namunalari qo'yilgan ikki dona varaqcha;

v) tadbirkorlik faoliyati sub'ekti bo'lmagan rezident yuridik shaxslar uchun keltirilgan shaklga muvofiq imzolar namunalari va muhr izi qo'yilgan ikki dona varaqcha;

g) vakolatxona yoki filialga berilgan vakolatlarni belgilovchi hujjat hamda vakolatxona yoki filial nomidan pul-hisob-kitob hujjatlarini imzolash vakolatiga ega shaxsning shaxsini tasdiqlovchi (pasport yoki uni o'rmini bosadigan) hujjati. Ushbu hujjatlardan nusxa olinib, asli qaytarib beriladi.

Faoliyatini O'zbekiston Respublikasida amalga oshiruvchi norezident yuridik shaxslar, tovar-xom ashyo birjasining ochiq elektron savdolarida qatnashuvchilar, tashkiliy savdolarida aktsiyalarni sotuvchi (sotib oluvchi) chet ellik investorlar), shuningdek norezidentlarning O'zbekiston Respublikasida qonunchilik bilan belgilangan tartibda faoliyat yuritayotgan doimiy muassasalari milliy valyutada talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari ochish uchun bankka quyidagi hujjatlarni taqdim qiladilar:

a) hisobvaraqlar ochish to'g'risida ariza;

b) agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to'lovchining identifikatsiya raqami berilganligi to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi;

v) keltirilgan shaklga muvofiq imzolar namunalari va muhr izi qo'yilgan ikki dona varaqcha;

g) norezident yuridik shaxs nomidan pul-hisob-kitob hujjatlarini imzolash vakolatiga ega shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjat (pasport yoki uni o'rmini bosadigan hujjat). Shaxsini tasdiqlovchi hujjatning asli ko'rsatilgandan so'ng, bank tomonidan undan nusxa olinadi.

d) faoliyatini O'zbekiston Respublikasida amalga oshiruvchi norezident yuridik shaxslar, tovar-xom ashyo birjasining ochiq elektron savdolarida qatnashuvchilar, tashkiliy savdolarida aktsiyalarni sotuvchi (sotib oluvchi) chet ellik investorlar), shuningdek norezidentlarning O'zbekiston Respublikasida qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda faoliyat yuritayotgan doimiy muassasalari ta'sis hujjatlari (ta'sis shartnomasi, ustav) hamda ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarning konsullik yoki notarius tomonidan tasdiqlangan nusxasi;

e) tovar-xom ashyo birjasining ochiq elektron savdolarida qatnashuvchi norezident yuridik shaxs va birja brokeri o'rtasida brokerlik xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma nusxasi;

j) tashkiliy savdolarida aktsiyalarni sotuvchi (sotib oluvchi) chet ellik investorlar norezident yuridik shaxslar va investitsion vositachi o'rtasida brokerlik xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma nusxasi.

3.3. Chet el valyutasidagi talab qilib olinguncha, jamg'arma, mud-datli va boshqa depozit hisobvaraqlarini ochish tartibi

Mijozlar tomonidan chet el valyutalarida hisobvaraqlar ochish uchun bankka quyidagi hujjatlar taqdim qilinadi:

- a) tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari tomonidan keltirilgan hujjatlar;
- b) tadbirkorlik faoliyati sub'ekti bo'lmagan rezident yuridik shaxslar, jumladan budjetdan mablag' oluvchilar tomonidan keltirilgan hujjatlar;
- v) faoliyatini O'zbekiston Respublikasida amalga oshiruvchi norezident yuridik shaxslar, tovar-xom ashyo birjasining ochiq elektron savdolarida qatnashuvchilar, tashkiliy savdolarida aktsiyalarni sotuvchi (sotib oluvchi) chet ellik investorlar), shuningdek norezidentlarning O'zbekiston Respublikasida qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda faoliyat yuritayotgan doimiy muassasalari (jismoniy shaxslar bundan mustasno) tomonidan keltirilgan hujjatlar;
- g) rezident va norezident jismoniy shaxslar tomonidan keltirilgan hujjatlar.

3.4. Kredit shartnomasi asosida hisobvaraqlarni ochish tartibi

Kredit shartnomasi kuchga kirgandan so'ng keyingi bank ish kunidan kechiktirmasdan bank rahbari yoki rahbar tomonidan vakolat berilgan shaxs tomonidan beriladigan kreditning muddati, miqdori va foiz stavkasi ko'rsatilgan holda, mijoz uchun ssuda hisobvarag'i ochish to'g'risida buxgalteriyaga berilgan farmoyishga asosan shu ish kunidan kechiktirmasdan mijozga ssuda hisobvarag'i ochiladi, kredit masofadan xizmat ko'rsatish tizimlari orqali rasmiylashtirish hollari bundan mustasno.

3.5. Mijozning asosiy hisobvarag'ini boshqa bankka o'tkazish

Asosiy hisobvaraqni boshqa bankka o'tkazish uchun mijoz tomonidan xizmat ko'rsatuvchi bankka ariza taqdim etiladi va chek daftarchalari qaytariladi. Shundan so'ng bank mijozning hisobvarag'idagi qoldiqni yozma ravishda tasdiqlaydi.

Mijoz asosiy hisobvarag'i yopilayotgan bankdan olingan tasdiqnomani ariza bilan birga asosiy hisobvaraq ochilayotgan bankka taqdim etadi. Ushbu arizaga asosan, asosiy hisobvaraq ochilayotgan bank mijozga vaqtin-

chalik 29801 - «Mijozlar bilan hisob-kitoblar» hisobvaragʻini ochadi va bu toʻgʻrisida mijoz hamda hisobvaraqq yopilayotgan bankka yozma ravishda xabar beradi.

Mijoz vaqtinchalik hisobvaraqq ochilganligi toʻgʻrisidagi xabarni olgandan soʻng asosiy hisobvaraqq yopilayotgan bankka asosiy hisobvaraqqdagi mavjud mablagʻlar qoldigʻini asosiy hisobvaraqq ochilayotgan bankdagi vaqtinchalik ochilgan hisobvaraqqqa oʻtkazish toʻgʻrisida toʻlov topshiriqnomasi taqdim etadi. Asosiy hisobvaraqqni yopayotgan bank mijoz yuridik yigʻmajildidagi hujjatlar va 2-sonli kartotekadagi (agar, mavjud boʻlsa) toʻlov hujjatlari roʻyxatini kiritib, ushbu hujjatlar asosiy hisobvaraqq ochayotgan bankka topshirilganligi haqida ikki nusxada dalolatnoma tuzadi. Dalolatnomaga bank vakolatli xodimlarining imzolari va bank muhri qoʻyiladi.

Dalolatnomaning har ikki nusxasiga mijozning yuridik yigʻmajildidagi hujjatlar va 2-sonli kartotekadagi toʻlov hujjatlarining asl nusxalari ilova qilinib, pochta, feldʻeger aloqasi yoki kurer orqali asosiy hisobvaraqq ochilayotgan bankka etkazib beriladi.

Asosiy hisobvaraqqni ochayotgan bank ushbu dalolatnomaga ilova qilingan hujjatlarni qabul qilib olgandan keyin mazkur dalolatnomaga ilova qilingan yuridik yigʻmajildidagi hujjatlar va 2-sonli kartotekadagi toʻlov hujjatlarining asl nusxalarini olganligini tasdiqlash uchun bank vakolatli xodimlarining imzolari va bank muhri qoʻyiladi. Dalolatnomaning bir nusxasi pochta, feldʻeger aloqasi yoki kurer orqali asosiy hisobvaraqq yopilayotgan bankka etkazib beriladi.

Ushbu hujjatlarni hisobvaraqq egasi yoki uchinchi shaxslar orqali berib yuborish qatʻiyan taqiqlanadi.

Dalolatnomaning asosiy hisobvaraqq ochayotgan bankning vakolatli xodimlari tomonidan imzolangan va muhr qoʻyilgan nusxasi olingandan keyin mijoz tomonidan yopilayotgan asosiy hisobvaraqqdagi mablagʻlarni ushbu hisobvaraqq ochilayotgan bankda ochilgan vaqtinchalik hisobvaraqqqa oʻtkazish toʻgʻrisidagi toʻlov topshiriqnomasi ijro qilinadi.

Asosiy hisobvaraqqni yopayotgan bank berib yuborilgan barcha hujjatlardan nusxa koʻchirib, belgilangan tartibda oʻz arxivida saqlaydi.

Asosiy hisobvaraqqni ochayotgan bank ushbu hisobvaraqqni yopayotgan bankdan hujjatlar va mablagʻlarni olgandan keyin mijozga yangi asosiy hisobvaraqqni ochadi, unga vaqtinchalik hisobvaragʻidagi qoldiqni oʻtkazadi va mazkur vaqtinchalik hisobvaraqqni yopadi.

Asosiy hisobvaraқ o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumot axborotlar bazasida qonun hujjatlarida belgilangan muddatda saqlanadi. Ushbu muddat tugagandan so‘ng o‘tkazilgan asosiy hisobvaraқ to‘g‘risidagi ma‘lumot arxivlanadi va belgilangan tartibda saqlanadi.

O‘tkazilgan asosiy hisobvaraқ bo‘yicha kelib tushgan to‘lov hisob-kitob hujjatlari ro‘yxatdan o‘tkazilgach, quyidagi mazmundagi xabar bilan jo‘natuvchiga qaytariladi: «Hisobvaraқ yopildi. _____ bankning _____ filialiga murojaat qiling».

3.6. Asosiy hisobvaraқ bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatish va hisobvaraқni yopish

Asosiy hisobvaraқ bo‘yicha operatsiyalar faqat hisobvaraқ egasining farmoyishiga ko‘ra yoki hisobvaraқdagi pul mablag‘lari tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotgan organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi qarori bo‘yicha yoxud sud ajrimiga ko‘ra xatlanganda, shuningdek, qonun hujjatlarida ko‘zda tutilgan boshqa hollarda to‘xtatib qo‘yilishi mumkin. Bunday holda, pul mablag‘lari faqat qaror yoki ajrimda ko‘rsatilgan summaga xatlanadi.

Tadbirkorlik faoliyati sub‘ektlarining banklardagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib qo‘yish sud tartibida amalga oshiriladi, qonunda ko‘zda tutilgan holatlar bundan mustasno.

Banklardagi hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalar faqat chiqim qismida to‘xtatiladi.

Yuqoridagi tartibda xatlangan yoki to‘xtatilgan hisobvaraqlarni (ham asosiy, ham ikkilamchi) boshqa banklarga o‘tkazish hamda ushbu hisobvaraqlar egalari boshqa hisobvaraqlarni ochishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Bank hisobvarag‘i shartnomasi hisobvaraқ egasining arizasiga yoki bankning talabiga ko‘ra bekor qilinadi.

Bankning talabiga ko‘ra bank hisobvarag‘i shartnomasi sud orqali quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

1) mijozning hisobvarag‘ida saqlanayotgan pul mablag‘lari summasi bank qoidalarida yoki shartnomada ko‘zda tutilgan eng kam miqdordan oz bo‘lsa, agar bunday summa bank tomonidan bu haqda mijozni ogohlantirgan kundan boshlab bir oyda tiklanmasa;

2) bank hisobvarag‘i shartnomasida boshqa muddat nazarda tutilgan bo‘lmasa, ushbu hisobvaraқ bo‘yicha bir yil davomida operatsiyalar amalga

oshirilmagan bo'lsa.

Hisobvaraqdagi pul mablag'larining qoldig'i mijozning tegishli yozma arizasi olingandan keyin kechi bilan etti kun ichida mijozga beriladi yoki uning ko'rsatmasiga muvofiq boshqa hisobvaraqa o'tkaziladi.

Bank hisobvarag'i shartnomasining bekor qilinishi mijozning hisobvarag'ini yopish uchun asos bo'ladi.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan harakatsiz holatga o'tkazilgan tadbirkorlik sub'ektlari - yuridik shaxslar davlat reestridan chiqarilgan kundan e'tiboran bank hisobvarag'i shartnomasi bekor qilinadi.

Ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'ektlari - yuridik shaxslarning bank hisobvaraqlarini yopish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 21 avgustdagi 704-son qarori bilan tasdiqlangan Tadbirkorlik sub'ektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to'xtatish tartibi to'g'risidagi nizomga asosan amalga oshiriladi.

Moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan tadbirkorlik sub'ektlarining bank hisobvaraqlarini yopish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 21 avgustdagi 704-son qarori bilan tasdiqlangan Moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan tadbirkorlik sub'ektlarini davlat reestridan chiqarish tartibi to'g'risidagi nizomga asosan amalga oshiriladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektning asosiy hisobvarag'i yopilayotganda, oldindan u bilan bog'liq bo'lgan barcha hisobvaraqlar yopiladi. Bir vaqtning o'zida hisobvaraqni yopish mo'ljallanayotgani to'g'risida soliq va bojxona (chet el valyutasida hisobvaraqlar ochilgan bo'lsa) organlariga xabar beriladi, shuningdek xo'jalik yurituvchi sub'ektning budjet oldidagi qarzlari to'g'risida ma'lumot so'raladi. Soliq va bojxona organlari tomonidan bankka xo'jalik yurituvchi sub'ektning budjet oldida majburiyatlari yo'qligi to'g'risidagi xulosa taqdim qilingandan keyin bank (bank filiali) tomonidan berilgan hamda to'liq yoki qisman foydalanilmagan chek daftarchalari bankka (bank filialiga) qaytariladi. Shundan keyin, mijozning foydalanilmagan cheklar raqamlari ko'rsatilgan arizasiga asosan hisobvaraqlarini yopish kunida qoldiq tasdiqlangan holda hisobvaraqlar yopiladi.

Yopilayotgan, shuningdek, boshqa banklarga o'tkazilayotgan hisobvaraqlar bo'yicha foydalanilmagan cheklarni mijozlardan faqat bosh buxgalter yoki uning o'rinbosari qabul qilish huquqiga ega. Bosh buxgalter va uning o'rinbosari topshirilgan har bir chekning imzo qo'yiladigan qismini qirqib olish yo'li bilan ularni darhol so'ndirishi zarur. Shundan keyingina

cheklar unga xizmat ko'rsatuvchi mas'ul ijrochiga beriladi. ijrochi hisobvaraqqni yopish uchun taqdim qilingan to'lov topshiriqnomasini dasturiy yo'l bilan kiritishi hamda uni tekshirish va imzolash uchun bosh buxgalterga yoki uning o'rinbosariga taqdim etishi shart.

Hisobvaraqlar yopilayotganda, bank bosh buxgalteri yoki uning o'rinbosari yopilayotgan hisobvaraqqdan mijozga oxirgi marta ko'chirma berilgan kundan boshlab ushbu hisobvaraqqga kiritilgan barcha yozuvlarni hujjatlar bo'yicha sinchiklab tekshirishi, ssuda va bank xizmatlari uchun hisoblangan hamda to'langan foizlarni inobatga olgan holda chiqarilgan oxirgi qoldiqning to'g'riligiga ishonch hosil qilishi va yopilayotgan hisobvaraqqga tegishli yozuvlarni kiritib, imzo chekishi shart.

Hisobvaraqq yopilgandan so'ng bank mijozga (mijoz tugatilganda - ta'sischilarga) barcha taqdim qilingan talablardan ozod bo'lgan pul mablag'larning qoldig'i to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadi.

Boshqa depozit hisobvaraqlarning barchasi mijozning arizasiga asosan istalgan vaqtda yopiladi. Bunda, ushbu mijozga ochilgan maxsus hisobvaraqlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yopiladi.

Ssuda hisobvaraqlari bank rahbari yoki rahbar tomonidan vakolat berilgan shaxsning farmoyishiga asosan berilgan kreditlar va unga hisoblangan foizlar to'lovi to'liq amalga oshirilgandan keyin yoki ssuda hisobvaraqqning kredit qoldig'i ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqqiga o'tkazilgandan keyin yopiladi.

Mijoz majburiy tugatilganda, mijozning asosiy hisobvaraqqi tugatish komissiyasi nomiga rasmiylashtiriladi va uning tasarrufiga o'tkaziladi. Asosiy hisobvaraqqga xizmat ko'rsatuvchi bankka mijozni tugatish to'g'risida qarorni, shuningdek, tugatish muddati ko'rsatilgan va tugatish komissiyasini tuzgan tashkilot yoki shaxs tomonidan tasdiqlangan rahbar hamda bosh buxgalterning imzolar namunalari va muhr izi qo'yilgan varaqcha taqdim etiladi. Mijozning hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatuvchi boshqa banklarga tugatish muddati ko'rsatilgan tugatish to'g'risidagi qaror nusxasi taqdim etiladi. Shundan so'ng barcha ikkilamchi hisobvaraqlar yopiladi va ushbu hisobvaraqlardagi mablag'lar majburiy ravishda tugatish komissiyasiga rasmiylashtirilgan asosiy hisobvaraqqga o'tkaziladi.

Tugatish komissiyasi o'z ishini yakunlaganidan keyin o'z hisobvaraqqini yopish uchun bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

a) xo'jalik yurituvchi sub'ektlar budjet oldidagi o'z majburiyatlarini bajarganliklari to'g'risida davlat soliq xizmati organlarining xulosasi;

b) tugatish ishlari tugallanganligi to'g'risida maxsus komissiya tomonidan rasmiylashtirilgan bayonnoma;

v) foydalanilmagan cheklar va foydalanilgan cheklarning milklari bilan chek daftarchasi.

Tugatish komissiyasining hisobvarag'ida taqdim qilingan talablardan ozod bo'lgan pul mablag'larining kredit qoldig'i mavjud bo'lsa, ushbu qoldiq mijozlarning ta'sischilariga yoki tugatish komissiyasining va tugatilgan mijozning ta'sischilari majlisining qaroriga asosan boshqa hisobvaraqqa o'tkaziladi. Hisobvaraqqa yopilganligi uchun haq olinmaydi. Tijorat banklarining vakillik hisobvaraqlari banklarni tugatish to'g'risidagi qonun hujjatlari asosida yopiladi.

3.7. Banklarning depozit operatsiyalari hisobi

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015 yil 22 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi banklarida depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnoma asosida amalga oshiriladi.

Depozit (keyingi o'rinlarda omonat deb yuritiladi) – talab qilinishi bilanoq yoki to'lovni amalga oshiruvchi shaxs bilan to'lovni oluvchi shaxs yoxud ularning qonuniy vakillari o'rtasida kelishilgan muddatda foizlar yoki ustama haq to'lagan holda yoxud bunday to'lovlarsiz qaytarib berish sharti bilan topshiriladigan milliy va chet el valyutasidagi pul summasi.

omonat operatsiyalari – qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hamda bankning omonatchilar bilan tuzgan bank omonati shartnomasi shartlari asosida ularning pul mablag'larini muayyan muddatga jalb etish, saqlash, qaytarish, foizlar hisoblash va to'lash hamda omonatchining yozma topshirig'iga asosan omonatdagi pul mablag'larini boshqa hisobvaraqlarga o'tkazishga doir operatsiyalar.

Omonatlar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlar;
2. Jamg'arma omonatlar;
3. Muddatli omonatlar;
4. Omonat sertifikatlari;

Jismoniy va yuridik shaxslarga talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar buxgalteriya hisobvraqlar rejasining 20200 "Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar" hisobvarag'ida mulkchilik shakliga qarab yuritiladi.

Ushbu passiv hisobvarag' bo'lganligi sababli, unga kelib tushadigan barcha mablag'lar hisobvaraqlarning kreditida, chiqim qilinadigan mablag'lar esa hisobvaraqlar debetida aks ettiriladi.

Aniq misollar orqali tushuntirib o'tamiz:

1. 2019 yil 25 iyul kuni TIF "Milliybank" Kattaqo'rg'on filialiga jismoniy shaxs Hamraeva Malika 1000000 so'm naqd pulini omonatga topshirdi. Buxgalteriya yozuvlarini bering.

Debet 10101 – Aylanma kassadagi naqd pullar – 1000000;

Kredit 20206 – Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar – 1000000.

2. Xususiy korxonaning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'iga naqdsiz ko'rinishdagi mablag' kelib tushdi:

Debet 10301 – O'zRMBdagi vakillik hisobvarag'idan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar – Nostro;

Kredit 20208 – Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari.

Jamg'arma depoziti 20400 hisob varag'ida hisobga olib boriladi. Unda operatsiyalarni ettirilishi quyidagicha:

1. 2019 yil 25 iyul kuni AT "Agrobank" Payshanba filialiga jismoniy shaxs Usmonov Suvonqul 1000000 so'm naqd pulini jamg'arma omonatga topshirdi. Buxgalteriya yozuvlarini bering.

Debet 10101 – Aylanma kassadagi naqd pullar – 1000000;

Kredit 20406 – Jismoniy shaxslarning jamg'arma depozitlari – 1000000.

2. Jamg'arma depozit bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan foizlar hisoblendi:

Debet 50606 – Jismoniy shaxslarning jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;

Kredit 22403 – Jamg'arma depozitlar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar.

3. Jamg'arma depozit bo'yicha hisoblangan foizlar naqd pulda to'landi:

Debet 22403 – Jamg'arma depozitlar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar;

Kredit 10101 – Aylanma kassadagi naqd pullar.

4. Jamg'arma depozit bo'yicha hisoblangan foizlar mijozning topshirig'iga asosan kommunal to'lovlarni to'lash uchun o'tkazildi:

Debet 22403 – Jamg'arma depozitlar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar;

Kredit 10301 – O'zRMBdagi vakillik hisobvarag'idan olinishi lozim

bo'lgan mablag'lar yoki kommunal xizmat ko'rsatuvchi yuridik shaxsning depozit hisob varag'i.

Muddatli depoziti 20600 hisob varag'ida hisobga olib boriladi. Unda operatsiyalarni ettirilishi quyidagicha:

1. 2019 yil 26 iyul kuni AT "Asakabank" Buxoro filialiga jismoniy shaxs O'tkurov Akbar 1000000 so'm naqd pulini "Qaldirg'och" nomli muddatli omonatiga topshirdi. Buxgalteriya yozuvlarini bering.

Debet 10101 – Aylanma kassadagi naqd pullar – 1000000;

Kredit 20606 – Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari – 1000000.

Nazorat savollari va topshiriqlar.

1. Banklarda ochiladigan bank hisobvaraqlari.
2. Bank hisobvaraqlarini yuritish bo'yicha shartnoma va uning mazmuni.
3. Hisobvaraqlarni ochish va yuritish tartibi.
4. Mijozlar hisobvaraqlarini yopish va qayta rasmiylashtirish tartibi.
5. Depozit operatsiyalari hisobining tashkil etilishi.

III bob bo'yicha masala va mashqlar.

1-masala. Tijorat banki filialiga xususiy korxonadan tomonidan, olingan kantselyariya tovarlari uchun, talab qilgunga qadar depozit hisobvarag'idan 15 million so'm miqdoridagi mablag'ni o'tkazish to'g'risidagi to'lov topshiriqnomasi kelib tushdi. Mablag'ni oluvchi korxonaga boshqa bank filialida xizmat ko'rsatiladi.

Ushbu to'lov topshiriqnomasini o'tkazish mumkinmi? Mumkin bo'lsa qanday tartibda? Mumkin bo'lmasa, hujjatni qaytarish uchun qonuniy asos mavjudmi?

2-masala. Mahalliy soliq inspeksiyasi tomonidan daromad solig'i bo'yicha qarzlarni undirish bo'yicha, tijorat banki filiali mijozining talab qilgunga qadar depozit hisobvarag'iga, inkasso topshiriqnomasi qo'yildi. Mijoz bankga murojaat qilib, daromad solig'i bo'yicha hech qanday qarzi yo'qligini bildirdi va tegishli hisob-kitoblar va soliq idorasining ma'lumotnomasini taqdim qildi. Filial buxgalteriya hisobi bo'limi xodimlari masalani soliq inspeksiyasi bilan hal qilish kerakligini bildirib, inkasso topshiriqnomasini qaytara olmasliklarini bildirishdi va inkasso topshiriqnomasi bo'yicha to'lovni amalga oshirishdi.

Bank xodimlarining xatti – xarakatlari asoslanganmi? Naqd pulsiz hisob – kitoblarni tashkil qilish to'g'risidagi yo'riqnomaga ko'ra masala

qanday hal qilinishi kerak ?

3-masala. Tijorat banki mijozining №2 kartotekasi (o'z vaqtida to'lanmagan to'lov hujjatlari) miqdori 20,000,000 so'm bo'lib, shundan soliq va unga tenglashtirilgan to'lovlar summasi 6,000,000 so'm, ish xaqini to'lash bo'yicha qarz 10,000,000 so'm, moddiy tovar qiymatliklari bo'yicha to'lovlar 4,000,000 so'm ga teng. Mijozning talab qilgunga qadar depozit hisobvarag'iga bajarilgan ishlar uchun 5,000,000 so'm miqdoridagi mablag' kelib tushdi. Mijoz kelib tushgan mablag'dan 4,000,000 so'mini ish xaqini berish uchun ajratishni iltimos qilib bankga murojaat qildi. Ish xaqining o'z vaqtida to'lanmasligi oqibatida mijoz bankrot axvoliga kelib qolishi mumkinligi bank xodimlari tomonidan o'tkazilgan monitoring yakunlarida aniqlangan.

Mijozning iltimosi bajarilishi kerakmi? Mavjud vaziyatni Siz qanday hal qilgan bo'lardingiz?

4-masala. Tijorat banki filialiga mijoz tomonidan taqdim etilgan to'lov hujjatlari, filialning vakillik hisobvarag'ida mablag' etarli bo'lmaganligi sababli, 1 kun kechiktirilib o'tkazildi. Buning oqibatida zarur xom – ashyo materiallari mijozga etkazib berilmadi va ishlab chiqarish jarayoni to'xtab qoldi. Tegishli hisob – kitoblar qilinganida mijozga 100000 so'm miqdordagi zarar etkazilganligi aniqlandi. Mijoz ushbu zararni bankdan qoplab berishni talab qildi. Filial boshqaruvchisi mijozga etkazilgan zararni filial bosh buxgalteri va buxgalteriya hisobi bo'limining ushbu operatsiya bo'yicha javobgar xodimining oylik ish xaqidan ushlab qolinishi kerak degan qarorga keldi. Buxgalteriya bo'limi xodimlari ularning aybi bu vaziyatda yo'qligini bildirib, oyliklaridan zararni qoplashdan bosh tortishdi.

Yuzaga kelgan vaziyatni Siz qanday hal qilgan bo'lardingiz? Ushbu vaziyat bo'yicha harakatdagi qonunchilik talablari qanday?

Testlar

1. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasi necha bo'limda iborat?

- a. 6 ta bo'limdan iborat
- b. 9 ta bo'limdan iborat
- c. 13 ta bo'limdan iborat
- d. 7 ta bo'limdan iborat

2. Vakillik hisobvaraqlari necha turga bo'linadi:

- a. ikki turga

- b. uch turga
- c. to'rt turga
- d. besh turga

3. Banklarda hisoblangan, lekin to'lanmagan xarajatlar qanday hisobvaraqlarda hisobga olinadi?

- a. aktiv hisobvarag'da
- b. passiv hisobvarag'da
- c. aktiv-passiv hisobvarag'da
- d. diskont hisobvarag'da

4. Bank kunlik buxgalteriya balansi nechta bo'limdan tashkil topadi?

- a. 3
- b. 6
- c. 4
- d. 5

5. Banklarda berilgan qisqa muddatli kreditlar qanday hisob varaqlarda hisobga olinadi?

- a. aktiv hisobvarag'da
- b. passiv hisobvarag'da
- c. aktiv-passiv hisobvarag'da
- d. diskont hisobvarag'da

IV BOB. NAQD PULSIZ HISOB – KITOB OPERATSIYALARI HISOBİ

Tayanch soʻz va iboralar. 1-son kartoteka, 2-son kartoteka, akkreditiv, aktsept, operatsiya kuni, valyutalash sanasi, masofaviy xizmat koʻrsatish tizimi, mablagʻlarni oluvchi, mablagʻlarni oluvchining banki, mablagʻlarni toʻlovchi, mablagʻlarni toʻlovchining banki, shaxsiy varaqcha, elektron toʻlov vositalari.

4.1. Naqd pulsiz hisob – kitob operatsiyalarini tashkil etish

Tijorat banklarida naqd pulsiz operatsiyalarni amalga oshirishda Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020 yil 13 aprelda roʻyxatdan oʻtkazilgan “Oʻzbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar toʻgʻrisida”gi № 3229-sonli Nizom asosida amalga oshiradi.

1-son kartoteka - toʻlov muddatini kutayotgan toʻlov hujjatlari hisobi yuritiladigan balansdan tashqari hisobvaraƒ;

2-son kartoteka - muddatida toʻlanmagan toʻlov hujjatlari hisobi yuritiladigan balansdan tashqari hisobvaraƒ;

akkreditiv - toʻlovchi tomonidan toʻlangan yoki toʻlanishi lozim boʻlgan mablagʻ shartnoma shartlari bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim qilingan taqdirda, mablagʻlarni oluvchining hisobiga oʻtkazilishiga doir bankning shartli majburiyati;

aktsept - toʻlovchining, toʻlov uning hisobidan amalga oshirilishiga roziligi yoki qarzdorlikni tan olganligi;

operatsiya kuni - farmoyishlarni qabul qilish va ularga ishlov berish amalga oshiriladigan vaqtning davri;

valyutalash sanasi - toʻlov hujjati asosida pul mablagʻlarini oluvchining hisobvaragʻiga oʻtkazish sanasi;

masofaviy xizmat koʻrsatish tizimi - elektron xizmatlardan foydalanish uchun toʻlov xizmatlaridan foydalanuvchi va ushbu xizmatlarni etkazib beruvchi oʻrtasidagi aloqani taʼminlaydigan telekommunikatsiya vositalari, raqamli va axborot texnologiyalari, dasturiy taʼminot va uskunalar majmui;

mablagʻlarni oluvchi - pul mablagʻlarini oluvchi shaxs;

mablagʻlarni oluvchining banki - mablagʻlarni oluvchining pul mablagʻlari kirim qilinadigan hisobvaragʻiga xizmat koʻrsatuvchi bank;

mablagʻlarni toʻlovchi - toʻlov kimning hisobidan amalga oshirilayotgan

bo'lsa, o'sha shaxs;

mablag'larni to'lovchining banki - mablag'larni to'lovchining pul mablag'lari hisobdan chiqariladigan hisobvarag'iga xizmat ko'rsatuvchi bank;

shaxsiy varaqcha - tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari uchun imzolar namunalari qo'yilgan, boshqa yuridik shaxslar uchun imzolar namunalari va muhr izi qo'yilgan varaqcha;

elektron to'lov vositalari - axborotni o'z ichiga olgan va to'lovchiga to'lovni amalga oshirish, shuningdek to'lovchi bilan elektron to'lov vositalarining emitenti o'rtasida tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan boshqa operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradigan bank kartasi yoki boshqa elektron jism.

4.2. To'lov topshiriqnomasi bilan hisob-kitoblar hisobi

Endi bevosita to'lov topshiriqnomalari orqali amalga oshiriladigan operatsiyalarning buxgalteriya provodkalaridan misollar keltiramiz:

Umumiy aytganda barcha topshiriqnomalar orqali provodkalar ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

Debet: to'lovchining talab qilguncha saqlanadigan depozit hisob varaq raqami;

Kredit: mablag' oluvchining talab qilib olingunga qadar saqlanadigan depozit bo'yicha ochilgan hisob varaq raqami.

Masalan: Davlat korxonasi qo'shma korxonadan mahsulot sotib oldi. Davlat korxonasi sotib olingan mahsulotning pulini to'lash uchun to'lov topshiriqnomasi rasmiylashtirilib, o'ziga xizmat ko'rsatuvchi bankka topshirdi.

To'lov topshiriqnomasi tegishli nazoratdan o'tkazilgandan so'ng, pul o'tkazish quyidagi buxgalteriya yozuvi asosida bajariladi:

Debet: 20210 «Davlat tasarufidagi korxonaning talab qilib olguncha saqlanadigan hisob raqami»

Kredit: 20214 «Xususiy korxonaga va korporatsiyalarning talab qilib olguncha saqlanadigan depoziti hisob raqami»

Bu buxgalteriya yozuvi har ikkala korxonaga bitta bank xizmat ko'rsatgan holda amalga oshiriladi. *Agar mablag'larni oluvchi korxonaga boshqa bank xizmatidan foydalanadigan bo'lsa, u holda to'lov bankidan pul mablag'lari bankning korrespondentsiya hisob varag'i orqali o'tkaziladi.*

Debet 20210 “Davlat tasarufidagi korxonaning talabqilguncha saqlanadigan depoziti hisob varag‘i”

Kredit 10301 “Tijorat bankining korrespondentsiya hisob varag‘i”

Agar bir bankning ikkita filiali mijozlari o‘rtasida moliyaviy munosabatlar vujudga kelganda quyidagicha provodka beriladi:

Debet 202xx Mahsulot sotib oluvchining TQODHR

Kredit 16103 bank filialining ichki korrespondentsiya hisob varag‘i

To‘lov topshiriqnomalari bilan bajariladigan operatsiyalarda mol sotib oluvchining talab qilib olinguncha hisob raqamidan mablag‘lar kamayishi orqali amalga oshiriladi¹.

4.3. To‘lov talabnomasi bilan hisob-kitoblar hisobi

To‘lov talabnomalari quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. aktseptli to‘lov talabnomasi, unga muvofiq to‘lov talabnomasida nazarda tutilgan to‘lovlar mablag‘larni to‘lovchi tomonidan aktseptlanganidan keyin amalga oshiriladi;

2. aktseptsiz to‘lov talabnomasi, unga muvofiq to‘lov talabnomasida nazarda tutilgan to‘lovlar mablag‘larni to‘lovchining roziligi bo‘lishi yoki bo‘lmasligidan qat’i nazar amalga oshiriladi.

Qog‘oz shakldagi to‘lov talabnomasi mablag‘larni oluvchi tomonidan belgilangan shakldagi ikki nusxada tuzilgan reestr bilan birga unga xizmat ko‘rsatuvchi bankka yoki to‘lovchining bankiga taqdim qilinadi.

Reestrning birinchi nusxasi tashkilot rahbari hamda buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqarish vazifalarini amalga oshiruvchi shaxs tomonidan imzolangan hamda tashkilot muhri bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak, bunda tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan taqdim qilingan reestrda muhr izining mavjudligi talab etilmaydi. Reestrning birinchi nusxasi qabul qilish sanasi ko‘rsatilib, bank mas‘ul xodimining imzosi va bank tomonidan unga biriktirib qo‘yilgan bank shtampi bilan tasdiqlangan holda bankda qoladi.

Reestrning ikkinchi nusxasi bank tomonidan qabul qilingan sanasi ko‘rsatilib, mas‘ul xodimning imzosi va bank tomonidan unga biriktirib qo‘yilgan bank shtampi bilan tasdiqlangan holda mablag‘larni oluvchiga

¹ O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020 yil 13 aprelda ro‘yxatdan o‘tkazilgan “O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida”gi № 3229-sonli Nizom

qaytariladi.

Qog'oz shaklidagi aktseptli to'lov talabnomalari:

a) mablag'larni to'lovchi va oluvchiga bankning bitta filiali tomonidan xizmat ko'rsatilganda, to'lov talabnomasi ikki nusxada taqdim qilinadi.

Bunda to'lov talabnomasining birinchi nusxasi bankda qoldiriladi. To'lov talabnomasining ikkinchi nusxasi keyingi operatsiya kunidan kechiktirmay (bundan mablag'larni to'lovchi yoki uning vakili belgilangan muddatda bankka tashrif buyurmagan hollar mustasno), bank tomonidan qabul qilish sanasi ko'rsatilib aktseptlash uchun mablag'larni to'lovchi yoki uning vakiliga topshiriladi;

b) mablag'larni to'lovchi va oluvchiga bir bankning turli filiallari yoki turli banklar tomonidan xizmat ko'rsatilganda, to'lov talabnomalari ikki nusxada taqdim qilinadi. To'lov talabnomasi mablag'larni oluvchining bankiga taqdim qilingan bo'lsa, to'lov talabnomasining barcha nusxalari mablag'larni to'lovchining bankiga yuboriladi. Bunda mablag'larni to'lovchining bankida to'lov talabnomasining:

birinchi nusxasi bankda qoldiriladi;

ikkinchi nusxasi keyingi operatsiya kunidan kechiktirmay (bundan to'lovchi yoki uning vakili belgilangan muddatda bankka tashrif buyurmagan hollar mustasno), bank tomonidan qabul qilish sanasi ko'rsatiladi va aktseptlash uchun to'lovchi yoki uning vakiliga topshiriladi.

Aktseptli to'lov talabnomasining nusxasi mablag'larni to'lovchining bankiga kelib tushgan kundan keyingi operatsiya kunidan kechiktirmasdan, mablag'larni to'lovchi yoki uning vakiliga «To'lov muddatini kutayotgan to'lov hujjatlari» jurnalida va ushbu to'lov talabnomasi birinchi nusxasining yuqori o'ng burchagiga imzo qo'ydirgan holda topshiriladi. Bunda topshirilgan aktseptli to'lov talabnomasi 1-son kartotekada hisobga olinadi.

Tizim orqali topshirilgan aktseptli to'lov talabnomalarining olinganligi mablag'larni to'lovchi tomonidan elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi. Bunda ushbu to'lov talabnomalarining hisobi elektron shakldagi «To'lov muddatini kutayotgan to'lov hujjatlari» jurnalida yuritiladi hamda 1-son kartotekada hisobga olinadi.

Aktseptli to'lov talabnomalarini aktseptlash muddati ular mablag'larni to'lovchiga topshirilgan kundan keyingi kundan boshlab besh operatsiya kunini tashkil qiladi.

Bunda mablag'larni to'lovchining arizasiga asosan aktseptli to'lov talabnomalari ular topshirilgan kundan keyingi kundan boshlab o'n operat-

siya kuni ichida aktseptlanishi mumkin.

Aktseptli to'lov talabnomasi kelib tushgan kundan boshlab o'n operatsiya kuni ichida bank tomonidan mablag'larni to'lovchiga topshirish imkoni bo'lmagan, shu jumladan ushbu muddatda mablag'larni to'lovchi Tizimga kirmagan hollarda to'lov talabnomasiga bank tomonidan «Mijozning kelmaganligi sababli ijro etilmadi» degan yozuv kiritiladi va ijro etilmasdan qaytarib yuboriladi.

Aktseptli to'lov talabnomasi qisman rad etilganda, to'lov aktseptlangan summa doirasida amalga oshiriladi. Mablag'larni to'lovchining banki aktseptlash qisman rad etilganligi haqida mablag'larni oluvchining bankini uch operatsiya kuni ichida xabardor qiladi.

Mablag'larni to'lovchining hisobvarag'ida mablag' bo'lmagan taqdirda, to'lov talabnomasi aktseptlangan summa doirasida 2-son kartotekada hisobga olinadi.

Mablag'larni to'lovchi belgilangan muddatda to'lov talabnomasini aktseptlashi yoki rad etishi (to'liq yoki qisman) to'g'risida ma'lum qilmagan taqdirda, to'lov talabnomasi bank tomonidan umumiy tartibda aktseptlangan hisoblanadi hamda to'lov amalga oshiriladi.

Mablag'lar quyidagi hollarda aktseptsiz hisobdan chiqariladi:

to'lov talabnomasiga mablag'larni to'lovchining summani tan olganligi to'g'risidagi yozma xatining asl nusxasi ilova qilinganda;

banklar tomonidan mablag'larni to'lovchining bankiga uning kreditlari va ularga hisoblangan foizlari bo'yicha muddatida to'lanmagan qarzlarni undirish uchun;

bankdan olingan kreditlar va ularga hisoblangan foizlar bo'yicha muddatida to'lanmagan qarzlarni kafil bo'lgan shaxsdan undirish uchun; qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Qog'oz shakldagi aktseptsiz to'lov talabnomalari bankka:

mablag'larni to'lovchi va oluvchiga bankning bitta filiali tomonidan xizmat ko'rsatilganda, to'lov talabnomalari ikki nusxada taqdim qilinadi;

mablag'larni to'lovchi va oluvchiga bir bankning turli filiallari yoki turli banklar tomonidan xizmat ko'rsatilganda, to'lov talabnomalari ikki nusxada taqdim qilinadi. Bunda to'lov talabnomasi mablag'larni oluvchining bankiga taqdim qilingan bo'lsa, uning barcha nusxalari mablag'larni to'lovchining bankiga yuboriladi.

Mablag'larni to'lovchining banki aktseptsiz to'lov talabnomalari asosida mablag'larni hisobdan chiqarganda, to'lov talabnomasi old qismining

yuqori o'ng burchagiga "Aktseptsiz" degan yozuv kiritadi va to'lovni amalga oshiradi.

To'lov talabnomasini to'lash quyidagi buxgalteriya yozuvi orqali amalga oshiriladi:

Masala: Davlat korxonasi olingan tovarlar uchun pulini o'z vaqtida to'lamaganligi uchun uning hisob raqamiga to'lov talabnomasi kelib tushdi. Buxgalteriya provodkasini bering.

Debet - 20210 - "Davlat korxonasi, tashkilot va muassasalarining talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari"

Kredit - 10103 "Bankning Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i" yoki 20xxx - mol oluvchining hisob raqami.

Yana bir narsani esdan chiqarmaslik kerak. Mijoz hisob varag'iga to'lov talabnomasi kelib tushganda to'lov talabnomasining turidan kelib chiqib birinchi o'rinda uni 1-kortotekaga joylashtiramiz.

To'lov talabnomasini 1-kartotekaga joylashtirishda quyidagi balansdan tashqari provodka bajariladi:

Debet - 90962 "To'lov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari"

Kredit - 96319 "To'lov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari bo'yicha kontr-hisobvara"

Mijoz hisob raqamida pul mablag'i mavjud bo'lsa 1-kartotekadagi to'lov talabnomasining o'zi kartotekadan olinadi va hisobdan chiqariladi:

Debet - 96319 "To'lov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari bo'yicha kontr-hisobvara"

Kredit - 90962 "To'lov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari"

Aktseptli to'lov talabnomalar bilan hisob – kitoblarni amalga oshirganda to'lovchining hisobvarag'ida mablag' bo'lmaganda to'lov hujjatlari bankning ikkinchi kartotekasiga kirim qilinadi. *Talabnoma 2-kartotekaga joylashtirilganda balansdan tashqari ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlari bo'yicha quyidagi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi:*

Debet - 90963 "Muddatda to'lanmagan hisob-kitob hujjatlar"

Kredit - 96321 "Muddatda to'lanmagan hisob-kitob hujjatlari bo'yicha kontr-hisobvara"

Mijoz hisob raqamiga pul mablag'i kelib tushganda teskari provodka berish orqali operatsiya oxiriga etkaziladi:

Debet - 96321 "Muddatda to'lanmagan hisob-kitob hujjatlari bo'yicha kontr-hisobvara"

Kredit - 90963 "Muddatda to'lanmagan hisob-kitob hujjatlar"

Undan so'ng quyidagi operatsiya amalga oshiriladi.

Debet – 202xx - to'lovchining talab qilguncha saqlanadigan depozit hisob varaq raqami;

Kredit - 10103 "Bankning Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i" yoki 20xxx - mol oluvchining hisob raqami.

4.4. Akkreditivlar bilan hisob-kitoblar hisobi

Akkreditivga ariza mablag'larni to'lovchi tomonidan shartnomada ko'rsatilgan summani oluvchining akkreditiv bo'yicha hisob-kitoblar uchun ochilgan bank hisobvarag'iga o'tkazishida qo'llaniladigan to'lov hujjati.

Akkreditiv bo'yicha hisob-kitob qilinganida to'lovchining topshirig'i bilan va uning ko'rsatmalariga muvofiq akkreditiv ochgan bank (bank-emitent), mablag'larni oluvchi yoki u ko'rsatgan shaxs hujjatlarni taqdim etgan va akkreditivda nazarda tutilgan boshqa shartlarni bajargan taqdirda to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

Akkreditiv bo'yicha xalqaro hisob-kitoblarda chet el banklari ishtirok etganda, ushbu operatsiyalar Xalqaro savdo palatasining standartlari asosida amalga oshiriladi.

Akkreditiv qoplangan (deponentlangan) va qoplanmagan bo'lishi mumkin.

Qoplangan (deponentlangan) akkreditiv ochilgan taqdirda mablag'larni to'lovchining banki uni ochish vaqtida mijozning mablag'larini yoki unga berilgan kreditni to'lovchining banki majburiyatlari amal qilib turadigan butun muddatga mablag'larni oluvchining banki ixtiyoriga o'tkazadi.

Qoplanmagan akkreditiv ochilgan taqdirda mablag'larni to'lovchining banki mablag'larni oluvchining bankiga akkreditivning butun summasini to'lovchining bankiga mablag'larni oluvchining bankida yuritilayotgan hisobvarag'idan o'chirish huquqini beradi.

Akkreditivlar banklar tomonidan 1-son kartotekada va «Mijozlarning akkreditivlar bo'yicha depozitlari» 22602 balans hisobvarag'ida hisobga olinadi. Mablag'larni oluvchi uchun unga xizmat ko'rsatuvchi bankda akkreditivlar bo'yicha alohida depozit hisobvaraqlari ochiladi.

Qoplangan va qoplanmagan akkreditivlar o'zgartirish kiritish tartibiga ko'ra chaqirib olinadigan va chaqirib olinmaydigan turlarga bo'linadi. Akkreditivda uning chaqirib olinmasligi nazarda tutilmagan bo'lsa, bunday akkreditiv chaqirib olinadigan akkreditiv hisoblanadi.

Chaqirib olinadigan akkreditiv mablag'larni to'lovchining banki tomonidan mablag'larni oluvchi bilan oldindan kelishilmasdan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Akkreditivning chaqirib olinishi to'lovchining banki uchun hech qanday majburiyatni vujudga keltirmaydi.

Chaqirib olinadigan akkreditiv shartlarini o'zgartirish yoki bekor qilish bo'yicha mablag'larni to'lovchining topshiriqlari mablag'larni to'lovchining banki orqali beriladi va mablag'larni to'lovchining banki tomonidan mablag'larni oluvchining bankiga, oluvchining banki tomonidan esa mablag'larni oluvchiga xabar beriladi.

Barcha hisob – kitoblarda bo'lgani singari, dastlab sotuvchi – akkreditiv bo'yicha mablag' oluvchi va sotib oluvchi – akkreditivga ariza beruvchi o'rtasida shartnoma tuziladi (1), sotib oluvchi shartnomada ko'rsatilgan summani sotuvchining hisobiga deponentlash uchun akkreditivga arizani bankka taqdim etadi (2), bank emmitent o'z navbatida akkreditivga arizada ko'rsatilgan summani sotuvchining hisobiga o'tkazish maqsadida elektron arizani bosh bankka jo'natadi (3), bosh bankda filial vakillik hisobidagi mablag' boshqa bir filial vakillik hisobvarag'iga o'tkaziladi va bu haqda elektron akkretivga arizani bank filialiga jo'natadi (4), sotuvchining banki shartnomada ko'rsatilgan akkreditiv summa uning hisobiga deponentlanganini xabar qiladi (5). *Bu operatsiya quyidagi buxgalteriya yozuvi yordamida amalga oshiriladi.*

Debet - 10301 - Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i" (yoki 16103)

Kredit 22602 -"Mijozlarning akkreditivlar bo'yicha depozitlari"

Sotuvchi o'z navbatida tegishli tovarlarni sotib oluvchiga jo'natadi yoki xizmatlarni ko'rsatadi (6), sotuvchi tovarlarni jo'natganligi yoki xizmatlar ko'rsatganligini tasdiqlovchi hujjatlarni bankka taqdim etadi (7), *bank o'z navbatida deponentlangan summaning uning hisobiga o'tkazadi.*

Debet - 22602 "Mijozlarning akkreditivlar bo'yicha depozitlari"

Kredit 20200 "Mijozlarning talab qilinguncha saqlanadigan depozitlar"

4.5. Inkasso topshiriqnomasi bilan hisob-kitoblar hisobi

Inkasso topshiriqnomasi unda ko'rsatilgan mablag'larni to'lovchining banki hisobvarag'idan so'zsiz ravishda hisobdan chiqarish bo'yicha mablag'larni oluvchining topshirig'i nazarda tutilgan to'lov hujjati.

Inkasso topshiriqnomasi mablag'larni to'lovchining faqat asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga taqdim etilishi mumkin, bundan

chet el valyutasidagi bank hisobvaraqlariga taqdim etiladigan inkasso topshiriqnomasi mustasno.

Quyidagilar inkasso topshiriqnomalarini taqdim etish huquqiga ega:

a) davlat soliq xizmati organlari - o'z muddatida to'lanmagan budget tizimiga o'tkaziladigan soliqlar va yig'imlarni undirish to'g'risida;

b) bojxona organlari - o'z muddatida to'lanmagan bojxona to'lovlarini undirish to'g'risida;

v) davlat ijrochilari va undiruvchilar:

ijro hujjatlari bo'yicha pul mablag'larini undirish to'g'risida;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi va uning hududiy tuzilmalari tomonidan iste'molchilar - yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning bank hisobvaraqlariga etkazib berilgan energiya resurslari hamda qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish xizmati bo'yicha qarzdorlikni undirish to'g'risida;

g) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi - O'zbekiston Respublikasining berilgan davlat kafolatlari bilan amalga oshirilgan to'lovlar va ular bilan bog'liq xarajatlar summasini qarz oluvchidan undirish hamda budget ssudasi yoki kredit liniyasi, shu jumladan foizlarni qaytarish to'g'risida;

d) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi (bundan buyon matnda Jamg'arma deb yuritiladi) - Jamg'arma mablag'lari hisobidan tijorat agentlariga («O'zpxastanoat» AJ, «O'zdonmahsulot» AJ, «O'zagrolizing» AJ, «O'zmashlizing» MChJ) ajratilgan maqsadli mablag'larni qaytarish bo'yicha majburiyatlar tijorat agentlari tomonidan bajarilmagan taqdirda, ularning bank hisobvaraqlariga.

Qog'oz shakldagi inkasso topshiriqnomasi mablag'larni oluvchi yoki to'lovchining bankiga uch nusxada taqdim qilinadi. Bunda inkasso topshiriqnomasining:

birinchi va ikkinchi nusxalari ijro uchun bankda qoldiriladi;

uchinchi nusxasi qabul qilish sanasi ko'rsatilgan holda inkasso topshiriqnomasini qabul qilib olgan mas'ul xodim tomonidan imzolanadi va unga birlashtirilgan bank shtampi bilan tasdiqlanib, inkasso topshiriqnomasini taqdim etgan shaxsga qaytarib beriladi.

Mablag'larni oluvchining bankiga taqdim etilgan inkasso topshiriqnomasining birinchi va ikkinchi nusxalari «To'lov hujjatlarini rasmiylashtirish» jurnalida qayd etilgan holda pochta xizmati orqali mablag'larni

to'lovchining bankiga yuboriladi.

Elektron shakldagi inkasso topshiriqnomasi to'lov hujjatlarini taqdim etish tizimi orqali mablag'larni to'lovchining bankiga elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda ijro uchun yuboriladi.

Mablag'larni to'lovchining banki tomonidan to'liq bajarilgan qog'oz shakldagi inkasso topshiriqnomasining:

birinchi nusxasi bankning buxgalteriya kunlik hujjatlar yig'majildiga tikib qo'yiladi;

ikkinchi nusxasi shaxsiy hisobvarag'idan ko'chirma bilan birga mablag'larni to'lovchiga taqdim etiladi.

Elektron shaklda taqdim etilgan inkasso topshiriqnomalarning hisobi bankda dasturiy ravishda yuritiladi.

Mablag'larni to'lovchining banki tomonidan to'liq bajarilgan elektron shakldagi inkasso topshiriqnomasining nusxasini shaxsiy hisobvarag'idan ko'chirma bilan birga mablag'larni to'lovchiga taqdim etish tartibi bank va mijoz o'rtasida tuziladigan shartnomada belgilanadi.

Mablag'larni to'lovchining hisobvarag'ida mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, inkasso topshiriqnomasi 2-son kartotekada hisobga olinadi hamda mablag'larning kelib tushishiga qarab to'lab boriladi.

Inkasso topshiriqnomasi 2-son kartotekada hisobga olinganligi va to'lov summasi haqida u kelib tushgan kundan keyingi operatsiya kundan kechikmay mablag'larni oluvchining bankiga yoki mablag'larni oluvchiga xabar beriladi.

Mablag'larni to'lovchining banki inkasso topshiriqnomasining o'z aybi bilan bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Inkasso topshiriqnomalari bo'yicha hisob-kitoblarda bajariladigan buxgalteriya yozuvlari undiruvchi va to'lov to'lovchilarga xizmat ko'rsatuvchi banklarning joylashuviga bog'liq.

Agar har ikki tomonga bitta bank bo'limi xizmat ko'rsatsa, inkasso toshiriqnomasini to'lash quyidagi buxgalteriya yozuvi orqali bajariladi:

Debet - talab qilguncha saqlanadigan depozit hisob varaq raqami;

Kredit undiruvchining talab qilguncha saqlanadigan depozit hisob varaq raqami.

4.6. Memorial orderlar bilan hisob kitoblar hisobi

Memorial order banklar tomonidan foydalaniladigan naqd pulsiz to'lov hujjati bo'lib, undan quyidagi hollarda foydalaniladi:

mijozlar bilan bog'liq bank operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblarda;

bank xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha hisob-kitoblarda;

banklarning ichki operatsiyalarida;

to'lov hujjatlari bo'yicha qisman to'lov amalga oshirilganda;

ko'zda tutilmagan holatlar bo'yicha buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshirilganda;

mijozning qarzdorlik mablag'larini qoplashda, agar ushbu talab bank bilan mijoz o'rtasida tuzilgan shartnomada belgilab qo'yilgan bo'lsa;

buxgalteriya hisobidagi xato yozuvlarni tuzatishda;

jismoniy shaxslarning (yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi dehqon xo'jaliklaridan tashqari) yozma murojaati bo'yicha mablag'larni naqd pulsiz shaklda o'tkazishni amalga oshirishda, bunda to'lov amalga oshirilgandan so'ng, mazkur murojaat memorial order bilan birga bankning buxgalteriya kunlik hujjatlar yig'majildiga tikib qo'yiladi;

mijozlar bilan tuziladigan shartnomalarda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Bankda 2-son kartotekaga kirim qilingan to'lov hujjatlari bo'yicha qisman to'lov avtomatik tarzda amalga oshiriladi. Bunda memorial orderlarning «To'lov maqsadi» grafasida qisman to'lov amalga oshirilganligini bildiruvchi «Q/t» belgisi, to'lov hujjatining raqami, sanasi va dastlabki summasi ko'rsatiladi.

Bank to'lovchi sifatida qatnashganda va buxgalteriya hisobidagi xato yozuvlarni tuzatishda foydalanadigan memorial orderlar bank rahbarining va bosh buxgalterning imzolari (shu jumladan elektron raqamli imzolari) bilan tasdiqlanishi lozim. Boshqa hollarda memorial orderlar mazkur operatsiyani amalga oshirgan mas'ul xodimlarning (bek-ofis boshlig'i, etakchi buxgalter) imzolari (shu jumladan, elektron raqamli imzolari) bilan tasdiqlanadi.

Memorial orderlar bilan amalga oshirilgan operatsiyalarning to'g'riligi bo'yicha javobgarlik mazkur to'lov hujjatlarini imzolagan shaxslar zimmasiga yuklatiladi.

Boshqa bank mijozlariga tegishli bo'lgan naqd pul bo'yicha mablag'lar

qayta sanash kassasida sanab bo'lingandan keyin, elektron memorial order shakllantirilib, vakillik hisobvarag'idan shu kunning o'zida, elektron to'lov tizimi orqali, ularning hisobvaraqlariga o'tkazib beriladi va quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 29804 - «Boshqa bank mijozlarining inkasso qilingan pul tushumlari va cheklari»;

Kredit 20xxx «Mijozning asosiy depozit hisobvarag'i»;

Kredit 22624 - «Savdo korxonalarining maqsadli mablag'lari» tegishli hisobvarag'iga kirim qilinadi (16103 - «Bosh bank/filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i orqali).

Shu hududda bosh banki yoki filiali bo'lmagan bank binosidan tashqarida joylashgan operatsion kassasiga tegishli bo'lgan naqd pul bo'yicha mablag'lar qayta sanash kassasida sanab bo'lingandan keyin, elektron memorial order shakllantirilib, vakillik hisobvarag'idan shu kunning o'zida elektron to'lov tizimi orqali o'tkazib beriladi va quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 29896 - «Boshqa majburiyatlar» - naqd pulni qabul qilgan tijorat banki (filiali);

Kredit 29896 - «Boshqa majburiyatlar» - boshqa hududda joylashgan tijorat banki (filiali).

Mablag' oluvchining bankiga elektron to'lov tizimi orqali mablag' kelib tushganda, dasturiy yo'l bilan, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali kirim qilinadi:

Debet 29804 - «Boshqa bank mijozlarining inkasso qilingan pul tushumlari va cheklari» (16103 - «Bosh bank/filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i orqali);

Kredit 20xxx - «Mijozning asosiy depozit hisobvarag'i»;

Kredit 22624 - «Savdo korxonalarining maqsadli mablag'lari» (hisobvaraqlarning tegishli shaxsiy hisobvarag'iga kirim qilinadi).

Agar bank tomonidan 29804 - «Boshqa bank mijozlarining inkasso qilingan pul tushumlari va cheklari» hisobvarag'idan memorial order bilan boshqa bank mijozlarining asosiy depozit hisobvarag'iga yoki aktsizli tovarlar sotuvidan pul tushumlari summasi o'tkazilganda, har bir aktsiz tovar turi bo'yicha savdo tushumi summasini alohida memorial order orqali o'tkazilishi shart.

Pul mablag'lari bank aylanma kassasiga elektron to'lov tizimi

yopilgandan keyin kirim qilingan bo'lsa, boshqa bankdagi mijozlarning hisobvarag'iga pul mablag'lari keyingi ish kunidan kechiktirilmagan holda o'tkazib beriladi.

4.7. Plastik kartochkalar hisobi

Overdraft bo'yicha pensionerlar uchun «22617 - Pensionerlarning plastik kartochkalari bo'yicha majburiyatlar» va boshqa jismoniy shaxslar uchun «22618 - Jismoniy shaxslarning plastik kartochkalari bo'yicha majburiyatlari» hisobvaraqlarda overdraft shartnomasiga asosan debet qoldiqqa ega bo'lishga ruxsat beriladi.

Mazkur debet qoldiq amaliyot kuni yakuniga qadar tijorat banki balansining «12503 - Jismoniy shaxslarga plastik kartochkalar orqali berilgan qisqa muddatli kreditlar» hisobvarag'iga o'tkaziladi.

So'mlik plastik kartochkalar bo'yicha quyidagi buxgalteriya hisobi quyidagi buxgalteriya provodkalar orqali amalga oshiriladi:

Mablag'larni "23100 – bank mijozlarining plastik kartochkalariga o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari" hisobiga o'tkazishni tekshirish

1. "23102 – yuridik shaxslarning korporativ plastik kartochkalariga o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari" hisobiga o'tkazmalar quyidagi provodkalar orqali mumkin:

1.1 23102 tranzit hisobvarag'iga mablag'larni o'tkazishda:

Debet 202XX (20206, 20218 tashqari), 21202, 215XX, 22622, 22696, 234XX

Kredit 23102 – yuridik shaxslarning korporativ plastik kartochkalariga o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari

1.2. 23102 hisobvarag'iga mablag'lar noto'g'ri o'tkazilganda tuzatish kiritilgan "08" memorial order, "06" memorial orderdan foydalaniladi:

Debet 23102 – yuridik shaxslarning korporativ plastik kartochkalariga o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari

Kredit 202XX (20206, 20218 tashqari), 21202, 215XX, 22622, 22696, 234XX

1.3. Yuridik shaxslarning plastik kartochkalariga mablag'lar o'tkazilganda:

Debet 23102 – yuridik shaxslarning korporativ plastik kartochkalariga o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari

Kredit 22620 - korporativ plastik kartochkalar bo'yicha majburiyatlar

1.4. 22620 hisobvarag'iga mablag'lar noto'g'ri o'tkazilganda va/yoki mijozning asosiy depozit hisobvarag'i 22620 hisobvarag'idan to'ldirilganda "06" memorial orderdan foydalaniladi:

Debet 22620 - korporativ plastik kartochkalar bo'yicha majburiyatlar

Kredit 23102 – yuridik shaxslarning korporativ plastik kartochkalariga o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari

2. «23104 – yakka tartibdagi tadbirkorlarning korporativ plastik kartochkalariga o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari» hisobiga o'tkazmalar quyidagi provodkalar orqali mumkin:

2.1. 23104 tranzit hisobvarag'iga mablag'larni o'tkazishda:

Debet 20218 - yakka tartibdagi tadbirkorlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari

Kredit 23104– yakka tartibdagi tadbirkorlarning korporativ plastik kartochkalariga o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari

2.2. 23104 hisobvarag'iga mablag'lar noto'g'ri o'tkazilganda tuzatish kiritilgan "08" memorial order, "06" memorial orderdan foydalaniladi:

Debet 23104– yakka tartibdagi tadbirkorlarning korporativ plastik kartochkalariga o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari

Kredit 20218 - Yakka tartibdagi tadbirkorlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari

2.3. Yakka tartibdagi tadbirkorlarning plastik kartochkalariga mablag'lar o'tkazilganda:

Debet 23104– yakka tartibdagi tadbirkorlarning korporativ plastik kartochkalariga o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari

Kredit 22619

2.4. 22619 hisobvarag'iga mablag'lar noto'g'ri o'tkazilganda va/yoki mijozning asosiy depozit hisobvarag'i 22619 hisobvarag'idan to'ldirilganda "06" memorial orderdan foydalaniladi:

Debet 22619– yakka tartibdagi tadbirkorlarning korporativ plastik kartochkalariga o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari

Kredit 23104 - yakka tartibdagi tadbirkorlarning korporativ plastik kartalariga o'tkazilishi lozim bo'lgan mablag'lar bo'yicha tranzit hisobvaraqlar

3. "23106 – Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning xodimlari plastik kartochkalariga ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, hamda pensiyalar, kompensatsiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlar o'tkaziladigan

mablag'larning tranzit hisobvaraqlari" hisobiga o'tkazmalar quyidagi provodkalar orqali mumkin:

3.1. 23106 tranzit hisobvarag'iga mablag'larni o'tkazishda:

Debet 202XX (20206, 20218 tashqari), 215XX, 22604, 22622, 22626, 22696, 23202, 23208, 23210, 23218, 23220, 23222, 12701, 12901, 13101, 13301, 14301, 15501

Kredit 23106

3.2. 23106 hisobvarag'iga mablag'lar noto'g'ri o'tkazilganda tuzatish kiritilgan "08" memorial order, "06" memorial orderdan foydalaniladi:

Debet 23106 - Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar bo'yicha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar xodimlarining plastik kartalariga o'tkazilishi lozim bo'lgan mablag'lar bo'yicha tranzit hisobvaraqlar

Kredit 202XX (20206, 20218 tashqari), 215XX, 22604, 22622, 22626, 22696, 23202, 23208, 23210, 23218, 23220, 23222, 12701, 12901, 13101, 13301, 14301, 15501

3.3. Jismoniy shaxslarning plastik kartochkasiga mablag'larni o'tkazishda:

Debet 23106 - Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar bo'yicha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar xodimlarining plastik kartalariga o'tkazilishi lozim bo'lgan mablag'lar bo'yicha tranzit hisobvaraqlar

Kredit 22618 - jismoniy shaxslarning plastik kartochkalari bo'yicha majburiyatlar

3.4. 22618 hisobvarag'iga mablag'lar noto'g'ri o'tkazilganda "06" memorial orderdan foydalaniladi:

Debet 22618 - jismoniy shaxslarning plastik kartochkalari bo'yicha majburiyatlar

Kredit 23106 - ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar bo'yicha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar xodimlarining plastik kartalariga o'tkazilishi lozim bo'lgan mablag'lar bo'yicha tranzit hisobvaraqlar

4. «23108 – budjet tashkilotlari xodimlari plastik kartochkalariga ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, hamda pensiyalar, kompensatsiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlar o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari" hisobiga o'tkazmalar quyidagi provodkalar orqali mumkin:

4.1. 23108 tranzit hisobvarag'iga mablag'larni o'tkazishda:

Debet 20203, 20204, 215XX, 234XX, 23402000300100001010

Kredit 23108 - budjet tashkilotlari xodimlari plastik kartochkalariga ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, hamda pensiyalar, kompensatsiyalar

va boshqa ijtimoiy to'lovlar o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari

4.2. 23108 hisobvarag'iga mablag'lar noto'g'ri o'tkazilganda tuzatish kiritilgan "08" memorial order, "06" memorial orderdan foydalaniladi:

Debet 23108 - budjet tashkilotlari xodimlari plastik kartochkalariga ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, hamda pensiyalar, kompensatsiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlar o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari

Kredit 20203, 20204, 215XX, 234XX, 23402000300100001010

4.3. Jismoniy shaxslarning plastik kartochkasiga mablag'larni o'tkazishda:

Debet 23108 - budjet tashkilotlari xodimlari plastik kartochkalariga ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, hamda pensiyalar, kompensatsiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlar o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari

Kredit 22618 - jismoniy shaxslarning plastik kartochkalari bo'yicha majburiyatlar

4.4. 22618 hisobvarag'iga mablag'lar noto'g'ri o'tkazilganda "06" memorial orderdan foydalaniladi:

Debet 22618 - jismoniy shaxslarning plastik kartochkalari bo'yicha majburiyatlar

Kredit 23108 - budjet tashkilotlari xodimlari plastik kartochkalariga ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, hamda pensiyalar, kompensatsiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlar o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari

5. «23110 – Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, shuningdek pensiyalar, kompensatsiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlar bo'yicha Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Davlat bojxona qo'mitasi xodimlari (kontingent)ning plastik kartalariga o'tkazilishi lozim bo'lgan mablag'lar bo'yicha tranzit hisobvaraqlar» hisobiga o'tkazmalar quyidagi provodkalar orqali mumkin:

5.1. 23110 tranzit hisobvarag'iga mablag'larni o'tkazishda:

Debet 20203, 215XX, 234XX, 29801000KXXXXXXXXXX012 (013,014)

Kredit 23110 - ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, shuningdek pensiyalar, kompensatsiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlar bo'yicha Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Davlat bojxona qo'mitasi xodimlari (kontingent)ning

plastik kartalariga o'tkazilishi lozim bo'lgan mablag'lar bo'yicha tranzit hisobvaraqlar

5.2. 23110 hisobvarag'iga mablag'lar noto'g'ri o'tkazilganda "06" memorial orderdan foydalaniladi:

Debet 23110 - ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, shuningdek pensiyalar, kompensatsiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlar bo'yicha Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Davlat bojxona qo'mitasi xodimlari (kontingent)ning plastik kartalariga o'tkazilishi lozim bo'lgan mablag'lar bo'yicha tranzit hisobvaraqlar

Kredit 20203, 215XX, 234XX, 29801000KXXXXXXXXXX012 (013,014)

5.3. Jismoniy shaxslarning plastik kartochkasiga mablag'larni o'tkazishda:

Debet 23110 - ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, shuningdek pensiyalar, kompensatsiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlar bo'yicha Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Davlat bojxona qo'mitasi xodimlari (kontingent)ning plastik kartalariga o'tkazilishi lozim bo'lgan mablag'lar bo'yicha tranzit hisobvaraqlar

Kredit 22618 - jismoniy shaxslarning plastik kartochkalari bo'yicha majburiyatlar

5.4. 22618 hisobvarag'iga mablag'lar noto'g'ri o'tkazilganda "06" memorial orderdan foydalaniladi:

Debet 22618- jismoniy shaxslarning plastik kartochkalari bo'yicha majburiyatlar

Kredit 23110 - ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, shuningdek pensiyalar, kompensatsiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlar bo'yicha Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Davlat bojxona qo'mitasi xodimlari (kontingent)ning plastik kartalariga o'tkazilishi lozim bo'lgan mablag'lar bo'yicha tranzit hisobvaraqlar

6. «23112 – jismoniy shaxslarning plastik kartochkalariga ishlamaydigan pensionerlar pensiyalari o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari» hisobiga o'tkazmalar quyidagi provodkalar orqali mumkin:

6.1. 23112 tranzit hisobvarag'iga mablag'larni o'tkazishda:

Debet 20205000KXXXXXXXXXX874, 20205000KXXXXXXXXXX879,

20205000KXXXXXXXXXX996, 20205000KXXXXXXXXXX997, 23402000
300100001010

Kredit 23112 - jismoniy shaxslarning plastik kartochkalariga ishlaymaydigan pensionerlar pensiyalari o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari

6.2. 23112 hisobvarag'iga mablag'lar noto'g'ri o'tkazilganda tuzatish kiritilgan "08" memorial order, "06" memorial orderdan foydalaniladi:

Debet 23112 - jismoniy shaxslarning plastik kartochkalariga ishlaymaydigan pensionerlar pensiyalari o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari

Kredit 20205000KXXXXXXXXXX874, 20205000KXXXXXXXXXX879, 20205000KXXXXXXXXXX996, 20205000KXXXXXXXXXX997, 23402000
300100001010

6.3. Ishlamaydigan pensionerlar plastik kartochkasiga mablag'larni o'tkazishda:

Debet 23112 - jismoniy shaxslarning plastik kartochkalariga ishlaymaydigan pensionerlar pensiyalari o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari

Kredit 22617 - pensionerlarning plastik kartochkalari bo'yicha majburiyatlar

6.4. 22617 hisobvarag'iga mablag'lar noto'g'ri o'tkazilganda "06" memorial orderdan foydalaniladi:

Debet 22617 - pensionerlarning plastik kartochkalari bo'yicha majburiyatlar

Kredit 23112 - jismoniy shaxslarning plastik kartochkalariga ishlaymaydigan pensionerlar pensiyalari o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari

7. «23114 – jismoniy shaxslarning plastik kartochkalariga ijtimoiy to'lovlar, kompensatsiyalar va boshqa to'lovlar o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari" hisobiga o'tkazmalar quyidagi provodkalar orqali mumkin:

7.1. 23114 tranzit hisobvarag'iga mablag'larni o'tkazishda:

Debet 20205, 20212, 21508, 23402000300100001010, 29801

Kredit 23114 - jismoniy shaxslarning plastik kartochkalariga ijtimoiy to'lovlar, kompensatsiyalar va boshqa to'lovlar o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari

7.2. 23114 hisobvarag'iga mablag'lar noto'g'ri o'tkazilganda tuzatish

kiritilgan "08" memorial order, "06" memorial orderdan foydalaniladi:

Debet 23114 - jismoniy shaxslarning plastik kartochkalariga ijtimoiy to'lovlar, kompensatsiyalar va boshqa to'lovlar o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari

Kredit 20205, 20212, 21508, 23402000300100001010, 29801

7.3. Jismoniy shaxslarning plastik kartochkasiga mablag'larni o'tkazishda:

Debet 23114 - jismoniy shaxslarning plastik kartochkalariga ijtimoiy to'lovlar, kompensatsiyalar va boshqa to'lovlar o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari

Kredit 22618 - jismoniy shaxslarning plastik kartochkalari bo'yicha majburiyatlar

7.4. 22618 hisobvarag'iga mablag'lar noto'g'ri o'tkazilganda "06" memorial orderdan foydalaniladi:

Debet 22618- jismoniy shaxslarning plastik kartochkalari bo'yicha majburiyatlar

Kredit 23114 - jismoniy shaxslarning plastik kartochkalariga ijtimoiy to'lovlar, kompensatsiyalar va boshqa to'lovlar o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari

8. «23116 – jismoniy shaxslarning plastik kartochkalariga naqd pul o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari" hisobiga o'tkazmalar quyidagi provodkalar orqali mumkin:

8.1. 23116 tranzit hisobvarag'iga mablag'larni o'tkazishda:

Debet 10101, 10103, 10107, 10111

Kredit 23116 - jismoniy shaxslarning plastik kartochkalariga naqd pul o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari

8.2. Agar to'lov filillararo yoki banklararo bo'lsa, boshqa filillar yoki banklarda ochilgan tranzit hisobvaraqlariga mablag'lar o'tkazilganda, quyidagi provodkalar ruxsat etiladi:

Debet 23116 (bank A) - jismoniy shaxslarning plastik kartochkalariga naqd pul o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari

Kredit 23116 (bank B) - jismoniy shaxslarning plastik kartochkalariga naqd pul o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari

8.3. Jismoniy shaxslarning plastik kartochkasiga mablag'larni o'tkazishda:

Debet 23116 - jismoniy shaxslarning plastik kartochkalariga naqd pul o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari

Kredit 22617, 22618- - jismoniy shaxslarning plastik kartochkalari bo'yicha majburiyatlar

9. «23118 – jismoniy shaxslarning plastik kartochkalariga boshqa plastik kartochkalardan va hisobvaraqlardan o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari” hisobiga o'tkazmalar quyidagi provodkalar orqali mumkin:

9.1. 23118 tranzit hisobvarag'iga mablag'larni o'tkazishda:

Debet 20206, 20406, 20606, 22617, 22618, 17403, 452XX

Kredit 23118 - jismoniy shaxslarning plastik kartochkalariga boshqa plastik kartochkalardan va hisobvaraqlardan o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari

9.2. 23118 hisobvarag'iga mablag'lar noto'g'ri o'tkazilganda tuzatish kiritilgan “08” memorial order, “06” memorial orderdan foydalaniladi:

Debet 23118 - jismoniy shaxslarning plastik kartochkalariga boshqa plastik kartochkalardan va hisobvaraqlardan o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari

Kredit 20206, 20406, 20606, 22617, 22618, 452XX

9.3. Jismoniy shaxslarning plastik kartochkasiga mablag'larni o'tkazishda:

Debet 23118 - jismoniy shaxslarning plastik kartochkalariga boshqa plastik kartochkalardan va hisobvaraqlardan o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari

Kredit 22617, 22618 - jismoniy shaxslarning plastik kartochkalari bo'yicha majburiyatlar

9.4. 22617, 22618 hisobvaraqlariga mablag'lar noto'g'ri o'tkazilganda “06” memorial orderdan foydalaniladi:

Debet 22617, 22618 - jismoniy shaxslarning plastik kartochkalari bo'yicha majburiyatlar

Kredit 23118 - jismoniy shaxslarning plastik kartochkalariga boshqa plastik kartochkalardan va hisobvaraqlardan o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari

10. «23120 – jismoniy shaxslarning plastik kartochkalariga naqdsiz o'tkaziladigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari” hisobiga o'tkazmalar quyidagi provodkalar orqali mumkin:

10.1. 23120 tranzit hisobvarag'iga mablag'larni o'tkazishda:

Debet 12501, 14901, 19907, 19909, 202XX (20206 tashqari), 215XX, 22612, 22622, 22626, 22628, 22696, 23202, 23210, 23220, 23222, 234XX,

22412, 29803, 29805, 29822, 452XX

Kredit 23120 – jismoniy shaxslarning plastik kartochkalariga naqdsiz o‘tkaziladigan mablag‘larning tranzit hisobvaraqlari

10.2. 23120 hisobvarag‘iga mablag‘lar noto‘g‘ri o‘tkazilganda tuzatish kiritilgan “08” memorial order, “06” memorial orderdan foydalaniladi:

Debet 23120 – jismoniy shaxslarning plastik kartochkalariga naqdsiz o‘tkaziladigan mablag‘larning tranzit hisobvaraqlari

Kredit 12501, 14901, 19907, 19909, 202XX (20206 tashqari), 215XX, 22612, 22622, 22626, 22628, 22696, 23202, 23210, 23220, 23222, 234XX, 22412, 29803, 29805, 29822, 452XX

10.3. Jismoniy shaxslarning plastik kartochkasiga mablag‘larni o‘tkazishda:

Debet 23120 - jismoniy shaxslarning plastik kartochkalariga naqdsiz o‘tkaziladigan mablag‘larning tranzit hisobvaraqlari

Kredit 22617, 22618 - jismoniy shaxslarning plastik kartochkalari bo‘yicha majburiyatlar

10.4. 22617, 22618 hisobvaraqlariga mablag‘lar noto‘g‘ri o‘tkazilganda “06” memorial orderdan foydalaniladi:

Debet 22617, 22618 - jismoniy shaxslarning plastik kartochkalari bo‘yicha majburiyatlar

Kredit 23120 - jismoniy shaxslarning plastik kartochkalariga naqdsiz o‘tkaziladigan mablag‘larning tranzit hisobvaraqlari

11. «29896– bank xodimlari plastik kartochkalariga ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, hamda pensiyalar, kompensatsiyalar va boshqa ijtimoiy to‘lovlar o‘tkaziladigan mablag‘larning tranzit hisobvaraqlari” hisobiga o‘tkazmalar quyidagi provodkalar orqali mumkin:

11.1. 29896 tranzit hisobvarag‘iga mablag‘larni o‘tkazishda:

Debet 19908, 29803 - To‘lanishi lozim bo‘lgan mablag‘lar — Xodimlar bilan hisob-kitoblar

Kredit 29896 - Boshqa majburiyatlar

11.2. 29896 hisobvarag‘iga mablag‘lar noto‘g‘ri o‘tkazilganda tuzatish kiritilgan “08” memorial order, “06” memorial orderdan foydalaniladi:

Debet 29896 - Boshqa majburiyatlar

Kredit 19908, 29803 - To‘lanishi lozim bo‘lgan mablag‘lar — Xodimlar bilan hisob-kitoblar

11.3. Xodimning plastik kartochkasiga mablag‘larni o‘tkazishda:

Debet 29896 - Boshqa majburiyatlar

Kredit 22618 - jismoniy shaxslarning plastik kartochkalari bo'yicha majburiyatlar

11.4. 22618 hisobvaraqlariga mablag'lar noto'g'ri o'tkazilganda "06" memorial orderdan foydalaniladi:

Debet 22618 - jismoniy shaxslarning plastik kartochkalari bo'yicha majburiyatlar

Kredit 29896 - Boshqa majburiyatlar

12. Banklar korporativ plastik kartochkalari orqali hisob-kitoblarda quyidagi provodkalar o'tkazish mumkin:

12.1. 29896 tranzit hisobvarag'iga mablag'larni o'tkazishda:

Debet 19910 - Bankning mas'ul xodimlariga berilgan korporativ plastik kartalardan hisob-kitoblar uchun pul mablag'lari

Kredit 29896 - Boshqa majburiyatlar

12.2. 29896 hisobvarag'iga mablag'lar noto'g'ri o'tkazilganda "06" memorial orderdan foydalaniladi:

Debet 29896 - Boshqa majburiyatlar

Kredit 19910 - Bankning mas'ul xodimlariga berilgan korporativ plastik kartalardan hisob-kitoblar uchun pul mablag'lari

12.3. Bankning korporativ plastik kartochkasiga mablag'larni o'tkazishda:

Debet 29896 - Boshqa majburiyatlar

Kredit 29810 - Bankning mas'ul xodimlariga berilgan korporativ plastik kartalar bo'yicha hisobdan chiqarilishi lozim bo'lgan pul mablag'lari

Nazorat savollari va topshiriqlar.

1. Naqd pulsiz hisob-kitoblar mohiyati va ularni tashkil etish asoslari.
2. To'lov topshiriqnomalari bilan hisob-kitoblar.
3. To'lov talabnomalari bilan hisob-kitoblar.
4. Akkreditivlar bilan hisob-kitoblar;
5. Inkasso topshiriqnomasi bilan hisob-kitoblar;
6. Memoreal orderlar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi, ularni rasmiylashtirilishi va hisobini yuritish.

IV bob bo'yicha masala va mashqlar.

1-masala. "Ipoteka" banki Yunusobod bo'limiga 2020 yilning 13 martida 2 ta korxonadan talab qilinguncha saqlanadigan depozit bo'yicha hisobvaraqlar ochish to'g'risida tegishli hujjatlar topshirildi. Hujjatlar

tekshiruvdan o'tkazilganidan so'ng «Uch yulduz» xususiy korxonasiga so'mda, «Polaris» qo'shma korxonasiga dollarda yuritiladigan valyutali hisobraqam ochildi. Bankka har ikki korxonona va bank o'rtasidagi hisob-kassa xizmatini ko'rsatish bo'yicha shartnoma imzolandi.

Talab qilinadi:

1. «Uch yulduz» va «Polaris» korxonalari tomonidan bankka topshirilgan hujjatlarni sanab o'ting va har birini izohlab bering.

2. Korxonona va tashkilotlarga hisobvaraqa ochish tartibini tu-shuntiring.

3. Korxonalarga ochilgan hisobvaraqa nomerlarini belgilang.

4. Hisob-kassa xizmatini ko'rsatish bo'yicha shartnomaning maz-munini va ahamiyatini tushuntirib bering.

2-masala. Aloqabank filialida quyidagi mijozlarning hisobvaraqlari yopilmoqda:

a) «Lochin» korxonasi (hisobvaraqa qoldig'i - 289750.0 so'm). Kasalxonona hisobvaraqa idagi mablag'lar Shahar sog'liqni saqlash bo'limi qoshida markazlashgan buxgalteriya hisobvaraqa'iga o'tkazildi. Buxgalteriya hisobvaraqa'i boshqa bankda yuritiladi.

Talab qilinadi:

1. Mijozlarning hisobvaraqlari qanday hollarda yopiladi?

2. Hisobvaraqlarning yopilishi qanday tartibda rasmiylashti-riladi?

3. Buxgalteriya provodkalarini ko'rsating.

3-masala 20210000400291497001-raqamli hisobvaraqa bo'yicha quyidagi operatsiyalar o'tkazildi.

1. Boshqa shahardagi mol jo'natgan korxonadan to'lov talabnomasi tushdi.- 32000.0 ming so'm.

2. Xom ashyoga pul o'tkazish uchun mijozdan to'lov topshirig'i kelib tushdi - 38000.0 ming so'm.

3. Pensiya fondiga badallarni o'tkazish uchun to'lov topshirig'i topshirildi.- 12900.0 ming so'm.

4. Ish haqi olish uchun pul cheki topshirildi - 48100.0 ming so'm.

5. Ishchi xizmatchilar ish haqidan ushlab qolingana daromad solig'ini to'lash uchun to'lov topshirig'i topshirildi - 21400.0 ming so'm.

6. Kredit bo'limining kreditni muddatdan avval qaytarish bo'yicha farmoyishi berildi - 18280.0 ming so'm.

Korxonona hisobvaraqa'ida kun boshiga bo'lgan qoldiq 132145.0 so'mni tashkil etadi.

Talab qilinadi:

1. Mijozlarning hisobvaraqlari bo'yicha amalga oshiriladigan to'lovlar ketma-ketligi qanday?

2. Tegishli buxgalteriya provodkalarini bajaring.

4-masala «Sino» ishlab chiqarish birlashmasi 21 mart kuni o'ziga xizmat ko'rsatuvchi bank filialiga 35 - nomerli 35200.0 so'mga rasmiylashtirilgan to'lov topshirig'ini topshirdi. Topshiriqnomada ko'r-satilgan pul summasi shu bankda hisobvaraqlar ochgan «Elektr jihoz-lari» zavodiga 20 martdagi 12- shartnoma asosida jo'natilgan tovar uchun o'tkazilishi lozim edi. Topshiriqnomada shu kunning o'zida to'landi.

Talab qilinadi:

1. To'lov topshiriqnomada rekvizitlarini sanab o'ting.

2. To'lov topshirig'ini rasmiylashtirish tartibi, nusxalar soni to'g'risida ma'lumot bering.

3. Buxgalteriya provodkalarini ko'rsating.

5-masala Yunusobod "Sanoatqurilishbank" filialiga 15-aprelda «Yulduz» ishlab chiqarish birlashmasi tomonidan quyidagi mol sotuvchi korxonalariga pul o'tkazish to'g'risidagi topshiriqnomalar berildi:

- (hisobvaraqlardagi qoldiq 299800.0 so'm) 12 aprelda olgan mahsuloti uchun

- Tekstil kombinatiga (hisobvarag'i shu shahardagi boshqa bank bo'limida) 198540,0 so'm.

- Tugmacha ishlab chiqaruvchi xususiy korxonaga (hisobvarag'i shu bankda ochilgan) 12450,0 so'm.

Ko'shilgan qiymat solig'ini to'lash uchun Yunusobod soliq nazorati idorasiga 8450,0 so'm.

- Marg'ilon ipak fabrikasiga 92430,0 so'm.

Talab qilinadi:

1. Bank mas'ul ijrochisi to'lov topshiriqnomalari bo'yicha qanday nazorat o'tkazadi?

2. Mijoz hisobvarag'ida to'lash uchun pul etarli bo'lmasa, topshiriqnomada bank tomonidan qabul qilinishi mumkinmi?

3. Topshiriqnomalar necha nusxada rasmiylashtirilgan, har bir nusxalarining ishlatilishini tushuntiring.

4. Operatsiyalar bo'yicha barcha buxgalteriya yozuvlarini bajaring.

6-masala “Mikrokreditbank” filialiga qo’shma korxonalar tomonidan “Aloqabank” bo‘limida hisobvaraqlar ochgan korxonalar nomiga jo‘natish uchun 2 ta to‘lov talabnomasi kelib tushdi. Bu talabnomalar inkassoga qabul qilindi.

Talab qilinadi:

1. To‘lov talabnomasining rekvizitlarini sanab o‘ting.
2. Talabnomalarning nusxalar sonini va qanday hujjat bilan bankka taqdim qilinishini ayting.

3. Mas’ul ijrochining to‘lov talabnomalarini qabul qilish bilan bog‘liq vazifalari nimalardan iborat?

7-masala “Aloqabank” bo‘limiga shu shahardagi “Mikrokreditbank” filialidan qo’shma korxonalar tomonidan rasmiylashtirilgan 2 ta to‘lov talabnomasi kelib tushdi. Birinchi talabnoma nomeri -65 110650.0 so‘mga “Atlas” davlat korxonasi nomiga (tovarlar uchun), ikkinchisi - 33 nomerli talabnoma 91379 so‘mga ko‘rsatilgan xizmatlar uchun “Lochin” xususiy korxonasi nomiga.

Bundan tashqari, shu bankning xizmatidan foydalanuvchi “Shark” xususiy korxonasi nomidan “Kumush” xususiy korxonasi nomiga 230000.0 so‘mga rasmiylashtirilgan to‘lov talabnomasi topshirildi. Yuqoridagi korxonalarning hisobvarag‘ida to‘lash uchun pul etarli. “Kumush” xususiy korxonasining hisobvarag‘ida esa to‘lash uchun pul yo‘q.

Talab qilinadi:

1. Aktsept bo‘yicha to‘lanadigan to‘lov talabnomalari bo‘yicha hisob-kitoblarning mazmunini ko‘rsating.
2. Birinchi kartoteka va uni yuritilishi to‘g‘risida ma’lumot bering.
3. Yuqoridagi operatsiyalar bo‘yicha provodkalarini bajaring.

8-masala 25 aprel kuni Sanoat qurilish bankining Yunusobod bo‘limiga “Yulduz” ishlab chiqarish birlashmasi nomiga “Mikrokreditbank” bo‘limidagi xususiy korxonadan ikkita to‘lov talabnomasi kelib tushdi.

1. № 21 29845.0 so‘m
2. № 24 92600.0 so‘m

To‘lov muddati kelganda bu talabnomalarni to‘lash uchun rozilik olingandan so‘ng har ikkalasi to‘landi. Birlashma tomonidan shu kuni daromad solig‘ini to‘lash uchun 148-nomerli 47850.0 so‘mlik topshiriqnomaga, olingan tovarlar uchun 112000.0 so‘mga rasmiylashtirilgan 119-sonli topshiriqnomaga ham kelib tushdi.

26 aprel kun boshiga korxonalar hisobvarag‘ida 140000.0 ming so‘m

mablagʻlari mavjud boʻlgan.

Talab qilinadi:

1. Korxonaga talab qilinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqa oching;
2. 25 aprel kuni oʻtkazilgan operatsiyalarni bajaring;
3. 1 va 2-kartotekaga tavsif bering;
4. Talabnomalarni qabul qilish va toʻlash boʻyicha provodkalar-ni bajaring;
5. Toʻlov topshiriqnomalarining hammasi bank tomonidan toʻlandimi?

9-masala Sobir Raximov “Sanoatqurilish” bank filialiga 18 martda toʻlash uchun quyidagi hisob-kitob hujjatlari kelib tushdi:

1. Boshqa shahardagi “Sanoatqurilishbanki”dan 540000 soʻmga 4 ta talabnoma.

2. Shu shahardagi “Mikrokreditbank” filialidan 242000 soʻmga 3 ta talabnoma.

3. “Mikond” zavodi nomiga issiqlik energiyasi uchun aktseptsiz toʻlanishi lozim boʻlgan 92000 soʻmlik talabnoma.

Bank boʻyicha 18 martda “Toʻlov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari” kartotekasining qoldigʻi 1920500 soʻmni tashkil qilgan.

Aktsept muddati tugagandan soʻng barcha talabnomalar toʻlangan.

Talab qilinadi:

1. Aktseptsiz toʻlovlarning mazmunini tushuntirib bering.
2. Yuqoridagi talabnomalar boʻyicha aktsept muddatlari qachon tugashini ayting.
3. Balans ichidagi va balansdan tashqari buxgalteriya provod-kalarini bajaring.
4. Operatsiyalar bajarilgandan soʻng toʻlov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari kartotekasining qoldigʻini hisoblab chiqaring.

10-masala 10 may kuni “Sanoatqurilishbank” Hamza boʻlimidagi “Sun” xususiy korxonasi nomiga “Sanoatqurilishbanki” Mirzo Ulugʻbek filialidagi “Omad” ishlab chiqarish birlashmasidan 2 ta toʻlov talabnomasi kelib tushdi.

1. № 28 500000.00 soʻm

2. № 31 297000.00 soʻm

Toʻlash muddati kelganda 15 va 31 talabnomalar toʻlandi. 17- talabnoma boʻyicha shartnoma shartlari buzilganligi uchun toʻlamaslik toʻgʻrisidagi norozilik arizasi kelib tushdi. 31-toʻlov talab-nomasining puli toʻlash uchun etarli boʻlmagani sababli, qisman toʻlandi (125000.00).

Talab qilinadi:

1. “Omad” nomiga kelib tushgan to‘lov talabnomala-ri bo‘yicha mas‘ul ijrochi qanday yo‘l tutadi?
2. Norozilik arizasi qanday hollarda beriladi va ularda ni-malar ko‘rsatiladi?
3. To‘lov talabnomasi bo‘yicha hujjatlar aylanish sxemasini chizing.
4. Balans ichidagi va balans tashqari hisobvaraqlar bo‘yicha buxgalteriya provodkalarini bering.

11-masala “Asia” xususiy korxonasi qishloq xo‘jalik mashinalari ehtiyot qismlari sotib olish uchun Toshkent traktor ishlab chiqarish birlashmasi bilan 1250000.0 so‘mga shartnoma tuzdi. Shartnomaga asosan hisob-kitob akkreditiv usulida ko‘zda tutilgan. “Asia” xususiy korxonasi Xonqa tuman “Agrobank” bo‘limiga 1250000.0 so‘mga rasmiylashtirilgan akkreditiv ochish uchun arizani topshirdi. Arizaga asosan “Asia” xususiy korxonasining talab qilinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag‘idan Toshkent traktor ishlab chiqarish birlashmasiga xizmat qiluvchi bankka pul o‘tkazildi.

Talab qilinadi:

1. Akkreditiv ochish uchun ariza rekvizitlarini sanab o‘ting va nusxalar soni, ularning ishlatilishini tushuntiring.
2. Akkreditiv ochish bo‘yicha hujjatlar aylanish sxemasini ko‘rsating.
3. Operatsiyalar bo‘yicha buxgalteriya provodkalarini ko‘rsating.

12-masala “Milliybank”ning Bulung‘ur bo‘limiga 10 may kuni “Diamond” xususiy korxonasi nomiga № 38 to‘lov talabnomasi 100000 so‘mga rasmiylashtirilgan holda AT “Aloqabank”ning Buxoro viloyat bo‘limidagi “Fayz” qo‘shma korxonasi nomidan kelib tushdi. Shu kuni “Diamond” xususiy korxonasiga o‘tkazish uchun 85500 so‘mlik № 18 to‘lov topshiriqnomasi jo‘natilgan tovarlar uchun, shu bank xizmati-dan foydalanuvchi davlat korxonasi nomidan kelib tushdi.

Shuningdek, mazkur kunda “Feruz-2” dehqon-fermer xo‘jaligi nomiga shu bank xizmatidan foydalanuvchi Davlat soliq idorasi nomidan № 10 inkasso topshiriqnomasi 24500 so‘mga rasmiylashti-rilib topshirildi. Mazkur korxonalarda to‘lash uchun pul etarli. Bankda to‘lovlar amalga oshirildi. Talabnoma esa 1-kartotekaga qabul qilindi.

Talab qilinadi:

1. To‘lov talabnomasi bo‘yicha mas‘ul ijrochining harakatini tushuntiring.
2. Inkasso topshiriqnomasi kimlar tomonidan topshiriladi?
3. Yuqoridagi to‘lov hujjatlarining har biri necha nusxada topshirilgan?

4. 10 may kuni bankda o'tkazilgan barcha provodkalarini bajaring.

13-masala Toshkent traktor ishlab chiqarish birlashmasiga xizmat ko'rsa-tuvchi Mirzo Ulug'bek tumani Sanoatqurilish banki bo'limiga To'rtko'l tumani "Mikrokreditbank" bo'limida akkreditiv ochish uchun elektron ariza kelib tushdi. Arizaga asosan Toshkent traktor ishlab chiqarish birlashmasi nomiga akkreditiv ochildi va unga akkreditiv ochgani to'g'risida xabar berildi.

Toshkent traktor ishlab chiqarish birlashmasi tomonidan belgilangan hujjatlar bankka topshirilgandan so'ng akkreditiv summasi uning talab qilinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'iga o'tkazildi.

Talab qilinadi:

1. Akkreditiv ochish va uni Toshkent traktor ishlab chiqarish birlashmasi hisobvarag'iga o'tkazish bo'yicha buxgalteriya provodkalarini bajaring.

2. Toshkent traktor ishlab chiqarish birlashmasiga qanday hujjatlarni bank taqdim qilgan.

3. Bank mas'ul ijrochisining ushbu operatsiya bo'yicha harakatini ko'rsating.

14-masala "Ardus" qo'shma korxonasi bilan "Tempo" xususiy ishlab chiqaruvchi korxonaga o'rtasida 5 may kuni xo'jalik shartnomasi tuzildi. Shartnomaga muvofiq "Tempo", "Ardus"ga 5000000.0 so'mlik tovar etkazib berishi kerak. Shartnomaga asosan akkreditiv bo'yicha hisob-kitob qilish kelishildi. "Ardus" qo'shma korxonasiga Toshkent shahridagi "Milliy bank"ning poytaxt bo'limi xizmat ko'rsatadi. "Tempo" xususiy korxonasiga Guliston shahridagi "Mikrokreditbank" bo'limi xizmat ko'rsatadi. 8 may kuni "Ardus" 5 mln. so'mga akkreditiv ochish to'g'risida o'z bankiga ariza topshirdi. Arizaga asosan Milliy bankda pul o'tkazish bo'yicha "Mikrokreditbank" bo'limida akkreditiv ochish bo'yicha operatsiyalar o'tkazildi. Bu haqda "Tempo"ga xabar berildi. "Tempo" esa 4.0 mln. ga tovar jo'natib, bu haqda bankka kerakli hujjatlar taqdim etdi. Akkreditiv summasi "Tempo" korxonasi hisobvarag'iga o'tkazildi.

Talab qilinadi:

1. Akkreditivning mazmuni, uning ijobiy va salbiy tomonlari haqida tushuncha bering.

2. Har ikki bankda bo'ladigan buxgalteriya provodkalarini bajaring.

3. Mas'ul ijrochi hujjatlarni qabul qilishda nimalarga e'tibor berishi kerak.

15-masala “Mikrokreditbank” bo‘limi “Tempo” tomonidan hujjatlarni qabul qilgandan so‘ng akkreditiv summasini uning hisobvarag‘iga o‘tkazdi. Akkreditivning ishlatilganligi haqidagi hujjatlarni Toshkent shahridagi Milliy bank bo‘limiga jo‘natdi. Milliy bank bo‘limi “Ardus”ga akkreditivni yopilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim qildi va kerakli buxgalteriya provodkalarini o‘tkazdi.

Talab qilinadi: “Tempo” ishlab chiqarish birlashmasiga xizmat ko‘rsatuvchi “Mikrokreditbank” bo‘limi tomonidan Milliy bank bo‘limiga qanday hujjatlar jo‘natildi?

1. Akkreditiv muddatlari haqida nimalar deya olasiz?
2. Milliy bankda bajariladigan buxgalteriya provodkasini ko‘rsating.

16-masala “Ipak yo‘li” banki bo‘limiga Chilonzor tumani Soliq nazorati organlari tomonidan shu bankda hisobvara q ochgan “Turon” xususiy korxonasi nomiga 29500.0 so‘mga inkasso topshiriqnomasi taqdim qilindi. Chilonzor tuman Soliq nazorati organlarining hisobvarag‘i Chilonzor tuman “Sanoatqurilishbank”da yuritiladi. Inkasso topshirig‘i pul yo‘qligi sababli 6 kundan so‘ng to‘landi.

Talab qilinadi: Inkasso topshirig‘i qanday hollarda va kimlar nomidan taqdim qilinadi?

1. Inkasso topshirig‘i nima uchun “Ipak yo‘li” bankiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri topshirilgan?
2. Inkasso topshirig‘i nusxalar soni va ularni ishlatilishini tushuntiring.
3. Har ikkala bankda bo‘ladigan buxgalteriya provodkalarini yozing.

17-masala “Asakabank” bo‘limiga 10 aprelda quyidagi mijozlar nomiga inkasso topshirig‘i kelib tushdi:

“Vikon” xususiy korxonasi – 245000.0 so‘m (Yunusobod Soliq organi Yunusobod SQBda);

“Oltin Boshqoq” davlat korxonasi – 49560.0 so‘m (Chilonzor tuman SUD idorasi – Chilonzor tumani);

“Bekdo‘st” xususiy korxonasi – 65000.0 so‘m (Olmazor Soliq idorasi – Olmazor SQBda)

“Vikon” xususiy korxonasi – 95800.0 so‘m (Sirdaryo viloyati Bojxona idorasi Guliston SQBda)

Bu inkasso topshiriqnomalaridan birinchi uchtasi tegishli idoralar tomonidan bevosita “Asakabank”ka topshirildi. Ularning hammasi shu kuni to‘landi. 95800.0 so‘mga “Vikon” korxonasi nomiga kelib tushgan inkasso topshirig‘i uning hisobvarag‘ida pul etmaganligi sababli 14 aprelda to‘landi.

Talab qilinadi:

1. Inkasso topshiriqnomalari bo'yicha hisob-kitoblarning huj-jatlar aylanish sxemasini tushuntiring.
2. 95800.0 so'mga "Vikon" nomiga yozilgan inkasso topshirig'i bankka qanday yo'l bilan topshirilgan?
3. Barcha banklarda bajarilgan buxgalteriya provodkalarini ko'rsating.

Testlar

1. Akkreditivlarni ochish to'g'risida ariza bank emitentga taqdim qilinganda akkreditiv summasi sotib oluvchining bankida qanday ko'zda tutilmagan hisobvaraqqa kirim qilinadi:

- a. Dedet-90951, Kredit-96309
- b. Dedet-96309, Kredit-90951
- c. Dedet-96321, Kredit-90923
- d. Dedet-22060, Kredit-16103

2. To'lov talabnomasi -

a. mijoz o'z hisobvarag'idan unga xizmat ko'rsatuvchi bankka ma'lum bir summani mablag' oluvchining hisobvarag'iga o'tkazish to'g'risidagi topshirig'ini anglatadi

b. mablag'lar oluvchining to'lovchining hisobvarag'idan so'zsiz tartibda mablag'ni hisobdan chiqarish to'g'risidagi bankka bergan topshirig'ini anglatadi

c. mablag'larni oluvchining belgilangan summani to'lovchi tomonidan bank orqali to'lashi to'g'risidagi talabini o'z ichiga olgan, pul- hisob- kitob hujjatidir

d. bankning ichki operatsiyalarini amalga oshirishda foydalanadigan pul-hisob-kitob hujjati

3. "22602 Mijozlarning akkreditivlar bo'yicha depozitlari" hisobvarag'i kimning bankida ochiladi:

- a. xaridorning bankida
- b. mahsulot etkazib beruvchining bankida
- c. xaridor va mahsulot yetkazib beruvchining bankida
- d. initsiator bankda

4. Plastik kartochkalar bajaradigan vazifalariga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

- a. debet, kredit, aktiv, passiv
- b. shaxsiy va oilaviy

- c. korporativ, elektron hamyon
- d. debet, kredit va elektron hamyon

5. Bank kunlik buxgalteriya balansi nechta bo‘limdan tashkil topadi?

- a. 3
- b. 6
- c. 4
- d. 5

6. Akseptli to‘lov talabnoma qachon kartoteka 1 ga kirim qilinadi?

- a. kelib tushgan kunning ikkinchi kuni
- b. kelib tushgandan so‘ng, mijoz ogohlantirilgandan keyin
- c. keyingi ish kunidan kechiktirmasdan
- d. kartoteka № 1 ga qo‘yilmaydi

7. Bank buxgalteriya balansida qanday tenglik o‘rinli bo‘ladi?

- a. aktiv = kapital
- b. aktiv + asosiy vositalar = majburiyatlar + kapital
- c. aktiv = majburiyatlar + kapital
- d. aktiv = majburiyatlar

8. Akkreditivga ariza bank-emitentga necha nusxada taqdim etiladi?

- a. 2 nusxada
- b. 3 nusxada
- c. 4 nusxada
- d. 5 nusxada

9. To‘lov topshiriqnomasi to‘lovchi va mablag‘ oluvchiga bitta bank xizmat ko‘rsatsa necha nusxada taqdim etiladi?

- a. 5 nusxada
- b. 4 nusxada
- c. 3 nusxada
- d. 2 nusxada

10. Talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlar –

a. yuridik va jismoniy shaxslarning kundalik maqsadlari uchun xohlagan vaqtda olinishi mumkin bo‘lgan mablag‘lar saqlanadigan hisobvaraqlar

b. davriy badallar asosida, muayyan maqsadni amalga oshirish uchun ma’lum miqdorda pul summasini yigish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar nomiga ochilgan hisobvaraqlar

c. yuridik va jismoniy shaxslarga shartnomada qat’iy kelishilgan muddat va unda ko‘rsatilgan foizlarni to‘lashga doyr mablag‘larni saqlash uchun ochilgan hisobvaraqlar

d. bank tomonidan kredit berilayotganda ochiladigan hisobvaraqlar

Tayanch soʻz va iboralar. identifikatsiya raqami, vakillik hisobvaragʻi, bosh bank, hisob-kitoblar markazi

5.1. Banklarda hisob-kitoblarni tashkil etish

Tijorat bankining vakillik hisobvaragʻi ikki xil ochilishi mumkin:

- tijorat bankining har bir boʻlimi uchun Markaziy bankning hududiy bosh boshqarmasida alohida vakillik varagʻi ochiladi.
- faqat Bosh bankka Markaziy bankning Hisob-kitoblar markazida yagona vakillik hisobvaragʻi ochiladi, yaʼni Markaziy bank faqat Bosh bankka banklararo operatsiyalar boʻyicha xizmat koʻrsatadi.

Vakillik hisobvaragʻi ochilayotganda Markaziy bankning hududiy bosh boshqarmasi oʻrtasida vakillik munosabatlari toʻgʻrisida shartnoma tuziladi. Tijorat banki vakillik hisobvaragʻi ochilishini rasmiylashtirish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- hisobvaraqlar ochish toʻgʻrisidagi ariza;
- soliq toʻlovchining identifikatsiya raqami berilganligi toʻgʻrisida guvohnoma nusxasi;
- bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan berilgan litsenziyaning nusxasi;
- statistika idoralari tomonidan berilgan korxonalar va tashkilotning yagona Davlat roʻyxatiga kiritilganligi toʻgʻrisida guvohnoma nusxasi;
- imzolar va muhr izi tushirilgan varaqlarining notarial tasdiqlangan nusxasi.

Vakillik hisobvaragʻi Markaziy bank farmoyishiga koʻra ochiladi. Vakillik hisobvaraqlari nomerini va bank kodini Bank Depozitorlari Milliy Axborot Bazasi (BDMAB) belgilaydi. Vakillik hisobvaragʻi ochish toʻgʻrisidagi farmoyish tijorat banki hududiy boshqarmasi va boʻlimiga, uning nusxasi Respublika Markaziy bankining Toshkent shahar Hisob-kitob markaziga joʻnatiladi.

Shunday qilib, bankning vakillik hisobvaragʻi bu – tijorat bankiga Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining Toshkent shahar Hisob-kitob Markazida ochilgan hisobvaraqlar boʻlib, u banklararo hisob-kitoblarni oʻtkazishga moʻjallangan. Tijorat banklarining filiallariga esa Bosh bankda vakillik hisobvaragʻi ochiladi.

Vakillik hisobvarag'i ham boshqa hisobvaraqlar singari 20 raz-ryaddan iborat. Hisob-kitob markazida vakillik hisobvaraqlari tijorat banklariga hamda hisob kassa markazlariga ochiladi. Boshqa banklarga ochilgan vakillik hisobvaraqlari 21302- balans hisob raqami bo'yicha, hisob kassa markazlariga ochilgan vakillik hisobvaraqlari 21304-balans hisob raqami orqali olib boriladi. Masalan: A bankining Bosh bankiga Toshkent Hisob-kitob Markazida asosiy vakillik hisobvarag'ini ochgan. Uning BD-MAB tomonidan berilgan kodi 00429. A bankiga ochilgan vakillik hisobvarag'i nomeri quyidagicha bo'ladi:

21302000K00000429001

bunda:

21302 – “Boshqa banklardagi vakillik hisobvaraqlariga to'lashga” deb nomlangan balans hisobvarag'i nomeri;

000 – valuta kodi, bu 3 ta nol vakillik hisobvarag'ining “so'm” da yuritilishini bildiradi;

K – nazorat kaliti;

00000429 – bankning unikal kodi, ya'ni A bankining kodi- 00429. Lekin har bir hisobvaraqda unikal kod uchun 8 ta raqam ajratilgani sababli bu kod nollar bilan to'ldiriladi.

001 – ushbu bank hisobvarag'ining tartib nomeri.

Yuqorida ko'rsatilgan vakillik hisobvarag'i Toshkent shahar Hisob-Kitob Markazida yuritilib, Hisob-Kitob Markazi uchun passiv hisobvaraqlardir. Mablag'larning kelib tushishi va hisobvarag' qoldig'i hisobvaraqlarning kredit qismida, mablag'larning kamayishi esa uning debet qismida aks ettiriladi. Barcha to'lovlar vakillik hisobvarag'i qoldig'i chegarasida amalga oshiriladi.

Har bir bankning balansida ham vakillik hisobvarag'i ochiladi va yuritiladi. Bu hisobvaraqlar bank balansining aktiv qismida yuritilib, bankning ichki vakillik hisobvarag'i deb nomlash mumkin. Bosh bankning ichki vakillik hisobvarag'i 10301 – balans hisob raqamida yuritiladi. Tijorat bankining Hisob-kitob Markazida ochilgan 21302 – vakillik hisobvarag'i tashqi vakillik hisobvarag'i deb yuritiladi. To'lovni amalga oshirish uchun asosiy mezon operatsion kunning boshida ichki va tashqi vakillik hisobvaraqlaridagi aylanmalarning va qoldiq mablag'larining bir-biriga mos kelishi hisoblanadi. To'lovning eng katta summasi cheklanmagan. Har kuni ertalab hisob markazi tomonidan berilgan tijorat banki hisobvarag'idan ko'chirmani tijorat banki tomonidan tasdiqlangan-dan so'ng ushbu hisobvaraqlar

bo'yicha yangi kun operatsiyalari boshlanadi.

Shunday qilib, turli tipdagi banklar o'rtasidagi banklararo hisob-kitoblar Toshkent shahar Hisob-kitob markazi orqali tashkil etiladi.

5.2. Turli tipdagi banklar o'rtasidagi banklararo hisob-kitoblarni o'tkazish tartibi

Bosh banklar o'rtasida banklararo hisob-kitoblarni o'tkazish uchun Markaziy bank qoshida ochilgan Toshkent shahar hisob-kitob Markazida 27416 balans hisobvarag'i ajratilgan. Tijorat banklaridan elektron hujjatlarni qabul qilib olgan Hisob-kitob Markazi ularni banklar bo'yicha saralaydi. Bu hujjatlarning o'zi alohida debet va kredit hujjatlariga bo'linadi. Shundan keyin, debet hujjatlari bo'yicha alohida, kredit hujjatlari bo'yicha alohida buxgalteriya yozuvlari o'tkaziladi. *Debet hujjatlari bo'yicha dastlab quyidagi provodka o'tkaziladi.*

Debet 27416 "Banklararo hisob-kitoblar" TB A

Kredit 21302 "Tijorat bankning Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i"

Bir vaqtning o'zida quyidagi javob provodkasi o'tkaziladi.

Debet 21302 "Tijorat bankning Markaziy bankdagi vakillik hisob-varag'i" TB B

Kredit 27416 "Banklararo hisob-kitoblar"

Bu ikki yozuv orqali 27416-hisobvarag'ining tranzit hisobvaraqa ekanligi va bir vaqtning o'zida yopilishini ko'rish mumkin.

Hisob-kitob Markazlariga, tijorat banklariga tushadigan hujjatlar-ning asosiy qismi kredit hujjatlaridir. Kredit hujjatlari bo'yicha ham Hisob-kitob markazlarida buxgalteriya yozuvlari o'tkaziladi.

Bosh bank o'z filiallaridan kelgan elektron to'lovlarni qayta ishlab o'zining yagona vakillik hisobvarag'i orqali Toshkent shahar Hisob-kitob markaziga modem aloqasi orqali jo'natadi. Bu operatsiya bo'yicha Bosh bank-da quyidagi buxgalteriya amallari bajariladi:

Debet 22204 "Filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha to'lanadigan hisobvaraqlar" A filial

Kredit 10301 "Bosh bankning vakillik hisobvarag'i" A bank

Hisob-kitob markazi bir tijorat bankining vakillik hisobvarag'ida pul mablag'larining kamayishi bo'yicha ushbu buxgalteriya yozuvini bajaradi:

Debet 21302 TB "A"

Kredit 27416

Ikkinchi tijorat bankining vakillik hisobvarag'ida pul mablag'larining

ko'payishi bo'yicha provodka quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

Debet 27416 Hisobvaraqlar nomini mustaqil yozing va esda saqlab qoling.

Kredit 21302 TB "B" "Hisobvaraqlar nomini mustaqil yozing va esda saqlab qoling.

Tijorat banklarining vakillik hisobvarag'idan mablag'larni hisobdan chiqarish va bu vakillik hisobvarag'iga mablag'larni o'tkazish har bir kelib tushgan yozuvning qayta ishlash jarayoni bilan bir vaqtda amalga oshiriladi, shuning uchun barcha to'lov hujjatlari bir vaqtning o'zida 27416 hisobvarag'ining ham debeti, ham krediti bo'yicha aks ettiriladi.

Turli tipdagi bosh tijorat banklarining vakillik hisobvarag'i bo'yicha chiqariladigan ko'chirmalarda 27416 – shaxsiy hisobvaraqlar va hudud ichidagi o'tkazmalar jurnalida aks ettiriladi.

Hisob-kitob markazidan elektron to'lov mablag' oluvchi Bosh bank-ka o'tkaziladi. Banklararo hisob-kitoblar bo'yicha elektron to'lov Bosh bankka kelib tushganda dasturiy yo'l bilan quyidagi yozuvlar bajariladi:

Debet 22204 "Filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha to'lanadigan hisobvaraqlar" B filial

Kredit 10301 "Bosh bankning vakillik hisobvarag'i" B bank

10301-hisobvarag'ining nomi o'rniga uning mazmunini yozdik, siz hisobvaraqlar rejasidan foydalangan holda ushbu hisobvaraqlar to'liq nomini ko'rsating. Bu yozuvlar nimani bildirishini mustaqil fikrlab ko'ring.

Quyida turli tipdagi bosh tijorat banklarining O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qoshidagi Hisob-kitob markazi orqali elektron to'lov tizimi yordamida banklararo hisob-kitoblarni o'tkazish sxemasini keltiramiz.

5.3. Bir bankka qarashli filiallar o'rtasidagi hisob-kitoblarning tashkil etilishi

Hozirgi kunda respublikamizda 31 ta tijorat banki faoliyat yuritib kelmoqda. Bu banklar o'z faoliyati hamda mijozlarning operatsiyalari yuzasidan boshqa banklar bilan munosabatda bo'ladilar. Agar bir tipdagi banklar o'rtasida operatsiyalar yuzaga kelsa, bu holda Bosh bankning ichida operatsiyalar yakunlanadi. Masalan, AT "Asakabank"ning ikkita filialining mijozlari bir-biriga pul o'tkazishlari lozim bo'lsa, bu operatsiyalar AT "Asakabank"ning Bosh banki orqali o'tkaziladi. Markaziy bankning Hisob-kitob markazi bu operatsiyalarda ishtirok etmaydi. Bir tipdagi bank filiallari o'rtasidagi operatsiyalar debet hujjatlari bo'yicha alohida, kredit hujjatlari

bo'yicha alohida buxgalteriya provodkalari orqali bajariladi.

Eng avvalo, to'lovchi korxonaga bankida mijozning hisobvarag'idan pulni kamaytirish bo'yicha buxgalteriya yozuvlari bajariladi. (Bunday buxgalteriya yozuvlarini avvalgi mavzuda o'rgangansiz. Ushbu provodkani eslab ko'ring). Faraz qilamiz, AT "Asakabank"ning Yunusobod filiali to'lovchi korxonaga xizmat ko'rsatadi, mahsulot sotgan korxonaga esa AT "Asakabank"ning Andijon filiali xizmat ko'rsatadi. AT "Asakabank"ning Yunusobod filialidan elektron to'lov Bosh bankka jo'natiladi. Bosh bank elektron to'lov haqidagi axborotni qabul qilib, *Yunusobod filialining vakillik hisobvarag'idan Andijon filialining vakillik hisobvarag'iga mablag'larni o'tkazadi. Bu operatsiya quyidagi provodka orqali bajariladi:*

Debet 22204 AT "Asakabank"ning Yunusobod filiali

Kredit 22204 AT "Asakabank"ning Andijon filiali

Banklararo hisob kitoblar Markaziy bank Boshqaruvining 2006 yil 17 yanvardagi 1/3-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida" gi nizom asosida amalga oshiriladi.

7-jadval

Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga asosan operatsiyalar turlari quyidagicha¹

T/r	Hujjatlarning nomi	Operatsiyalar turi
1.	To'lov topshiriqnomasi	01
2.	To'lov talabnomasi	02
3.	Akkreditiv uchun ariza	05
4.	Memorial order	06
5.	Inkasso topshiriqnomasi	11
6.	Tijorat bankining hisob-kitob cheki	14

Nazorat savollari va topshiriqlar.

1. Banklararo hisob-kitoblarning mazmuni va ularning tashkil etilishi.
2. Banklarning vakillik hisobvaraqlari ochilishi va yuritilishi.
3. Elektron to'lov tizimi.
4. Banklararo hisob-kitoblarning elektron to'lov tizimi orqali tashkil etilishi va hisobga olinishi.
5. Hisob markazlari ishining tashkil etilishi.

¹ Me'yoriy hujjatlar asosida tayyorlandi.

V bob bo'yicha masala va mashqlar.

1-masala "Aloqabank"ning operatsion bo'limiga "Omad" xususiy korxonasi tomonidan 3 ta to'lov topshirig'i topshirildi.

1. 29800.0 so'mga rasmiylashtirilgan № 28 topshiriqnoma Yunusobod Soliq idorasiga o'tkazish uchun,

2. 425120.0 so'mga shu bankdagi "Sharq Guli" davlat aktsiyadorlik korxonasidan olingan tovarlarni to'lash uchun,

3. 49550.0 so'mga Farg'ona viloyat Qo'qon shahar "Ipotekabank" bo'limidagi "Ipak" xususiy korxonasiga olingan mahsulotlar uchun.

Shu bilan birga "Omad" xususiy korxonasi nomiga Sanoat qurilish bankining Mirzo Ulug'bek bo'limidagi xususiy korxonasi nomidan kelib tushgan to'lash muddati etib kelgan 292400.0 so'mlik talabnomasining puli to'landi.

"Omad" xususiy korxonasi nomiga Sobir Rahimov tumani Sanoat qurilish bankidagi "Olmos" xususiy korxonasidan 50200.0 so'm kelib tushdi.

Kun boshiga "Omad" xususiy korxonasining talab qilinguncha saqlanadigan hisobvarag'idagi qoldiq 59000.0 so'mni tashkil qilgan.

"Aloqabank" operatsion bo'limining vakillik hisobvarag'ida operatsiyalarni o'tkazishga pul etarli.

Talab qilinadi:

1. Banklararo hisob-kitoblarning mazmunini tushuntirib bering.

2. Ichki va tashqi vakillik hisobvaraqlari to'g'risida tushuncha bering.

3. "Paxta bank" operatsion bo'limida "Omad" xususiy korxonasining talab qilinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'i bo'yicha o'tkazilgan operatsiyalarni ko'rsating.

4. Korxonasi hisobvarag'ida kun oxiriga bo'lgan qoldig'ini aniq-lang.

2-masala Toshkent shahar "Agrobank"ning Yunusobod bo'limiga "Asaka bank"ning Andijon bo'limidan 2 ta xususiy korxonasi nomiga № 3552050.0 so'mlik va № 21 492500.0 so'mlik to'langan topshiriqnoma kelib tushdi. 5 kun avval 1-kartotekaga qabul qilingan № 95250000.0 so'mlik to'lov talabnomasi "Nargiz" firmasi hisobvarag'idan elektron pochta orqali Samarqanddagi "OFB" bo'limidagi Tikuvchilik kombinatiga to'lash uchun jo'natildi. Operatsiyalar hisob-kitob markazi orqali o'tkazildi.

Talab qilinadi:

1. Hisob-kitob markazining faoliyati to'g'risida tushuncha bering.

2. Bir tipdagi banklar o'rtasidagi banklararo hisob-kitoblarga tavsif

bering.

3. Toshkent shahar hisob-kitob markazidagi tegishli buxgalteriya provodkalarini bajarimg.

4. "Agrobank", "Asaka bank" va "OFB" bo'limlarida bajarilgan buxgalteriya provodkalarini ko'rsating.

3-masala "Charx" xususiy firmasi yangi ishlab chiqarish dastgohlari sotib olish uchun "Kashfiyot-001" firmasi bilan savdo shartnomasini imzoladi. Shartnomaga ko'ra "Kashfiyot-001" 230000.0 so'mlik yangi texnologiya etkazib berishi kerak. To'lov shakli akkreditiv.

"Charx" firmasi o'z hisobvarag'iga Sanoatqurilish bankining "Nodirabegim" (00402) filialida, "Kashfiyot-001" firmasi "Mikrokreditbank" (00433) da ochgan.

2020 yil 30 aprel kuni "Charx" firmasi o'z bankiga akkreditiv ochish to'g'risida ariza topshirdi. "Charx" firmasining hisobvarag'ida pul etarli bo'lgani uchun bank pulni "Mikrokreditbank"ka o'tkazadi. "Mikrokreditbank" "Kashfiyot-001" firmasi nomiga kelib tushgan akkreditiv summasini alohida schyotga deponent qilib qo'ydi.

"Mikrokreditbank"da "Kashfiyot-001" firmasi tomonidan tegishli hujjatlar topshirilgandan so'ng akkreditivni ishlatish bo'yicha buxgalteriya provodkalari bajarildi va bu haqda "Nodirabegim" filialiga xabar berildi. "Nodirabegim" filialida akkreditiv yopildi.

Talab qilinadi:

1. Akkreditiv asosida hisob-kitoblarning mazmunini, kamchilik va afzalliklarini tushuntiring.

2. Mazkur operatsiya bo'yicha banklarda amalga oshiriladigan ishlarni gapirib bering.

3. Har ikkala bank filiali, Bosh bank va hisob-kitob markazida bo'ladigan buxgalteriya provodkalarini ko'rsating.

4-masala Toshkent shahar Hisob-kitob markaziga "Kapitalbank" filialidan 5 ta to'langan topshiriqnoma kelib tushdi:

1. № 10 254750.0 so'm Andijon "Asaka" bankidagi xususiy korxonoma nomiga;

2. № 6 54950.0 so'm Toshkent shahar Sanoatqurilishbanki filialidagi davlat qurilish tashkilotinomiga;

3. № 46 19500.0 so'm Xiva shahrida "Mikrokreditbank" filialidagi Xususiy korxonoma nomiga;

4. № 47 95565.0 so'm yana shu bankdagi xususiy tadbirkor nomiga;

5. № 14 562495.0 soʻm Toshkent shahar Shahrison SQB boʻlimidagi qoʻshma korxonada nomiga

Barcha kelib tushgan topshiriqnomalar boʻyicha hisob-kitob markazida buxgalteriya provodkalari oʻtkazildi va tegishli banklarga elektron toʻlovlar joʻnatildi.

Talab qilinadi:

1. Elektron toʻlovlarning mazmuni va ahamiyati nimadan iborat?
2. Elektron toʻlov tizimining ishlash printsiplarini sanab oʻting.
3. Bir tipdagi banklar va turli tipdagi banklar oʻrtasidagi banklararo hisob-kitoblarning farqini tushuntiring.
4. Barcha banklarda va Hisob-kitob markazida boʻladigan pro-vodkalarni bajaring.

Testlar

1. 16103 hisobvaraqlarning qoldigʻi, Bosh bankda qaysi hisobvaraqlarning qoldigʻi bilan tengashtiriladi:

- a. 10301
- b. 22204
- c. 21302
- d. 27416

2. Vakillik hisobvaraqlari necha turga boʻlinadi:

- a. ikki turga
- b. uch turga
- c. toʻrt turga
- d. besh turga

3. Bank hisobvaraqlar rejasida daromadlar hisobini yuritadigan hisobvaraqlar nechanchi “raqamdan” boshlanadi?

- a. “bir” raqamidan
- b. “ikki” raqamidan
- c. “toʻrt” raqamidan
- d. “besh” raqamidan

4. Mijozlar hisob-kitob kassa xizmatidan foydalanish uchun banklarni qanday tanlaydilar?

- a. yuqori tashkilot buyrugʻi bilan
- b. oʻzlari, mustaqil
- c. xokimiyat buyrugʻi bilan
- d. soliq organlari buyrugʻi bilan

5. Banklarda hisobvaraqlar rejasida xarajatlar hisobini yuritadigan hisobvaraqlar nechanchi “raqamdan” boshlanadi?

- a. “bir” raqamidan
- b. “ikki” raqamidan
- c. “to‘rt” raqamidan
- d. “besh” raqamidan

6. Kartoteka № 1, bu –

- a. to‘lov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari kartotekasi
- b. o‘z vaqtida to‘lanmagan hisob - kitob hujjatlari kartotekasi
- c. xato to‘ldirilgan hujjatlar saqlanadigan joy
- d. to‘lov muddati o‘tgan hisob - kitob hujjatlari kartotekasi

7. Tijorat banklari hisobvaraqlar rejasida aktiv schetlar qanday joylashtirilgan?

- a. muddatiga qarab
- b. likvidligiga qarab
- c. daromadlilikiga qarab
- d. risklilikiga qarab

8. Barcha bank operatsiyalari buxgalteriya hisobida qanday hisobga olinadi:

- a. ikki yoqlama yozuv usulida
- b. bir yoqlama yozuv usulida
- c. har tomonlama yozuv usulida
- d. reestr yozuvi usulida

9. Banklarning buxgalteriya ishlari qaysi bo‘limga yuklatilgan?

- a. moliya bo‘limiga
- b. hisob - operatsion bo‘limga
- c. hisob-kassa markaziga
- d. hisob-kitob bo‘limiga

10. Hisob - operatsion bo‘limini kim boshqaradi?

- a. barcha buxgalterlar
- b. bosh buxgalter
- c. ichki nazorat xodimi
- d. bank auditori

VI BOB. BANKLARDA KASSA OPERATSIYALARI HISOBI

Tayanch soʻz va iboralar. Kassa, naqd pul, aylanma kassa, zaxira kassa, yoʻldagi naqd pullar, bankomat, inkassatsiya, valyuta ayirboshlash shaxobchasi.

6.1. Tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish

Tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, naqd pul va boshqa qimmatliklarni inkassatsiya qilishga doir ishlar Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018 yil 29 iyunda 3028-son bilan roʻyxatga olingan yoʻriqnoma asosida amalga oshiriladi.

Tijorat banklarida kassa operatsiyalari hisobi Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bank Boshqaruvining 2006 yil 15 iyundagi 13/6-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Oʻzbekiston Respublikasi banklarida kassa amallarining buxgalteriya hisobini yuritish qoidalari” asosida amalga oshiriladi.

10101 - Aylanma kassadagi naqd pullar;

10102 - Naqd pullar zaxirasi;

10103 - Pul almashtirish shoxobchalaridagi naqd pullar;

10107 - Bankomatlardagi naqd pullar;

10109 - Yoʻldagi naqd pullar va boshqa toʻlov hujjatlari;

10111 - Amaliyot kassalaridagi naqd pullar;

10198 - Markaziy bankka topshiriladigan naqd pullar zaxirasi;

10307 - Markaziy bankdan olinishi lozim boʻlgan mablagʻlar - Naqd pullar;

10311 - Markaziy bankka topshirilgan naqd pullar uchun olinishi lozim boʻlgan mablagʻlar;

10507 - Boshqa banklardan olinishi lozim boʻlgan mablagʻlar - Naqd pullar;

10511 - Jismoniy shaxslarning plastik kartalaridan berilgan naqd pul mablagʻlari boʻyicha boshqa banklardan olinishi lozim boʻlgan mablagʻlar;

16101 - Bosh bank/filiallardan olinadigan mablagʻlar - Naqd pullar;

16103 - Bosh bank/filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar boʻyicha olinadigan mablagʻlar;

16103 - Markaziy bank/filial/agentliklarning filiallararo va banklararo hisob-kitoblar boʻyicha olinadigan mablagʻlari (Markaziy bank);

16111 - Bosh bank/filialdan jismoniy shaxslarning plastik kartalaridan berilgan naqd pul mablagʻlari boʻyicha olish;

- 17301 - Tranzit hisobvaraqlari;
- 17401 - Jismoniy shaxslarning plastik kartalaridan olingan naqd pullar bo'yicha hisobdan chiqarilishi lozim bo'lgan pul mablag'lari bo'yicha tranzit hisobvaraqlari;
- 19903 - Inkasso qilingan pul tushumlari va cheklar;
- 19935 - Qayta sanash vaqtida aniqlangan naqd pul bo'yicha kamomadlar;
- 21008 - Boshqa banklarga berilishi lozim bo'lgan - Naqd pullar;
- 21012 - Jismoniy shaxslarning plastik kartalaridan berilgan naqd pul mablag'lari bo'yicha boshqa banklarga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lar;
- 21307 - Naqd pul olish uchun rezident banklardan kelib tushgan mablag'lar (Markaziy bank);
- 21314 - Rezident banklari tomonidan topshirilgan naqd pul uchun to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lar (Markaziy bank);
- 22202 - Bosh bank/filiallarga to'lanadigan mablag'lar - Naqd pullar;
- 22212 - Bosh bank/filiallarga jismoniy shaxslarning plastik kartalaridan berilgan naqd pul mablag'lari bo'yicha to'lanadigan mablag'lar;
- 23116 - Naqd pullar bo'yicha jismoniy shaxslarning plastik kartalariga o'tkazilishi lozim bo'lgan pul mablag'lari bo'yicha tranzit hisobvaraqlari;
- 23122 - Xorijiy valyuta sotib olish uchun bank kassalariga naqd pullarni topshirgan jismoniy shaxsning plastik kartalaridan foydalangan holda o'tkazilishi lozim bo'lgan mablag'lar bo'yicha tranzit hisobvaraqlari;
- 23504 - Plastik kartalardan berilgan naqd pullar, jismoniy shaxslarning plastik kartalari yoki omonatlar hisobvaraqlariga o'tkazilgan pul mablag'lari bo'yicha tranzit hisobvaraqlar;
- 29804 - Boshqa bank mijozlarining inkasso qilingan pul tushumlari va cheklari;
- 29816 - Qayta sanash vaqtida aniqlangan ortiqcha naqd pullar;
- 29824 - Naqd pul mablag'lari bo'yicha jismoniy shaxslarning maqsadli hisob-kitoblari;
- 29896 - Boshqa majburiyatlar.
- Bank kassalarida amalga oshiriladigan operatsiyalarning provodkalari quyidagicha amalga oshiriladi.
- Bank kassalariga naqd pullar kirim qilinganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:
- a) qonun hujjatlariga muvofiq bank mijozlari bo'lgan xo'jalik sub'ektlari tomonidan naqd pullarni bevosita olib kelish yo'li bilan hamda jismoniy shaxslar tomonidan omonatlarga naqd pullar topshirilganda:*

Debet 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» yoki 10111 - «Bank binosida joylashmagan amaliyot kassalardagi naqd pullar»;

Kredit 20xxx - «Mijozlarning depozit hisobvarag'i».

b) jismoniy shaxslar tomonidan bir martalik to'lovlar (soliq to'lovlari, jarimalar, kommunal va boshqa to'lovlar) uchun naqd pullar topshirilganda:

Debet 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» yoki 10111 - «Bank binosida joylashmagan amaliyot kassalardagi naqd pullar»

Kredit 29824 - «Naqd pul mablag'lari bo'yicha jismoniy shaxslarning maqsadli hisob-kitoblari»;

v) jismoniy shaxslar tomonidan kreditni qaytarish uchun naqd pullar topshirilganda:

Debet 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» yoki 10111 - «Bank binosida joylashmagan amaliyot kassalardagi naqd pullar»

Kredit «Mijozlarning tegishli kredit hisobvarag'i» yoki

Kredit 12599 - «Jismoniy shaxslarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontraktiv)» va 14999 - «Jismoniy shaxslarga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontraktiv)» (balansdan tashqari hisobvaraqlarda hisobga olinayotgan kredit to'langanda);

g) jismoniy shaxslar tomonidan olingan kreditlar bo'yicha foizlar to'lovi uchun naqd pul topshirilganda:

Debet 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» yoki 10111 - «Bank binosida joylashmagan amaliyot kassalardagi naqd pullar»

Kredit 16309 - «Kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar» yoki

Kredit 16377 - «Shartnomaga ko'ra hisoblab yozilgan, biroq muddatida to'lanmagan olinishi lozim bo'lgan foizlar» yoki

Kredit 42005 - «Jismoniy shaxslarga berilgan muddati o'tgan kreditlar bo'yicha foizli daromadlar» (balansdan tashqari hisobvaraqlarda hisobga olinayotgan foizlar to'langanda);

d) jismoniy shaxslar tomonidan olingan kreditlar bo'yicha vaqtida to'lanmagan foizlar uchun penya va jarimalar naqd pulda to'langanda:

Debet 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» yoki 10111 - «Bank binosida joylashmagan amaliyot kassalardagi naqd pullar»

Kredit 16405 - «Hisoblangan jarima va penyalar»;

e) jismoniy shaxslar tomonidan o'zlarining plastik kartalariga kirim qilish uchun naqd pul topshirilganda:

Debet 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» yoki 10111 - «Bank binosida joylashmagan amaliyot kassalaridagi naqd pullar»

Kredit 23116 - «Naqd pullar bo'yicha jismoniy shaxslarning plastik kartalariga o'tkazilishi lozim bo'lgan pul mablag'lari bo'yicha tranzit hisobvaraqlari» va 23122 - «Xorijiy valyuta sotib olish uchun bank kassalariga naqd pullarni topshirgan jismoniy shaxsning plastik kartalaridan foydalangan holda o'tkazilishi lozim bo'lgan mablag'lar bo'yicha tranzit hisobvaraqlari»

Debet 23116 - «Naqd pullar bo'yicha jismoniy shaxslarning plastik kartalariga o'tkazilishi lozim bo'lgan pul mablag'lari bo'yicha tranzit hisobvaraqlari» va 23122 - «Xorijiy valyuta sotib olish uchun bank kassalariga naqd pullarni topshirgan jismoniy shaxsning plastik kartalaridan foydalangan holda o'tkazilishi lozim bo'lgan mablag'lar bo'yicha tranzit hisobvaraqlari»

Kredit 22618 - «Jismoniy shaxslarning plastik kartochnalari bo'yicha majburiyatlari» va 22617 - «Pensionerlarning plastik kartochnalari bo'yicha majburiyatlar»;

j) bank xizmat haqi uchun mijozlar tomonidan bank kassasiga naqd pul topshirilganda:

Debet 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar»

Kredit 4XXXX - Tegishli daromadlar hisobvarag'i.

Bank kassasidan mijozlarga ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, dividendlar, xizmat safari xarajatlari, nafaqa va moddiy yordam pullari, shuningdek, qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa to'lovlar bo'yicha naqd pul berilganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali amalga oshiriladi.

Debet «Mijozlarning depozit va kredit hisobvaraqlari»

Kredit 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» yoki 10111 - «Bank binosida joylashmagan amaliyot (operatsion) kassalaridagi naqd pullar».

Bank kassasidan mazkur filial mijozi bo'lgan jismoniy shaxs plastik kartalaridan naqd pul berilganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:

Debet 17401 - «Jismoniy shaxslarning plastik kartalaridan olingan naqd pullar bo'yicha hisobdan chiqarilishi lozim bo'lgan pul mablag'lari bo'yicha tranzit hisobvaraqlari»

Kredit 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» yoki 10111 - «Bank binosida joylashmagan amaliyot (operatsion) kassalaridagi naqd pullar»

Debet 22618 - «Jismoniy shaxslarning plastik kartochkalari bo'yicha majburiyatlari» va 22617 - «Pensionerlarning plastik kartochkalari bo'yicha majburiyatlari»

Kredit 23504 - «Plastik kartalardan berilgan naqd pullar, jismoniy shaxslarning plastik kartalari yoki omonatlar hisobvaraqlariga o'tkazilgan pul mablag'lari bo'yicha tranzit hisobvaraqlar»

Debet 23504 - «Plastik kartalardan berilgan naqd pullar, jismoniy shaxslarning plastik kartalari yoki omonatlar hisobvaraqlariga o'tkazilgan pul mablag'lari bo'yicha tranzit hisobvaraqlar»

Kredit 17401 - «Jismoniy shaxslarning plastik kartalaridan olingan naqd pullar bo'yicha hisobdan chiqarilishi lozim bo'lgan pul mablag'lari bo'yicha tranzit hisobvaraqlari».

Bank kassasidan mazkur bankning boshqa filiali mijozi bo'lgan jismoniy shaxs plastik kartalaridan naqd pul berilganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:

Naqd pul bergan bankning filialida:

Debet 17401 - «Jismoniy shaxslarning plastik kartalaridan olingan naqd pullar bo'yicha hisobdan chiqarilishi lozim bo'lgan pul mablag'lari bo'yicha tranzit hisobvaraqlari»

Kredit 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» yoki 10111 - «Bank binosida joylashmagan amaliyot kassalardagi naqd pullar»

Debet 16111 - «Bosh bank/filialdan jismoniy shaxslarning plastik kartalaridan berilgan naqd pul mablag'lari bo'yicha olish»

Kredit 23504 - «Plastik kartalardan berilgan naqd pullar, jismoniy shaxslarning plastik kartalari yoki omonatlar hisobvaraqlariga o'tkazilgan pul mablag'lari bo'yicha tranzit hisobvaraqlar»

Debet 23504 - «Plastik kartalardan berilgan naqd pullar, jismoniy shaxslarning plastik kartalari yoki omonatlar hisobvaraqlariga o'tkazilgan pul mablag'lari bo'yicha tranzit hisobvaraqlar»

Kredit 17401 - «Jismoniy shaxslarning plastik kartalaridan olingan naqd pullar bo'yicha hisobdan chiqarilishi lozim bo'lgan pul mablag'lari bo'yicha tranzit hisobvaraqlari»

Bankning boshqa filialida:

Debet 22618 - «Jismoniy shaxslarning plastik kartochkalari bo'yicha majburiyatlari»

Kredit 22212 - «Bosh bank/filiallarga jismoniy shaxslarning plastik kartalaridan berilgan naqd pul mablag'lari bo'yicha to'lanadigan mablag'lar»

Debet 22212 - «Bosh bank/filiallarga jismoniy shaxslarning plastik kartalaridan berilgan naqd pul mablagʻlari boʻyicha toʻlanadigan mablagʻlar»

Kredit 16111 - «Bosh bank/filialdan jismoniy shaxslarning plastik kartalaridan berilgan naqd pul mablagʻlari boʻyicha olish» (naqd pul bergan filial)

Boshqa bank mijozi boʻlgan jismoniy shaxsning bank kartalaridan naqd pul berilganda quyidagi buxgalteriya oʻtkazmalari amalga oshiriladi:

Naqd pul bergan bankning filialida:

Debet 17401 - «Jismoniy shaxslarning plastik kartalaridan olingan naqd pullar boʻyicha hisobdan chiqarilishi lozim boʻlgan pul mablagʻlari boʻyicha tranzit hisobvaraqlari»

Kredit 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» yoki 10111 - «Bank binosida joylashmagan amaliyot kassalardagi naqd pullar»

Debet 16111 - «Bosh bank/filialdan jismoniy shaxslarning plastik kartalaridan berilgan naqd pul mablagʻlari boʻyicha olish»

Kredit 23504 - «Plastik kartalardan berilgan naqd pullar, jismoniy shaxslarning plastik kartalari yoki omonatlar hisobvaraqlariga oʻtkazilgan pul mablagʻlari boʻyicha tranzit hisobvaraqlar»

Debet 23504 - «Plastik kartalardan berilgan naqd pullar, jismoniy shaxslarning plastik kartalari yoki omonatlar hisobvaraqlariga oʻtkazilgan pul mablagʻlari boʻyicha tranzit hisobvaraqlar»

Kredit 17401 - «Jismoniy shaxslarning plastik kartalaridan olingan naqd pullar boʻyicha hisobdan chiqarilishi lozim boʻlgan pul mablagʻlari boʻyicha tranzit hisobvaraqlar»

Naqd pul bergan bankning Bosh ofisida:

Debet 10511 - «Jismoniy shaxslarning plastik kartalaridan berilgan naqd pul mablagʻlari boʻyicha boshqa banklardan olinishi lozim boʻlgan mablagʻlar»

Kredit 22212 - «Bosh bank/filiallarga jismoniy shaxslarning plastik kartalaridan berilgan naqd pul mablagʻlari boʻyicha toʻlanadigan mablagʻlar»

Debet 22212 - «Bosh bank/filiallarga jismoniy shaxslarning plastik kartalaridan berilgan naqd pul mablagʻlari boʻyicha toʻlanadigan mablagʻlar»

Kredit 16111 - «Bosh bank/filialdan jismoniy shaxslarning plastik kartalaridan berilgan naqd pul mablagʻlari boʻyicha olish» Naqd pulni bergan filial.

Plastik karta ochilgan bankning Bosh ofisida:

Debet 16111 - «Bosh bank/filialdan jismoniy shaxslarning plastik

kartalaridan berilgan naqd pul mablagʻlari boʻyicha olish»

Kredit 21012 - «Jismoniy shaxslarning plastik kartalaridan berilgan naqd pul mablagʻlari boʻyicha boshqa banklarga toʻlanishi lozim boʻlgan mablagʻlar»

Debet 21012 - «Jismoniy shaxslarning plastik kartalaridan berilgan naqd pul mablagʻlari boʻyicha boshqa banklarga toʻlanishi lozim boʻlgan mablagʻlar»

Kredit 10511 - «Jismoniy shaxslarning plastik kartalaridan berilgan naqd pul mablagʻlari boʻyicha boshqa banklardan olinishi lozim boʻlgan mablagʻlar» - Naqd pulni bergan bank Bosh ofisi

Plastik karta ochilgan bank filialida:

Debet 22618 - «Jismoniy shaxslarning plastik kartochkalari boʻyicha majburiyatlari»

Kredit 22212 - «Bosh bank/filiallarga jismoniy shaxslarning plastik kartalaridan berilgan naqd pul mablagʻlari boʻyicha toʻlanadigan mablagʻlar»

Debet 22212 - «Bosh bank/filiallarga jismoniy shaxslarning plastik kartalaridan berilgan naqd pul mablagʻlari boʻyicha toʻlanadigan mablagʻlar»

Kredit 16111 - «Bosh bank/filialdan jismoniy shaxslarning plastik kartalaridan berilgan naqd pul mablagʻlari boʻyicha olish» - Bosh ofisi.

Aylanma kassada oʻrnatilgan limit miqdoridan ortiqcha naqd pullar summasi 10102 - «Naqd pullar zaxirasi» hisobvaragʻiga kirim qilinganda bir vaqtning oʻzida quyidagi ikkita buxgalteriya oʻtkazmalari amalga oshiriladi:

a) 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» hisobvaragʻidan naqd pullar chiqim qilinganda:

Debet 17301 - «Tranzit hisobvaraqlari»

Kredit 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar»

b) 10102 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» hisobvaragʻiga naqd pullar kirim qilinganda:

Debet 10102 - «Naqd pullar zaxirasi»

Kredit 17301 - «Tranzit hisobvaraqlari»

Banklar har kuni ish boshlashdan oldin oʻz mijozlaridan yozma ravishda tushgan kassa buyurtmanomalaridan kelib chiqib, 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» hisobvaragʻidagi mablagʻ etarli yoki etarli emasligini aniqlaydi.

Agar mablagʻ etarli boʻlmasa, u holda 10102 - «Naqd pullar zaxirasi» hisobvaragʻidan aylanma kassaga mablagʻ chiqariladi va bir paytning oʻzida

quyidagi ikkita buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshirilishi lozim:

a) 10102 - «Naqd pullar zaxirasi» hisobvarag'idan naqd pullar chiqim qilinganda:

Debet 17301 - «Tranzit hisobvaraqlari»

Kredit 10102 - «Naqd pullar zaxirasi»

b) 10101 hisobvarag'iga naqd pullar kirim qilinganda:

Debet 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar»

Kredit 17301 - «Tranzit hisobvaraqlari»

Markaziy bankka topshiriladigan naqd pullar 10198 – “Markaziy bankka topshiriladigan naqd pullar zaxirasi” hisobvarag'iga kirim qilinganda, bir vaqtning o'zida quyidagi ikkita buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:

Debet 17301 - «Tranzit hisobvaraqlari»

Kredit 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar»

Debet 10198 - «Markaziy bankka topshiriladigan naqd pullar zaxirasi»

Kredit 17301 - «Tranzit hisobvaraqlari»

10198 - «Markaziy bankka topshiriladigan naqd pullar zaxirasi» hisobvarag'idagi mablag'larni Markaziy bank hududiy Bosh boshqarmalarining xizmat farmoyishlariga asosan Markaziy bank hududiy Bosh boshqarmalari Hisob-kitob kassa Markazlariga, boshqa tijorat banklarining filiallariga va bir bankning boshqa filiallariga jo'natishga yoki ushbu bank filialining o'z ehtiyojlari uchun chiqim qilishga ruxsat berilganda, bir vaqtning o'zida quyidagi ikkita buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:

Debet 17301 - «Tranzit hisobvaraqlari»

Kredit 10198 - «Markaziy bankka topshiriladigan naqd pullar zaxirasi»

Debet 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar»

Kredit 17301 - «Tranzit hisobvaraqlari».

6.2. Banklarda mijozlarning naqd pul tushumini inkassatsiya qilishning buxgalteriya hisobi

Inkassatorlar tomonidan mijozlardan yig'ib kelingan pul mablag'lari solingan inkassator qoplari banklarning kechki kassalariga belgilangan tartibda qabul qilinadi. Ushbu pul mablag'lari solingan inkassatorlik qoplari keyingi ish kuni ertalab qayta sanash kassasiga topshiriladi. Kechki kassa tomonidan yuk xati asosida tayyorlangan kirim ro'yxatining birinchi

nusxasi qayta sanash kassasiga va ikkinchi nusxasi bank buxgalteriyasiga topshiriladi hamda buxgalteriya ushbu kirim ro'yxati asosida quyidagi o'tkazmalarni amalga oshiradi:

a) inkassatorlar orqali yig'ib kelingan inkassatorlik qoplaridagi naqd pul va hisob-kitob cheklari bo'yicha mablag'lar shu bank mijoziga tegishli bo'lsa:

Debet 19903 - «Inkasso qilingan pul tushumlari va cheklar»

Kredit 20xxx - «Mijoz depozit hisobvarag'i»

b) inkassatorlar orqali yig'ib kelingan inkassatorlik qoplaridagi naqd pul va hisob-kitob cheklari bo'yicha mablag'lar boshqa bank yoki bankning boshqa filiali mijoziga tegishli bo'lsa:

Debet 19903 - «Inkasso qilingan pul tushumlari va cheklar»

Kredit 29804 - «Boshqa bank mijozlarining inkasso qilingan pul tushumlari va cheklari»

v) inkassatorlar orqali yig'ib kelingan inkassatorlik qoplaridagi naqd pul boshqa hududda joylashgan tijorat banki (filiali)ning shu hududdagi bank binosidan tashqarida joylashgan operatsion kassasiga tegishli bo'lsa:

Debet 19903 - «Inkasso qilingan pul tushumlari va cheklar»

Kredit 29896 - «Boshqa majburiyatlar».

Qayta sanash kassasida inkassatorlik qoplaridagi pul mablag'lari belgilangan tartibda sanab bo'lingandan keyin, naqd pul mablag'lari bank aylanma kassasiga kirim qilinadi va quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar»

Kredit 19903 - «Inkasso qilingan pul tushumlari va cheklar»

Agar qayta sanash kassasida qayta sanash vaqtida aniqlangan ortiqcha naqd pul mablag'lari aniqlansa, belgilangan tartibda dalolatnoma tuzilib, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar»

Kredit 29816 «Qayta sanash vaqtida aniqlangan ortiqcha naqd pullar»

Bankning qayta sanash kassasida aniqlangan ortiqcha naqd pul mablag'lari ushbu bank mijoziga tegishli bo'lsa, u mijozning hisobvarag'iga quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali kirim qilinadi:

Debet 29816 - «Qayta sanash vaqtida aniqlangan ortiqcha naqd pullar»

Kredit 20xxx «Mijoz depozit hisobvarag'i»

Bankning qayta sanash kassasida aniqlangan ortiqcha naqd pul mablag'lari boshqa bank mijozining 29804 «Boshqa bank mijozlarining

inkasso qilingan pul tushumlari va cheklari» hisobvarag'iga shartnomada kelishilgan hollarda o'tkazib berilganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 29816 - «Qayta sanash vaqtida aniqlangan ortiqcha naqd pullar»

Kredit 29804 - «Boshqa bank mijozlarining inkasso qilingan pul tushumlari va cheklari»

Agar bankning qayta sanash kassasida aniqlangan ortiqcha naqd pul mablag'lari shu hududda bosh banki yoki filiali bo'lmagan bank binosidan tashqarida joylashgan operatsion kassasiga tegishli bo'lsa, unda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 29816 - «Qayta sanash vaqtida aniqlangan ortiqcha naqd pullar»

Kredit 29896 - «Boshqa majburiyatlar».

Agar qayta sanash kassasida naqd pul mablag'lari kamomad chiqqanligi aniqlansa, belgilangan tartibda dalolatnoma tuzilib, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 19935 - «Qayta sanash vaqtida aniqlangan naqd pul bo'yicha kamomadlar»

Kredit 19903 - «Inkasso qilingan pul tushumlari va cheklar»

Bankning qayta sanash kassasida aniqlangan kamomad summasi ushbu bank mijoziga tegishli bo'lsa va u mijozning hisobvarag'idan shartnomada kelishilgan shartlarga binoan undirib olinganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 20xxx «Mijozning depozit hisobvarag'i»

Kredit 19935 - «Qayta sanash vaqtida aniqlangan naqd pul bo'yicha kamomadlar»

Bankning qayta sanash kassasida aniqlangan kamomad summasi boshqa bank mijozining 29804 - «Boshqa bank mijozlarining inkasso qilingan pul tushumlari va cheklari» balans hisobvarag'idan shartnomada kelishilgan shartlarga asosan undirib olinganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 29804 - «Boshqa bank mijozlarining inkasso qilingan pul tushumlari va cheklari»

Kredit 19935 - «Qayta sanash vaqtida aniqlangan naqd pul bo'yicha kamomadlar»

Agar bankning qayta sanash kassasida aniqlangan kamomad summasi shu hududda bosh banki yoki filiali bo'lmagan bank binosidan tashqarida joylashgan operatsion kassasiga tegishli bo'lsa va u shartnomada

kelishilgan shartlarga binoin undirib olinganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 29896 - «Boshqa majburiyatlar»

Kredit 19935 - «Qayta sanash vaqtida aniqlangan naqd pul bo'yicha kamomadlar».

Boshqa bank mijozlariga tegishli bo'lgan naqd pul bo'yicha mablag'lar qayta sanash kassasida sanab bo'lingandan keyin, elektron memorial order shakllantirilib, vakillik hisobvarag'idan shu kunning o'zida, elektron to'lov tizimi orqali, ularning hisobvaraqlariga o'tkazib beriladi va quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 29804 - «Boshqa bank mijozlarining inkasso qilingan pul tushumlari va cheklari»

Kredit 20xxx «Mijozning asosiy depozit hisobvarag'i»

Kredit 22624 - «Savdo korxonalarining maqsadli mablag'lari» tegishli hisobvarag'iga kirim qilinadi (16103 — «Bosh bank/filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i orqali)

Shu hududda bosh banki yoki filiali bo'lmagan bank binosidan tashqarida joylashgan operatsion kassasiga tegishli bo'lgan naqd pul bo'yicha mablag'lar qayta sanash kassasida sanab bo'lingandan keyin, elektron memorial order shakllantirilib, vakillik hisobvarag'idan shu kunning o'zida elektron to'lov tizimi orqali o'tkazib beriladi va quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 29896 - «Boshqa majburiyatlar» - naqd pulni qabul qilgan tijorat banki (filiali)

Kredit 29896 - «Boshqa majburiyatlar» - boshqa hududda joylashgan tijorat banki (filiali).

Mablag' oluvchining bankiga elektron to'lov tizimi orqali mablag' kelib tushganda, dasturiy yo'l bilan, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali kirim qilinadi:

Debet 29804 - «Boshqa bank mijozlarining inkasso qilingan pul tushumlari va cheklari» (16103 - «Bosh bank/filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i orqali)

Kredit 20xxx «Mijozning asosiy depozit hisobvarag'i»

Kredit 22624 - «Savdo korxonalarining maqsadli mablag'lari» (hisobvaraqlarning tegishli shaxsiy hisobvarag'iga kirim qilinadi)

Agar bank tomonidan 29804 - «Boshqa bank mijozlarining inkasso

qilingan pul tushumlari va cheklari» hisobvarag'idan memorial order bilan boshqa bank mijozlarining asosiy depozit hisobvarag'iga yoki aktsiz tovarlar sotuvidan pul tushumlari summasi o'tkazilganda, har bir aktsiz tovar turi bo'yicha savdo tushumi summasini alohida memorial order orqali o'tkazilishi shart.

Pul mablag'lari bank aylanma kassasiga elektron to'lov tizimi yopilgandan keyin kirim qilingan bo'lsa, boshqa bankdagi mijozlarning hisobvarag'iga pul mablag'lari keyingi ish kunidan kechiktirilmagan holda o'tkazib beriladi.

Boshqa hududda joylashgan tijorat banki (filiali)ga elektron to'lov tizimi orqali mablag' kelib tushganda, dasturiy yo'l bilan quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali kirim qilinadi:

Debet 29896 «Boshqa majburiyatlar» (16103 «Bosh bank/filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i orqali) - naqd pulni qabul qilgan tijorat banki (filiali)

Kredit 29896 - «Boshqa majburiyatlar» - boshqa hududda joylashgan tijorat banki (filiali).

Qayta sanash kassasida aniqlangan boshqa banklarning hisob-kitob cheklari bo'yicha to'lovlarning o'tkazilishida initsiator (to'lov operatsiyasini boshlovchi) bank filiali tomonidan quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshirilishi lozim:

Debet 20206 - «Jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlari» (16103 - «Bosh bank/filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i orqali)

Kredit 19903 - «Inkasso qilingan pul tushumlari va cheklar»

Benefitsiar (to'lov operatsiyasini yakunlovchi) bankka elektron chek kelib tushganda, dasturiy yo'l bilan quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 20206 - «Jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlari»

Kredit 19903 - «Inkasso qilingan pul tushumlari va cheklar» (16103 - «Bosh bank/filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i orqali)

Bunda boshqa banklar hisob-kitob cheklarining asl nusxalari initsiator bankda qoldiriladi hamda kunlik hujjatlar yig'ma jildiga belgilangan tartibda tikiladi va saqlanadi.

Mablag' to'lovchi va oluvchiga bir bankda xizmat ko'rsatilsa, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 20206 - «Jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlari»

Kredit 19903 - «Inkasso qilingan pul tushumlari va cheklar»

Filiallari mavjud bo'lmagan banklar o'rtasida amalga oshiriladigan banklararo to'lovlar quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Boshqa bank mijozlariga tegishli bo'lgan naqd pul bo'yicha mablag'lar qayta sanash kassasida sanab bo'lingandan keyin, vakillik hisobvarag'i orqali shu kunning o'zida, elektron memorial order shakllantirilib elektron to'lov tizimi orqali, ularning hisobvaraqlariga o'tkazib beriladi va quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 29804 - «Boshqa bank mijozlarining inkasso qilingan pul tushumlari va cheklari»

Kredit 20xxx «Mijozning asosiy depozit hisobvarag'i»

Kredit 22624 - «Savdo korxonalarining maqsadli mablag'lari» tegishli hisobvarag'iga kirim qilinadi (10301 - «Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i - Nostro» hisobvarag'i orqali)

Benefitsiar bankka ya'ni mablag' oluvchining bankiga elektron to'lov tizimi orqali mablag' kelib tushganda, dasturiy yo'l bilan, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali kirim qilinadi:

Debet 29804 - «Boshqa bank mijozlarining inkasso qilingan pul tushumlari va cheklari» (10301 - «Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i - Nostro» hisobvarag'i orqali)

Kredit 20xxx - «Mijozning asosiy depozit hisobvarag'i»

Kredit 22624 - «Savdo korxonalarining maqsadli mablag'lari» (hisobvaraqlarning tegishli shaxsiy hisobvarag'iga kirim qilinadi)

Initiator bank (to'lov operatsiyasini boshlovchi)da hisob-kitob cheklari bo'yicha quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 20206 - «Jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlari» (10301 «Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i - Nostro» hisobvarag'i orqali)

Kredit 19903 - «Inkasso qilingan pul tushumlari va cheklar»

Benefitsiar (to'lov operatsiyasini yakunlovchi) bankka elektron chek kelib tushganda, dasturiy yo'l bilan, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali chiqim qilinadi:

Debet 20206 - «Jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha saqlanadigan

depozit hisobvaraqlari»

Kredit 19903 «Inkasso qilingan pul tushumlari va cheklar» (10301 - «Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i - Nostro» hisobvarag'i orqali)

6.3. Markaziy bankning hududiy bosh boshqarmalari hisob-kitob kassa markazlaridan tijorat banklariga madad pullarini berish va olish amallari bo'yicha buxgalteriya o'tkazmalari

Tijorat bank Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmalari HKKMlaridan naqd pul olish uchun hududiy Bosh boshqarmalari tomonidan madad puli berish to'g'risidagi farmoyishga asosan tegishli buxgalteriya o'tkazmasi orqali hududiy Bosh boshqarmalarning Hisob-kitob kassa markazlariga mablag' jo'natadilar.

Filiali mavjud bo'lmagan initsiator bank madad puli olish uchun, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasini amalga oshirishi lozim:

Debet 10307 - «Markaziy bankdan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar - Naqd pullar»

Kredit 21307 - «Naqd pul olish uchun rezident banklardan kelib tushgan mablag'lar» (10301 - «Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i - Nostro» hisobvarag'i orqali)

Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmalari HKKMlariga madad puli olish uchun mablag' kelib tushganda, dasturiy yo'l bilan, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 10307 - «Markaziy bankdan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar - Naqd pullar» (16103 «Markaziy bank /filial/ agentliklarning filiallararo va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lari» hisobvarag'i orqali)

Kredit 21307 «Naqd pul olish uchun rezident banklardan kelib tushgan mablag'lar»

Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmalari HKKMlari tomonidan madad puli jo'natilganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 10109 - «Yo'ldagi naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari»

Kredit 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar»

Filiali mavjud bo'lmagan initsiator bankka, HKKMdan Markaziy bank hududiy Bosh boshqarmalari farmoyishiga asosan madad puli keltirilganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar»

Kredit 10307 - «Markaziy bankdan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar - Naqd pullar»

Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmalari HKKMLariga filiali mavjud bo'lmagan initsiator bankdan madad pulini olganligi to'g'risida tasdiqnoma kelganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 21307 - «Naqd pul olish uchun rezident banklardan kelib tushgan mablag'lar»

Kredit 10109 - «Yo'ldagi naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari»

Initsiator bank filialida (filiali mavjud banklarda) Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmalari HKKMLaridan madad puli olish quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 10307 - «Markaziy bankdan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar Naqd pullar»

Kredit 21307 - «Naqd pul olish uchun rezident banklardan kelib tushgan mablag'lar» (16103«Bosh bank/filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i orqali)

Benefetsiar bank filialiga, ya'ni Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmalari HKKMLariga madad puli uchun mablag' kelib tushganda, dasturiy ravishda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 10307 - «Markaziy bankdan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar - Naqd pullar» (16103 - «Markaziy bank /filial /agentliklarning filiallararo va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lari» hisobvarag'i orqali)

Kredit 21307 - «Naqd pul olish uchun rezident banklardan kelib tushgan mablag'lar»

Benefitsiar bank filiali, ya'ni Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmalari HKKMLari tomonidan madad puli jo'natilganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 10109 - «Yo'ldagi naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari»

Kredit 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar»

Initsiator bank filialiga madad puli keltirilganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:

Debet 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar»

Kredit 10307 - «Markaziy bankdan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar - Naqd pullar»

Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmalari HKKMLariga madad

pulini olganligi to'g'risida, initsiator bank filialidan tasdiqnoma kelganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasini amalga oshiradi:

Debet 21307 - «Naqd pul olish uchun rezident banklardan kelib tushgan mablag'lar»

Kredit 10109 - «Yo'ldagi naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari»

Tijorat bank filiallari Markaziy bank hududiy Bosh boshqarmalari farmoyishiga asosan boshqa tijorat bank filialidan madad puli olganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Initsiator bank filiallari madad puli olish uchun quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali mablag' jo'natadilar:

Debet 10507 - «Boshqa banklardan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar - Naqd pullar»

Kredit 21008 - «Boshqa banklarga berilishi lozim bo'lgan - Naqd pullar» (16103 - «Bosh bank/filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i orqali)

Benefitsiar bank filialiga madad puli uchun mablag' kelib tushganda, dasturiy ravishda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 10507 - «Boshqa banklardan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar - Naqd pullar» 16103 - «Bosh bank/filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i orqali

Kredit 21008 - «Boshqa banklarga berilishi lozim bo'lgan - Naqd pullar»

Benefitsiar bank filiali madad puli jo'natganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasini amalga oshiradi:

Debet 10109 - «Yo'ldagi naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari»

Kredit 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar»

Initsiator bank filialida, ya'ni madad puli olgan filialda esa olingan madad puli summasiga quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar»

Kredit 10507 - «Boshqa banklardan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar - Naqd pullar»

Benefitsiar bank filialiga initsiator bank filiali tomonidan jo'natilgan madad pulini olganligi to'g'risida tasdiqnoma kelib tushganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasini amalga oshiradi:

Debet 21008 - «Boshqa banklarga berilishi lozim bo'lgan Naqd pullar»

Kredit 10109 - «Yo'ldagi naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari»

Bir bank filiallari o'rtasida madad pullarini berish va olish bo'yicha buxgalteriya hisobi quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Initiator bank filiali, ya'ni madad puli oluvchi filial naqd pul olish uchun shu bankning benefitsiar filialiga mablag' jo'natganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasini amalga oshiradi:

Debet 16101 - «Bosh bank/ filiallardan olinadigan mablag'lar - Naqd pullar»

Kredit 22202 - «Bosh bank/filiallarga to'lanadigan mablag'lar - Naqd pullar» (16103 - «Bosh bank/filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i orqali)

Bankning benefitsiar bank filialiga elektron to'lov orqali madad puli uchun mablag' kelib tushganda, dasturiy yo'l bilan, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 16101 - «Bosh bank/filiallardan olinadigan mablag'lar - Naqd pullar» (16103 - «Bosh bank/filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i orqali)

Kredit 22202 - «Bosh bank/filiallarga to'lanadigan mablag'lar - Naqd pullar»

Bankning benefitsiar filiali, ya'ni madad puli jo'natuvchi 22202-sonli hisobvaraqaqa madad puli uchun mablag' kelib tushgandan so'ng, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasini amalga oshiradi:

Debet 10109 - «Yo'ldagi naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari»

Kredit 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar»

Bankning initiator filialiga, ya'ni madad puli oluvchi bankka madad puli keltirilganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar»

Kredit 16101 - «Bosh bank/filiallardan olinadigan mablag'lar - Naqd pullar»

Madad pulini qabul qilib olgan filial yuqoridagi buxgalteriya o'tkazmasini amalga oshirgandan so'ng benefitsiar filialga ya'ni madad pulini jo'natgan filialga madad pulini qabul qilganligi to'g'risida belgilangan tartibda tasdiqnoma jo'natadi.

Benefitsiar bank filiali ya'ni madad puli jo'natgan filial, initiator bank filiali, ya'ni madad puli olgan filialdan belgilangan tartibda tasdiqnoma kelganda, benefitsiar bank filiali tomonidan quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 22202 - Bosh bank/filiallarga to'lanadigan mablag'lar - Naqd pullar»

Kredit 10109 - «Yo'ldagi naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari»

Tijorat banklariga jismoniy shaxslardan naqd chet el valyutasini sotib olish uchun Markaziy bank tomonidan madad pullari berishda Tijorat banklariga jismoniy shaxslardan naqd chet el valyutasini sotib olish uchun Markaziy bank tomonidan madad pullari berish tartibi to'g'risidagi nizomda (ro'yxat raqami 2912, 2017 yil 16 avgust) belgilangan buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi.

6.4. Bankomatda kirim va chiqim amallarini amalga oshirishga doir buxgalteriya hisobini yuritish tartibi

Bank 10107 - «Bankomatdagi naqd pullar» hisobvarag'iga madad pulini belgilangan tartibda taqsimlab bo'lgandan so'ng har bir bankomat bo'yicha quyidagi buxgalteriya o'tkazmasini amalga oshiriladi:

Debet 17301 - «Tranzit hisobvaraqlari»

Kredit 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar»

10107 - «Bankomatlardagi naqd pullar» hisobvarag'iga madad pulini kirim qilinganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 10107 - «Bankomatlardagi naqd pullar»

Kredit 17301 - «Tranzit hisobvaraqlari»

Bankomatdan plastik karta orqali naqd pul olinganda, har bir holat uchun, dasturiy yo'l bilan, quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:

Debet 17401 - «Jismoniy shaxslarning plastik kartalaridan olingan naqd pullar bo'yicha hisobdan chiqarilishi lozim bo'lgan pul mablag'lari bo'yicha tranzit hisobvaraqlari»

Kredit 10107 - «Bankomatlardagi naqd pullar»

Debet 22618 - «Jismoniy shaxslarning plastik kartochkalari bo'yicha majburiyatlar» va 22617 - «Pensionerlarning plastik kartochkalari bo'yicha majburiyatlar»

Kredit 23504 «Plastik kartalardan berilgan naqd pullar, jismoniy shaxslarning plastik kartalari yoki omonatlar hisobvaraqlariga o'tkazilgan pul mablag'lari bo'yicha tranzit hisobvaraqlar»

Debet 23504 - «Plastik kartalardan berilgan naqd pullar, jismoniy shaxslarning plastik kartalari yoki omonatlar hisobvaraqlariga o'tkazilgan pul mablag'lari bo'yicha tranzit hisobvaraqlar»

Kredit 17401 - «Jismoniy shaxslarning plastik kartalaridan olingan naqd pullar bo'yicha hisobdan chiqarilishi lozim bo'lgan pul mablag'lari bo'yicha

tranzit hisobvaraqlari.

Bankomatdagi qolgan yoki to'lovga yaroqsiz naqd pullarni bankka qaytarilganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 17301 - «Tranzit hisobvaraqlari»

Kredit 10107 - «Bankomatlardagi naqd pullar»

Bankomatga ortiqcha qo'yilgan yoki to'lovga yaroqsiz naqd pullarni 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» hisobvarag'iga kirim qilinganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar»

Kredit 17301 - «Tranzit hisobvaraqlari»

6.5. Bank operatsion kassalarida madad pulini kirim va chiqim qilishga oid amaliyotlarning buxgalteriya hisobi

Har bir bank operatsion kassasiga talab qilingan madad pulini o'z vaqtida va so'ralgan miqdorda taqsimlashi lozim.

Bank 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» hisobvarag'idan bank binosidan tashqarida joylashtirilgan shoxobchalariga (10111 - «Bank binosida joylashmagan amaliyot kassalardagi naqd pullar») madad pulini jo'natganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasini amalga oshiradilar:

Debet 10109 - «Yo'ldagi naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari»

Kredit 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar»

10111 - «Bank binosida joylashmagan amaliyot kassalardagi naqd pullar» hisobvarag'iga madad puli kirim qilinganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 10111 - «Bank binosida joylashmagan amaliyot kassalardagi naqd pullar»

Kredit 10109 - «Yo'ldagi naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari»

Bank operatsion kassasining hisobvarag'iga kirim qilingan madad puli hamda kun davomida mijozlardan kirim qilingan naqd pullar miqdorida xarajat qilishga ruxsat etiladi, amaliyot kuni yakunlanganda qoldiq summa to'raligicha 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» hisobvarag'iga quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali berkitilishi lozim:

Debet 10109 - «Yo'ldagi naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari»

Kredit 10111 - «Bank binosida joylashmagan amaliyot kassalardagi naqd pullar»

10109 «Yo'ldagi naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari» hisobvarag'i

qoldig'i berkitilganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» yoki 29896 - «Boshqa majburiyatlar»

Kredit 10109 - «Yo'ldagi naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari».

6.6. Markaziy bankning hududiy bosh boshqarmalari hkmlari tomonidan tijorat banklarining aylanma kassalaridagi ortiqcha naqd pullarni qabul qilish amallari bo'yicha buxgalteriya hisobi

Tijorat banklari naqd pullar zaxirasidan ortiqcha naqd pullarni Markaziy bankning Bosh boshqarmalari HKKMLariga jo'natganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasini amalga oshiriladi:

Debet 10109 - «Yo'ldagi naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari»

Kredit 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar»

Markaziy bankning Bosh boshqarmalari HKKMLari aylanma kassasiga tijorat banklaridan keltirilgan naqd pullarni kirim qilganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar»

Kredit 21314 - «Rezident banklari tomonidan topshirilgan naqd pul uchun to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lar»

Markaziy bankning Bosh boshqarmalari HKKMLari naqd pullarni aylanma kassasiga kirim qilgandan so'ng, shu xaxotiyoyq dasturiy ravishda tijorat bankiga naqd pullarni qabul qilganligi to'g'risida tasdiqnomani jo'natishi shart.

Bosh boshqarmalari HKKMLari aylanma kassasiga kirim qilingan naqd pullar uchun tijorat banklariga mablag' o'tkazib berilganda, quyidagi yakunlovchi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 21314 - «Rezident banklari tomonidan topshirilgan naqd pul uchun to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lar»

Kredit 10311 - «Markaziy bankka topshirilgan naqd pullar uchun olinishi lozim bo'lgan mablag'lar» (16103 - «Markaziy bank/filial /agentliklarning, filiallararo va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lari» hisobvarag'i orqali)

Tijorat banklariga Markaziy bankning Bosh boshqarmalari HKKMLaridan topshirilgan naqd pullar uchun tasdiqnoma kelib tushganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasini amalga oshirishlari shart:

Debet 10311 - «Markaziy bankka topshirilgan naqd pullar uchun olinishi

lozim bo'lgan mablag'lar»

Kredit 10109 - «Yo'ldagi naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari»

Tijorat bankka topshirilgan naqd pullar uchun Markaziy bankning Bosh boshqarmalari HKKMlaridan mablag' kelib tushganda, dasturiy yo'l bilan quyidagi yakunlovchi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 21314 - «Rezident banklari tomonidan topshirilgan naqd pul uchun to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lar» (16103 - «Bosh bank/filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar» hisobvarag'i)

Kredit 10311 - «Markaziy bankka topshirilgan naqd pullar uchun olinishi lozim bo'lgan mablag'lar»

Nazorat savollari va topshiriqlar.

1. Banklarda kassa operatsiyalarini tashkil qilish, bank kassalarining turlari.
2. Kirim kassa operatsiyalari bo'yicha hujjatlar aylanishi, hisobi va nazorati.
3. Chiqim kassa operatsiyalari bo'yicha hujjatlar aylanishi, hisobi va nazorati.
4. Kechki kassalarning faoliyati.
5. Pul tushumlarini inkassatsiya qilish tartibi va hisobi.
6. Zaxiradagi naqd pullarni hisobga olish.
7. Valyuta ayirboshlash shaxobchalarida naqd pullar hisobini yuritish.

VI bob bo'yicha masala va mashqlar.

1-masala Tijorat banki filialida 10 sentyabrda quyidagilaridan naqd pul qabul qilindi:

Ming so'm.

1. "Smena" fotosalonidan naqd pul tushumi – 120000 so'm;
2. "Sharq" f/xdan mahsulot sotishdan tushum – 670000 so'm;
3. "Yulduz" AKdan tarqatilmagan ish haqi – 100000 so'm;
4. Bank xodimi Bozorovadan safar xarajatlarining foydalanilmagan qismi – 12400 so'm;

Mas'ul ijrochi tomonidan kassa kirim jurnali tuzilgan. Uning ma'lumotlari kirim kassasi kassirining ma'lumotnomalari bilan solishtirildi.

Talab qilinadi:

1. Kirim kassa operatsiyalari qaysi hujjatlar asosida rasmiylashtiriladi?

2. Kassa kirim operatsiyalari bo'yicha hujjatlar aylanishini tavsiflang.

3. Operatsiyalar bo'yicha buxgalteriya provodkalarini tuzing.

2-masala Tijorat bank filiali tomonidan 7 oktyabr kuni quyidagi maqsadlar uchun naqd pul berildi:

- “Nur” aksionerlik jamiyatiga ish haqi uchun 265478000 so‘m naqd pul berildi;

- “Sharq” aksionerlik jamiyatiga komandirovka xarajatlari uchun 1256400 so‘m berildi;

- №4 bosmaxonaga xo‘jalik xarajatlari uchun 1240000 so‘m berildi;

- Bank mas‘ul xodimi M.Alievaga safar xarajatlari uchun №32 kassa chiqim orderi bo'yicha 1452600 so‘m naqd pul berildi.

Talab qilinadi: 1. Chiqim kassa operatsiyalari bo'yicha rasmiylashtiriladigan hujjatlarni tavsiflang;

2. Bank kassasiga naqd pullarni qabul qilish bo'yicha hujjatlar aylanish tartibini bayon eting;

3. Bajarilgan operatsiyalar bo'yicha kassaning chiqim jurnali va buxgalteriya provodkalari tuzing.

3-masala “Servis” aksionerlik jamiyati tomonidan bankka o‘z xodimlarga ish haqi to‘lash uchun 5600,0 ming so‘mga rasmiylashtirilgan №6 pul cheki hamda 640 ming so‘mga rasmiylashtirilgan davlat soliq organlariga ish haqidan ushlangan soliqlarni o‘tkazish to‘g‘risidagi to‘lov topshiriq noma kelib tushdi. Hisobvaraqdagi qoldiq summa ushbu operatsiyalarni amalga oshirish uchun etarli.

Talab qilinadi: Pul chekinging rekvizitlarini sanab bering;

1. Ish haqiga naqd pul berishda mas‘ul ijrochining amalga oshiradigan nazoratini tavsiflang;

2. Bank kassasidan naqd pul berish bo'yicha hujjatlar aylanish tartibini bayon eting;

3. Operatsiyalar bo'yicha buxgalteriya provodkalarini tuzing.

4-masala Bank kassasidan 2020 yil 4 aprelda quyidagi maqsadlarga naqd pul berildi:

- “Bek baraka” ishlab chiqarish birlashmasiga ish haqi tarqatish uchun naqd pul berildi – 175000000 so‘m;

- №2 poyafzal fabrikasiga xo‘jalik ehtiyojlari uchun naqd pul berildi – 3750000 so‘m;

- “STAR” AJga ish haqi to‘lash uchun – 24500000 so‘m;

- “Red” firmasiga komandirovka xarajatlari uchun – 2202000 so‘m;

• “Nur” ishlab chiqarish birlashmasiga mukofot puli tarqatish uchun - 100000000 so‘m;

• “Mirror” zavodiga safar xarajatlari uchun – 20000000 so‘m.

Talab qilinadi:

1. Bankdan naqd pul olish uchun qanday hujjatlar rasmiylashtiriladi?

2. Pul cheklarini to‘lashda nazoratchi va kassirning hamda mas‘ul ijrochilari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat hususiyatlarini aytib o‘ting.

3. Kassa chiqim jurnalini to‘ldiring va chiqim kassasi kassirning spravkasi bilan solishtirish tartibini ko‘rsating.

4. Operatsiyalarga buxgalteriya provodkalarini bajaring.

5-masala «Sanoatqurilishbanki»ning M.Ulug‘bek filialida 22 sentyabrda quyidagi kassa operatsiyalari bajarildi:

• “Anhor sayli” ishlab chiqarish birlashmasiga ish haqi tarqatish uchun naqd pul berildi –10705000 so‘m;

• №2 poyafzal fabrikasiga xo‘jalik ehtiyojlari uchun naqd pul berildi – 30705000 so‘m;

• Bank xodimi S.Solievaga safar xarajatlari uchun naqd pul berildi – 2005000 so‘m;

• “Extra food servis” ishlab chiqarish birlashmasidan tarqatilmagan ish haqi naqd pulda bank kassasiga qabul qilindi – 2165000 so‘m;

• №1 To‘quv fabrikasining ishlab chiqarish chiqindilarini sotishdan tushgan tushum qabul qilindi – 5450000 so‘m;

Kun boshiga bank kassasidagi naqd pul qoldig‘i 972675000 so‘m.

Talab qilinadi: 1. Kassa kirim va chiqim operatsiyalari bo‘yicha hujjatlar aylanish sxemasini solishtiring.

2. Operatsiyalar bo‘yicha buxgalteriya provodkalarini tuzing va kun oxiriga kassadagi naqd pul qoldig‘ini aniqlang.

6-masala “AT Asaka banki” shahar filialiga “Sharshara” kafesi va «Beh-zod» oziq-ovqat magazini tomonidan berilgan 850000 va 586000 so‘m inkassatsiya tushumi sumkalari yukxatlari bilan birgalikda inkassatorlar tomonidan kechki kassalarga topshirildi. Qayta sanash natijalari ko‘rsatilgan summalarning to‘g‘riligini tasdiqladi.

Talab qilinadi:

1. Inkassatsiya tushumini hisobga olish tartibini tushuntiring.

2. Mijozlar shu bankda hisobvaraqa ochgan bo‘lsa, bu operatsiyalar qanday provodka orqali rasmiylashtiriladi?

3. Mijozlar boshqa bankka tegishli bo‘lsa-chi?

7-masala “Aloqabanki”ga inkassatorlar tomonidan “Ijodkor yoshlar” xususiy korxonasi hisobvarag’iga sumkadagi yukxat asosida 2450000 so‘m inkassatsiya tushumi topshirildi, qayta sanash natijalariga ko‘ra 126000 so‘m kamomad aniqlandi.

Talab qilinadi:

1. Bank tomonidan inkassatsiya qilingan pul tushumi hisoboti-ni tavsiflab bering:

2. Inkassatsiya tushumi hisobi bo‘yicha qayta sanashgacha va qayta sanashdan keyingi kamomadlarga buxgalteriya provodkalari tuzing.

Testlar

1. Bank xodimlarining ish haqi plastik kartaga o‘tkazib berilsa qanday buxgalteriya o‘tkazmasi bajariladi?

- a. Debet-20210, Kredit-29803
- b. Kredit-22618, Debet-20210
- c. Debet-29803, Kredit-22618
- d. Debet-10101, Kredit-22618

2. Inkassatorlar orqali yig‘ib kelingan inkassatorlik qoplaridagi naqd pul bo‘yicha mablag‘lar shu bank mijoziga tegishli bo‘lsa, qopdagi naqd pul qayta sanalgunga qadar:

- a. Debet-19903, Kredit-10101
- b. Debet-10101, Kredit-20200
- c. Debet-20210, Kredit-29803
- d. Debet-19903, Kredit-202XX

3. Inkassatsiya qilingan naqd pullar qopida qayta sanash paytida ortiqcha pul mablag‘i aniqlanganda qanday o‘tkazma beriladi?

- a. Debet - 10101, Kredit - 29816
- b. Debet - 10101, Kredit - 20208
- c. Debet - 29816, Kredit - 10101
- d. Debet - 10101, Kredit - 29804

4. Kirim kassa operatsiyalarini rasmiylashtirishda qanday xujjatlar rasmiylashtiriladi?

- a. e‘lonnoma, kassa kirim jurnali, kassa kirim orderi
- b. memorial order, to‘lov topshiriqnomasi, chek
- c. hisob-kitob cheki, chiqim orderi
- d. kassa kirim jurnali, to‘lov topshiriqnomasi

5. Bank aktiv hisobvaraqlarida ko'payish hisobvaraqning qanday tomonida aks ettiriladi?

- a. debetda
- b. kreditda
- c. aktivda
- d. aktiv va passivda

VII BOB. BANKLARDA KREDIT OPERATSIYALARINING BUXGALTERIYA HISOBI

Tayanch so‘z va iboralar. Kredit, vositachilik haqi, aktivlar, diskont, pul oqimlari, ssuda hisobvarag‘i.

7.1. Banklarda kredit operatsiyalarining buxgalteriya hisobini tashkil etish

Tijorat banklarida kredit operatsiyalarining buxgalteriya hisobi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan 2004 yil 27 noyabr, 25/9-son tasdiqlangan “Tijorat banklarida kreditlarning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to‘g‘risida”gi nizom asosida amalga oshiriladi.

Bank tomonidan berilgan kreditlar haqiqiy qiymati bo‘yicha aks ettiriladi va u qarzdorga berilgan pul mablag‘lari summasini ifodalaydi. Bank tomonidan kredit berilganda quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 11900 - 15500 (tegishli ssuda hisobvarag‘i)

Kredit 10301 - «Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag‘i - Nostro» (agar mablag‘ oluvchiga boshqa tijorat banki tomonidan xizmat ko‘rsatilsa), yoki

Kredit - mablag‘ oluvchining talab qilib olunguncha depozit hisobvarag‘i (agar mablag‘ oluvchiga mazkur bankda xizmat ko‘rsatilsa), yoki

Kredit 10100 - «Kassadagi naqd pul va boshqa to‘lov hujjatlari» (kredit naqd pulda berilganda).

Kredit berish munosabati bilan bank tomonidan olinadigan vositachilik haqi qarzdorning moliyaviy holatini va investitsiya loyihalarini qoplanishini baholash, kafolatlarni baholash va aks ettirish, garov va boshqa ta‘minotlarni tashkillashtirish bo‘yicha tadbirlar, hujjatlarni tayyorlash va ularni qayta ishlash hamda bitimni yakunlash bilan bog‘liq bank xarajatlari kompensatsiyasini o‘z ichiga oladi. Shu kabi vositachilik haqlari kredit berish va kelgusida kredit munosabatlarida qatnashishning ajralmas qismi bo‘lib, va ularga tegishli to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar bilan birga, muddati uzaytiriladi va real daromadni tuzatish (korrektirovka qilish) sifatida tan olinadi. Bundan tashqari, banklar kredit berish bo‘yicha yozma majburiyat uchun vositachilik haqi olishlari mumkin.

Banklar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun potentsial qarz oluvchilardan vositachilik haqi olinayotganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 20xxx Qarz oluvchining talab qilib olunguncha depozit hisobvrag'i

Kredit 22896 «Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar»

7.2. Kreditning qadrsizlanishi

Kredit qadrsizlanishini tasdiqlovchi ob'ektiv dalillar va sharoitlar aniqlangan taqdirda, zarar summasi quyidagi ikki miqdordan eng yuqorisi bo'yicha baholanadi:

1) tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq aniqlangan summa bo'yicha; yoki

2) kreditning balans qiymati va kreditning dastlabki real foiz stavkasi bo'yicha diskontlangan kutilayotgan kelajakdagi pul oqimlarining joriy qiymati o'rtasidagi farq bo'yicha.

Bank ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholashni quyidagicha aks ettiradi:

Debet 56802 «Kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash»

Kredit Kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar zaxirasi Kreditning tegishli kategoriyasi (kontr-aktiv)

Agar kredit portfelining keyingi tahlili natijasida uning zaxiralari ko'rsatilgan talablardan oshsa, bank zaxira summasini oxirgi sana holati bo'yicha aniqlangan, ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar summasiga muvofiqqlashtirishi lozim. Bunda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar zaxirasi - Kreditning tegishli kategoriyasi (kontr-aktiv)

Kredit 56802 «Kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash».

Chet el valyutasida berilgan kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash avval kredit qaysi valyutada berilgan bo'lsa, o'sha valyutada amalga oshiriladi. Shu tarzda, birinchi navbatda, har qanday

ehtimoliy zararlarni baholash chet el valyutasida amalga oshiriladi, keyin ushbu summa O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida aks ettiriladi.

Kreditlarni qaytarilishi qarz oluvchining asosiy, shuningdek ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlaridan quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali amalga oshiriladi:

Debet Qarz oluvchining talab qilib olunguncha depozit hisobvarag'i

Kredit Ssuda hisobvarag'i

Agar kredit kafolat beruvchi (kafil) tomonidan qaytarilsa, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet Kafolat beruvchi (kafil)ning talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i, yoki

Debet 10301 «Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i - Nostro» (agar mablag' oluvchiga boshqa tijorat banki tomonidan xizmat ko'rsatilsa)

Kredit Ssuda hisobvarag'i

Kreditlar naqd pulda qaytarilganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 10100 «Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari

Kredit Ssuda hisobvarag'i

Agar kreditga foiz o'stirmaslik maqomi berilmagan bo'lsa, unda kreditlar bo'yicha foizlar tushumi quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali aks ettiriladi:

Debet Qarz oluvchining talab qilib olunguncha depozit hisobvarag'i

Kredit 16309 «Kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar»

Qarzdor tomonidan garov bilan ta'minlanmagan kredit qaytarilmasa yoki to'liq qaytarilmaganda, ularni shakllantirilgan zaxira hisobidan hisobdan chiqarish quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali amalga oshiriladi:

Debet Kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar zaxirasi Kreditning tegishli kategoriyasi (kontr-aktiv)

Kredit Ssuda hisobvarag'i

Garov bilan ta'minlangan kredit qarzdor tomonidan qaytarilmasa yoki to'liq qaytarilmagan holda, bank kreditni qaytarish uchun undiruvni garovga qo'yilgan mol-mulkka qaratishga haqli. Undiruvga qaratilgan garovga qo'yilgan mol-mulkni sotish kim-oshdi savdosi orqali qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Garovga qo'yilgan

mol-mulkni sotishdan mablag'lar kelib tushganda:

Debet 10301 «Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i - Nostro»

Kredit 29801 «Mijozlar bilan hisob-kitoblar»

Kreditlar bo'yicha asosiy qarzni va mazkur kredit bo'yicha hisoblangan, lekin hali olinmagan foizlarni so'ndirish quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali amalga oshiriladi:

a) Asosiy qarz qaytarilganda:

Debet 29801 «Mijozlar bilan hisob-kitoblar»

Kredit Ssuda hisobvarag'i.

b) Asosiy qarz to'liq qaytarilgandan keyin, foizlar so'ndirilganda:

Debet 29801 «Mijozlar bilan hisob-kitoblar»

Kredit 41400 Kreditlar bo'yicha foizli daromadlar

-44600

Kredit garovga olingan mol-mulkni o'z egaligiga olish yo'li bilan qaytarilgan taqdirda, kreditning balans qiymati va garovga qo'yilgan mol-mulkning haqqoniy qiymatidan qaysi biri kam bo'lsa, o'sha qiymat bo'yicha, uni sotish bo'yicha qilingan xarajatlarni chegirgan holda, lekin qayta savdodagi dastlabki sotuv bahosidan 10 foiz kam bo'lmagan summada quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 16701 «Kredit va lizing bo'yicha garov hisobidan undirilgan mulk»

Kredit Ssuda hisobvarag'i

Qarzdor etarli miqdorda pul mablag'lariga ega bo'lmagan taqdirda, bank kredit bo'yicha qarzni qarzdorning roziligi bilan uning likvid mol-mulki hisobidan, agar qarzdor norozi bo'lsa, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sud qarori asosida undiruvni qarzdorning likvid mol-mulkiga qaratish yo'li bilan qaytarish huquqiga ega.

7.3. Vositachilik haqini kredit bo'yicha real daromadning qismi sifatida aks ettirish

Kredit berishni tayyorlash uchun vositachilik haqi, shuningdek, kredit berish bo'yicha majburiyat uchun (kredit berish bo'yicha majburiyatning amal qilish davrida berilgan kreditlar bo'yicha) vositachilik haqi, kredit bo'yicha daromadni tuzatish (korrektirovka) sifatida tan olinadi. Quyidagi keltirilgan misolda, kredit berish majburiyati uchun vositachilik haqi ko'rib chiqilgan, ushbu metodologiya kredit berishni tayyorlash uchun vositachilik

hakiga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin.

Misol: Bank 10 mln. so'm miqdorda kredit berish majburiyatini olgan. Ushbu bank kredit berish bo'yicha majburiyat uchun kreditning umumiy summasidan 4 foiz miqdorida (qaytarib berilmaydigan) vositachilik haqini oladi, va ushbu majburiyatning amal qilish muddati 3 oyni tashkil etadi. Kredit bo'yicha foiz stavkasi (yillik) 15%ni tashkil etadi, bunda foiz to'lovlari har oy amalga oshirilishi lozim. 10 mln. so'm miqdoridagi asosiy qarz summasi ikki yil tugagandan keyin qaytarilishi lozim. Bank kredit berish majburiyati amal qiladigan uch oy muddat davomida mijoz kredit olish uchun murojaat qilishini kutadi.

Vositachilik haqi summasi = $10.000.000 \times 4\% = 400\ 000$

Oylik foizlar = $10\ \text{mln.} \times 15\%/12 = 125\ 000$

Majburiyat uchun vositachilik haqini olish bo'yicha buxgateriya o'tkazmasi:

Debet 20xxx Qarz oluvchining talab qilib olinguncha 400.000
depozit hisobvarag'i

Kredit 22896 «Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar» 400.000

Agar kredit majburiyati muddati kredit taqdim etilmasdan tugasa:

Debet 22896 «Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar» 400.000

Kredit 45237 «Kredit majburiyatlari bo'yicha ko'rsatilgan 400.000
xizmatlar uchun olingan daromadlar»

Agar bank tomonidan kredit berish bo'yicha majburiyat bajarilayotgan bo'lsa, u holda muddati uzaytirilgan daromad kreditning amal qilish muddati davomida daromadni tuzatish (korrektirovka) sifatida real foiz stavkasi usulini qo'llagan holda amortizatsiyalanadi. Vositachilik haqi mohiyatiga ko'ra kredit bo'yicha daromadni tuzatish (korrektirovka) deb hisoblanganligidan kelib chiqqan holda, kredit bo'yicha haqiqiy ichki daromadlilik stavkasi ko'rsatilgan 15%ga teng bo'lgan foiz stavkasining miqdorini emas, balki 17,3473%ni tashkil etadi. Operatsiyaning mohiyatini yanada aniqroq aks ettirish uchun muddati uzaytirilgan vositachilik haqini amortizatsiya qilish uchun kredit «vositachilik daromadlari»ga emas, balki «foizli daromadlar»ga taalluqli bo'lishi kerak.

Muddati uzaytirilgan vositachalik haqining amortizatsiya qilish grafigi¹

Davr	Pul ko'rinishidagi olingan foizlar	Foizli daromad	Muddati uzaytirilgan vositachalik daromadlarining amortizatsiyasi
1.	125.000	144.561	19.561
2.	125.000	139.061	14.061
3.	125.000	139.265	14.265
4.	125.000	139.471	14.471
5.	125.000	139.680	14.680
6.	125.000	139.892	14.892
7.	125.000	140.107	15.107
8.	125.000	140.326	15.326
9.	125.000	140.547	15.547
10.	125.000	140.772	15.772
11.	125.000	141.000	16.000
12.	125.000	141.231	16.231
13.	125.000	141.466	16.466
14.	125.000	141.704	16.704
15.	125.000	141.946	16.946
16.	125.000	142.191	17.191
17.	125.000	142.439	17.439
18.	125.000	142.691	17.691
19.	125.000	142.947	17.947
20.	125.000	143.206	18.206
21.	125.000	143.470	18.470
22.	125.000	143.737	18.737
23.	125.000	144.007	19.007
24.	125.000	144.282	19.282
		3.400.000	400.000

¹ Me'yoriy-hujjatlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

Birinchi oy uchun vositachalik daromadi quyidagi tartibda tan olinadi:

Debet 22896	«Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar»	19.561
Debet	Qarz oluvchining talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i	125.000
Kredit	41400 - 44600 Kreditlar bo'yicha foizli daromadlar	144.561

7.4. Bank kafolatlari hisobini yuritish

Berilgan kafolatlar hisobi O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasiga muvofiq, quyidagi hisobvaraqlarda yuritiladi.

Kafolat summasi «90993 - Kafolat va kafilliklar» hisobvarag'iga kiritiladi va kafolat summasi to'liq qoplab berilgunga qadar saqlanadi.

Kafolat ta'minoti sifatida bank tomonidan qabul qilingan ta'minot hisobi «94500 - Garov sifatida ta'minlangan qimmatli qog'ozlar, mulklar va mulkiy huquqlar» hisobvarag'ida yuritiladi.

Bank kafolati kiritilganda:

Debet - 90993 - Kafolat va kafilliklar;

Kredit - 96377 - Kafolat va kafilliklar buyicha kontr-xisobvarak.

Bank kafolati bo'yicha daromad undirilganda:

Debet - 20xxx Printsipalning talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i;

Kredit - 45261 - Kafolatlar va kafilliklar buyicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun olingan daromadlar.

Ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxira shakllantirish quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali amalga oshiriladi:

Debet 56895 - Boshqa aktivlar ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash;

Kredit 29800 - Boshqa majburiyatlar.

Berilgan kafolat summasi benifitsiarga quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali to'lab beriladi:

Debet 19997 - Boshqa aktivlar;

Kredit Benifitsiar talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i.

Bank tomonidan shakllantirilgan zaxira hisobidan to'lab berilgan kafolat summasi "19999 - Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi" hisobvarag'iga quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali o'tkazib beriladi:

Debet 29800 - Boshqa majburiyatlar;
Kredit 19999 - Boshqa aktivlar ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv).

To'lab berilgan kafolat summasini mijoz tomonidan qoplab berilganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali amalga oshiriladi:

Debet Printsipalning talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i;

Kredit 19997 - Boshqa aktivlar.

Kafolat summasi zaxira shakllantirilgan hisobot yilida qoplab berilganda:

Debet 19999 - Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv);

Kredit 56895 - Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash;

Kafolat summasi zaxira shakllantirilgan yildan keyingi muayyan davrda qoplab berilganda:

Debet 19999 - Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv);

Kredit 45921 - Hisobdan chiqarilgan mablag'larning qaytarilishi.

Agar bank tomonidan to'lab berilgan kafolat summasi mijoz tomonidan qoplab berilmasa, "19997 - Boshqa aktivlar" hisobvarag'ining qoldiq summasi quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali balansdan chiqariladi:

Debet 19999 - Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv);

Kredit 19997 - Boshqa aktivlar.

Nazorat savollari va topshiriqlar.

1. Banklarda kredit operatsiyalari hisobining tashkil etilishi.
2. Kredit operatsiyalari bo'yicha sintetik va analitik hisobning yuritilishi.
3. Ssuda hisob varaqalarini ochish tartibi.
4. Kredit kredit berish va qaytarish operatsiyalarining hisobi.
5. Muddatli va muddati o'tgan ssudalar bo'yicha foizlar hisoblash va undirish tartibi.

VII bob bo'yicha masala va mashqlar.

1-masala

Toshkent Traktor ishlab chiqarish birlashmasi nomiga qishloq xo'jalik mashinalari ishlab chiqarish zavodi tomonidan yuborgan ehtiyot qismlar va asbob-uskunalar, o'rnatiladigan qurilmalar qiymatini to'lash uchun to'lov

talabnomasi qabul qilindi. Talabnoma summasi – 1400000 soʻm. Ikkala mijoz ham “Agrobanki” filialida hisobvaraqlar ochgan. Toshkent Traktor ishlab chiqarish birlashmasining hisobvaragʻida mablagʻlari doimo etarli boʻlmay-di. Shu sababli bank bilan tuzgan shartnomasiga asosan talabnomani Toshkent Traktor ishlab chiqarish birlashmasi bankning qis-qa muddatli ssudalari hisobidan toʻladi.

Talab qilinadi:

1. Kredit tamoyillariga tavsif bering.
2. Qisqa muddatli kredit berish tartibini tushuntiring.
3. Qisqa muddatli ssuda operatsiyalarini hisobini tashkil etish uchun qaysi hisobvaraqlardan foydalaniladi?
4. Operatsiyalarga provodka bering.

Testlar

1. Kredit liniyasi - ?

- a. berilayotgan kredit summasi
- b. kredit shartnomasida kelishilgan foiz va qarzdorlik summasi
- c. kredit shartnomasida nazarda tutilgan qarzdorlik summasi doirasida qarzlarni turkumini berish
- d. bir marta berilayotgan qarz summasi

2. Aktiv hisobvaraqlarning xususiyatlarini koʻrsating

- a. debet tomonda qoldiq boʻlib, kredit oborotda koʻpayadi, debet oborotda esa kamayadi
- b. kredit tomonda qoldiq boʻlib, kredit oborotda kamayadi, debet oborotda esa koʻpayadi
- c. kredit tomonda qoldiq boʻlib, kredit oborotda koʻpayadi, debet oborotda esa kamayadi
- d. mablagʻlarning koʻpayishi debetda, kreditda esa kamayish aks ettiriladi, qoldiq summa debetda qoladi

3. Passiv hisobvaraqlarning xususiyatlarini koʻrsating

- a. debet tomonda qoldiq boʻlib, debet oborotda koʻpayadi, kredit oborotda esa kamayish boʻladi;
- b. kredit tomonda qoldiq boʻlib, kredit oborotda kamayadi, debet oborotda esa koʻpayadi;
- c. kredit tomonda qoldiq boʻlib, kredit oborotda koʻpayadi, debet oborotda esa kamayadi;
- d. debet tomonda qoldiq boʻlib, kredit oborotda koʻpayadi, debet

oborotda esa kamayadi.

4. Berilgan kredit bo'yicha foizlar hisoblanganda:

- a. Dt-163XX, Kt-40412(40201)-44900;
- b. Dt-40412(40201)-44900, Kt-163XX;
- c. Dt-20208, Kt-40412(40201)-44900;
- d. Dt-163XX, Kt-51100.

5. Jismoniy shaxsga berilgan qisqa muddatli kredit bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholashda quyidagi qaysi buxgalteriya provodkasi bajariladi

- a. Dt 56802, Kt 12599
- b. Dt 56802, Kt 12699
- c. Dt 56802, Kt 12599
- d. Dt 56802, Kt 12509

VIII BOB. BANKLARDA LIZING VA FAKTORING OPERATSIYALARINING BUXGALTERIYA HISOBI

Tayanch soʻz va iboralar. Lizing, ijara, mikrolizing, lizing obʻektlari, lizing subʻektlari, lizing beruvchi, lizing oluvchi, sotuvchi, lizing shartnomasi, lizing toʻlovlari, faktoring, faktoring shartnomasi, .

8.1. Tijorat banklarda lizing operatsiyalari hisobi tashkil etilishi

«Lizing» soʻzi inglizcha boʻlib, «Lease» feʻlidan kelib chiqqan va taxminan, «mulkni ijaraga berish» yoki «mulkni ijaraga olish» maʼnosini ifodasini bildiradi va iqtisodiy lugʻatga 1877 yilda kiritilgan.

Lizing (moliyaviy ijara) - bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirigʻiga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing obʻektini) mulk kilib sotib olishni va uni shu shartnomada belgilangan shartlarda hak evaziga egalik kilish va foydalanish uchun lizing oluvchiga oʻn ikki oydan ortiq muddatga berishni nazarda tutadigan ijara munosabatlarining alohida turi.

Bunda lizing shartnomasi quyidagi talablardan biriga javob berishi kerak:

- lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing obʻekti lizing oluvchining mulki boʻlib oʻtsa;
- lizing shartnomasining muddati lizing obʻekti xizmat muddatining sakson foizidan ortiq boʻlsa yoki lizing obʻektining lizing shartnomasi tugaganidan keyingi qoldiq qiymati uning boshlangʻich qiymatining yigirma foizidan kam boʻlsa;
- lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing oluvchi lizing obʻektini uning bozor qiymatidan past narxda evazini toʻlab sotib olish huquqiga ega boʻlsa, bunda ana shu huquqni amalga oshirish kunidagi lizing obʻekti qiymati asos boʻladi;
- lizing shartnomasi davri uchun lizing toʻlovlarining joriy diskontlangan (hisobga olingan) qiymati lizing obʻektining lizingga topshirish paytidagi joriy qiymatining toʻqson foizidan ortiq boʻlsa, joriy diskontlangan (hisobga olingan) qiymat buxgalteriya hisobi toʻgʻrisidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

“Lizing toʻgʻrisida”gi qonunning 2-moddasiga asosan lizing uch taraflama (sotuvchi — lizing beruvchi — lizing oluvchi) yoki ikki taraflama

(lizing beruvchi — lizing oluvchi) lizing shartnomasi bo'yicha amalga oshiriladi. Lizing beruvchi va sotuvchi o'rtasida ikki taraflama lizing shartnomasi tuzilayotganida qo'shimcha ravishda lizing ob'ektining oldi-sotdi shartnomasi tuziladi.

Lizing beruvchi, lizing oluvchi va sotuvchi lizing sub'ektlaridir.

Tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan iste'mol qilinmaydigan har qanday ashyolar, shu jumladan korxonalar, mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda boshqa ko'char va ko'chmas mulk lizing ob'ektlari bo'lishi mumkin. Er uchastkalari va boshqa tabiiy ob'ektlar, shuningdek muomaladan chiqarilgan yoki muomalada bo'lishi cheklangan boshqa mol-mulk lizing ob'ektlari bo'lishi mumkin emas.

Lizing ob'ekti lizing oluvchi balansida hisobga olinadi.

Lizing oluvchi lizing shartnomasini tuzish uchun uning asosiy depozit hisobvarag'iga xizmat ko'rsatayotgan bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:

- lizing buyurtmasi;
- lizing ob'ektining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari va uning sotuvchisi to'g'risidagi ma'lumotnoma;
- lizingning butun davrini ichiga olgan pul oqimi tahlili ko'rsatilgan biznes-reja;

• oxirgi hisobot sanasiga tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasi tomonidan qabul qilingan buxgalterlik balansi (1-shakl), moliyaviy natijalari haqida hisobot (2-shakl), muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzdorlik haqidagi ma'lumotnoma (2a-shakl), 90 kundan ortiq muddatdagi qarzdorlikni solishtirish dalolatnomalari.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida lizing operatsiyalar hisobi 2004 yilda ishlab chiqilgan "O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi», va "Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini amalga oshirish va ularning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risida"gi (O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank boshqaruvining 2006 yil 21 oktyabrdagi 25/6-sonli qarori bilan tasdiqlangan)ga muvofiq olib boriladi.

Hisobvaraqlar rejasining yangi tahririda lizing operatsiyalari hisobi kredit operatsiyalari hisobidan alohida ajratilib, ularga alohida hisobvaraqlar turkumi ochildi va ularning hisobi yanada oydinlashtirildi, shuningdek, lizing operatsiyalari va ulardan olinadigan daromadlar, xususan,

foiz to'lovlari bo'yicha berilgan imtiyozlarni hisob-kitob qilishda birqancha qulayliklar keltirdi. Yangi tahrirdagi hisobvaraqlar rejasida quyidagi hisobvaraqlar lizingga bag'ishlangan:

- 15600-«Lizing» (moliyaviy ijara)
 - 15601-«Boshqa banklarga berilgan lizing»
 - 15603-«Jismoniy shaxslarga berilgan lizing»
 - 15605-«Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan lizing»
 - 15607-«Davlat korxonalar, tashkilot va muassasalariga berilgan lizing»
 - 15609-«Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalariga berilgan lizing»
 - 15611-«Nodavlat notijorat tashkilotlarga berilgan lizing»
 - 15613-«Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan lizing»
 - 15615-«Bank bo'lmagan moliyaviy muassasalarga berilgan lizing»
 - 15617-«Muddati o'tgan lizing»
 - 15619-«Shartlari qayta ko'rib chiqilgan lizing»
 - 15699-«Lizing bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zahirasi (kontr-aktiv).
 - 16323-«Lizing bo'yicha hisoblangan foizlar (moliyaviy ijara)».
 - 15700 Sud jarayonidagi lizing
 - 15705 – Sud jarayonidagi lizing
 - 15799 – Sud jarayonidagi lizing bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zahirasi (kontr-aktiv)
 - 16323 – Lizing bo'yicha hisoblangan foizlar (moliyaviy ijaraf)
 - 16701 – Lizing bo'yicha garov hisobidan undirilgan mulk
 - 16703 – Lizing bo'yicha undirilgan tugatilayotgan bankrot korxonalar mulki
 - 22100 Lizing (Moliyaviy ijara) bo'yicha majburiyatlar
 - 22102-«Boshqa banklar oldidagi lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha majburiyatlar»
 - 22104-«Boshqa lizing beruvchilar oldidagi lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha majburiyatlar».
 - 22408-«To'lashga doir hisoblangan foizlar-Lizing (Moliyaviy ijara).
- Shularga mos ravishda yangi tahrirdagi hisobvaraqlar rejasida amalga oshirilgan lizing operatsiyalaridan olingan daromadlar uchun tijorat banklari balansining 4-«Daromadlar» qismida ham alohida 45100-«Lizing (moliyaviy ijara) b'yicha foizli daromadlar» hisobvaraqlar turkumi ochildi. Ushbu hisobvaraqlar turkumi quyidagi asosiy balans hisobvaraqlarini

o'z ichiga oladi;

45100 Lizing (Moliyaviy ijara) bo'yicha foizli daromadlar

45101-«Boshqa banklarga berilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar»

45103-«Jismoniy shaxslarga berilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar»

45105-«Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar»

45107-«Davlat korxonalar, tashkilot va muassasalarga berilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar»

45109-«Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalariga berilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar»

45111-«Nodavlat notijorat tashkilotlariga berilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar»

45113-«Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar»

45115-«Bank bilmagan moliyaviy muassasalarga berilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar»

45117 - «Muddati o'tgan lizing bo'yicha foizli daromadlar»

45119 -«Shartlari qayta ko'rib chiqilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar»

45121 - «Sud jarayonidagi lizing bo'yicha foizli daromadlar»

Hatto, yangi hisobvaraqlar rejasida tijorat banklari tomonidan olingan lizinglar bo'yicha xarajatlar hisobini olib borish uchun ham alohida balansning 5-«Xarajatlar» qismida 54198 - «Boshqa banklardan olingan lizing bo'yicha foizli xarajatlar» va 54199-«Boshqa lizingga beruvchilardan olingan lizing bo'yicha foizli xarajatlar» nomli hisobvaraqlar ochildi. Bunday o'zgartirishlar bilan tijorat banklarida nafaqat lizing operatsiyalari hisobi takomillashtirildi, balki ulardan olinayotgan daromad va boshqa to'lovlar hamda ulardan to'lanadigan soliq bazasi hisobi ham birmuncha oydinlashtirildi. Bu esa tijorat banklarining moliyaviy hisobotlarining aniq va oydin bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi, albatta.

54199-«Boshqa lizingga beruvchilardan olingan lizing bo'yicha foizli xarajatlar»

54198 - «Boshqa banklardan olingan lizing bo'yicha foizli xarajatlar»

56838 – Lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash

56842 – Sud jarayonidagi lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha ko'rilish mumkin bo'lgan zararlarni baholash

- 91500 Aktivlar bo'yicha foizlar va vositachilik haqlari
- 91501 – Berilgan kreditlar va lizing bo'yicha hisoblangan foizlar
- 91503 – Berilgan kreditlar va lizing bo'yicha muddati uzaytirilgan foizlar
- 91505 – Boshqa aktivlar bo'yicha foizlar va vositachilik haqlari
- 91800 Bankningkredit va lizing majburiyati
- 91809 – Bankning lizing berish majburiyati
- 91816 – Bankning lizing olish majburiyati
- 91900 Qarzdorlarning lizing majburiyatlari
- 91905 – qarzdorlarning uzoq muddatli lizinglar bo'yicha majburiyatlari
- 91907 – Qarzdorlarning nukumatdan olingan lizinglar bo'yicha majburiyatlari
- 94504 – Olingan kreditlar va lizinglar bo'yicha garov sifatida berilgan qimmatli qog'ozlar
- 96349 – Qarzdorlarning uzoq muddatli kreditlar va lizinglar bo'yicha majburiyatlari kontr-hisobvarag'i
- 96351 – Bankning berish majburiyati bo'yicha kontr-hisobvaraq
- 96358 – Bankning olish majburiyati bo'yicha kontr-hisobvaraq

8.2. Lizing beruvchi va oluvchi bankda lizing hisobi

Lizing beruvchi banklarda lizingga berilgan aktivlar hisobi 15600 - «Lizing (moliyaviy lizing)» hisobvaraqlarida yuritiladi va quyidagi subhisobvaraqlarda aks ettiriladi.

Dastlabki tan olish lizing shartnomasining amal qilish muddati boshlanishida amalga oshiriladi. Bunda, lizing beruvchi bank lizingga berilgan lizing ob'ektini o'z balansida sof investitsiyasi qiymati, ya'ni lizing ob'ektini sotib olish, uni lizing oluvchiga etkazib berish va foydalanishga shay holga keltirish bilan bog'lik xarajatlar yig'indisi yoki uning hakkoniy qiymatida, ularning kaysi biri kichik bo'lsa, o'sha summada aktiv sifatida tan oladi.

Lizing beruvchi banklarda lizingga berilgan aktivlar hisobi
15600 - "Lizing (moliyaviy ijarat)" hisobvaraqlarida yuritiladi.

15601- Boshqa banklarga berilgan lizing

15605- Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan lizing

15607 -Davlat korxonalari, tashkilotlari va muassasalariga berilgan lizing

15609- Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalariga berilgan lizing

15611- Nodavlat notijorat tashkilotlariga berilgan lizing

15613 -Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan lizing

15615- Bank bo'lmagan moliyaviy muassasalarga berilgan lizing

15617- Muddati o'tgan lizing

15619- Shartlari qayta ko'rib chiqilgan lizing

15699- Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi — Lizing

3-rasm. Lizing beruvchi banklarda lizingga berilgan aktivlar hisobi yuritiladigan subhisobvaraqlar.

Lizing beruvchi bank lizing ob'ekti uchun to'lovni 2 xil usulda amalga oshirishi mumkin.

1. Oldindan to'lov qilish yo'li bilan;
2. To'lovni lizing ob'ekti olib kelingandan keyin amalga oshirish yo'li bilan.

Endi, har bir usulni alohida buxgalteriyada aks ettirilishini ko'rib chiqamiz.

Lizing beruvchi bank lizing ob'ekti uchun to'lovlarni sotuvchiga oldindan to'lab berib lizing ob'ekti to'g'ridan-to'g'ri lizing oluvchiga etkazib berilsa, lizing beruvchi bank foydalanishga kabul kilish dalolatnomasiga asosan memorial order to'ldirib, kuyidagi buxgalteriya amallarini bajaradi:

Debet 19909 Tovar-moddiy kimmatliklari uchun to'langan mablag'lar;
Kredit 10301 Bankning vakillik hisobvarag'i;

Debet 15600 Lizing (moliyaviy ijara) (tegishli mos hisobvaraq);

Kredit 19909 Tovar moddiy kimmatliklar uchun to'langan mablag'lar.

Lizing ob'ekti avval lizing beruvchi bank balansiga kirim kilinib, so'ngra lizing oluvchiga lizingga berilsa, quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari beriladi:

Debet 16500 Asosiy vositalar (tegishli mos hisobvarag'i);

Kredit 19909 Tovar-moddiy kimmatliklari uchun to'langan mablag'lar;

Debet 15600 Lizing (moliyaviy ijara) (tegishli mos hisobvarag'i);

Kredit 16500 Asosiy vositalar (mos hisobvaraq).

Lizing beruvchi bank tomonidan amalga oshirilgan va lizing shartnomasiga muvofik lizing oluvchi tomonidan koplanadigan dastlabki bevosita xarajatlar lizing ob'ektining qiymatiga ko'shiladi.

Lizing beruvchi bank tomonidan lizing bo'yicha foizli daromadlar hisoblanganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari beriladi:

Debet 16323 Lizing bo'yicha olish uchun hisoblangan foizlar;

Kredit 45100 Lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha foizli daromadlar (tegishli mos hisobvaraq).

Lizing to'lovlari kelib tushgan hollarda quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari beriladi:

Debet Kassadagi nakd pul va boshka to'lov hujjatlari yoki mijozning depozit yoki bankning vakillik hisobvarag'i (umumiy summaga);

Kredit 15600 Lizing (moliyaviy ijara) (tegishli mos hisobvaraq) (asosiy karz summasining kaytarilgan summasiga);

Kredit 16323 Lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha olish uchun hisoblangan foizlar (foizli daromad summasiga).

Lizing shartnomasi muddati tugaganidan so'ng lizing to'lovlarini to'lash shartlari to'lik bajarilgan takdirda 15600 Lizing (moliyaviy ijara) va 16323 Lizing bo'yicha olish uchun hisoblangan foizlar hisobvaraqlari qoldig'i nolga teng bo'ladi.

Lizing ob'ekti lizing oluvchi tomonidan lizing shartnomasi shartlari buzilganligi sababli kaytarib olinganida, lizing beruvchi ushbu aktivning takdirini hal etgunga kadar uni o'z balansiga quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari orqali qabul qiladi:

Debet 16705 Bankning boshka ko'chmas mulklari;

Kredit 15600 Lizing (moliyaviy ijara) (mos hisobvaraq).

Endi, tijorat banklar lizing shartnomasi bo'yicha lizing oluvchi sifatida ishtirok etgan takdirda lizingga olingan aktivlar hisobi 16515 - Ob'ektlarni

ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqining, lizing bo'yicha yuzaga kelgan majburiyatlar esa 22100 - Lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha majburiyatlarning tegishli mos hisobvaraqlarida yuritiladi.

Lizingni dastlabki tan olishda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bajariladi:

Debet 16515 Ob'ektlarni lizingga olish va uni takomillashtirish huquqi;

Kredit 22100 Lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha majburiyatlarning tegishli mos hisobvarag'i.

Lizing oluvchi bank tomonidan lizing to'lovlari jadvaliga muvofik lizing bo'yicha foizli xarajatlar hisoblanganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari beriladi:

Debet 54198 Boshka banklardan olingan lizing bo'yicha foizli xarajatlar yoki

Debet 54199 Boshka lizing beruvchilardan olingan lizing bo'yicha foizli xarajatlar;

Kredit 22408 Lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha hisoblangan foizlar.

Lizing oluvchi bank tomonidan lizing to'lovlari quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari orqali amalga oshiriladi:

Debet 22408 Lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha hisoblangan foizlar;

Debet 22100 Lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha majburiyatlar;

Kredit Bankning vakillik yoki lizing beruvchining depozit hisobvarag'i.

Lizing oluvchi bank tomonidan lizing ob'ekti bo'yicha amortizatsiya ajratmalari quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 56626 Ob'ektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi bo'yicha eskirish summasi;

Kredit 16519 Ob'ektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi bo'yicha yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv).

Lizing oluvchi bank tomonidan oxirgi to'lovlar amalga oshirilganidan keyin 16515, 16519, 22100 va 22408 balans hisobvaraqlarida mazkur lizing operatsiyalari bo'yicha ochilgan shaxsiy hisobvaraqlar (analitik hisob) qoldig'i nolga teng bo'ladi va mulkka egalik huquqi lizing oluvchiga o'tadi.

Lizing ob'ekting lizing oluvchi bankka o'tkazish quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari orqali amalga oshiriladi:

Debet 16500 Asosiy vositalar (tegishli mos hisobvaraq);

Debet 16519 Ob'ektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi bo'yicha yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv);

Kredit 16515 Ob'ektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi;

Kredit 165xx Yig'ilgan eskirish summasi (tegishli mos hisobvaraq).

Lizing shartnomasi muddati oxirida lizing oluvchi bankka lizing ob'ektining sotish sanasidagi hakkoniy qiymatidan past narxda sotib olish huquqi berilgan bo'lsa, sotib olish kuyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali amalga oshiriladi:

Debet 22100 Lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha majburiyatlar;

Kredit Bankning vakillik yoki lizing beruvchining depozit hisobvarag'i;

Lizing shartnomasi uning amal kilish muddatidan oldin to'xtatilib, lizing beruvchi tomonidan lizing ob'ekti shartnoma shartlarida belgilangan tartibda olib ko'yilgan takdirida, lizing ob'ektini lizing beruvchiga kaytarish lizing shartnomasining amal kilish muddati to'xtatilgan sanadagi lizing ob'ektining koplanmagan qiymati summasida amalga oshiriladi va bunda kuyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:

Debet 16519 Ob'ektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi bo'yicha yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv);

Kredit 16515 Ob'ektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi.


8.3. Banklarda faktoring operatsiyalari hisobi

O'zbekiston Respublikasida faktoring operatsiyalarini amalga oshirish Adliya Vazirligida 2000 yil 3 avgustda 953-son bilan ro'yxatga olingan «O'zbekiston Respublikasi hududida tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida»gi Nizom asosida amalga oshiriladi. Mazkur nizomda faktoring - bu bank xizmatlarining bir turi bo'lib, bunda xo'jalik yurituvchi sub'ektlari mol etkazib beruvchini aktseptli to'lovchi tomonidan etkazilgan tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar uchun ijro etilmagan to'lov talabnomalari asosida to'lovlarni talab qilib olish huquqini bank - moliya aktseptiga o'tkazib berishdir, regress huquqini olmagan holda deyilgan.

Banklar tomonidan faktoring xizmatini ko'rsatishda sotib olingan majburiyatlarning to'lovini ta'minlash muddati 90 kundan oshmasligi va mol etkazib beruvchi va to'lovchi 2-kartotekaga ega bo'lmasligi kabi shartlari qo'yiladi. Ushbu muddatda to'lovi amalga oshirilmagan majburiyatlarni qonunchilikda belgilangan tartibda undirib olish choralari ko'rilishi shart.

Shuningdek, eksport operatsiyalari bo'yicha bankning faktoring xizmatlari faqat chet el valyutasida yo'qlab olinadigan depozit hisob raqamiga ega karxona va tashkilotlarga ko'rsatiladi.

Faktoring xizmatlarini ko'rsatishning majburiy sharti to'lovchining muddati o'tib ketgan kreditorlik qarzlarning bo'lmashligi, eksport operatsiyalariga faktoring xizmatlar ko'rsatishning majburiy sharti etkazib beruvchi korxonaning chet el sherigi (partnyori) bilan tuzgan eksport kontrakti bo'yicha muddati o'tib ketgan debitor qarzlarning bo'lmashligi talab etiladi.



4-rasm. Faktoring bo'yicha shartnomalar tuzish mumkin bo'lmagan holatlar.


Mijoz shartnoma tuzilgunga qadar bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan va to'lovchi tomonidan imzolangan oldi-sotdi, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish shartnomasi;
- moddiy boyliklar berilgani, ishlar bajarilgani va xizmatlar ko'rsatilganini tasdiqlaydigan hujjatlar (tovar-transport yukxatlari, ishonchnomalarning ko'chirma nusxalari, ishlarni qabul qilish dalolatnomalari va hokazo);
- to'lovchi tomonidan boshqa banklarda ochilgan hisobvaraqlar ro'yxati;
- to'lovchining moliyaviy holatini belgilash uchun zarur hujjatlar.

Bankning mijoz bilan faktoring xizmati ko'rsatishga doir shartnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

- ularga nisbatan pul talabining berilishi amalga oshirilayotgan xaridorlar;
- berilayotgan talablarning umumiy summasi;

- diskont summasi;
- shartnomaning amal qilish muddati;
- taraflar tomonidan shartnoma shartlari buzilgani uchun da'volarni bayon etish muddatlari;
- shartnoma shartlari buzilgani uchun taraflarning mas'uliyati;
- shartnomani bekor qilish shartlari;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shartlar va quyidagi xujjatlar to'plami kerak bo'ladi;
- moddiy boyliklarni berilganligi, ishlarning bajarilganligi, xizmat kursatilganligini tasdiklovchi xujjat;
- to'lovchiga jo'natilgan to'lov talabnomasi nushasi va to'lovchini ushbu talabnomani to'lashga rozilik xati;
- Boshqa banklarda ochilgan xisob raqamlarlar ro'yxati va to'lovchini moliyaviy xolatini o'rganish uchun kerakli xujjatlar.



5-rasm. Yuqoridagi korxonalariga faktoring xizmati ko'rsatilmaydi

Tijorat banklarida faktoring operatsiyalarni hisobga olish uchun quyidagi hisobvaraqlardan foydalaniladi:

11100 Sotib olingan debitorlik qarzlari - Faktoring

11101 - Sotib olingan debitorlik qarzlari - Faktoring

11103 - Muddati o'tgan sotib olingan debitorlik qarzlari - Faktoring

11105 - Sud jarayonidagi sotib olingan debitorlik qarzlari - Faktoring

11195 - Sotib olingan debitorlik qarzlari - Faktoring - bo'yicha diskont (kontr-aktiv)

11199 - Sotib olingan debitorlik qarzlari - Faktoring - bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zahirasi (kontr-aktiv)

45217 - Sotib olingan debitorlik qarzlari bo'yicha daromadlar- Faktoring

56814 - Sotib olingan debitorlik qarzlari-Faktoring bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash

90966 - Sotib olingan debitorlik qarzlari – Faktoring

96331 - Sotib olingan debitorlik qarzlari-Faktoring bo'yicha kontr-hisobvaraqa

Taraflar tomonidan faktoring (pul talabini berish) to'g'risidagi shartnoma imzolanganidan keyin bank-moliyaviy agent mablag'larni mijozning talab qilib olingungacha asosiy depozit hisobvarag'iga, diskont summasini chegirgan holda, o'tkazishni amalga oshiradi.

Debet – 11101 - Sotib olingan debitorlik qarzlari - Faktoring – qarz summasiga

Kredit – mijozning hisobvarag'i

Debet – 11101 - Sotib olingan debitorlik qarzlari – Faktoring – diskont summasiga

Kredit - 11195 - Sotib olingan debitorlik qarzlari - Faktoring - bo'yicha diskont (kontr-aktiv)

Shuningdek, faktoring summasi balansdan tashqari hisobvaraqda hisobga olinadi:

Debet -90966 - Sotib olingan debitorlik qarzlari - Faktoring

Kredit -96331 - Sotib olingan debitorlik qarzlari-Faktoring bo'yicha kontr-hisobvaraqa

Taqdim etilgan to'lov talabnomasi asosida to'lovchi to'lovni amalga oshirganda quyidagi o'tkazma bajariladi:

Debet – to'lovchining hisobvarag'i

Kredit - 11101 - Sotib olingan debitorlik qarzlari –Faktoring

To'lovchi tomonidan to'lov amalga oshirilgandan keyin diskont daromad

sifatida tan olinadi:

Debet- 11195 - Sotib olingan debitorlik qarzlari - Faktoring - bo'yichadiskont (kontr-aktiv)

Kredit - 45217 - Sotib olingan debitorlik qarzlari bo'yicha daromadlar-Faktoring

Shu bilan birga faktoring balansdan tashqari hisobvaraqdan hisobdan chiqariladi:

Debet -96331 - Sotib olingan debitorlik qarzlari-Faktoring bo'yicha kontr-hisobvaraq

Kredit -90966 - Sotib olingan debitorlik qarzlari - Faktoring

Faktoring operatsiyalariga xos bo'lgan yuqori darajadagi xatar munosabati bilan banklar har oyda rezerv tashkil etilganda:

Debet 56814 - Sotib olingan debitorlik qarzlari-Faktoring bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash

Kredit 11199 - Sotib olingan debitorlik qarzlari - Faktoring - bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zahirasi (kontr-aktiv),

Agar zaxira summasi hisobidan debitorlik qarz qoplansa quyidagi provodka bilan rasmiylashtiriladi:

Debet 11199 - Sotib olingan debitorlik qarzlari - Faktoring - bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zahirasi (kontr-aktiv)

Kredit 11101- Sotib olingan debitorlik qarzlari -Faktoring

Bulardan tashqari agar faktoring operatsiyasi bo'yicha shartnomada belgilangan muddatda faktoring summasi to'lanmasa muddati o'tgan sotib olingan debitorlik qarzlari - faktoringga o'tkaziladi. Bunda quyidagi provodka keltiriladi:

Debet - 11103 - Muddati o'tgan sotib olingan debitorlik qarzlari - Faktoring

Kredit - 11101 - Sotib olingan debitorlik qarzlari -Faktoring

Faktoring operatsiyasi bo'yicha qarz summasi sud jarayoniga o'tkazilsa:

Debet - 11105 - Sud jarayonidagi sotib olingan debitorlik qarzlari - Faktorin

Kredit - 11103 - Muddati o'tgan sotib olingan debitorlik qarzlari - Faktoring

Nazorat savollari va topshiriqlar.

1. Lizing va faktoring to'g'risidagi tushunchangiz.
2. Moliyaviy lizing operatsiyasi va hisobi qanday tartibda amalga

oshiriladi?

3. Tijorat banklari uchun lizing operatsiyalari ahamiyati.
4. Lizing operatsiyalari hisobini tushuntirib bering.
5. Lizingning ijobiy tomonlarini va ahamiyatini izohlang.
6. Lizing operatsiyasi bo'yicha shartnoma va uning tarkibini tushuntiring.
7. Lizingda ishtirok etuvchi tomonlarni sanang.
8. Lizing so'zi qaysi tildan olingan bo'lib, ijara degan ma'noni bildiradi?
9. Lizing ob'ekti, sub'ekti, predmeti va muddatini tushuntiring.
10. Lizingning kreditdan farq qiluvchi tomonlarini sanab bering.
11. Faktoring operatsiyasi va uning hisobi qanday tartibda amalga oshiriladi?
12. Tijorat banklari faktoring operatsiyalarini qanday amalga oshiradilar?
13. Faktoring operatsiyalarini o'tkazishning shartlarini sanab bering.
14. Faktoring operatsiyasini o'tkazishda sotuvchi uchun afzallik va kamchilik tomonlarini ayting.
15. Faktoring operatsiyasini o'tkazishda sotib oluvchi uchun afzallik va kamchilik tomonlarini ayting.
16. Faktoring operatsiyasini o'tkazishda bank uchun afzallik va kamchilik tomonlarini ayting.
17. Qaysi sohalarida faktoring operatsiyalarini qo'llash taqiqlanadi?
18. Faktoring operatsiyalar qaysi muddatlarda amalga oshiriladi?
19. Jahonda qaysi faktoring uyushmalarini bilasiz.
20. Faktoring operatsiyalari turlarini izohlab bering.
21. Faktoring shartnomasini tuzish tartibi qanday amalga oshiriladi?
22. Tijorat banklarida faktoring operatsiyalari hisobi qanday yuritiladi?

VII bob bo'yicha masala va mashqlar.

1-masala.

Bank mijoz bilan lizing shartnomasi tuzdi. Mol etkazib beruvchi bilan tuzilgan shartnomaga asosan bank tomonidan 80 mln. so'm to'lab berilgandan so'ng, lizing ob'ekti lizing oluvchiga foydalanish uchun topshirildi. Lizing shartnomasi shartiga ko'ra, lizing oluvchi bankga 110 mln. so'mlik mol – mulkni garovga qo'ydi.

Topshiriqlar:

1. Qanday xollarda lizing shartnomasi tuzish mumkin emas?
2. Lizing shartnomasi shartlari va uni rasmiylashtirish tartibini aytib bering;

3. Qachon lizing bitimi amalga oshirilgan deb hisoblanadi?
4. Buxgateriya provodkalarini bering.

2-masala.

AT Asakabank «Porloq kelajak» xususiy firmasi bilan 125 mln. soʻmga lizing shartnomasini tuzdi. Toʻlov jadvaliga koʻra lizing oluvchi tomonidan lizing toʻlovi har chorakda toʻlanadi. Lizing stavkasi (kredit uchun foiz) miqdori yillik 16 %, amortizatsiya miqdori 20 %. Shartnoma shartiga asosan lizing obʻektini sugʻurtalash uchun bank tomonidan toʻlangan 1250000 soʻm sugʻurta toʻlovi tarkibiga kiritilgan.

Topshiriqlar:

1. Moliyaviy lizing shartnomasi qanday talablarga javob berish lozim?
2. Lizing stavkasi qanday tartibda hisoblanadi?
3. Mijoz tomonidan lizing toʻlovi qanday tartibda amalga oshirilishi lozim?
4. Birinchi va ikkinchi chorakda bankga kelib tushgan lizing toʻlovlari boʻyicha buxgalteriya provodkalarini tuzing.

3-masala.

Lizing shartnomasi muddati tugagandan keyin lizing obʻektining 3 mln. soʻm qoldiq qiymati bankga toʻlab berildi va lizing obʻekti lizing oluvchining ixtiyoriga oʻtdi. Lizing operatsiyasi boʻyicha garov sifatida olingan qimmatli qogʻozlar mijozga qaytarilishi munosabati bilan hisobdan chiqarildi.

Topshiriqlar:

1. Lizing operatsiyasini amalga oshirish tartibini aytib bering.
2. Lizing operatsiyalari buxgalteriya hisobi va hisobotida qanday tartibda aks ettiriladi?
3. Lizing oluvchi tomonidan lizing toʻlovi shartnomada kelishilgan muddatlarda toʻlanmasa bank qanday chora-tadbirlar koʻrishi kerak?
4. Kerakli buxgateriya provodkalari tuzing.

4-masala.

ATB «Oʻzsanoatqurilishbank»i «Lighting» xususiy firmasi bilan faktoring shartnomasini tuzdi. Shartnoma summasi 22000000 soʻm, diskont 18%. Shartnoma shartlari boʻyicha bank toʻlovlarni amalga oshirdi.

Topshiriqlar:

1. Faktoring shartnomasini tuzish uchun mijoz bankga qanday hujjatlarni taqdim etishi lozim.
2. Tegishli buxgalteriya provodkalari tuzing.

5-masala.

Bank faktoring shartnomasiga asosan «Million» MChJning hisobvarag'iga 15000000 so'm o'tkazib berdi. Diskont – 15 %. Bir oydan so'ng to'lovchidan moliyaviy vositachiga pul mablag'i kelib tushdi.

Topshiriqlar:

1. Tijorat banki tomonidan mijozlarga faktoring xizmati qanday muddatlarda ko'rsatilishi kerak.
2. Moliyaviy natijani aniqlang.
3. Tegishli buxgalteriya provodkalarini tuzing.

6-masala.

Vakolatli bank mijozga eksport operatsiyasi bo'yicha faktoring shartnomasiga asosan 6690000 so'm to'lab berildi. Diskont – 15%. Pul mablag'i to'lovchidan o'z vaqtida kelib tushmaganligi sababli, o'zaro kelishuvga asosan shartnoma muddati bir oyga uzaytirildi va muddatida to'lab berildi.

Topshiriqlar:

1. Faktoring shartnomasida qanday rekvizitlar ko'rsatilishi kerak?
2. Moliyaviy natijani aniqlang.
3. Buxgalteriya provodkalarini tuzing.

7-masala.

Faktoring operatsiyasi bo'yicha sud jarayonidagi bank tomonidan sotib olingan debitorlik qarzlari undirib olinmaganligi sababli, shu maqsadda tashkil etilgan zaxira hisobidan qoplandi. Faktoring summasi – 12000000 so'm, diskont – 16 %.

Topshiriqlar:

1. Faktoring operatsiyasi bo'yicha to'lov xujjatlarining hisobi qanday yuritiladi;
2. Moliyaviy natijanni aniqlang;
3. Tegishli buxgalteriya provodkalarini tuzing.

Testlar

1. Lizing qaysi tildan olingan bo'lib nima degan ma'noni anglatadi?
 - a. Inglizcha “qarz olmoq”
 - b. Lotincha “omomatga qo'ymoq”
 - c. Inglizcha “ijaraga bermoq”
 - d. Lotincha “ijaraga bermoq”
2. Lizingni tijorat banklarida amalga oshiriladigan qaysi operatsiyaga yaqin deyishimiz mumkin?

- a. Depozit
- b. Kredit
- c. Faktoring
- d. Optsion

3. Lizingda birinchi qachon, qaerda paydo bo'lgan?

- a. 1852-yil Angliyada
- b. 1825-yil Frantsiyada
- c. 1852-yil AQShda
- d. 1900-yil Angliyada

4. Muddati bo'yicha lizingning qanday turlari mavjud?

- a. Haqiqiy, xayring, renting
- b. Operativ, moliyaviy
- c. Ichki va tashqi
- d. Sof lizing, xizmatli lizing

5. Lizing foiz stavkalari qanday ko'rsatkichlar asosida belgilanadi?

- a. Lizing ob'ekti narxi
- b. Lizing muddati
- c. Lizing ob'ekti narxi va muddati
- d. Kelishuvga ko'ra

6. Lizingga beriladigan mulkka xizmat ko'rsatish hajmiga ko'ra lizingni qanday turlarga ajratamiz?

- a. Operativ va moliyaviy lizing
- b. Sof va xizmatli lizing
- c. Moliyaviy va sof lizing
- d. Operativ va xizmatli lizing

7. Tijorat banklarida lizing operatsiyalari hisobi Markaziy bankning qaysi me'yoriy hujjatlari asosida amalga oshiriladi?

- a. "Tijorat banklarda lizing operatsiyalarini amalga oshirishva ularning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risida"gi nizom (21.10.06 1648-sonli)
- b. "O'zbekiston respublikasi banklarida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobi to'g'risida yo'riqnoma"(17.12.04 1434-sonli)
- c. "O'zbekiston Respublikasi banklarida depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi yo'riqnoma (31.12.10 2205-sonli)
- d. "Tijorat banklarida foizlarni hisoblash to'g'risida"gi nizom (30.01.04 4-sonli)

8. Bank tomonidan lizing bo'yicha foizli daromadlar hisoblanganda qanday buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi?

- a. Debet 16500 Kredit 15600

- b. Debet 15600 Kredit 19909
- c. Debet 16323 Kredit 45100
- d. Debet 45100 Kredit 16323

9. Lizing ob'ekti bank balansiga kirim qilinganda qanday buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi?

- a. Debet 15600 Kredit 16500
- b. Debet 16500 Kredit 19909
- c. Debet 16323 Kredit 19909
- d. Debet 15600 Kredit 16323

10. Lizing oluvchi bank tomonidan lizing bo'yicha foizli xarajatlar hisoblanganda qanday buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi?

- a. Debet 22408 Kredit 22100
- b. Debet 54198 Kredit 22100
- c. Debet 54199 Kredit 22408
- d. Debet 56626 Kredit 54198

11. Moliyaviy lizing – bu ...

A. Korxonaga o'z mol-mulkini lizing kompaniyasiga sotadi va korxonaning o'zi lizing oluvchi bo'lib ishtirok etadi

B. Lizingga olinayotgan asosiy vositani (sotuvchini) korxonaga o'zi topadi va bu haqida lizing kompaniyasiga xabar beradi

C. Lizing ob'ektini lizing beruvchi risk qilib sotib oladi va lizing oluvchiga vaqtinchalik foydalanish uchun ma'lum to'lovlar asosida beradi

D. Mulkkaga xizmat ko'rsatish ishlarini lizing beruvchi o'z zimmasiga oladi va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlar lizing to'lovi ichiga kiritiladi

12. Operativ lizing – bu ...

a. Lizing ob'ektini lizing beruvchi risk qilib sotib oladi va lizing oluvchiga vaqtinchalik foydalanish uchun ma'lum to'lovlar asosida beradi

b. Korxonaga o'z mol-mulkini lizing kompaniyasiga sotadi va korxonaning o'zi lizing oluvchi bo'lib ishtirok etadi

c. Mulkkaga xizmat ko'rsatish ishlarini lizing beruvchi o'z zimmasiga oladi va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlar lizing to'lovi ichiga kiritiladi

d. Lizingga olinayotgan asosiy vositani (sotuvchini) korxonaga o'zi topadi va bu haqida lizing kompaniyasiga xabar beradi

13. Lizing operatsiyalaridan asosan kimlar foydalanadi?

- a. Yuridik va jismoniy shaxslar
- b. Jismoniy shaxslar
- c. Yuridik shaxslar
- d. Norezidentlar

IX BOB. TIJORAT BANKLARIDA QIMMATLI QOG‘OZLAR BILAN OPERATSIYALAR HISOBI

Tayanch so‘z va iboralar. Qimmatli qog‘ozlar, depozit sertifikati, obligatsiya, veksels, aktsiya, xazina majburiyatlari, hosilaviy qimmatli qog‘ozlar, birlamchi bozor, ikkilamchi bozor, bitim, komission mukofot.

9.1. Tijorat banklari tomonidan chiqarilgan aktsiya hisobi

Qimmatli qog‘ozlar - hujjatlar bo‘lib, ular mazkur hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o‘rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to‘lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o‘tkazish imkoniyatini nazarda tutadi¹.


Qimmatli qog‘ozlar bu qonunda belgilangan tartibda chiqarilgan va nominal qiymatiga ega bo‘lgan pulli hujjatdir. Ular mulkchilik munosabatlarini ifodalaydi va mulk yoki pul miqdoriga egalik qilish huquqini tasdiqlaydi. O‘zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog‘ozlar va fond birjasi to‘g‘risida»gi qonunda ko‘rsatilganidek, mamlakatimiz hududida qimmatli qog‘ozlarning quyidagi turlari amal qiladi:

- aktsiyalar;
- obligatsiyalar;
- xazina majburiyatlari;
- depozit sertifikatlari;
- hosilaviy qimmatli qog‘ozlar;
- xalqaro qimmatli qog‘ozlar;

Tijorat banklari o‘z aktsiyalari, obligatsiyalari, veksellari, depozit sertifikatlari va boshqa qimmatli qog‘ozlari bilan emitent sifatida, shuningdek o‘z hisobidan qimmatli qog‘ozlar sotib oluvchi investor sifatida gavdalana-di. Qolaversa, komission rag‘batlantirish evaziga qimmatli qog‘ozlar bilan vositachilik operatsiyalarini amalga oshirish huquqiga egadir.

Bugungi kunda tijorat banklarning qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarini bir nechta operatsiyalarga tasniflash mumkin.

¹ O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining «Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida»gi Qonuni 2015-yil 3-iyun



6-rasm. Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari tasnifi.

Hozirgi kunda ko'pgina tijorat banklari universal bank bo'lib, ko'plab bank operatsiyalari qatori qimmatli qog'ozlar bilan ham operatsiyalar bajaradilar. Tijorat banklari qimmatli qog'ozlarning emitentlari sifatida faoliyat yuritadilar, chunki ko'p banklar aksiyadorlik banklari bo'lib, o'z ustav sarmoyalarini shakllantirish maqsadida aksiyalar chiqaradilar. Bundan tashqari, banklar qimmatli qog'ozlar bilan investitsion operatsiyalarni bajaradilar, qimmatli qog'ozlar bozorida sarmoyador sifatida ishtirok etadilar, qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi bilan, vositachilik operatsiyalar bilan shug'ullanadilar.

Tijorat banklari emitent sifatida aktsiya, obligatsiyalar, depozit va jamg'arma sertifikatlarni muomalaga chiqaradi. Bunda ular aksiyalarni ustav fondlarini shakllantirish maqsadida chiqaradi. Qarz mablag'lari jalb etish uchun o'zining qarz qimmatli qog'ozlarlarni – obligatsiyalar, depozit va jamg'arma sertifikatlarni muomalaga chiqaradi. Bundan tashqari, ular hosilaviy qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarishi mumkin.

Tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi tomonidan 28/4 sonli Qarori bilan 2008-yil 13-dekabrda tasdiqlangan "Tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Yo'riqnomasi asosida olib boriladi.

Tijorat banklari barcha emitentlar singari o'z qimmatli qog'ozlarni "Qimmatli qog'ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqa-

rilishlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish qoidalari"ga (2009 yil 30 avgust № 2000) muvofiq muomalaga chiqaradi.

Emitent aktsiyadorlik jamiyati shaklida tuzilayotganda barcha aktsiyalar uning muassislari orasida joylashtirilishi lozim.

Emitent ustav kapitalini qo'shimcha aktsiyalarni joylashtirish yo'li bilan o'z kapitalini kapitallashtirish hisobiga ko'paytirishda ushbu aktsiyalar barcha aktsiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi. Bunda har bir aktsiyadorga unga tegishli aktsiyalar bilan bir tipdagi aktsiyalar, unga tegishli aktsiyalar soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Aktsiyalar hujjatsiz shaklda depozitariyning hisobga olish registrlaridagi yozuvlar elektron tarzida chiqariladi.

Qimmatli qog'ozlar chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qarorning emitent bankka berilgan nusxasiga asosan quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 90329 - «Bankning hujjatsiz qimmatli qog'ozlari»;

Kredit 96314 - «Bankning qimmatli qog'ozlari bo'yicha kontr-hisobvaraq»

Obuna qilinganda va aktsiya oldi-sotdi shartnomasi tuzilganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

a) imtiyozli aktsiyalar bo'yicha:

Debet 30303 -«Imtiyozli aktsiyalar uchun obuna mablag'ining to'lanmagan qismi (kontr-passiv)»;

Kredit 30309 -«Ro'yxatdan o'tkazilgan ustav kapitali - Imtiyozli»;

b) oddiy aktsiyalar bo'yicha:

Debet 30306 - «Oddiy aktsiyalar uchun obuna mablag'ining to'lanmagan qismi (kontr-passiv)»;

Kredit 30312 - «Ro'yxatdan o'tkazilgan ustav kapitali - Oddiy».

Aktsiya uchun to'lov to'liq yoki qisman olinganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» yoki bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijoz hisobvarag'i;

Kredit 30303 - «Imtiyozli aktsiyalar uchun obuna mablag'ining to'lanmagan qismi (kontr-passiv)» yoki 30306 - «Oddiy aktsiyalar uchun obuna mablag'ining to'lanmagan qismi (kontr-passiv)».

To'lov to'liq olingandan so'ng bitim amalga oshirilganda, aktsiya bo'yicha egalik huquqi o'tkazilganligini tasdiqlovchi depo hisobvarag'idan

olingan tegishli ko'chirmaga asosan bir vaqtning o'zida quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:

a) imtiyozli aktsiyaning nominal qiymatiga:

Debet 30309 - «Ro'yxatdan o'tkazilgan ustav kapitali - Imtiyozli»;

Kredit 30315- «Chiqarilgan ustav kapitali - Imtiyozli»;

b) oddiy aktsiyaning nominal qiymatiga:

Debet 30312 - «Ro'yxatdan o'tkazilgan ustav kapitali - Oddiy»;

Kredit 30318- «Chiqarilgan ustav kapitali - Oddiy»;

v) obuna bahosi va nominal qiymat o'rtasidagi ijobiy farq summasiga:

Debet 30309 - «Ro'yxatdan o'tkazilgan ustav kapitali - Imtiyozli» yoki
30312 - «Ro'yxatdan o'tkazilgan ustav kapitali - Oddiy»;

Kredit 30603 -- «Qo'shilgan kapital»;

g) joylashtirilgan aktsiyalar bo'yicha:

Debet 96314- «Bankning qimmatli qog'ozlari bo'yicha kontr-
hisobvaraqq»;

Kredit 90329- «Bankning hujjatsiz qimmatli qog'ozlari».

Agar aktsiyalar chiqarilishidan avval aktsiyaning qiymati potentsial aktsiyadorlar tomonidan to'liq yoki qisman to'langanda, aktsiyalar bo'yicha oldindan to'lovlar, aktsiyalar chiqarilishiga qadar majburiyatlarda aks ettiriladi. Shuningdek, bankning yangi aktsiyalariga obunada ishtirok etish kafolati uchun potentsial aktsiyadorlar tomonidan omonat (depozit) qo'yilishi mumkin.

Bunda quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:

a) oldindan to'lov amalga oshirilganda:

Debet 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» yoki bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijoz hisobvarag'i;

Kredit 29830 - «Aktsiyalar uchun obuna mablag'ini to'lash bo'yicha depozitlar»;

b) aktsiyalar sotilganda, aktsiya bo'yicha egalik huquqi o'tkazilganligini tasdiqlovchi depo hisobvarag'idan olingan tegishli ko'chirmaga asosan:

Debet 29830 - «Aktsiyalar uchun obuna mablag'ini to'lash bo'yicha depozitlar» - to'lov summasiga;

Kredit 30315 - «Chiqarilgan ustav kapitali - Imtiyozli» yoki 30318 - «Chiqarilgan ustav kapitali - Oddiy» - aktsiyaning nominal qiymatiga;

Kredit 30603 - «Qo'shilgan kapital» - to'lov summasi bilan nominal qiymati o'rtasidagi ijobiy farq summasiga.

v) bir vaqtning o'zida quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga

oshiriladi.

Debet 96314- «Bankning qimmatli qog'ozlari bo'yicha kontr-hisobvaraqa»;

Kredit 90329- «Bankning hujjatsiz qimmatli qog'ozlari».

E'lon qilingan dividendlarning hisoblanishi quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari orqali amalga oshiriladi:

Debet 31203 - «Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv)» (yillik dividendlarni hisoblashda);

Debet 31206 - «Sof foyda (zarar) (aktiv-passiv)» (oraliq dividendlarni hisoblashda);

Debet 30903 - «Umumiy zaxira fondi» (foйда etmaganda imtiyozli aksiyalar bo'yicha);

Kredit 29822 - «To'lanishi lozim bo'lgan dividendlar».

Dividendlar to'langanda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 29822 - «To'lanishi lozim bo'lgan dividendlar»;

Kredit 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» yoki bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijoz hisobvarag'i.

Hisoblangan dividendlar qonunchilikda belgilangan tartibda bank ustav kapitalini oshirishga yo'naltirilganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 29822 - «To'lanishi lozim bo'lgan dividendlar»;

Kredit 30315 - «Chiqarilgan ustav kapitali - Imtiyozli» yoki

Kredit 30318 - «Chiqarilgan ustav kapitali - Oddiy» - aksiyaning nominal qiymatiga;

Kredit 30603 - «Qo'shilgan kapital» - nominal qiymatidan yuqori summasiga.

Bir vaqtning o'zida quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi.

Debet 96314- «Bankning qimmatli qog'ozlari bo'yicha kontr-hisobvaraqa»;

Kredit 90329- «Bankning hujjatsiz qimmatli qog'ozlari».

Aksiyalarning nominal qiymatini oshirish hisobiga ustav kapitali ko'paytirilganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 30603 - «Qo'shilgan kapital» yoki 31203 - «Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv)» yoki 31206 - «Sof foyda (zarar) (aktiv-passiv)» (30603 hisobvarag'ida mablag' etmaganda);

Kredit 30315 - «Chiqarilgan ustav kapitali - Imtiyozli» yoki 30318 -

«Chiqarilgan ustav kapitali - Oddiy».

Taqsimlanmagan foydani kapitallashtirish hisobiga qo'shimcha aksiyalar joylashtirilganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 31203 - «Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv)»;

Kredit 30315 - «Chiqarilgan ustav kapitali -Imtiyozli» yoki 30318 - «Chiqarilgan ustav kapitali - Oddiy» - aktsiyaning nominal qiymatiga;

Kredit 30603 - «Qo'shilgan kapital» - nominal qiymatidan yuqori summasiga.

Ilgari chiqarilgan qimmatli qog'ozlarga erkin ayirboshlash hisobiga bank aksiyalari joylashtirilganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:

a) imtiyozli aksiyalarni oddiy aksiyalarga yoki imtiyozli aksiyalarni boshqa turdagi imtiyozli aksiyalarga ayirboshlanganda:

Debet 30315 - «Chiqarilgan ustav kapitali - Imtiyozli» - aktsiyaning nominal qiymatiga;

Kredit 30315 - «Chiqarilgan ustav kapitali - Imtiyozli» yoki 30318 - «Chiqarilgan ustav kapitali - Oddiy» - aktsiyaning nominal qiymatiga;

b) erkin ayirboshlanadigan obligatsiyalar ayirboshlash uchun taqdim etilganda:

Debet 23602 - «Chiqarilgan obligatsiyalar» balans hisobvarag'ining «Erkin ayirboshlanadigan obligatsiyalar» shaxsiy hisobvarag'ida - erkin ayirboshlashga taqdim etilgan qimmatli qog'oz qiymatiga;

Kredit 30315 - «Chiqarilgan ustav kapitali - Imtiyozli» yoki

30318 - «Chiqarilgan ustav kapitali - Oddiy» - aktsiyaning nominal qiymatiga;

Kredit 30603 - «Qo'shilgan kapital» - nominal qiymatidan yuqori summasiga, ayirboshlash koeffitsienti 1 dan yuqori bo'lganda.

Agar bank o'z aksiyalarini ularni qayta sotish yoki bekor qilish maqsadida sotib olsa, u holda bankning o'z kapitali aksiyani sotib olish qiymatiga kamayadi. Bunda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 3032 - «Aktsiyadorlardan qayta sotib olingan o'z aksiyalari - Imtiyozli (kontr-passiv)» yoki 30324 - «Aktsiyadorlardan qayta sotib olingan o'z aksiyalari - Oddiy (kontr-passiv)»;

Kredit 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» yoki bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijoz hisobvarag'i.

Agar bank o'z aksiyalarini bekor qilish maqsadida sotib olsa, u holda aksiyalar 90329 - «Bankning hujjatsiz qimmatli qog'ozlari» hisobvarag'iga 1 so'm shartli bahoda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali kirim qilinadi:

Debet 90329 - «Bankning hujjatsiz qimmatli qog'ozlari»;

Kredit 96314 - «Bankning qimmatli qog'ozlari bo'yicha kontr-hisobvaraq».

Agar bank o'z aksiyalarini keyinchalik qayta sotish maqsadida sotib olsa, u holda aksiyalar 90337 - «Bankning sotib olingan qimmatli qog'ozlari» hisobvarag'iga nominal qiymatida quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali kirim qilinadi:

Debet 90337 - «Bankning sotib olingan qimmatli qog'ozlari»;

Kredit 96314 - «Bankning qimmatli qog'ozlari bo'yicha kontr-hisobvaraq».

Sotib olingan bankning o'z aksiyalari keyinchalik ikkilamchi bozorda qayta sotilganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:

a) sotib olish bahosiga nisbatan qimmat bahoda sotilganda:

Debet 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» yoki bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijoz hisobvarag'i - aksiyani sotish qiymatiga;

Kredit 30321 - «Aktsiyadorlardan qayta sotib olingan o'z aksiyalari - Imtiyozli (kontr-passiv)» yoki 30324 - «Aktsiyadorlardan qayta sotib olingan o'z aksiyalari - Oddiy (kontr-passiv)» - aksiyani sotib olish qiymatiga;

Kredit 30603 - «Qo'shilgan kapital» balans hisobvarag'ining «Qayta sotib olingan o'z aksiyalari bo'yicha qo'shilgan kapital» shaxsiy hisobvarag'i - qayta sotish va sotib olish o'rtasidagi ijobiy farq summasiga;

b) sotib olish bahosiga nisbatan arzon bahoda sotilganda:

Debet 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» yoki bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijoz hisobvarag'i - aksiyani sotish qiymatiga;

Debet 30603 - «Qo'shilgan kapital» - aksiyani qayta sotish va sotib olish o'rtasidagi salbiy farq summasiga, kredit qoldig'i doirasida;

Kredit 30321 - «Aktsiyadorlardan qayta sotib olingan o'z aksiyalari - Imtiyozli (kontr-passiv)» yoki 30324 - «Aktsiyadorlardan qayta sotib olingan o'z aksiyalari - Oddiy (kontr-passiv)» - aksiyani sotib olish qiymatiga.

v) bir vaqtning o'zida quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 96314 - «Bankning qimmatli qog'ozlari bo'yicha kontr-hisobvaraq»;

Kredit 90337 - «Bankning sotib olingan qimmatli qog'ozlari».

Aktsiyalar bekor qilinganda yoki bankning aktsiyadorlik kapitali kamaytirilganda (ustav hujjatlariga kiritiladigan tegishli o'zgartirishlar Markaziy bankda ro'yxatga olingandan so'ng), quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 30315 - «Chiqarilgan ustav kapitali - Imtiyozli» yoki 30318 - «Chiqarilgan ustav kapitali - Oddiy» - aktsiyaning nominal qiymatiga;

Kredit 30321 - «Aktsiyadorlardan qayta sotib olingan o'z aktsiyalari - Imtiyozli (kontr-passiv)» yoki 30324 - «Aktsiyadorlardan qayta sotib olingan o'z aktsiyalari - Oddiy (kontr-passiv)» - aktsiyani sotib olish qiymatiga.

Bir vaqtning o'zida quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:


Debet 96314 - «Bankning qimmatli qog'ozlari bo'yicha kontr-hisobvaraqq»;

Kredit 90329 - «Bankning hujjatsiz qimmatli qog'ozlari».

9.2. Bank tomonidan chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalar hisobi

Tijorat banklari obligatsiyalar, depozit sertifikatlari, veksellar va bozorda muomalada bo'ladigan boshqa qarz qimmatli qog'ozlarini chiqarishi mumkin.

Obligatsiyalar hujjatli va hujjatsiz shaklda chiqarilishi mumkin. Hujjatli shakldagi obligatsiyalar joylashtirilgan taqdirda obligatsiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarorning barcha nusxalariga obligatsiya blankining namunasi (bayoni) tikiladi.



7-rasm. Tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqariladigan obligatsiyalar¹

¹ Muallif tomonidan tuzildi

Foizli, diskontli, yutuqli va maqsadli (foizsiz) obligatsiyalar chiqarilishi mumkin. Foizli obligatsiyaning daromadi chiqarilish shartlari bilan belgilanadigan nominal qiymati bo'yicha belgilangan muddatda so'ndirish va qayd etilgan foizlarni to'lash hisobiga tashkil etadi.

Diskontli obligatsiyaning daromadi nominal qiymati bo'yicha belgilangan muddatda so'ndirish hisobiga, bunda daromad sotish bahosi va obligatsiyaning nominal qiymati o'rtasidagi farq hisobiga tashkil etadi.

Yutuqli obligatsiyalarni chiqarishda nominal qiymatga foiz yoki diskont ko'rinishida belgilangan daromadga qo'shimcha ravishda muntazam o'tkazib turiladigan tirajlar bo'yicha yutuq ko'rinishida to'lanadigan daromad belgilanishi kerak. Daromadi muntazam ravishda o'tkazib turiladigan tirajlar bo'yicha yutuq ko'rinishida belgilanadigan obligatsiyalarni chiqarishga yo'l qo'yilmaydi.

Maqsadli (foizsiz) obligatsiyalar bo'yicha daromad tovar (xizmat) ko'rinishida belgilanadi. Qaysi tovar (xizmat) asosida chiqarilganligini ko'rsatish maqsadli obligatsiyalarning majburiy rekviziti hisoblanadi.

Bank tomonidan chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlarining hisobi ularning nominal qiymati bo'yicha 23600 - «Bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar» balans hisobvarag'ining tegishli hisobvaraqlarida yuritiladi.

Hujjatsiz yoki hujjatli qimmatli qog'ozlarning blankalari Markaziy depozitariyda hisobga olinganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 90327 - «Bankning qimmatli qog'ozlari blankalari»;

Kredit 96314 - «Bankning qimmatli qog'ozlari bo'yicha kontr-hisobvaraq».

Debet 90329 - «Bankning hujjatsiz qimmatli qog'ozlari»;

Kredit 96314 - «Bankning qimmatli qog'ozlari bo'yicha kontr-hisobvaraq».

Qimmatli qog'ozlar nominal qiymati bo'yicha joylashtirilganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:

Debet 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» yoki bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijoz hisobvarag'i;

Kredit 23600 - «Bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar».

Debet 96314 - «Bankning qimmatli qog'ozlari bo'yicha kontr-hisobvaraq»;

Kredit 90327 - «Bankning qimmatli qog'ozlari blankalari».

Qimmatli qog'oz nominal qiymatidan yuqori bahoda sotilganda sotish

bahosi va nominal qiymat o'rtasidagi farq (mukofot) 23696 - «Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha mukofot (premiya)» hisobvarag'ining kreditiga sotish kunida quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali o'tkaziladi:

Debet 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» yoki bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijoz hisobvarag'i - qimmatli qog'ozni sotish qiymatiga;

Kredit 23600 - «Bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar» - qimmatli qog'ozning nominal qiymatiga;

Kredit 23696 - «Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha mukofot (premiya)» - qimmatli qog'ozni sotish qiymati va nominal qiymati o'rtasidagi farq summasiga.

Bir vaqtning o'zida blanka yozib berilganda yoki investorning depo hisobvarag'iga o'tkazilganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 96314 - «Bankning qimmatli qog'ozlari bo'yicha kontr-hisobvaraq»;

Kredit 90327 - «Bankning qimmatli qog'ozlari blankalari».

Debet 96314 - «Bankning qimmatli qog'ozlari bo'yicha kontr-hisobvaraq»;

Kredit 90329 - «Bankning hujjatsiz qimmatli qog'ozlari».

Qimmatli qog'oz nominal qiymatidan past bahoda sotilsa, nominal qiymati va sotish bahosi o'rtasidagi farq (diskont) 23698 - «Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha diskont (kontr-passiv)» hisobvarag'ining debetiga sotish sanasida quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali o'tkaziladi:

Debet 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» yoki bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijoz hisobvarag'i - qimmatli qog'ozni sotish qiymatiga;

Debet 23698 - «Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha diskont (kontr-passiv)» - qimmatli qog'ozni nominal qiymati va sotish qiymati o'rtasidagi farq summasiga;

Kredit 23600 - «Bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar» - qimmatli qog'ozni nominal qiymatiga.

Diskontlar balans hisobotida chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning umumiy summasidan chegirma ko'rinishida aks ettiriladi.

Agar qimmatli qog'ozlar foizlarni to'lash davrlari orasida sotilgan bo'lsa, sotilgan va to'lanishi lozim bo'lgan foizli majburiyatlar quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali sotish sanasida hisobga olinadi:

Debet 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» yoki bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijoz hisobvarag'i;

Kredit 22414 - «Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisoblangan foizlar».

Qimmatli qog'ozlar so'ndirish yoki qayta sotish shartlari bilan sotib olinganda, qimmatli qog'ozlar balansdan chiqariladi. Agar sotib olish balans qiymatida bo'lsa, quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:

a) ilgari nominal qiymatda sotilgan qimmatli qog'ozlar sotib olinganda:

Debet 23600 - «Bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar» - nominal qiymatga;

Kredit 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» yoki bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijoz hisobvarag'i - nominal qiymatga;

b) ilgari diskont bilan sotilgan qimmatli qog'ozlar sotib olinganda:

Debet 23600 - «Bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar» - nominal qiymatga;

Kredit 23698 - «Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha diskont (kontrpassiv)» - diskontning qoldiq qiymati doirasida;

Kredit 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» yoki bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijoz hisobvarag'i - qimmatli qog'ozni sotib olish qiymatiga;

v) ilgari mukofot bilan sotilgan qimmatli qog'ozlar sotib olinganda:

Debet 23600 - «Bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar» - nominal qiymatga;

Debet 23696 - «Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha mukofot (remiya)» - mukofotning qoldiq qiymati doirasida;

Kredit 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» yoki bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijoz hisobvarag'i - qimmatli qog'ozni sotib olish qiymatiga;

g) hisoblangan foizlarni to'lashda

Debet 22414 - «Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisoblangan foizlar»;

Kredit 10101 - «Aylanma kassadagi naqd pullar» yoki bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijoz hisobvarag'i.

Agar bank qimmatli qog'ozni bekor qilish maqsadida sotib olgan bo'lsa, u holda qimmatli qog'ozlar 1 so'm shartli bahoda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali hisobga olinadi:

Debet 90327 - «Bankning qimmatli qog'ozlari blankalari»;

Kredit 96314 - «Bankning qimmatli qog'ozlari bo'yicha kontr-

hisobvaraqa».

Debet 90329 - «Bankning hujjatsiz qimmatli qog'ozlari»;

Kredit 96314 - «Bankning qimmatli qog'ozlari bo'yicha kontr-hisobvaraqa».

Agar bank qimmatli qog'ozlarni qayta sotish maqsadida sotib olgan bo'lsa, u holda qimmatli qog'ozlar 90337 hisobvarag'ida nominal qiymat bo'yicha, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali kiritiladi:

Debet 90337 - «Bankning sotib olingan qimmatli qog'ozlari»;

Kredit 96314 - «Bankning qimmatli qog'ozlari bo'yicha kontr-hisobvaraqa».

9.3. Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq boshqa operatsiyalar hisobi

Banklar mijozlar bilan tuzilgan vositachilik yoki topshiriq shartnomalari asosida qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi bo'yicha operatsiyalarni bajarishi mumkin. Qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun mijozlar tomonidan o'tkazilgan pul mablag'lari, hamda vositachilik va topshiriq shartnomalari bo'yicha mijozlarning qimmatli qog'ozlarini sotishdan olingan pul mablag'larining hisobi 22608 - «Mijozlarning qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalar bo'yicha mablag'lari» balans hisobvarag'ining «Qimmatli qog'ozlar bilan brokerlik operatsiyalari bo'yicha mijozlar mablag'lari» alohida hisobvarag'ida yuritiladi.

Sotish uchun yoki mijoz topshirig'iga asosan sotib olingan qimmatli qog'ozlar 93616 - «Davlatning shartli tarzda saqlanayotgan qimmatli qog'ozlari» va 93623 - «Saqlanayotgan xususiy qimmatli qog'ozlar/tijorat hujjatlari» ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlarida nominal qiymat bo'yicha hisobga olinadi:

Debet 93616 - «Davlatning shartli tarzda saqlanayotgan qimmatli qog'ozlari» yoki 93623 - «Saqlanayotgan xususiy qimmatli qog'ozlar/tijorat hujjatlari»;

Kredit 96379 - «Saqlanayotgan qimmatli qog'ozlar va boshqa qimmatbaho buyumlar bo'yicha kontr-hisobvaraqa».

Mijozlarning topshirig'i ko'ra sotish uchun olingan qimmatli qog'ozlar sotilmaganda, ularni mijozlarga qaytarilganda, shuningdek, mijozlarga ularning topshirig'i bo'yicha sotib olingan qimmatli qog'ozlarni topshirishda qimmatli qog'ozlarning nominal qiymatiga quyidagi buxgalte-

riya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 96379 - «Saqlanayotgan qimmatli qog'ozlar va boshqa qimmatbaho buyumlar bo'yicha kontr-hisobvaraqq»;

Kredit 93616 - «Davlatning shartli tarzda saqlanayotgan qimmatli qog'ozlari» yoki 93623 - «Saqlanayotgan xususiy qimmatli qog'ozlar/tijorat hujjatlari».

Banklar tomonidan vositachilik operatsiyalarini bajarishdan olingan daromadlar 45209 - «Qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan investitsiyaviy vositachilik operatsiyalari bo'yicha daromadlar» hisobvarag'ining kreditida hisobga olinadi.

Qimmatli qog'ozlar emitentdan joylashtirish uchun olinganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 93616 - «Davlatning shartli tarzda saqlanayotgan qimmatli qog'ozlari» yoki

93623 - «Saqlanayotgan xususiy qimmatli qog'ozlar/tijorat hujjatlari»;

Kredit 96379 - «Saqlanayotgan qimmatli qog'ozlar va boshqa qimmatbaho buyumlar bo'yicha kontr-hisobvaraqq».

Emitentning qimmatli qog'ozlarini joylashtirishdan olingan pul mablag'larining hisobi 22608 - «Mijozlarning qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalar bo'yicha mablag'lari» balans hisobvarag'ining «Qimmatli qog'ozlarning chiqarilishiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq emitentlar mablag'lari» alohida shaxsiy hisobvarag'ida hisobga olinadi.

Qimmatli qog'ozlarni ularning birinchi egalariга joylashtirishda, shuningdek, joylashtirilmagan qimmatli qog'ozlarni emitentga qaytarishda qimmatli qog'ozlarning nominal qiymati bo'yicha quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 96379- «Saqlanayotgan qimmatli qog'ozlar va boshqa qimmatbaho buyumlar bo'yicha kontr-hisobvaraqq»;

Kredit 93616- «Davlatning shartli tarzda saqlanayotgan qimmatli qog'ozlari» yoki 93623 - «Saqlanayotgan xususiy qimmatli qog'ozlar/tijorat hujjatlari».

Emitentning qimmatli qog'ozlari so'ndirilganda, so'ndirish summasiga quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi.

Debet 22608 - «Mijozlarning qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalar bo'yicha mablag'lari»;

Kredit 10101- «Aylanma kassadagi naqd pullar» yoki bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijoz hisobvarag'i.

Bir vaqtning o'zida so'ndirilgan qimmatli qog'ozlarning blankalari ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlariga 1 so'm shartli bahoda quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari orqali kirim qilinadi:

Debet 90303 - «Davlatning qimmatli qog'ozlari blankalari»;

Kredit 96305 - «Davlatning qimmatli qog'ozlari blankalari bo'yicha kontr-hisobvaraqq»; yoki

Debet 90317 - «Boshqa tashkilot va muassasalarning qimmatli qog'ozlari blankalari»;

Kredit 96315 - «Boshqa tashkilot va muassasalarning qimmatli qog'ozlari blankalari bo'yicha kontr-hisobvaraqq».

Emitent topshirig'iga ko'ra so'ndirilgan qimmatli qog'ozlarning blankalarini emitentga o'tkazishda yoki bekor qilishda 1 so'm shartli bahoda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 96305 - «Davlatning qimmatli qog'ozlari blankalari bo'yicha kontr-hisobvaraqq»;

Kredit 90303 - «Davlatning qimmatli qog'ozlari blankalari»;

Debet 96315 - «Boshqa tashkilot va muassasalarning qimmatli qog'ozlari blankalari bo'yicha kontr-hisobvaraqq»;

Kredit 90317 - «Boshqa tashkilot va muassasalarning qimmatli qog'ozlari blankalari».

Andarrayting xizmatlarini amalga oshirishdan olingan daromadlar 45294 - «Boshqa ko'rsatilgan xizmatlar va vositachilik uchun olingan daromadlar» hisobvarag'ining «Qimmatli qog'ozlarni chiqarilishiga xizmat ko'rsatish bo'yicha bank operatsiyalaridan olingan daromadlar» alohida shaxsiy hisobvarag'ida hisobga olinadi.

Banklar mijozlar bilan tuziladigan shartnomalar asosida qimmatli qog'ozlarni saqlashi mumkin. Mijozlardan qimmatli qog'ozlar saqlash uchun qabul qilinganda nominal qiymati bo'yicha quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 93616 - «Davlatning shartli tarzda saqlanayotgan qimmatli qog'ozlari»; yoki 93623 - «Saqlanayotgan xususiy qimmatli qog'ozlar/tijorat hujjatlari»;

Kredit 96379 - «Saqlanayotgan qimmatli qog'ozlar va boshqa qimmatbaho buyumlar bo'yicha kontr-hisobvaraqq».

Qimmatli qog'ozlar saqlashdan chiqarilib mijozga qaytarilganda nominal qiymat bo'yicha quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 96379 - «Saqlanayotgan qimmatli qog'ozlar va boshqa qimmatbaho

buyumlar bo'yicha kontr-hisobvaraqq»;

Kredit 93616 - «Davlatning shartli tarzda saqlanayotgan qimmatli qog'ozlari» yoki 93623 - «Saqlanayotgan xususiy qimmatli qog'ozlar/tijorat hujjatlari».

REPO (qayta sotib olish sharti bilan qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdi bitimlari to'g'risidagi kelishuv) bitimi deganda ma'lum muddatdan so'ng oldindan kelishilgan bahoda sotib olish majburiyati bilan qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha tuzilgan bitim tushuniladi.

REPO bitimlari bo'yicha sotilgan qimmatli qog'ozlar 22300 - «REPO bitimlari bo'yicha sotilgan qimmatli qog'ozlar» balans hisobvarag'ining tegishli hisobvarag'ida hisobga olinadi. Qayta sotib olish sharti bilan qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdi bitimlari to'g'risidagi kelishuvning birinchi qismini bajarishda qimmatli qog'ozlarni sotuvchi bank tomonidan bitimning birinchi qismi bo'yicha qimmatli qog'ozlarni sotish summasida quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:

Debet Bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijozning hisobvarag'i;

Kredit 22300 -«REPO bitimlari bo'yicha sotilgan qimmatli qog'ozlar».

Bir vaqtning o'zida ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlari bo'yicha:

Debet 92802 - «Qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha muddatli bitimlar»;

Kredit 96374 - «Qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha muddatli bitimlar kontr-hisobvarag'i».

Ko'rsatilgan farq amortizatsiya qilinadi va sotuvchi bank tomonidan har oyda qayta sotib olish sharti bilan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi bitimi to'g'risidagi kelishuvning amal qilish muddati davomida foizli xarajatlar hisobvarag'iga olib boriladi:

Debet 54300 - «Qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan REPO bitimlari bo'yicha foizli xarajatlar»;

Kredit 22300 - «REPO bitimlari bo'yicha sotilgan qimmatli qog'ozlar».

Agar REPO kelishuvning birinchi qismi bo'yicha REPO summasi foiz (kupon) daromadlari miqdorida kamayishi ko'zda tutilgan bo'lsa, u holda REPO summasi dastlabki sotib oluvchi tomonidan olingan foiz (kupon) daromadlari miqdorida kamayadi va quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 22300 - «REPO bitimlari bo'yicha sotilgan qimmatli qog'ozlar»;

Kredit REPO bitimining ob'ekti bo'lgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha olinishi lozim bo'lgan foizlarning tegishli hisobvarag'i.

Qayta sotib olish sharti bilan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi bitimlari to'g'risidagi kelishuvning ikkinchi qismini bajarishda bank tomonidan kelishuvning ikkinchi qismi bo'yicha qayta sotib olingan qimmatli qog'ozlar summasiga quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 22300 - «REPO bitimlari bo'yicha sotilgan qimmatli qog'ozlar»;
Kredit Bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijozning hisobvarag'i.

Bir vaqtning o'zida ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlarida, kelishuvning ikkinchi qismi bo'yicha qayta sotib olingan qimmatli qog'ozlar qiymatida quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 96374 - «Qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha muddatli bitimlar kontr-hisobvarag'i»;

Kredit 92802 - «Qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha muddatli bitimlar».

Qayta sotib olish sharti bilan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi bitimlari to'g'risidagi kelishuv har bir tomon o'z majburiyatlarini bajarmasa, odatda jarima choralari ko'zda tutiladi. Kelishuvning ikkinchi qismi bajarilmagan hamda qimmatli qog'ozlar sotib oluvchi portfeliga o'tkazilgan taqdirda sotuvchi bank quyidagi buxgalteriya o'tkazmasini amalga oshiradi:

Debet 22300 - «REPO bitimlari bo'yicha sotilgan qimmatli qog'ozlar» - bitimning ikkinchi qismi bo'yicha qimmatli qog'ozni qayta sotib olish summasiga;

Kredit 10700 - «Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari»,

10800 - «Sotishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar»,

15900 - «So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar»,

11300 - «Sotib olingan veksellar» - qimmatli qog'ozni balans qiymatiga.

Bir vaqtning o'zida ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlarida quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 96374 - «Qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha muddatli bitimlar kontr-hisobvarag'i»;

Kredit 92802 - «Qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha muddatli bitimlar».

Qayta sotib olish sharti bilan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi bitimlari to'g'risidagi kelishuvning birinchi qismini bajarishda, qimmatli qog'ozlarni sotib oluvchi bank kelishuvning ikkinchi qismi bo'yicha qimmatli qog'ozlarning sotib olish summasiga quyidagi buxgalteriya o'tkazmasini

bajaradi:

Debet 11800 - «REPO bitimlari bo'yicha sotib olingan qimmatli qog'ozlar»;

Kredit Bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijozning hisobvarag'i.

Bir vaqtning o'zida bank tomonidan sotib olingan va qayta sotib olish sharti bilan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi bitimlari to'g'risidagi kelishuvning ikkinchi qismini bajarishda bank sotishi lozim bo'lgan qimmatli qog'ozlar qiymatiga ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlarida quyidagi buxgalteriya o'tkazmasini amalga oshiradi:

Debet 92806 - «Qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha muddatli bitimlar»;

Kredit 96376 - «Qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha muddatli bitimlar kontr-hisobvarag'i».

Ko'rsatilgan farq amortizatsiya qilinadi va oluvchi bank tomonidan har oyda qayta sotib olish sharti bilan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi bitimi to'g'risidagi kelishuvning amal qilish muddati davomida foizli daromadlar hisobvarag'ida hisobga olinadi:

Debet 11800 - «REPO bitimlari bo'yicha sotib olingan qimmatli qog'ozlar»;

Kredit 45000 - «Qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan REPO bitimlari bo'yicha foizli daromadlar».

Bunda foizli daromad bank balansidan quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan hisobdan chiqarilishi kerak:

Debet 45000 - «Qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan REPO bitimlari bo'yicha foizli daromadlar»;

Kredit 11800 - «REPO bitimlari bo'yicha sotib olingan qimmatli qog'ozlar».

Hisobdan chiqarilgandan so'ng kelishuvning ikkinchi qismi bo'yicha qimmatli qog'ozlarni qayta sotish bahosi va kelishuvning birinchi qismi bo'yicha qimmatli qog'ozlarni sotib olish bahosi o'rtasidagi farq amortizatsiyasi ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlarida hisobga olinadi:

Debet 95411 - «Olinishi lozim bo'lgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisoblangan foizlar»;

Kredit 96333 - «Olinishi lozim bo'lgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisoblangan foizlar kontr-hisobvarag'i».

Ko'zda tutilmagan holatlar hisobvarag'ida yuritiladigan hisob REPO kelishuvining ikkinchi qismi bajarilganidan so'ng to'xtatiladi:

Debet 96333 - «Olinishi lozim bo'lgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha

hisoblangan foizlar kontr-hisobvarag'i»;

Kredit 95411 - «Olinishi lozim bo'lgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisoblangan foizlar».

Balans hisoboti sanasida kelishuvning birinchi qismi bo'yicha sotib olingan qimmatli qog'ozlarning bozor qiymati balans qiymati (ya'ni 11800 - «REPO bitimlari bo'yicha sotib olingan qimmatli qog'ozlar» hisobvarag'ida hisobga olingan summa) bilan tenglashtiriladi. Bozor qiymati balans qiymatidan tushib ketsa, bank xarajatlari hisobidan ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasi tashkil etiladi. Bunda balans qiymati va bozor qiymati o'rtasidagi farq 56824 - «REPO bitimlari bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash» hisobvarag'ining debetida hisobga olinadi:

Debet 56824 - «REPO bitimlari bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash»;

Kredit 11899 - «REPO bitimlari bo'yicha sotib olingan qimmatli qog'ozlardan ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)».

Bozor qiymati balans qiymatidan oshib ketsa zaxira nolga tenglashtiriladi:

Debet 11899 - «REPO bitimlari bo'yicha sotib olingan qimmatli qog'ozlardan ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)»;

Kredit 56824 - «REPO bitimlari bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash».

Qayta sotib olish sharti bilan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi bitimlari to'g'risidagi kelishuvning ikkinchi qismini bajarishda bank quyidagi buxgalteriya o'tkazmasini amalga oshiradi:

Debet Bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijozning hisobvarag'i;

Kredit 11800 - «REPO bitimlari bo'yicha sotib olingan qimmatli qog'ozlar» - bitimning ikkinchi qismi bo'yicha qimmatli qog'ozni qayta sotib olish summasiga.

Bir vaqtning o'zida qayta sotib olish sharti bilan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi bitimlari to'g'risidagi kelishuvning ikkinchi qismini bajarishda bank tomonidan sotilgan qimmatli qog'ozlar qiymatiga ko'zda tutilmagan holatlar hisobvarag'i bo'yicha quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 96376 - «Qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha muddatli bitimlar kontr-hisobvarag'i»;

Kredit 92806 - «Qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha muddatli bitimlar».

Bank foizlarni oʻstirmaslik tamoyillarini qoʻllamagan boʻlsa, kelishuvning ikkinchi qismini bajarish sanasida 11800 - “REPO bitimlari boʻyicha sotib olingan qimmatli qogʻozlar” hisobvaragʻida hisobga olingan qimmatli qogʻozlarning balans qiymati kelishuvning ikkinchi qismi boʻyicha qimmatli qogʻozlar qayta sotuvi summasiga teng boʻlishi lozim.

Kelishuvning ikkinchi qismi bajarilmagan holda bank foizli daromadlarni balansdan chiqarishi, yaʼni foizlarni oʻstirmaslik tamoyillarini qoʻllashi shart:

Debet 45000 - “Qimmatli qogʻozlar bilan amalga oshirilgan REPO bitimlari boʻyicha foizli daromadlar”;

Kredit 11800 - “REPO bitimlari boʻyicha sotib olingan qimmatli qogʻozlar”.


Qayta sotib olish sharti bilan qimmatli qogʻozlar oldi-sotdi bitimlari toʻgʻrisidagi kelishuvning ikkinchi qismini bajarishda, bank qimmatli qogʻozlarni sotish boʻyicha tegishli buxgalteriya oʻtkazmasini amalga oshiradi. Bunda sotilgan qimmatli qogʻozlar bank balansidan chiqariladi.

9.4. Tijorat banklarida qimmatli qogʻozlar bilan aktiv operatsiyalar hisobi

Banklar hozirgi kunda xoʻjalik yurituvchi subʼektlarni kreditlash bilan birga ularning qimmatli qogʻozlarini sotib olib ularga investitsiya qilmoqda. Tijorat banklarining investitsiyalari hisobiga xoʻjalik subʼektlarida obo-rot mablagʻlari oshayapti, oʻzlariga zarur boʻlgan resurslarga ega boʻlib, ishlab chiqarishni, xizmat koʻrsatishni va oʻz faoliyatini kengaytirish imkoniyatiga ega boʻlmoqda. Oʻz navbatida tijorat banklari aktivlarni diversifikatsiya qilish, qoʻshimcha daromad olish imkoniyatiga ega boʻlmoqda. Ushbu aktivlar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga asosan moliyaviy aktivlar deb nomlanadi.

Banklarning moliyaviy aktivlarini buxgalteriya hisobi va hisobotida toʻgʻri tan olish va hisobga olish xozirgi kunda dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan 2005 yil 30 noyabrda 1528-son bilan davlat roʻyxatidan oʻtkazilgan Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklarida moliyaviy aktivlarning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi toʻgʻrisida”gi nizomining ahamiyati katta.

Moliyaviy aktivlarning uch toifasi mavjud



8-rasm. Tijorat banklari moliyaviy aktivlari tarkibi¹

Ushbu nizomga muvofiq moliyaviy aktivlar sifatida naqd pul mablag'lari, shartnomadan kelib chiqib, boshqa xo'jalik sub'ektlaridan pul mablag'larini yoki moliyaviy aktivlarni olish va almashtirish huquqi hamda boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektning ulushli vositalari tushuniladi. Ular uch toifaga bo'linadi: 1) oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari; 2) so'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar; 3) sotish uchun mavjud qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar.

Banklar sotib olingan moliyaviy aktivni dastlabki tan olishda uning haqiqatdagi qiymatini aks ettirgan haqqoniy qiymati bo'yicha baholaydilar. Sotish uchun mavjud yoki so'ndirish muddatigacha saqlanadigan qimmatli qog'ozlar deb tasniflangan moliyaviy aktivlar bo'yicha ularni sotib olish bilan bevosita bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar ham aktiv sifatida aks ettiriladi va qimmatli qog'ozning «amortizatsiya qiymati»ga kiritiladi.

Banklar moliyaviy aktivlarni sotib olishda ularning tasnifiga muvofiq nominal qiymati tijorat banklarining buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasining mos balans hisobvaraqlarida aks ettiriladi.

Banklar «oldi-sotdi» yoki «sotish uchun mavjud» qimmatli qog'ozlar sifatida tasniflangan ulushli qimmatli qog'ozlarni sotib olishda ularni haqiqiy qiymati bo'yicha tegishli balans hisobvaraqda aks ettiriladi.

«Sotish uchun mavjud» yoki «so'ndirish muddatigacha saqlanadigan» toifalarda tasniflangan qarz qimmatli qog'ozlarini sotib olish bilan bog'liq xarajatlar 10889 - «Sotish uchun mavjud qarz qimmatli qog'ozlarni

¹ Muallif tomonidan tuzildi

xarid qilish bo'yicha xarajatlar» yoki 15989 - «So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qimmatli qog'ozlarni xarid qilish bo'yicha xarajatlar» balans hisobvaraqlarida aks ettiriladi. «Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari» toifasida tasniflangan qarz qimmatli qog'ozlarini sotib olish bilan bog'liq xarajatlar va barcha ulushli qimmatli qog'ozlarni sotib olish bilan bog'liq xarajatlar 55110 - «Qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi operatsiyalari bo'yicha to'lanadigan xizmat va vositachilik

Haqqoniy qiymat o'zgarishini to'g'rilash, hech bo'lmaganda har oy moliyaviy hisobotni tayyorlashdan oldin amalga oshiriladi. Haqqoniy qiymat o'sishini aks ettirish uchun quyidagicha buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 10795 - «Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari haqqoniy qiymatining o'zgarishi»

Kredit 45609 - «Savdoga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlar haqqoniy qiymatining o'zgarishi natijasida olingan foyda» yoki

ƆKredit 45611 - «Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari haqqoniy qiymatining o'zgarishi natijasida olingan foyda» (savdoga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlardan tashqari)

Haqqoniy qiymat kamayishini aks ettirish uchun quyidagicha buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 55610 - «Savdoga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlar haqqoniy qiymatining o'zgarishi natijasida ko'rilgan zararlar» yoki

ƆDebet 55614 - «Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlar haqqoniy qiymatining o'zgarishi natijasida ko'rilgan zararlar» (Savdoga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlardan tashqari)

Kredit 10795 - «Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari haqqoniy qiymatining o'zgarishi»

Haqqoniy qiymat o'sishini aks ettirish uchun quyidagicha buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 10895 - «Sotish uchun mavjud qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar haqqoniy qiymatining o'zgarishi»

Kredit 30907 - «Sotish uchun mavjud qimmatli qog'ozlarning haqqoniy qiymatini o'zgarishi natijasida hosil bo'lgan o'zlashtirilmagan foyda va zararlar (aktiv-passiv)»

Haqqoniy qiymat kamayishini aks ettirish uchun quyidagicha buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 30907 - «Sotish uchun mavjud qimmatli qog'ozlarning haqqoniy

qiymatini o'zgarishi natijasida hosil bo'lgan o'zlashtirilmagan foyda va zararlar (aktiv-passiv)»

Kredit 10895 - «Sotish uchun mavjud qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar haqqoniy qiymatining o'zgarishi».

So'ndirish muddatigacha saqlanadigan moliyaviy aktivlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasini tashkil etish bo'yicha quyidagicha buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 56826 - «So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash»

Kredit 15999 - «So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)»

«Sotish uchun mavjud» toifasida tasniflangan moliyaviy aktivning qadrsizlanishi to'g'risida ob'ektiv dalillar mavjud bo'lganda, u holda haqqoniy qiymatni to'g'rilash bilan bog'liq bo'lgan va ilgari to'g'ridan-to'g'ri kapitalda aks ettirilgan ixtiyoriy kumulyativ zarar hisobdan chiqariladi va foyda va zararlar hisobotida aks ettiriladi. Bunda quyidagicha buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Haqiqiy qiymatni to'g'rilash summasini bekor qilish uchun:

Debet 10895 - «Sotish uchun mavjud qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar haqiqiy qiymatining o'zgarishi»

Kredit 30907 - «Sotish uchun mavjud qimmatli qog'ozlarning haqiqiy qiymati o'zgarishi natijasida hosil bo'lgan o'zlashtirilmagan foyda yoki zararlar (aktiv-passiv)»

Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasini tashkil etish uchun:

Debet 56808 - «Sotish uchun mavjud qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash»

Kredit 10899 - «Sotish uchun mavjud qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)»

Kapitaldan hisobdan chiqariladigan va foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda tan olinadigan kumulyativ zarar summasi aktivning balans qiymati bilan joriy haqqoniy qiymati o'rtasidagi farq summaga tengdir.

Agar ko'rilishi mumkin bo'lgan zarar summasi ilgari kapitalda tan olingan haqiqiy qiymatning salbiy (manfiy) to'g'rilash summasidan oshib

ketadigan bo'lsa, u holda banklar qo'shimcha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash summasini quyidagicha aks ettiradi:

Debet 56808 - «Sotish uchun mavjud qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash»

Kredit 10899 - «Sotish uchun mavjud qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)»

«Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari» toifasida tasniflangan qimmatli qog'ozlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi kamdan-kam hollardagina tashkil etiladi. Albatta bunda moliyaviy aktivning qadrsizlanishi to'g'risidagi ob'ektiv dalillar borgan sayin aniqlashib borishi, shu bilan birga, ushbu qimmatli qog'ozning joriy haqqoniy qiymati mazkur qadrsizlanishni aks ettirmagan bo'lishi lozim.

Nazorat savollari va topshiriqlar.

1. Qimmatli qog'ozlar nima va ularning qanday turlari mavjud?
2. Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bilan qanday operatsiyalarni bajaradi?
3. Tijorat banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar hisobi qanday hisobvaraqlarda olib boriladi?
4. Tijorat banklarida obligatsiyalar hisobi qanday yuritiladi?
5. Bankning andarrayting operatsiyalari hisobi qanday olib boriladi?
7. Tijorat banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar hisobi qaysi hisobvaraqlarda olib boriladi?
8. Tijorat banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar hisobi qanday tartibda amalga oshiriladi?

IX bob bo'yicha masala va mashqlar.

1-masala.

Yangi tashkil etilayotgan bankning belgilangan ustav kapitali summasiga 100 ming dona, nominal qiymati ming so'mdan bo'lgan, jami qiymati 100 mlrd so'mlik oddiy aksiyalar chiqarildi va ta'sischilar o'rtasida taqsimlandi. Ta'sischilar tomonidan aksiyalar qiymati to'liq to'lab berildi. Jumladan, bankka 10 mlrd so'm naqd pul mablag'lari va 90 mlrd so'm naqdsiz shaklda pul mablag'lari kelib tushdi.

Topshiriqlar:

1. Bank ustav kapitalini shakllantirish tartibini aytib bering.

2. Qimmatli qog'ozlar blankalari balansdan tashqari hisobvaraqa qanday hisobga olinadi?

3. Tegishli buxgalteri provodkali tuzing.

2-masala.

Kapitalbank quyidagi aksiyadorlarga aktsiya bo'yicha joriy yilning 2-choragi uchun e'lon qilingan dividendlarni (oralik dividendlar) hisobladi va ularga to'lab berdi:

Jismoniy shaxslarga – 15700000 so'm (naqt pullari bilan)

«Salution» xususiy firmasiga – 6500000 so'm (aktsiyadorga boshqa bankda xizmat ko'rsatiladi.)

«Artel» QJ ga – 18800000 so'm (mijozga shu bankda xizmat ko'rsatiladi.)

Topshiriqlar:

1. Bank oddiy aksiyalar bo'yicha dividend hisoblash va to'lash tartibini aytib bering;

2. Tegishli buxgalteriya provodkalarini tuzing.

3-masala.

Qishloqqurilishbank imtiyozli aksiyalar bo'yicha e'lon qilingan yillik dividendlar hisobladi. Hisoblangan dividendlar miqdori – 73000000 so'm. Bank ixtiyoridagi joriy yilning foydasi 106 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Topshiriqlar:

1. Bank foydasi etarli bo'lmagan xollarda imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar qanday tartibda hisoblanadi?

2. Dividendlarni hisoblanishi va to'lanishi bo'yicha tegishli buxgalteriya provodkalarini tuzing.

4-masala.

Ipoteka bankning nominali bir million so'm bo'lgan 6 oylik 1000 dona va 1 yillik 500 dona depozit sertifikatini chiqardi. Depozit sertifikat 6 oylikning yillik foiz stavkasi 16 % va 1 yilgi uchun esa 18 % amal qiladi. Depozit sertifikati amal qilish muddati tugagandan so'ng to'liq qaytarilib olindi va foizlar to'lab berildi.

Topshiriqlar:

1. Depozit sertifikatini emissiya qilish tartibini tushuntiring.

2. Depozit sertifikati bo'yicha foizlar qanday tartibda hisoblanadi.

3. Tegishli buxgalteriya provodkalarini tuzing.

5-masala.

O'z sanoatqurilishbank 1 yilga, nominal qiymati 2000000 so'm, yillik 17 % stavka bilan 1000 ta obligatsiyani muomilaga chiqardi. Obligatsiyalarni

muomalaga chiqarish xarajatlari 5000000 so'mni tashkil etdi.

Topshiriqlar:

1. Tijorat banklari tomonidan obligatsiyalarni muomalaga chiqarish tartibini tushuntiring.
2. Obligatsiyalar bo'yicha foizlar qanday hisoblanadi?
3. Obligatsiya blankalari qanday hisobga olinadi?
4. Tegishli buxgalteriya provodkalarini tuzing.

Testlar

1. Tijorat banklari tomonidan chiqarilgan aktsiyalar bo'yicha oraliq dividend hisoblanganda:

- a) 31203 hisobvaraqlar hisobidan;
- b) 31206 hisobvaraqlar hisobidan;
- c) 31200 hisobvaraqlar hisobidan;
- d) 16103 hisobvaraqlar hisobidan.

2. Bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli xarajatlar hisobvaraqlari:

- a) 31206-31203;
- b) 30603-31206;
- c) 30321-30324.
- d) 54202-54210;

3. Diskont bilan sotilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha qo'shimcha diskont summasini foizlar xarajatlari olib borilganda:

- a) Debet-54200; Kredit-23968
- b) Debet-23698; Kredit-54200
- c) Debet-54200; Kredit-23698
- d) Debet-54200; Kredit-23696

4. Hissadorlarga dividendlar e'lon qilinganda buxgalteriya o'tkazmalari:

- a) Debet - 31203, 31206; Kredit – 29822;
- b) Debet - 29822; Kredit – 31203, 31206;
- c) Debet – 31203; Kredit – 31206;
- d) Debet - 31203; Kredit - 10101;

5. "Kapital" bo'limi o'z ichiga quyidagi moddalarni oladi:

- a) Chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlar
- b) Muddatli majburiyatlar.
- c) Taqsimlanmagan foyda

d) Muddatli, jamg'armali depozitlar

6. REPO bitimi nima?

a) Qayta sotib olish sharti bilan foiz miqdori va narxi belgilanmagan bitim.

b) Qayta sotib olish sharti bilan ma'lum muddatga tuziladigan qimmatli qog'ozlarni sotish bitimi.

c) Qimmatli qog'ozlarga egalik qilish huquqini uchinchi shaxsga o'tkazish bitimi.

d) Qimmatli qog'ozlarga egalik qilish huquqini beruvchi bitim.

7. Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha foiz hisoblanganda:

a) Debet-54200; Kredit-22414;

b) Debet-54200; Kredit-23698;

c) Debet-20414; Kredit-55100;

d) Debet-22414; Kredit-54200.

X BOB. BANKLARDA MODDIY VA NOMODDIY AKTIVLAR HISOBİ

Tayanch soʻz va iboralar. Asosiy vositalar, boshlangʻich qiymat, qoldiq qiymat, amortizatsiya, nomoddiy aktivlar, bino – inshootlar, mebel va jihozlar, qayta baholash, oldindan toʻlash, kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar, inventarizatsiya, taqsimlanmagan foyda, gudvill, dasturiy taʼminot.

10.1. Tijorat banklari asosiy vositalarning mazmuni va uni hisobini tashkil etilishi

Asosiy vositalar – bu moddiy aktivlar boʻlib:

a) bank faoliyatida bank xizmatlarini koʻrsatish jarayonida, ijaraga berish uchun yoki maʼmuriy maqsadlarda foydalaniladi;

b) bir yildan ortiq vaqt mobaynida foydalanishga moʻljallangan.

Asosiy vositalarga quyidagilar kiradi: bino, inshootlar, uskuna va asboblari, kompyuterlar, mebel, hisoblash texnikasi, transport vositalari, foydalanish huquqi bilan olingan er, kutubxona fondlari, qiymatidan qatʼiy nazar, signalizatsiya (ogohlantirish) va binoni qurishda uning narxiga kiritilmagan telefonlashtirish obʼektlari va h.

Tijorat banklarda asosiy vositalarning hisobi Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2004 yil 27 noyabrda “Oʻzbekiston Respublikasi banklarida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobi toʻgʻrisida”gi 25/8-sonli Nizomiga asosan olib boriladi. Unga koʻra, bank balansiga asosiy vositalar quyidagi hollarda kiritiladi:

- 1) toʻlov evaziga sotib olish;
- 2) obʼektlarni qurish yoki rekonstruktsiya qilish yoʻli bilan olish;
- 3) tekinga yoki subsidiya koʻrinishida olish;
- 4) moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi boʻyicha olish;
- 5) ortiqcha chiqqan (hisobga olinmagan) asosiy vositalar aniqlanishi.

Tijorat banklarida asosiy vositalarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar¹

№	Hisobvaraq raqami	Hisobvaraq nomi	Hisobvaraq turkumi
	16501	Yer	A
	16505	Tugallanmagan qurilishlar	A
	16509	Bankning imoratlari – binolar va boshqa imoratlar	A
	16515	Ob'ektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi	A
	16529	Transport vositalari	A
	16535	Mebel, moslama va jixozlar	A
	16541	To'lov kartochkalari bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uskunalari	A
	16549	Boshkalarga operatsion ijaraga berilgan asosiy vositalar	A
	16561	Ombordagi asosiy vositalar	A

Ushbu hisobvaraqlar aktiv bo'lib, ularning debet tomonidagi saldo tijorat banklarda mavjud asosiy vositalarning dastlabki qiymatini aks ettiradi. Asosiy vositalarni hisobga oluvchi hisobvaraqlarning debet tomonida ularning ko'payishi, kredit tomonida esa kamayishi o'z ifodasini topadi.

Asosiy vositalar, loyiha-tadqiqot ishlari, qurilish materiallari, mehnat, bino (inshoot)lar qurilishi (ta'mirlanishi) bilan bog'liq xarajatlar va asosiy vositalarni sotib olish bilan bog'liq boshqa kapitallashtirilgan xarajatlar qiymatini oldindan to'liq yoki qisman to'lash quyidagi buxgalteriya yozuvlari bilan rasmiylashtiriladi:

1) Debet 19909 "Tovar-moddiy qimmatliklari to'langan mablag'lar hisobvarag'i"

Kredit Bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijozning (mol etkazib beruvchining) talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i, agar ularga ushbu bank xizmat ko'rsatsa

2) *sotib olingan binolar (inshootlar) balansda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan aks ettiriladi:*

Debet 16509 "Bankning imoratlari - Binolar va boshqa qurilgan imoratlar"

Kredit 19909 "Tovar-moddiy qimmatliklari to'langan mablag'lar hisobvarag'i"

3) *sotib olingan boshqa asosiy vositalarni balansda aks ettirish (Masalan,*

¹ Hisobvaraqlar rejasiga asosan muallif tomonidan tayyorlandi.

Mebel jihozlari bo'lsa):

Debet 16535 - "Mebel, moslama va uskunalar"

Kredit 19909 "Tovar-moddiy qimmatliklari to'langan mablag'lar hisobvarag'i"

4) *Asosiy vositalarni omborga kirim qilish quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan rasmiylashtiriladi:*

Debet 16561 "Ombordagi asosiy vositalar"

Kredit 19909 "Tovar-moddiy qimmatliklari to'langan mablag'lar hisobvarag'i"

5) *Ta'mirlashni talab qiladigan sotib olingan binolar ta'mirlash ishlari tugagunga qadar 16505 "Tugallanmagan qurilishlar" balans hisobvarag'ining alohida shaxsiy hisobvarag'ida hisobga olinadi. Bunda loyiha-tadqiqot ishlari, qurilish materiallari va mehnat qiymati, binolarni (inshootlarni) qurish (ta'mirlash) ishlari bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar qabul qilish dalolatnomalariga asosan quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali hisobvaraqlarda aks ettiriladi:*

Debet 16505 "Tugallanmagan qurilishlar"

Kredit 19909 "Tovar-moddiy qimmatliklari to'langan mablag'lar hisobvarag'i"

7) Binolar (inshootlar) foydalanishga tayyor bo'lgan holda ularning qiymati tegishli qabul qilish dalolatnomasiga asosan 16509 "Bank imoratlari-binolar va boshqa qurilgan imoratlar" hisobvarag'iga kirim qilinadi.

Bunda quyidagi buxgalteriya yozuvlari rasmiylashtiriladi:

a) *binoning qiymati summasiga:*

Debet 16509 "Bankning imoratlari - Binolar va boshqa qurilgan imoratlar"

Kredit 16505 "Tugallanmagan qurilishlar"

b) *mebel va jihozlarning qiymati summasiga:*

Debet 16535 "Mebel, moslama va jihozlar"

Kredit 16505 "Tugallanmagan qurilishlar"

Agar bank to'lovni moddiy aktivlar kirim qilingandan keyin amalga oshirsa, tegishli kirim hujjatlariga asosan quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

1) *Moddiy aktivlar kelib tushganida ularni balansda aks ettirish:*

a) *Agar asosiy vositalar kelib tushgandan darhol foydalanishga topshirilsa:*

Debet 16500 Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i, yoki

Debet 16505 “Tugallanmangan qurilishlar” (agar qayta ta’mirlashni talab qiladigan bino, tugallanmagan qurilish yoki qurilish uchun materiallar sotib olinayotgan bo’lsa)

Kredit 29802 “Tovar - moddiy qimmatliklar va ko’rsatilgan xizmatlar uchun to’lanadigan mablag’lar hisob-kitobi”

b) Asosiy vositalar omborga kirim qilinganda:

Debet 16561 “Ombordagi asosiy vositalar”

Kredit 29802 “Tovar - moddiy qimmatliklar va ko’rsatilgan xizmatlar uchun to’lanadigan mablag’lar hisob-kitobi”

2) Aktivlarning qiymati to’langanda:

Debet 29802 “Tovar - moddiy qimmatliklar va ko’rsatilgan xizmatlar uchun to’lanadigan mablag’lar hisob-kitobi”

Kredit Bankning vakillik hisobvarag’i yoki mijozning hisobvarag’i

3) Asosiy vositalar ombordan foydalanishga topshirilganda:

Debet 16529 Transport vositalari hisobvarag’i

Kredit 16561 “Ombordagi asosiy vositalar”

Asosiy vositalar bepul olinganda quyidagi buxgalteriya o’tkazmasi amalga oshiriladi. Bepul olingan asosiy vositalarning haqiqiy qiymatiga:

Debet 16529 Transport vositalari hisobvarag’i, yoki

Debet 16561 “Ombordagi asosiy vositalar” (agar omborga kirim qilinsa)

Kredit 45994 “Boshqa foizsiz daromadlar”

Asosiy vositalar bepul olinganda quyidagi buxgalteriya o’tkazmasi amalga oshiriladi (Masalan, Mebel jihozlari bo’lsa). Bepul olingan asosiy vositalarning haqiqiy qiymatiga:

Debet 16535 Mebel, moslama va uskunalar, yoki

Debet 16561 “Ombordagi asosiy vositalar” (agar omborga kirim qilinsa)

Kredit 45994 “Boshqa foizsiz daromadlar”

Asosiy vositalar subsidiya yo’li bilan olingan taqdirda, quyidagi buxgalteriya o’tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 16529 Transport vositalari hisobvarag’i,

Kredit 22896 “Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar”

Agar bank undirib olingan mulkdan o’zining asosiy vositasi sifatida foydalanishga qaror qilsa, unda quyidagi buxgalteriya o’tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 16529 Transport vositalari hisobvarag’i

Debet 16799 – Bankning boshqa xususiy mulklari bo’yicha ko’rilishi mumkin bo’lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)

Kredit 16701 Kredit va lizing bo'yicha garov hisobidan undiriladigan mulk

Bank tasarrufidagi barcha asosiy vositalar, uning xo'jalik qaramog'ida yoki operativ boshqaruvida bo'lgan asosiy vositalar, shuningdek, moliyaviy ijara bo'yicha uchinchi tomondan ijaraga olingan mulk, operatsion ijara bo'yicha uchinchi tomonga ijaraga berilgan mulk, foydalanadigan va foydalanilmaydigan mulk, hisobdan chiqarishga tayyorlab qo'yilgan, lekin belgilangan tartibda tegishli aktlar bilan rasmiylashtirilmagan mulk, shuningdek, tugatilmagan qurilish ob'ektlari va o'rnatish uchun mo'ljallangan asbob-uskunalar qayta baholanashi lozim.

Asosiy vositalarni qayta baholash uchun quyidagi usullar qo'llaniladi:

1. Indeks usuli

2. To'g'ridan – to'g'ri qayta baholash usuli

Agar aktivning qayta baholangan qiymati uning balans qiymatidan ortiq bo'lsa, ushbu oshgan summa 30908 “Boshlang'ich qiymatiga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan summasi” hisobvarag'ida quyidagi buxgalteriya yozuvi orqali aks ettiriladi:

a) Debet 16500 Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i

Kredit 30908 “Boshlang'ich qiymatiga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan summasi”

b) qayta baholashgacha bo'lgan va qayta baholangandan keyingi jamg'arilgan eskirish summalari o'rtasidagi farq summasiga:

Debet 30908 “Boshlang'ich qiymatiga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan summasi”

Kredit 16500 Asosiy vositalarning tegishli jamg'arilgan eskirish hisobvarag'i

Qayta baholash natijasida asosiy vositalarning haqiqiy qiymati kamayishi xarajat sifatida hisobga olinadi. Ushbu summa 30908 “Boshlang'ich qiymatiga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan summasi” hisobvarag'ining bevosita tegishli moddasidan hisobdan chiqariladi. Lekin bunda hisobdan chiqarish ushbu asosiy vosita bo'yicha oldingi qayta baholash natijasida hosil bo'lgan miqdor doirasida amalga oshiriladi. Bunda quyidagi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi:

a) qayta baholashgacha bo'lgan va qayta baholangandan keyingi jamg'arilgan eskirish summalari o'rtasidagi farq summasiga:

Debet 16500 Asosiy vositalarning tegishli jamg'arilgan eskirish hisobvarag'i

Kredit 30908 “Boshlang‘ich qiymatiga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan summasi”

b) qayta baholash natijasida aniqlangan aktivning haqiqiy qiymatining kamayish summasiga:

Debet 30908 “Boshlang‘ich qiymatiga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan summasi” (oldingi qayta baholash natijasidagi o‘shish miqdoriga)

Kredit 16500 Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag‘i

v) 30908-hisobvaraqda aks ettirilgan oldingi qayta baholash summasi etarli bo‘lmagan holda, kamayish va oldingi qayta baholash summalari o‘rtasidagi farq summasi xarajat sifatida tan olinadi va 55995 “Boshqa foizsiz xarajatlar” hisobvarag‘ida aks ettiriladi. Bunda quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 55995 “Boshqa foizsiz xarajatlar”

Kredit 16500 Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag‘i

Ombordagi asosiy vositalarni qayta baholash natijasi quyidagi buxgalteriya o‘tkazmalari orqali hisobga olinadi:

1) Tegishli aktivlar bo‘yicha qayta baholashning ijobiy natijasi:

Debet 16561 “Ombordagi asosiy vositalar” - tegishli aktiv

Kredit 30908 “Boshlang‘ich qiymatiga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan summasi”

2) qayta baholash natijasida asosiy vositalar qiymatining kamayish summasi:

Debet 30908 “Boshlang‘ich qiymatiga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan summasi” va/yoki Debet 55995 “Boshqa foizsiz xarajatlar”

Kredit 16561 “Ombordagi asosiy vositalar” - tegishli aktiv

Tegishli davr uchun amortizatsiya ajratmalari bank xarajatlariga quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi orqali o‘tkaziladi:

Debet 56600 Tegishli guruh asosiy vositalarning eskirish xarajatlari

Kredit 16500 Tegishli asosiy vositalarning jamg‘arilgan eskirish hisobvarag‘i

Asosiy vositalar balansdan quyidagi hollarda hisobdan chiqariladi:

1) to‘liq jismoniy yoki ma‘naviy eskirganda;

2) sotilganda;

3) bepul berilganda;

4) fors-major hollarda;

5) kamomad va yo‘qotish aniqlanganda;

Asosiy vositalarni hisobdan chiqarishda ularning qoldiq qiymati quyidagicha aniqlanadi:

1) eskirish summasiga:

Debet 16500 Asosiy vositalarning jamg'arilgan tegishli eskirish hisobvarag'i

Kredit 16500 Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i

2) 30908-hisobvaraqdagi mazkur asosiy vosita ob'ektiga tegishli bo'lgan qoldiq summaga:

Debet 30908 "Boshlang'ich qiymatiga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan summasi"

Kredit 31203 "Taqsimlanmagan foyda" (aktiv-passiv)"

Hisobdan chiqarilayotgan asosiy vositalarni sotishda quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:

1) To'lov xaridor tomonidan asosiy vositalar olingandan keyin amalga oshirilgan taqdirda:

Debet 19909 "Tovar -moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar hisobvarag'i"

Kredit 16500 Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i

2) to'lov kelib tushgandan keyin amalga oshiriladigan buxgalteriya yozuvlari:

a) aktivning sotilish summasiga:

Debet Bankning vakillik hisobvarag'i yoki xaridorning hisobvarag'i

Kredit 29802 "Tovar-moddiy qimmatliklari va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar hisob-kitobi"

b) agar asosiy vositalarning sotilish narxi qoldiq qiymatidan ortiq bo'lsa:

Debet 29802 "Tovar-moddiy qimmatliklari va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar hisob-kitobi"- sof tushum summasiga

Kredit 19909 "Tovar - moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar hisobvarag'i" – qoldiq qiymat

Kredit 45909 "Bank asosiy vositalarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan foyda" - aktivning "sof tushumi" va "qoldiq qiymati" o'rtasidagi farq summa

v) agar asosiy vositalarning sotilish narxi qoldiq qiymatidan kam bo'lsa:

Debet 29802 "Tovar-moddiy qimmatliklari va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar hisob-kitobi" - sof tushum summasiga

Debet 55902 "Bank asosiy vositalarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan ko'rilgan zararlar" - aktivning "sof tushumi" va "qoldiq qiymati" o'rtasidagi

farq summa

Kredit 19909 “Tovar - moddiy qimmatliklar uchun to‘langan mablag‘lar hisobvarag‘i- qoldik qiymat

3) *Oldindan to‘langan holda:*

a) *aktivning sotilish summasiga:*

Debet Bankning vakillik hisobvarag‘i yoki sotib oluvchining hisobvarag‘i

Kredit 29802 “Tovar-moddiy qimmatliklari va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lanadigan mablag‘lar hisob-kitobi”

b) *agar asosiy vositalarning sotilish narxi qoldiq qiymatidan ortiq bo‘lsa:*

Debet 29802 “Tovar-moddiy qimmatliklari va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lanadigan mablag‘lar hisob-kitobi” - sof tushum summasiga

Kredit 45909 “Bank asosiy vositalarini sotish yoki dispoziitsiya qilishdan foyda” - aktivning “sof tushumi” va “qoldiq qiymati” o‘rtasidagi farq summa

Kredit 16500 Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag‘i – qoldiq qiymat

v) *agar asosiy vositalarning sotilish narxi qoldiq qiymatidan kam bo‘lsa:*

Debet 29802 “Tovar-moddiy qimmatliklari va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lanadigan mablag‘lar hisob-kitobi” - sof tushum summasiga

Debet 55902 “Bank asosiy vositalarini sotish yoki dispoziitsiya qilishdan ko‘rilgan zararlar”- aktivning “sof tushumi” va “qoldiq qiymati” o‘rtasidagi farq summaga

Kredit 16500 Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag‘i – qoldiq qiymat

To‘liq jismoniy yoki ma‘naviy eskirish tufayli yaroqsiz holga kelgan asosiy vositalar qiymati, kamomad yoki yo‘qotish aniqlanganda (aybdor shaxslar aniqlanmagan holda), fors-major holatlarda, tekinga berilganda o‘rnatilgan tartibda quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi orqali xarajatga o‘tkaziladi:

qoldiq qiymati summasiga:

Debet 55902 “Bank asosiy vositalarini sotish yoki dispoziitsiya qilishdan ko‘rilgan zararlar”

Kredit 16500 Asosiy vositaning tegishli hisobvarag‘i

Asosiy vositalarni bosh bankdan filialga berishda quyidagi buxgalteriya o‘tkazmalari amalga oshiriladi:

1) *bosh bankda:*

a) Debet 16104 “Bosh bank/filiallar olinadigan mablag‘lar – Tovar-moddiy qimmatliklar - “qayta baholash natijasi”ni ayirgandagi qoldiq qiymat

Debet 30908 “Boshlang‘ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi – qayta baholash natijasi

Debet 16500 Asosiy vositalarning tegishli jamg‘arilgan eskirish hisobvarag‘i

Kredit 16500 Tegishli asosiy vositalar hisobvarag‘i – yalpi balans qiymati

b) agar asosiy vositalar ombordan berilsa:

Debet 16104 “Bosh bank/filiallar olinadigan mablag‘lar – Tovar-moddiy qimmatliklar”– “qayta baholash natijasi”ni ayirgandagi qoldiq qiymat

Debet 30908 “Boshlang‘ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi – qayta baholash natijasi

Debet 16500 Tegishli asosiy vositalarning jamg‘arilgan eskirish summasi

Kredit 16561 “Ombordagi asosiy vositalar”– yalpi balans qiymati

2) filialda (asosiy vositalar qabul qilib olinganda):

a) Debet 16500 Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag‘i – yalpi balans qiymati

Kredit 16500 Asosiy vositalarning tegishli jamg‘arilgan eskirish hisobvarag‘i

Kredit 30908 “Boshlang‘ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi” – qayta baholash natijasi

Kredit 22205 “Bosh bank/filiallarga to‘lanadigan mablag‘lar”-“qayta baholash natijasi”ni ayirgandagi qoldiq qiymat

b) agar asosiy vositalar omborga kirim qilinsa: -

Debet 16561 “Ombordagi asosiy vositalar” – yalpi balans qiymati

Kredit 16500 Asosiy vositalarning jamg‘arilgan tegishli eskirish hisobvarag‘i

Kredit 30908 “Boshlang‘ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi” – qayta baholash natijasi

Kredit 22205 “Bosh bank/filiallarga to‘lanadigan mablag‘lar”-“qayta baholash natijasi”ni ayirgandagi qoldiq qiymat

Asosiy vositalarning amalda mavjudligini va ularning saqlanishini nazorat qilish uchun ular bank tomonidan davriy ravishda, lekin kamida yilda bir marta **inventarizatsiya** qilinadi.

Inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha asosiy vositalar baholangan qiymat bo‘yicha balansga quyidagicha kirim qilinadi:

1) Debet 16500 Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag‘i

Kredit 45994 “Boshqa foizsiz daromadlar”

2) Agar omborga kirim qilinsa:

Debet 16561 “Ombordagi asosiy vositalar”

Kredit 45994 “Boshqa foizsiz daromadlar”

Bank xodimlarining aybi bilan foydalanishga yaroqsiz holga kelgan asosiy vositalar qiymati yoki kamomad aniqlangan holda, quyidagi buxgalteriya yozuvi rasmiylashtiriladi:

1) jang'arilgan eskirish summasiga:

Debet 16500 Asosiy vositalarning tegishli jang'arilgan eskirish hisobvarag'i

Kredit 16500 Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i

2) agar undirilishi lozim bo'lgan summa aktivning qoldik qiymatidan ortiq bo'lsa:

Debet 19908 “Bank xodimlari bilan bo'ladigan hisob-kitoblarda undirib olinishi lozim bo'lgan mablag'lar” – aybdor shaxsdan undirilishi lozim bo'lgan summaga

Kredit 16500 Tegishli asosiy vositaning hisobvarag'i – qoldiq qiymat va/yoki

Kredit 45994 “Boshqa foizsiz daromadlar” - undirilishi lozim bo'lgan summa bilan aktivning qoldik qiymati o'rtasidagi farq summaga

3) agar undirilishi lozim bo'lgan summa aktivning qoldik qiymatidan kam bo'lsa:

Debet 19908 “Bank xodimlari bilan bo'ladigan hisob-kitoblarda undirib olinishi lozim bo'lgan mablag'lar” – undirilishi lozim bo'lgan summa

Debet 55995 “Boshqa foizsiz xarajatlar” - aktivning qoldiq qiymati bilan undirilishi lozim bo'lgan summa o'rtasidagi farq

Kredit 16500 Tegishli asosiy vositaning hisobvarag'i – qoldiq qiymati – qoldik qiymat

4) mablag'lar undirib olinganda:

Debet 10101 “Amaliyot (operatsion) kassadagi naqd pullar” va/yoki

Debet 29803 “Bank xodimlari bilan hisob-kitoblardagi to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lar” (xodimning ish haqidani ushlab qolish)

Kredit 19908 “Bank xodimlari bilan bo'ladigan hisob-kitoblarda undirib olinishi lozim bo'lgan mablag'lar”

Yuqoridagi buxgalteriya o'tkazmalarini aniq misolda ko'rib chiqamiz.

ATB “O'zsanoatqurilishbank” “SAMSUNG” MCHJ bilan 2019 yil 7 avgustda o'zaro shartnoma tuzib, har birining qiymati 5 mln.so'mlik 50 dona kompyuter va 2,5 mln.so'mlik 30 dona printerni oldindan pul to'lash yo'li bilan xarid qildi. Bundan tashqari, AJ «GM UZBEKISTAN» bilan 2019 yil

10 avgustda o'zaro shartnoma tuzib, 5 dona Chevrolet Cobalt avtomobilini har birini 86 mln.somdan hamda 10 dona Chevrolet Damas avtomobilini har birini 66 mln.somdan pulini keyin to'lash shartibi bilan xariq qilgan. 2019 yil 20 avgustda avtomobillarning puli bank tomonidan to'lab berildi. 2019 yil 15 avgustda Bosh bankdan Toshkent shahar mintaqaviy filialiga 10 dona kompyuter va 10 dona printer berilgan. Yuqoridagi AJ «GM UZBEKISTAN» va "SAMSUNG" MCHJlarning asosiy hisobvarag'i ATB "O'zsanoatqurilishbank"da ochilgan.

Topshiriq: 1. Yuqoridagi muomalalarga tegishli buxgalteriya o'tkazmasini bering?

2. Bosh bank tomonidan filialga berilgan asosiy vositalarga 5 yillik to'liq eskirish hisoblang?

Javob

1.1. Dastavval hariq qilingan asosiy vositalar uchun haqni oldindan to'liq to'lash quyidagi buxgalteriya yozuvlari bilan rasmiylashtiriladi:

a) Kompyuterlar uchun haqni oldindan to'liq to'langanda

Debet 19909 "Tovar-moddiy qimmatliklari to'langan mablag'lar hisobvarag'i" - 250000000 (5000000*50)

Kredit 20208 SAMSUNG" MCHJining talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i - 250000000 (5000000*50)

b) Printerlar uchun haqni oldindan to'liq to'langanda

Debet 19909 "Tovar-moddiy qimmatliklari to'langan mablag'lar hisobvarag'i" - 75000000 (2500000*30)

Kredit 20208 SAMSUNG" MCHJining talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i - 75000000 (2500000*30)

1.2. Asosiy vositalarni omborga kirim qilish quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan rasmiylashtiriladi:

a) Kompyuterlar omborga kirim qilinganda

Debet 16561 "Ombordagi asosiy vositalar" - 250000000 (5000000*50)

Kredit 19909 "Tovar-moddiy qimmatliklari to'langan mablag'lar hisobvarag'i" - 250000000 (5000000*50)

b) Printerlar omborga kirim qilinganda

Debet 16561 "Ombordagi asosiy vositalar" - 75000000 (2500000*30)

Kredit 19909 "Tovar-moddiy qimmatliklari to'langan mablag'lar hisobvarag'i" - 75000000 (2500000*30)

1.3. Agar bank to'lovni asosiy aktivlar kirim qilingandan keyin amalga oshirsa, tegishli kirim hujjatlariga asosan quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi

amalgama oshiriladi:

a) Chevrolet Cobalt avtomobili omborga kirim qilinganda

Debet 16561 “Ombordagi asosiy vositalar” - 430000000 (86000000*5)

Kredit 29802 “Tovar - moddiy qimmatliklar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lanadigan mablag‘lar hisob-kitobi” - 430000000 (86000000*5)

b) Chevrolet Damas avtomobili omborga kirim qilinganda

Debet 16561 “Ombordagi asosiy vositalar” - 660000000 (66000000*10)

Kredit 29802 “Tovar - moddiy qimmatliklar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lanadigan mablag‘lar hisob-kitobi” - 660000000 (66000000*10)

1.4. 2019 yil 20 avgustda avtomobillarning puli bank tomonidan to‘lab berilganda quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi amalga oshiriladi:

a) Chevrolet Cobalt avtomobilining puli bank tomonidan to‘langanda

Debet 29802 “Tovar - moddiy qimmatliklar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lanadigan mablag‘lar hisob-kitobi” - 430000000 (86000000*5) 16561 “Ombordagi asosiy vositalar” - 430000000 (86000000*5)

Kredit 20208 AJ «GM UZBEKISTAN»ning talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘i - 430000000 (86000000*5)

b) Chevrolet Damas avtomobilining puli bank tomonidan to‘langanda

Debet 29802 “Tovar - moddiy qimmatliklar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lanadigan mablag‘lar hisob-kitobi” - 660000000 (66000000*10)

Kredit 20208 AJ «GM UZBEKISTAN»ning talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘i - 660000000 (66000000*10)

1.5. Bosh bankdan Toshkent shahar mintaqaviy filialiga kompyuter va printer berilganda quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi amalga oshiriladi:

a) Kompyuterlar chiqim qilinganda

Debet 16104 “Bosh bank/filiallar olinadigan mablag‘lar – Tovar-moddiy qimmatliklar - “qayta baholash natijasi”ni ayirgandagi qoldiq qiymat” - 50000000 (5000000*10)

Kredit 16561 “Ombordagi asosiy vositalar” - 50000000 (5000000*10)

b) Printerlar chiqim qilinganda

Debet 16104 “Bosh bank/filiallar olinadigan mablag‘lar – Tovar-moddiy qimmatliklar - “qayta baholash natijasi”ni ayirgandagi qoldiq qiymat” - 25000000 (2500000*10)

Kredit 16561 “Ombordagi asosiy vositalar” - 25000000 (2500000*10)

2. Bosh bank tomonidan filialga berilgan asosiy vositalarga 5 yillik eskirish hisoblashning 4 xil usuli bor.

1. Teng miqdorda (to‘g‘ri chiziqli) hisoblash usuli

2. Yillar yig'indisi usuli (kumulyativ usul)
3. Kamayadigan qoldiq usuli
4. Bajarilgan ishlar hajmiga mutonasib ravishda eskirishni hisoblash usuli

1. *Teng miqdorda (to'g'ri chiziqli) hisoblash usuli (Kompyuter)*
 boshlang'ich qiymati-5000000 tugatish qiymati-100000 yillik
 amortizatsiya - 20% $YES = (5000000 - 100000) / 5 = 980000$

Yillar	Boshlang'ich qiymati	YES	Jamg'arilgan eskirish	Qoldiq qiymat
1-yil oxirida	5000000	980000	980000	4020000
2-yil oxirida	5000000	980000	1960000	3040000
3-yil oxirida	5000000	980000	2940000	2060000
4-yil oxirida	5000000	980000	3920000	1080000
5-yil oxirida	5000000	980000	4900000	100000

Teng miqdorda (to'g'ri chiziqli) hisoblash usuli (Printer) boshlang'ich
 qiymati-2500000 tugatish qiymati-50000 yillik amortizatsiya - 20%
 $YES = (2500000 - 50000) / 5 = 490000$

Yillar	Boshlang'ich qiymati	YES	Jamg'arilgan eskirish	Qoldiq qiymat
1-yil oxirida	2500000	490000	490000	2010000
2-yil oxirida	2500000	490000	980000	1520000
3-yil oxirida	2500000	490000	1470000	1030000
4-yil oxirida	2500000	490000	1960000	540000
5-yil oxirida	2500000	490000	2450000	50000

2. *Yillar yig'indisi usuli (kumulyativ usul) (Kompyuter)*
 (5 yil) $1+2+3+4+5=15$ tugatish qiymati-100000
 $YES = (5000000 - 100000) * 5 / 15 = 1633333,33$

Yillar	Boshlang'ich qiymati	YES	Jamg'arilgan eskirish	Qoldiq qiymat
1-yil oxirida	5000000	1633333,33	1633333,33	3366666,67
2-yil oxirida	5000000	1306666,67	2940000,01	2059999,99
3-yil oxirida	5000000	980000	3920000,01	1079999,99
4-yil oxirida	5000000	653333,33	4573333,33	426666,67
5-yil oxirida	5000000	326666,67	4900000	100000

Yillar yig'indisi usuli (kumulyativ usul) (Printer)
 boshlang'ich qiymati-2500000 tugatish qiymati-50000
 $YES = (2500000 - 50000) / 5 = 816666,67$

Yillar	Boshlang'ich qiymati	YES	Jamg'arilgan eskirish	Qoldiq qiymat
1-yil oxirida	2500000	816666,67	816666,67	1683333,33
2-yil oxirida	2500000	653333,33	1470000	1030000
3-yil oxirida	2500000	490000	1960000	540000
4-yil oxirida	2500000	326666,67	2286666,67	213333,33
5-yil oxirida	2500000	163333,33	2450000	50000

3. Kamayadigan qoldiq usuli (Kompyuter)

(5 yil -2*20%) tugatish qiymati-100000 $YES = 5000000 * 40\% = 2000000$

Yillar	Boshlang'ich qiymati	YES	Jamg'arilgan eskirish	Qoldiq qiymat
1-yil oxirida	5000000	2000000	2000000	3000000
2-yil oxirida	5000000	1200000	3200000	1800000
3-yil oxirida	5000000	720000	3920000	1080000
4-yil oxirida	5000000	432000	4352000	648000
5-yil oxirida	5000000	548000	4900000	100000

Kamayadigan qoldiq usuli (Printer)

tugatish qiymati-50000 $YES = 2500000 * 40\% = 1000000$

Yillar	Boshlang'ich qiymati	YES	Jamg'arilgan eskirish	Qoldiq qiymat
1-yil oxirida	2500000	1000000	1000000	1500000
2-yil oxirida	2500000	600000	1600000	900000
3-yil oxirida	2500000	360000	1960000	540000
4-yil oxirida	2500000	216000	2176000	324000
5-yil oxirida	2500000	274000	2450000	50000

4. Bajarilgan ishlar hajmiga mutonasib ravishda eskirishni hisoblash usuli.

(Kompyuter) $t = 10800$; Tugatish qiymati-100000;
 $YES = (5000000 - 100000) / 10800 = 453,7$ soat/so'm

Yillar	Boshlang'ich qiymati	Soat	YES	Jamg'arilgan eskirish	Qoldiq qiymat
1-yil oxirida	5000000	2160	979992	979992	4020008
2-yil oxirida	5000000	2000	907400	1887392	3112608

3-yil oxirida	5000000	2160	979992	2867384	2132616
4-yil oxirida	5000000	2180	989066	3856450	1143550
5-yil oxirida	5000000	2300	1043510	4900000	100000

Hozirgi kunda banklarimiz tomonidan asosan, teng miqdorda (to'g'ri chiziqi) hisoblash usulidan foydalanilib kelmoqda.

10.2. Banklarda nomoddiy aktivlar hisobi

Nomoddiy aktivlar - bu nomonetar, identifikatsiya qilinadigan aktivlar bo'lib, moddiy va jism shakliga ega bo'lmagan, foydali xizmat muddati bir yildan ortiq bo'lgan, xamda ulardan bank xizmatlari ko'rsatishda yoki ma'muriy maqsadlar uchun foydalanishga mo'ljallangan aktivlardir.

Nomoddiy aktivlarga patentlar, mualliflik xuquqlari, gudvill (goodwill), savdo markalari, kompyuter dasturiy ta'minotlari, litsenziyalar va shu kabilar tegishlidir.

Tijorat banklarda nomoddiy aktivlarning hisobi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2002 yil 12 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi banklarida nomoddiy aktivlarning buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi 23/8-sonli Nizomiga asosan olib boriladi.

3. *Bankning nomoddiy aktivlari quyidagi usullarda shakllanadi:*

- 1) sotib olish;
- 2) bank ichida ishlab chiqish (yaratish);
- 3) tekinga olish.

Nomoddiy aktivlar qiymatining oldindan to'liq yoki qisman to'lanishi quyidagi buxgalteriya yozuvlari bilan rasmiylashtiriladi:

Debet 19909 "Ko'rsatilgan xizmatlar va tovar-moddiy qimmatliklari uchun to'langan mablag'lar"

Kredit Bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijoz hisobvarag'i *aktivlar kelib tushganda:*

Debet 16601 "Nomoddiy aktivlar"

Kredit 19909 "Ko'rsatilgan xizmatlar va tovar-moddiy qimmatliklari uchun to'langan mablag'lar"

Agar bank nomoddiy aktivlar kelib tushgandan keyin to'lovni amalga oshirsa, quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:

1) *Nomoddiy aktivlar kelib tushganda balansda quyidagicha aks etiriladi:*

Debet 16601 “Nomoddiy aktivlar”

Kredit 29802 “Ko‘rsatilgan xizmatlar va moddiy tovar qimmatliklari uchun to‘lanadigan mablag‘lar hisob-kitobi”

2) *nomoddiy aktivlar qiymati to‘langanda:*

Debet 29802 “Ko‘rsatilgan xizmatlar va moddiy tovar qimmatliklari to‘lanadigan mablag‘lar hisob-kitobi”

Kredit Bankning vakillik hisobvarag‘i yoki mijoz hisobvarag‘i

Nomoddiy aktivlar bepul olinganda quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi rasmiylashtiriladi. Bepul olingan nomoddiy aktivlarning xaqiqiy qiymatiga:

Debet 16601 “Nomoddiy aktivlar”

Kredit 30905 “Tekinga olingan mulklar”

Nomoddiy aktiv balansda dastlabki qiymati bo‘yicha hisobga olingandan keyin, qayta baholash sanasida, agar uning bozor baxosini aniqlash mumkin bo‘lsa, nomoddiy aktiv qayta baxolanadi va qayta baxolanish (tiklanish) qiymati bo‘yicha hisobga olinadi.

Qayta baxolagandan so‘ng nomoddiy aktivlarning qayta baxolangan qiymati ularning balans qiymati va jamg‘arilgan eskirishi bilan taqqoslanadi va o‘rtadagi farq summasiga tegishli buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi.

1) *Agar aktivning qayta baxolangan qiymati uning balans qiymatidan ortiq bo‘lsa, ushbu oshgan summa 30908 “Boshlang‘ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi” hisobvarag‘ida quyidagi buxgalteriya yozuvi orqali aks ettiriladi:*

a) Debet 16601 “Nomoddiy aktivlar”

Kredit 30908 “Boshlang‘ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi”

b) *qayta baholashgacha bo‘lgan va qayta baxolagandan keyingi jamg‘arilgan eskirish summolari o‘rtasidagi farq summasiga:*

Debet 30908 “Boshlang‘ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi”

Kredit 16605 “Nomoddiy aktivlarning yigilgan eskirish summasi (kontr – aktiv)

2) *Agar aktivning qayta baxolagandagi qiymati uning balans qiymatidan kam bo‘lsa, unda aktivning summasi kamayadi va bu kamayish quyidagi buxgalteriya yozuvi bilan rasmiylashtiriladi:*

a) *qayta baholashgacha bo‘lgan va qayta baxolagandan keyingi jamg‘arilgan eskirish o‘rtasidagi farq summasiga:*

Debet 16605 “Nomoddiy aktivlarning yigilgan eskirish summasi (kontr – aktiv)

Kredit 30908 “Boshlang‘ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi”

b) qayta baholash natijasida aniqlangan aktiv qiymatining kamayish summasiga:

Debet 30908 “Boshlang‘ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi” (ilgarigi o‘lish miqdori doirasida)

Kredit 16601 “Nomoddiy aktivlar”

4) Agar 30908 – hisobvaraqdagi Kredit qoldiq (nomoddiy aktivlarning aynan shu toifasiga taalluqli qismi) etarli bo‘lmasa, unda qayta baxolangan aktivning qo‘shimcha kamaygan qiymati quyidagicha hisobga olinadi:

Debet 55995 “Boshqa foizsiz xarajatlar”

Kredit 16601 “Nomoddiy aktivlar”

Qayta baholashning 30908 “Boshlang‘ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi” hisobvarag‘iga qo‘shilgan ijobiy natija, xar oyda 31203 “Taqsimlanmagan foyda” (aktiv-passiv) hisobvarag‘iga bevosita o‘tkazib boriladi. Bunda quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 30908 “Boshlang‘ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi”

Kredit 31203 “Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv)”

Amortizatsiya ajratmalari quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi orqali bank xarajatlariga o‘tkazib boriladi:

Debet 56618 “Nomoddiy aktivlarning eskirish summasi”

Kredit 16605 “Nomoddiy aktivlarning yig‘ilgan eskirish summasi” (kontr-aktiv)

Nomoddiy aktivlar balansdan quyidagi xollarda hisobdan chiqariladi:

1) to‘liq eskirganda;

2) sotilganda;

3) tekin berilganda;

4) fors-major holatlarda.

Nomoddiy aktivlarni hisobdan chiqarishda, qoldiq qiymat quyidagicha aniqlanadi:

1) jamg‘arilgan eskirish summasiga:

Debet 16605 “Nomoddiy aktivlarning yig‘ilgan eskirish summasi” (kontr-aktiv)

Kredit 16601 “Nomoddiy aktivlar”

2) *ushbu nomoddiy aktiv bo'yicha 30908- hisobvaraqda qolgan qoldiq summasiga:*

Debet 30908 “Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi”

Kredit 31203 “Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv)”

Hisobdan chiqarilayotgan nomoddiy aktivlar sotilayotganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

1) *Nomoddiy aktivlar jo'natilgandan keyin xaridor tomonidan to'lov amalga oshirilgan xolda:*

Debet 19909 “Ko'rsatilgan xizmatlar va tovar-moddiy qimmatliklari uchun to'langan mablag'lar”

Kredit 16601 “Nomoddiy aktivlar”.

2) *To'lov kelgandan keyingi buxgalteriya yozuvlari:*

a) *agar nomoddiy aktivlarning sotilish baxosi qoldiq qiymatidan yuqori bo'lsa:*

Debet Bankning vakillik hisobvarag'i yoki xaridor hisobvarag'i

Kredit 19909 “Ko'rsatilgan xizmatlar va tovar-moddiy qimmatliklari uchun to'langan mablag'lar”

Kredit 45917 “Boshqa xususiy mulk/aktivlarni sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foyda”

b) *agar nomoddiy aktivlarning sotilish baxosi qoldiq qiymatidan kam bo'lsa:*

Debet Bankning vakillik hisobvarag'i yoki xaridor hisobvarag'i

Debet 55906 “Bankning boshqa xususiy mulklarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan ko'rilgan zararlar”

Kredit 19909 “Ko'rsatilgan xizmatlar va tovar-moddiy qimmatliklari uchun to'langan mablag'lar”

3) *To'lov oldindan amalga oshirilgan xolda:*

Debet Bankning vakillik hisobvarag'i yoki xaridor hisobvarag'i

Kredit 29802 “Ko'rsatilgan xizmatlar va moddiy tovar qimmatliklari uchun to'lanadigan mablag'lar hisob-kitobi” va bir vaqtning o'zida:

a) *agar nomoddiy aktivlarning sotilish baxosi qoldiq qiymatidan ortiq bo'lsa:*

Debet 29802 “Ko'rsatilgan xizmatlar va moddiy tovar qimmatliklari uchun to'lanadigan mablag'lar hisob-kitobi”

Kredit 45917 “Boshqa xususiy mulk/aktivlarni sotish yoki dispozitsiya

qilishdanolingan foyda”

Kredit 16601 “Nomoddiy aktivlar”

b) agar nomoddiy aktivlarning sotilish baxosi qoldiq qiymatidan kam bo'lsa:

Debet 29802 “Ko‘rsatilgan xizmatlar va moddiy tovar qimmatliklari uchun to‘lanadigan mablag‘lar hisob-kitobi”

Debet 55906 “Bankning boshqa xususiy mulklarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan ko‘rilgan zararlar”

Kredit 16601 “Nomoddiy aktivlar”

Nomoddiy aktivlarning qiymati to‘liq eskirish, fors-major holatlar bilan bog‘liq bo‘lganda, bepul berilganda belgilangan tartibda zarar sifatida hisobdan chiqariladi va quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi bilan rasmiylashtiriladi:

qoldiq (likvidatsiya) qiymati summasiga:

Debet 55906 “Bankning boshqa xususiy mulklarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan ko‘rilgan zararlar”

Kredit 16601 “Nomoddiy aktivlar”

10.3. Tijorat banklarida kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hisobi

Kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hisobi Markaziy bankining 2005 yil 11 iyundagi 13/5-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi banklarida kam baholiva tez eskiruvchi buyumlarning buxgalteriya hisobini yuritish to‘g‘risida»gi Nizom asosida amalga oshiriladi.

Kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar (KBTEB) - bu bank faoliyatida foydalaniladigan va quyidagi mezonlardan birortasiga javob bera oladigan moddiy aktivlardir:

a) xizmat muddati bir yildan ortiq bo‘lmagan;

b) xizmat muddatidan qat‘iy nazar, bir donasi (komplekti) narxi O‘zbekiston Respublikasida o‘rnatilgan (sotib olish vaqtidagi) eng kam ish haqining ellik baravarigacha qiymatga ega bo‘lgan buyumlardir. Bank rahbari buyumlarning KBTEB tarkibidagi hisobini olib borish uchun hisobot yiliga buyumlar qiymatining quyi chegarasini o‘rnatishi mumkin.

Kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar qiymatini oldindan to‘lab berish orqali sotib olishda quyidagi provodkalar bajariladi.

Debet 19909 – «Ko‘rsatilgan xizmatlar va tovar-moddiy boyliklar uchun

to‘langan mablag‘lar»

Kredit 10301 yoki 16103 – «Bankning vakillik hisobvaraqlari» yoki

Kredit 20208, 20210 – «Mijozning hisobvarag‘i».

Kam baholi va tez eskiruvchi buyumlarning o‘zi omborxonaga qabul qilinadi, bu operatsiya quyidagi provodka orqali rasmiylashtiriladi:

Debet 19921 – «Omborxonadagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar»

Kredit 19909 – «Ko‘rsatilgan xizmatlar va tovar-moddiy boylıklar uchun to‘langan mablag‘lar»

Agar dastlab buyumlar omborxonaga kelib tushib, to‘lov keyin amalga oshirilsa, bu operatsiya quyidagicha hisobga olinadi:

Debet 19921 – «Omborxonadagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar»

Kredit 29802 – «Ko‘rsatilgan xizmatlar va tovar-moddiy qiymatliklar uchun to‘langan mablag‘lar»

Kam baholi va tez eskiruvchi buyumlarning qiymati to‘langanda:

Debet 29802 – «Ko‘rsatilgan xizmatlar va tovar-moddiy qiymatliklar uchun to‘langan mablag‘lar»

Kredit 10301, 16301 – «Bankning vakillik hisobvarag‘i» yoki

Kredit 20208, 20210 – «Mijozning hisobvarag‘i».

Kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar omborxonada foydalanishga berilganda, sotilganda, foydalanishga yaroqsiz holga kelganda hisobdan chiqariladi. Kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar foydalanishga berilganda quyidagi provodka bilan rasmiylashtiriladi:

Debet 56406 – «Devonxona, ofis va boshqa buyumlar xarajatlari».

Kredit 19921 – «Omborxonadagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar»

KBTEB qiymatini oldindan to‘lab berish bilan sotib olish:

1) KBTEB ni oldindan to‘liq yoki qisman to‘lanishi quyidagi buxgalteriya yozuvlari bilan rasmiylashtiriladi:

Debet 19909 “Tovar-moddiy qiymatliklar uchun to‘langan mablag‘lar”

Kredit - Bankning vakillik hisobvarag‘i yoki mijozning talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘i (agar mol etkazib beruvchining talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘iga shu bankda xizmat ko‘rsatilsa)

2) KBTEB omborxonaga sotib olinganligini tasdiqlovchi birlamchi hujjatlar asosida kirim qilinib, quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi bilan rasmiylashtiriladi:

Debet 19921 “Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qiymatliklar”

Kredit 19909 “Tovar-moddiy qiymatliklar uchun to‘langan mablag‘lar”

Agar to'lov KBTEB kelib tushgandan keyin amalga oshirilsa, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

1) KBTEB kelib tushganda:

Debet 19921 "Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar"

Kredit 29802 "Tovar-moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar"

2) KBTEB qiymati to'langanda:

Debet 29802 "Tovar-moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar"

Kredit - "Bank vakillik hisobvarag'i yoki mijozning talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i" (agar mol etkazib beruvchining talab qilib olinguncha bo'lgan depozit hisobvarag'iga shu bankda xizmat ko'rsatilsa)

KBTEB Bosh bank/filialdan filiallar/bosh bankka berilganda shu kungi bank hujjatlariga moddiy javobgar shaxsga tegishli filial/bosh bank tomonidan (belgilangan tartibda) berilgan talabnoma va ishonchnoma tikib bo'yiladi va quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 16104 "Bosh bank/filiallardan olinadigan mablag'lar - Tovar moddiy qimmatliklar"

Kredit 19921 "Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar"

KBTEB Bosh bankdan filialga qabul qilinganda boshlanjich hujjatlar (yuk xatlari) asosida quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 19921 "Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar"

Kredit 22205 "Bosh bank /filiallarga to'lanadigan mablag'lar - Tovar moddiy qimmatliklar"

Omborga qabul qilingan KBTEB da biror bir nomuvofiqlik yoki nuqson topilganda, yukni etkazib bergan tashkilot vakillari ishtirokida dalolatnoma tuziladi va da'vo bildiriladi. Dalolatnomaning uchinchi nusxasi bildirilgan da'vo bilan mol etkazib beruvchiga yuboriladi.

1) Bank da'vosi mol etkazib beruvchi tomonidan qabul qilinganda yoki sud tomonidan tegishli qaror chiqarilganda omborga kirim qilingan KBTEB ni mol etkazib beruvchiga qaytarish quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan amalga oshiriladi:

Debet 19909 "Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar"

Kredit 19921 "Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda

boshqa qimmatliklar”

2) *Qaytarilgan mablag'larni qayta yozuv bilan vakillik hisobvarag'iga o'tkazish:*

Debet Bankning vakillik hisobvarag'i

Kredit 19909 “Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar”

Bankka kelayotgan moddiy boyliklar ularning saqlanishiga javobgar bo'lgan omborxonada mudiri (omborchi) yoki bank boshlijining buyrujiga asosan tayinlangan boshqa xodim tomonidan qabul qilinadi. Javobgar shaxs - omborchi yoki boshqa xodim tomonidan bankka qabul qilinayotgan barcha KBTEB bo'yicha raqamlangan, tikilgan va boshqaruvchi hamda bosh buxgalterning imzosi va bankning dumaloq muxr izi bilan tasdiqlangan jurnalda alohida maxsus tizimdan tashqari hisob yuritiladi.

Ombordan KBTEB quyidagi hollarda hisobdan chiqariladi:

1) foydalanishga berilganda;

2) sotilganda;

3) bepul (tekinga) berilganda;

4) kamomad aniqlanganda va foydalanish uchun yaroqsiz bo'lganda;

5) fors-major holatlarda.

KBTEB ni foydalanishga berish quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan rasmiylashtiriladi:

Debet 56406 “Devonxonada, ofis va boshqa buyumlar xarajatlari”

Kredit 19921 “Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar”

Bank ortiqcha KBTEB ni sotganda (KBTEB shartnomada kelishilgan narxlarda sotiladi) quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:

1) *KBTEB ni sotish summasiga:*

Debet Bankning vakillik hisobvarag'i yoki sotib oluvchining talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i, agar sotib oluvchiga shu bankda xizmat ko'rsatilsa.

Kredit 29802 “Tovar-moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar”

2) *KBTEB bank uchun foyda yoki zararsiz sotilganda:*

Debet 29802 “Tovar-moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar” sof tushum summasiga

Kredit 19921 “Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar”

3) *KBTEB foyda bilan sotilganda:*

Debet 29802 “Ko‘rsatilgan xizmatlar va moddiy tovar qimmatliklari uchun to‘lanadigan mablag‘lar” - sof tushum summasiga

Kredit 19921 “Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar”

Kredit 45913 “Bankning boshqa xususiy mulklarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foyda” - “sof tushum” va balans qiymati o‘rtasidagi farq summasiga

4) KBTEB zarar bilan sotilganda:

Debet 29802 “Ko‘rsatilgan xizmatlar va moddiy tovar qimmatliklari uchun to‘lanadigan mablag‘lar” - sof tushum summasiga

Debet 55906 “Bankning boshqa xususiy mulklarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan ko‘rilgan zararlar” - “sof tushum” va balans qiymati o‘rtasidagi farq summasiga

Kredit 19921 “Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar”

Kamomad chiqqan, yaroqsiz holga kelgan (aybdor shaxslar aniqlanmagan holda), tekinga berilgan, shuningdek, fors-major holatlarda KBTEB ning qiymati, bank tomonidan belgilangan tartibda, zararga chiqariladi va quyidagi buxgalteriya yozuvi bilan rasmiylashtiriladi:

Debet 56795 “Boshqa operatsion xarajatlari”

Kredit 19921 “Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar”

KBTEB ning kamomadi, shuningdek, aybdor shaxs aybi bilan yaroqsiz holga kelgan (aybdor shaxs aniqlanganda) KBTEB ning qiymati inventarizatsiya komissiyasining boshliji va a‘zolari, moddiy javobgar shaxs (ombor mudiri) tomonidan imzolangan akt bilan rasmiylashtiriladi va moddiy-javobgar shaxslardan belgilangan tartibda undirib olinadi hamda quyidagi buxgalteriya yozuvi orqali rasmiylashtiriladi:

Debet 19908 “Bank xodimlari bilan bo‘ladigan hisob-kitoblarda undirib olinishi lozim bo‘lgan mablag‘lar”

Kredit 19921 “Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar”

Aybdor xodimlarning ish haqidan undirib olinganda quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 29803 “Bank xodimlari bilan hisob-kitoblardagi to‘lanishi lozim bo‘lgan mablag‘lar”

Kredit 19908 “Bank xodimlari bilan bo‘ladigan hisob-kitoblarda undirib

olinishi lozim bo'lgan mablag'lar”

Belgilangan tartibda bank xodimidan kassa orqali undirib olinganda:

Debet 10101 “Amaliyot (operatsion) kassadagi naqd pullar”

Kredit 19908 “Bank xodimlari bilan bo'ladigan hisob-kitoblarda undirib olinishi lozim bo'lgan mablag'lar”

Agar inventarizatsiya paytida omborda hisobda bo'lmagan buyumlar aniqlansa, ular inventarizatsiya komissiyasi tomonidan bozor narxida baholanib, belgi langan tartibda omborga kirim qilinadi. Bunda qo'yidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 19921 “Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar”

Kredit 45994 “Boshqa foizsiz daromadlar”

Ombor mudiri (omborch'i) ishdan bo'shashi, boshqa ishga o'tkazilishi, mehnat ta'tiliga ketishi yoki bemorligi tufayli almashtirilgan taqdirda, bank rahbarining buyruji bilan xodimlar tarkibidagi hay'at tomonidan topshiruvchi va qabul qiluvchi xodimlar ishtirokida omborda to'liq inventarizatsiya o'tkaziladi hamda majburiy ravishda qabul qilish-topshirish dalolatnomasi tuziladi. Buni quyidagi misolda ko'rib chiqamiz

ATB “Kapitalbank” mart oyida quyidagi kam baholi tez eskiruvchi buyumlarni xarid qilib, foydalanishga bergan:

1. 3-martda 20 pochka qog'oz- har biri 30 ming so'mdan, va “delo” papkasi 100 ta 1200 so'mdan xarid qilindi.

2. 7-martda 10 ta pochka qog'oz 34 ming so'mdan 50 dona “delo” papkasi 1500 so'mdan

3. 10-martda 40 pochka qog'oz 29 ming so'mdan, 200 dona “delo” papka 1100 somdan omborga kirim qilindi.

4. 11-martda 25 pochka qog'oz, 150 dona “delo” papka foydalanishga berildi.

5. 24-martda 30 pochka qog'oz, 200 dona “delo” foydalanishga berildi.

Oyning oxirida inventarizatsiya qilinishi natijasida 3 pochka qog'oz kamligi aniqlandi. 1 pochka qog'oz tabiiy sabab bilan yo'qolgan (fors-major).

Qolganlariga ombor mudiri javobgarligi belgilandi.

Kam baholi tez eskiruvchi buyumlarni FIFO usulida hisobini keltiring va ombordagi qoldiqni aniqlang.

Kamomadga buxgalteriya provodkasini bering.

Kam baholi tez eskiruvchi buyumlarni FIFO usulida hisobi

Sana	Xarid			Ishlatilish			Qoldiq		
	1 dona narxi	Dona	Summa	1 dona narxi	Dona	Summa	1 dona narxi	Dona	Summa
3.03	30000	20	600000						
	1200	100	120000						
7.03	34000	10	340000						
	1500	50	75000						
10.03	29000	40	1160000						
	1100	200	220000						
11.03				30000	20	600000			
				34000	5	170000	34000	5	170000
				1200	100	120000			
				1500	50	75000			
24.03				34000	5	170000			
				29000	25	725000	29000	15	435000
				1100	200	220000			
31.03			29000	3	87000	29000	12	348000	

ATB "Kapitalbank" 2020 yil 3 martda 20 pochka qog'ozni har birini 30 ming so'mdan va "delo" papkasi 100 tasini har birini 1200 so'mdan xarid qilindi.

a) 20 pochka qog'oz xarid qilinganda

Debet 19909 "Tovar-moddiy qimmatliklari to'langan mablag'lar hisobvarag'i" - 600000 (30000*20)

Kredit 10301 «Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i - Nostro» - 600000 (30000*20)

b) "delo" papkasi xarid qilinganda

Debet 19909 "Tovar-moddiy qimmatliklari to'langan mablag'lar hisobvarag'i" - 120000 (1200*100)

Kredit 10301 «Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i - Nostro» - 120000 (1200*100)

Hard qilingan Kam baholi tez eskiruvchi buyumlar omborga kirim qilinganda.

a) 20 pochka qog'oz omborga kirim qilinganda

Debet 19921 "Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar"- 600000 (30000*20)

Kredit 19909 "Tovar-moddiy qimmatliklari to'langan mablag'lar

hisobvarag‘i” - 600000 (30000*20)

b) *“delo” papkasi omborga kirim qilinganda*

Debet 19921 “Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar” - 120000 (1200*100)

Kredit 19909 “Tovar-moddiy qimmatliklari to‘langan mablag‘lar hisobvarag‘i” - 120000 (1200*100)

2020 yil 7-martda 10 pochka qog‘ozni har birini 34 ming so‘mdan va “delo” papkasi 50 tasini har birini 1500 so‘mdan xarid qilindi.

a) *10 pochka qog‘oz xarid qilinganda*

Debet 19909 “Tovar-moddiy qimmatliklari to‘langan mablag‘lar hisobvarag‘i” - 340000 (34000*10)

Kredit 10301 «Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag‘i - Nostro» - 340000 (34000*10)

b) *“delo” papkasi xarid qilinganda*

Debet 19909 “Tovar-moddiy qimmatliklari to‘langan mablag‘lar hisobvarag‘i” - 75000 (1500*50)

Kredit 10301 «Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag‘i - Nostro» - 75000 (1500*50)

Hard qilingan Kam baholi tez eskiruvchi buyumlar omborga kirim qilinganda.

a) *10 pochka qog‘oz omborga kirim qilinganda*

Debet 19921 “Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar” - 340000 (34000*10)

Kredit 19909 “Tovar-moddiy qimmatliklari to‘langan mablag‘lar hisobvarag‘i” - 340000 (34000*10)

b) *“delo” papkasi omborga kirim qilinganda*

Debet 19921 “Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar” - 75000 (1500*50)

Kredit 19909 “Tovar-moddiy qimmatliklari to‘langan mablag‘lar hisobvarag‘i” - 75000 (1500*50)

2020 yil 10-martda 40 pochka qog‘ozni har birini 29 ming so‘mdan va “delo” papkasi 200 tasini har birini 1100 so‘mdan xarid qilindi.

a) *40 pochka qog‘oz xarid qilinganda*

Debet 19909 “Tovar-moddiy qimmatliklari to‘langan mablag‘lar hisobvarag‘i” - 1160000 (29000*40)

Kredit 10301 «Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag‘i - Nostro» - 340000 1160000 (29000*40)

b) "delo" papkasi xarid qilingandu

Debet 19909 "Tovar-moddiy qimmatliklari to'langan mablag'lar hisobvarag'i" - 220000 (1100*200)

Kredit 10301 «Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i - Nostro» - 220000 (1100*200)

Hard qilingan Kam baholi tez eskiruvchi buyumlar omborga kirim qilinganda.

a) 40 pochka qog'oz omborga kirim qilinganda

Debet 19921 "Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar"- 1160000 (29000*40)

Kredit 19909 "Tovar-moddiy qimmatliklari to'langan mablag'lar hisobvarag'i" - 1160000 (29000*40)

b) "delo" papkasi omborga kirim qilinganda

Debet 19921 "Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar" - 220000 (1100*200)

Kredit 19909 "Tovar-moddiy qimmatliklari to'langan mablag'lar hisobvarag'i" - 220000 (1100*200)

2020 yil 11-martda esa 25 pochka qog'oz, 150 dona "delo" papkasi foydalanishga berildi.

a) 25 pochka qog'oz foydalanishga berilganda

Debet 56406 "Devonxonona, ofis va boshqa buyumlar xarajatlari"- 770000 (30000*20+ 34000*5)

Kredit 19921 "Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar"- 770000 (30000*20+ 34000*5)

b) 150 ta "delo" papkasi foydalanishga berilganda

Debet 56406 "Devonxonona, ofis va boshqa buyumlar xarajatlari" – 195000 (1200*100 + 1500*50)

Kredit 19921 "Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar"- 195000 (1200*100 + 1500*50)

2020 yil 24-martda esa 30 pochka qog'oz, 200 dona "delo" papkasi foydalanishga berildi.

a) 30 pochka qog'oz foydalanishga berilganda

Debet 56406 "Devonxonona, ofis va boshqa buyumlar xarajatlari"- 895000 (34000*5 + 29000*25)

Kredit 19921 "Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar"- 895000 (34000*5 + 29000*25)

b) 200 ta "delo" papkasi foydalanishga berilganda

Debet 56406 “Devonxona, ofis va boshqa buyumlar xarajatlari” – 220000 (1100*200)

Kredit 19921 “Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar”- 220000 (1100*200)

For-major uchun quyidagi buxgalteriya yozuvi bilan rasmiylashtiriladi:

Debet 56795 “Boshqa operatsion xarajatlari” -29000

Kredit 19921 “Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar”- 29000

Kamomad bankning ombor mudiridan belgilangan tartibda undirib olinadi hamda quyidagi buxgalteriya yozuvi orqali rasmiylashtiriladi:

Debet 19908 “Bank xodimlari bilan bo‘ladigan hisob-kitoblarda undirib olinishi lozim bo‘lgan mablag‘lar” - 58000 (29000*2)

Kredit 19921 “Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar” - 58000 (29000*2)

Belgilangan tartibda bankning ombor mudiridan kassa orqali undirib olinganda:

Debet 10101 “Amaliyot (operatsion) kassadagi naqd pullar” - 58000 (29000*2)

Kredit 19908 “Bank xodimlari bilan bo‘ladigan hisob-kitoblarda undirib olinishi lozim bo‘lgan mablag‘lar” - 58000 (29000*2)

Demak bankning omborida 12 pochka qog‘oz qolgan bo‘lib, uning qiymati 348 ming so‘mni tashkil etgan.

Nazorat savollari va topshiriqlar.

1. Bank asosiy vositasi deganda nimani tushunasiz?
2. Bank asosiy vositalarini kirim qilish qanday amalga oshiriladi?
3. Bankda asosiy vositalarni qayta baholashda qanday usullardan foydalaniladi?
4. Bankning kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar deganda nima tushiniladi va ularga qanday buyumlar kiradi?
5. Nomoddiy aktiv deganda nimani tushunasiz?
6. Banklarda nomoddiy aktivlarga necha xil usulda amortizatsiya hisoblanadi?
7. Nomoddiy aktivlar tarkibiga nimalar kiradi?
8. Gudvill deganda nimani tushunasiz?
9. Banklarda nomoddiy aktivni balansga kirim qilinishini tushuntiring?
10. Bank nomoddiy aktivni sotib oldi. Ular uchun oldindan to‘lov va

balansga kirim qilingan bo'yicha buxgalteriya yozuvini bering?

11. Banklarda nomoddiy aktivlar hisobvaraqlar rejasining qanday hisobvarag'ida hisobga olinadi?

12. Tijorat banki sotib olgan nomoddiy aktiv (aktsiya yoki umuman qimmatli qog'oz) bo'yicha foizli daromad hisoblansa qanday buxgalteriya provodkasi beriladi?

13. Nomoddiy aktivlar kelib tushgandan keyin to'lov amalga oshirilsa qanday buxgalteriya provodkasi beriladi?

14. Tekinga yoki hadyaga olingan nomoddiy aktivlar balansga kirim qilinganda qanday buxgalteriya provodkasi beriladi?

X bob bo'yicha masala va mashqlar

1-masala.

Quyidagi jadvalda Aloqa bank balansida hisobga olingan asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati va eskirish summaları keltirilgan;

(ming so'mda)

Asosiy vositalarning nomi	Boshlang'ich qiymati	Eskirish summasi
1. Bank binosi	2464581,0	225700,0
2. Transport vositalari	1468254,0	458987,0
3. Mebel va jixozlar	3468790,0	880456,0
4. Ijaraga berilgan asosiy vositalar	480000,0	80100,0

Topshiriqlar:

1. Jadvalda keltirilgan asosiy vositalar qanday balans hisobvaraqlarida hisobga olinishini aniqlang;

2. Asosiy vositalarning qoldiq qiymatini toping;

3. Asosiy vositalarning analitik hisobini tartibini aytib bering.

2-masala.

«Agrobank» tijorat banki qiymati 525 mln. so'mlik ta'mirlashga muxtoj bo'lgan binoni sotib oldi. Bino ta'mirlashga topshirildi va ta'mirlash bilan bog'liq xarajatlar, loyixa tadqiqot ishlari, mehnat va qurilish materiallari qiymati 120 mln. so'mni tashkil etdi. Tamirlash ishlari tugagandan so'ng bino foydalanishga topshirildi.

Topshiriqlar:

1. Binoning balans qiymatini aniqlang;
2. Buxgalteriya o'tkazmalarini tuzing.

3-masala.

Tijorat banki boshlang'ich qiymati 120 mln. so'm bo'lgan «Lasetti» avtomobili sotib oldi. Shartnomaga asosan to'lov bank tomonidan oldindan amalga oshirildi. Bundan tashqari, bank avtomobilni tugatish qiymatini 12 mln.so'm qilib belgiladi.

Topshiriqlar:

1. Bank tomonidan sotib olingan avtomobilni kirim qilish tartibini va uni hisobini bering.
2. Bank tomonidan sotib olingan avtomobil eskirishi (amortizatsiya)ning barcha usullaridan foydalanib, yillik va oylik eskirish summalarini aniqlang;
3. Buxgalteriya o'tkazmasini bering;

4-masala.

Tijorat banki arzon baholi va tez eskiruvchan buyumlar kelib tushgandan so'ng kirim hujjatlariga asosan ABTEB bosh bosh bank tomonidan bankning filialiga berildi.

Topshiriqlar:

1. ABTEB larning sotib olish bilan bog'lik buxgalteriya o'tkazmalarini tuzing;
2. Bosh bankda va uning filialida ABTEB larini berish bo'yicha buxgalteriya o'tkazmalarini tuzing.

5- masala.

Tijorat banki tomonidan qabul qilish dalolatnomasiga asosan 104000000 so'mlik nomoddiy aktivlar kirim qilingandan so'ng, ularning qiymati sotuvchi tashkilotga to'lab berildi. Bir yil foydalanish davomida yillik 20% miqdorida eskirish hisoblandi va boshqa bankga 7500000 so'mga sotib yuborildi.

Topshiriqlar:

1. Amortizatsiya summasini aniqlang.
2. Buxgalteriya o'tkazmalarini tuzing.
3. Nomoddiy aktivni sotishdan ko'rilgan moliyaviy natijani aniqlang.

6- masala.

«Asaka» tijorat banki «Sony» xususiy firmasidan xar biri 6000000 so'mlik 5 ta kompyuter va 3 mln. so'mlik 10 ta «Canon» printerlarini sotib oldi. (mijozga shu bankda xizmat ko'rsatiladi). 4 dona printer va 4 dona

kompyuter foydalanishga topshirildi. Dalolatnomaga asosan kompyuterni oʻrnatish va ishchi holatiga keltirish bilan bogʻliq xarajatlar 400000 soʻmni tashkil etdi. Kompyuterga amortizatsiya yillar yigʻindisi usulidan foydalangan holda, printerga esa toʻgʻri chiziqli amortizatsiya hisoblash usulidan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Topshiriqlar:

1. Kompyuterni balans qiymatini aniqlang;
2. Amotizatsiya hisoblash usullari boʻyicha yillik va oylik amortizatsiya summalarini aniqlang.
3. Buxgalteriya oʻtkazmalarini tuzing.

Testlar

1. Bank omboridan KBTEB foydalanishga berildi:

- a. Debet-56406; Kredit-19921;
- b. Debet-19921; Kredit-56406;
- c. Debet-19903; Kredit-56406;
- d. Debet-19921; Kredit-16103.

2. Asosiy vositalar qanday hisobvaraqlarda hisobga olinadi?

- a. Aktiv hisobvaraqlarda;
- b. Passiv hisobvaraqlarda;
- c. Aktiv-passiv hisobvaraqlarda;
- d. Balansdan tashqari hisobvaraqlarda.

3. Banklarda nomoddiy aktivlar hisobvaraqlar rejasining qanday hisobvaragʻida hisobga olinadi?

- a. Aktiv hisobvaragʻida
- b. Passiv hisobvaragʻida
- c. Majburiyat hisobvaragʻida
- d. Daromad hisobvaragʻida

4. KBTEB qanday hisobvaraqlarda hisobga olinadi?

- a. Aktiv hisobvaraqlarda.
- b. Passiv hisobvaraqlarda.
- c. Aktiv-passiv hisobvaraqlarda.
- d. Balansdan tashqari hisobvaraqlarda.

5. Ipoteka banki «Alp-Jamol» firmasidan xar biri 455600 soʻmlik 2 ta kompyuter va 9 mln. soʻmlik «Neksiya» avtomobilini sotib oldi (mijozga shu bankda xizmat koʻrsatiladi). Avtomobil va 2 dona kompyuter foydalanishga topshirildi. Dalolatnomaga asosan 2 ta kompyuterni

oʻrnatish va ishchi xolatiga keltirish bilan bogʻliq xarajatlar 15000 soʻmni tashkil etdi. Asosiy vositalarning balans qiymatini aniklang.

a. 1-kompyuter -463100 soʻm 2-kompyuter – 463100 soʻm«Neksiya» avtomobili – 9000000 soʻm

b. 1-kompyuter -455600 soʻm 2-kompyuter – 455600 soʻm«Neksiya» avtomobili – 9000000 soʻm

c. 1-kompyuter -455600 soʻm 2-kompyuter – 470600 soʻm«Neksiya» avtomobili – 9000000 soʻm

d. 1-kompyuter -455600 soʻm 2-kompyuter – 455600 soʻm«Neksiya» avtomobili – 9015000 soʻm

6. Tijorat banki boshlangʻich qiymati 9 mln. soʻm boʻlgan «Neksiya» avtomobili uchun yillik 20 foiz miqdorida birinchi oy uchun toʻgʻri chiziqli amortizatsiya hisoblash usulidan foydalangan holda eskirish (amortizatsiya) summasini hisobladi. eskirish (amortizatsiya) summasini aniklang.

a. 150000 soʻm

b. 300000 soʻm

c. 450000 soʻm

d. 120000 soʻm

7. «Savdogar» banki qiymati 25 mln. soʻmlik taʼmirlashga muxtoj boʻlgan binoni sotib oldi. Bino taʼmirlashga topshirildi va taʼmirlash bilan bogʻliq xarajatlar, loyixa tadqiqot ishlari, mehnat va qurilish materiallari qiymati 5 mln. soʻmni tashkil etdi. Tamirlash ishlari tugagandan soʻng bino foydalanishga topshirildi. Binoning balans qiymatini aniqlang.

a. 30 mln. soʻm c. 5 mln. soʻm

b. 25 mln. soʻm d. 20 mln. Soʻm

8. Asosiy vositalarga qanday usullardan foydalangan holda amortizatsiya hisoblanadi?

a. toʻgʻri chiziqli, bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda, tezlashtirilgan amortizatsiya hisoblash usullari;

b. toʻgʻri chiziqli amortizatsiya hisoblash usuli;

c. toʻgʻri chiziqli, tezlashtirilgan amortizatsiya hisoblash usullari;

d. bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda, tezlashtirilgan amortizatsiya hisoblash usullari;

9. Banklarda nomoddiy aktivlar hisobvaraqlar rejasining qanday hisobvaragʻida hisobga olinadi?

- a. aktiv hisobvarag'ida
- b. passiv hisobvarag'ida
- c. majburiyat hisobvarag'ida
- d. daromad hisobvarag'ida

10. Bank aktiv hisobvaraqlarida ko'payish hisobvaraqlarning qanday tomonida aks ettiriladi?

- a. debetda
- b. kreditda
- c. aktivda
- d. aktiv va passivda

11. Banklarda nomoddiy aktivlar hisobi qaysi hisobvaraqlarda yuritiladi?

- a. 15600 c. 16600
- b. 16500 d. 16100

12. Nomoddiy aktivlarga qanday usulda amortizatsiya hisoblanadi?

- a. bir turdagi (tekisliklar) hisoblash usuli
- b. amortizatsiya usuli bajarilgan ishlarning hajmiga mutanosib
- c. balansni kamaytirish usuli
- d. hammasi

13. Nomoddiy aktivlar balansga kirim qilinganda qanday buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi?

- a. D-t 19909 k-t 10101
- b. D-t 19909 k-t 16601
- c. D-t 16601 k-t 19909
- d. D-t 16601 k-t 29802

14. Agar nomoddiy aktivlar tekinga olinganda qanday buxgalteriya provodkasi beriladi?

- a. D-t 29802 k-t 10301
- b. D-t 16601 k-t 30905
- c. D-t 19909 k-t 16601
- d. D-t 30905 k-t 16601

15. Banklarda nomoddiy aktivlar qaysi usulda shakllantiriladi?


- a. sotib olinganda
- b. tekinga olinganda
- c. bank ichida yaratilganda
- d. hammasi

XI BOB. TIJORAT BANKLARI DAROMAD VA XARAJATLARI HISOBI

Tayanch so‘z va iboralar. Sof foyda, bank daromadi, daromad manbalari, bank xarajati, komission to‘lovlar, foyda, operatsion xarajatlar, sug‘urta va soliqlar xarajatlari, foizli daromadlar, foizsiz daromadlar, foizli xarajatlar, taqsimlanmagan foyda.


11.1. Tijorat bank daromadlari va ularning hisobi

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)da «Daromadlar – bu bankning odatdagi faoliyati natijasi sifatida iqtisodiy resurslarning yoxud aktivlarning oqib kelishi yoki o‘shish yo‘li orqali, yoxud majburiyatlarning qisqarishi yo‘li orqali o‘shidir» deb ta’riflaydi. Tijorat banklarining yangi qabul qilingan buxgalteriya hisobvaraqlar rejasini qarab chiqadigan bo‘lsak bu erda daromadlar quyidagicha tasniflanadi.



9-rasm. Tijorat banklarida daromadlarning tarkiblanishi.

Hisobvaraqlar rejasidagi “Daromadlar” bo‘limidagi hisobvaraqlar bank ichki hisobvaraqlari hisoblanadi. Shuning uchun tijorat banklari Markaziy bank talablari va ichki hisob siyosatidan kelib chiqqan holda ushbu hisobvaraqlarda analitik hisobni qanday yuritishni o‘zlari belgilaydilar.



10-rasm. Tijorat banklarining foizli daromadlariga tegishli hisobvaraqlar.

Tijorat banklari foizli daromadining asosini odatda, mijozlarga berilgan kreditlar bo'yicha olinadigan foizlar iboratdir. Kreditlar bo'yicha daromadlar asosan foiz ko'rinishida va komission haq ko'rinishida bo'ladi. Kredit bo'yicha olinadigan daromadlar mijoz bilan tuzilgan kredit shartnomasiga asosan belgilangan muddatlarda olinadi.

Mijozlarga berilgan kreditlar bo'yicha foizli daromadlarga bog'liq ba'zi buxgalteriya o'tkazmalarini ko'rib o'tamiz:

-Yuridik korxonalar(XK, MChJ, XF)ga berilgan qisqa va uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar:

- 1) Debet-16309 – kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar
Kredit-42601 – Xususiy korxonalar, xujalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar
- 2) Debet-16309 – kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar
Kredit-44601 – Xususiy korxonalar, xujalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar

-Davlat korxonalari bo'yicha qisqa va uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar:

1) Debet-16309 – Kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar

Kredit-42201 – Davlat korxonasi, tashkilot va muassasalariga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar

2) Debet-16309 – Kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar

Kredit-44401 – Davlat korxonasi, tashkilot va muassasalariga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar

-Jismoniy shaxslarga berilgan qisqa va uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar:

1) Debet-16309 – Kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar

Kredit-42001 - Jismoniy shaxslarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar

2) Debet-16309 – Kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar

Kredit-44301 - Jismoniy shaxslarga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar va x.k.

Bunday komission to'lovlar kredit munosabatlarning ajralmas qismi hisoblanadi, shuning uchun ham ular muddati uzaytirilgan daromadlar sifatida qaraladi va haqiqiy daromadning korrektirovkasi sifatida tan olinadi. Bunda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi keltiriladi:

Debet Mijozning depozit hisobvarag'i

Kredit 22896- Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar

Xar oyda berilgan kredit foizi bilan birga komission haq ham daromad hisobvarag'iga o'tkaziladi, ya'ni:

Debet 22896- Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar

Kredit 41400-44600 - Kreditlar bo'yicha foizli daromadlar

Kredit berish muddati yaqinlashib, kredit so'ralmasa olingan komission haq muddati etib kelingan so'ng tan olinadi va quyidagi o'tkazma bo'yicha rasmiylashtiriladi:

Debet 22896- Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar

Kredit 45237- Kredit majburiyatlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun olingan daromadlar

Moliyaviy aktivlar bo'yicha foizlar hisoblanganda quyidagi buxgalteriya provodkasi keltiriladi:

Debet 16300 Olish uchun hisoblangan foizlarning tegishli hisobvarag'i

Kredit 4 0200-45100 Foizli daromadlarning tegishli hisobvarag'i

Hisoblangan foizlar olinganda esa quyidagi o'tkazma amalga oshiriladi:

Debet 10101 “Aylanma kassadagi naqd pullar” yoki bankning vakillik hisobvarag‘i yoxud mijozning depozit hisobvarag‘i

Kredit 16300 Olish uchun hisoblangan foizlarning tegishli hisobvarag‘i

Diskont real foiz stavkasi metodini qo‘llash orqali amortizatsiyalanadi, shartnoma bo‘yicha olinishi lozim bo‘lgan foizlar har oyda hisoblab boriladi.

Qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha diskont olinganda quyidagi buxgalteriya provodkasi keltiriladi:

Debet – 16307,16311 - Sotishga mo‘ljallangan qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar bo‘yicha olinishi lozim bo‘lgan hisoblangan foizlar

Kredit – 10891 - Sotishga mo‘ljallangan qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar bo‘yicha diskont (kontr-aktiv)

Moliyaviy aktivlar bo‘yicha diskont belgilangan muddatlarda amortizatsiyalanadi va daromad tarkibiga o‘tkazilib, foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobotda o‘z aksini topadi va ushbu operatsiya bo‘yicha buxgalteriya o‘tkazmasi quyidagicha amalga oshiriladi:

Debet – 10891 – Sotishga mo‘ljallangan qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar bo‘yicha diskont (kontr-aktiv)

Kredit – 40700 - Sotishga mo‘ljallangan qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar bo‘yicha foizli daromadlar

Foizsiz daromadlar quyidagi hisobvaraqlarda hisobga olib borilishini ko‘rishimiz mumkin:

- 45200 – “Foizsiz daromadlar”;
- 45400 – “Xorijiy valyutalardagi foyda”;
- 45600 – “Tijorat operatsiyalaridan olingan foyda”;
- 45700 – “Karam xo‘jalik jamiyatlariga, ko‘shma korxonalariga va sho‘ba xo‘jalik jamiyatlariga qilingan investitsiyadan olingan foyda va dividendlar”;
- 45800 – “Investitsiyalardan olingan foyda va dividendlar”;
- 45900 – “Boshqa foizsiz daromadlar”.

Tijorat banklari foizsiz daromadlari tarkibida eng ko‘p ulushga ega bo‘lgan vositachilik haqi va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovlarni hisobga olishda ular avvalambor tan olinadi va shundan so‘ng daromadlar hisobvarag‘iga o‘tkaziladi. Masalan, bank mijozning to‘lov xujjatlari bo‘yicha 1000000,00 so‘mni o‘tkazib berdi, bank hisobvarag‘i shartnomasiga asosan Debet aylanmasi bo‘yicha 0,5 foiz miqdorida xizmat haqi kelishgan bo‘lsa, u olgan foizsiz daromadi 5000,00 so‘mni tashkil etadi. Ushbu to‘lov shartnoma shartlariga asosan keyingi ish kunida yoki shartnomada belgilangan

muddatda mijoz hisobvarag'idan to'lab beriladi.

Bunda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bajarilishi lozim:

Debet 16401 – «Hisoblangan vositachilik haqi va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlar» 5000,00 so'm;

Kredit 45249 – «Mahalliy to'lovlar bo'yicha vositachilik xizmatlari uchun olingan daromadlar» 5000,00 so'm.

Hisoblangan daromad undirilganda esa:

Debet Mijozning hisobvarag'i 5000,00 so'm;

Kredit 16401 – «Hisoblangan vositachilik haqi va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlar» 5000,00 so'm.

Xozirda ko'pchilik tijorat banklari foizsiz daromadlarni undirishda mijozning hisobvarag'ida mablag' bo'lsa to'g'ridan-to'g'ri daromad hisobvarag'iga kiritim qilinayapti, ya'ni:

Debet 20200–Mijozning hisobvarag'i 5000,00 so'm;

Kredit 45249 – «Mahalliy to'lovlar bo'yicha vositachilik xizmatlari uchun olingan daromadlar» 5000,00 so'm.

Banklar qimmatli qog'ozlar bozorining faol ishtirokchilari sifatida investitsion, oldi–sotdi operatsiyalarni rivojlantirib kelmoqda. Buning natijasida o'z daromadlari tarkibini kengaytirmoqda.

Bank ixtiyorida bo'lgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha emitentlar tomonidan e'lon qilingan dividendlar hisobga olinganda:

Debet 19939 – «Olinadigan dividendlar»;

Kredit 45800 – «Investitsiyalardan olingan foyda va dividendlar».

Buxgalteriya o'tkazmasi keltiriladi.

E'lon qilingan dividendlar pul ko'rinishda olinganda esa quyidagi o'tkazma amalga oshiriladi:

Debet bank vakillik hisobvarag'i yoki emitent hisobvarag'i;

Kredit 19939 – «Olinadigan dividendlar».

Bank moliyaviy aktivlarini sotish natijasida yoki hisobdan chiqarishda ijobiy yoki salbiy natijaga erishish mumkin. Agar ijobiy natijaga ya'ni, foyda olsa quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi keltiriladi:

Debet Kassadagi naqd pullar, mijozning hisobvarag'i yoki bankning vakillik hisobvarag'i;

Kredit 45803 Sotishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarni sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foyda.

Kafolat bo'yicha mijozlardan komission daromad quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali amalga oshiriladi:

Debet-20200– majburiyatlar

Debet-16401 Hisoblangan vositachilik xaki va kursatilgan xizmatlar uchun to'lovlar

Kredit-45261 - Kafolatlar va kafilliklar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishda kursatilgan xizmatlar uchun olingan daromadlar

11.2. Bankning xarajatlari hisobi

Bank xarajatlari buxgalteriya hisobida **foizli, foizsiz va operatsion xarajatlarga** bo'linadi. Tijorat banklari hisobvaraqlar rejasida xarajatlar 50000- 56902 hisobvaraqlarda aks ettiriladi.

11-jadval

Tijora banklari hisobvaraqlar rejasida xarajatlari hisobvaraqlari tarkibi

Nomeri	Hisobvraq nomi
50100-54900	Foizli xarajatlar
50100	Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar
50600	Jamarna depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar
51100	Muddatli depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar
51600	O'zR MBning hisobvaraqlari bo'yicha foizli xarajatlar
52100	Boshqa banklarning hisobvaraqlari bo'yicha foizli xarajatlar
52600	Bankning to'lanmagan aktseptlari bo'yicha foizli xarajatlar
53100	Qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar
54100	Uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar
54200	Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli xarajatlar
54300	Qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan REPO bitimlari bo'yicha foizli xarajatlar
54900	Boshqa foizli xarajatlar
55100-55900	Foizsiz xarajatlar
55100	Foizsiz xarajatlar
55300	Xorijiy valyutalarda ko'rilgan zararlar
55600	Tijorat operatsiyalaridan ko'rilgan zararlar
55700	Qaram xo'jalik jamiyatlariga, qo'shma tijorat banklarga va sho'ba xo'jalik jamiyatlariga qilingan investitsiyadan ko'rilgan zararlar
55800	Investitsiyalardan ko'rilgan zararlar

55900	Boshqa foizsiz xarajatlar
56100-56900	Operatsion xarajatlar
56100	Bank xizmatchilarining ish haqi va ular uchun qilingan boshqa xarajatlar
56200	Ijara va ta'minot xarajatlari
56300	Xizmat safari va transport xarajatlari
56400	Ma'muriy xarajatlar
56500	Reprezentatsiya va xayriya
56600	Eskirish xarajatlari
56700	Sug'urta, soliq va boshqa xarajatlar
56800	Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash
56900	Daromad solig'ini baholash

Foizli xarajatlar 50100-54904 hisobvaraqlarida aks ettiriladi. Foizsiz xarajalar esa 55100-55900 hisobvaraqlarida aks ettirilsa, operatsion xarajatlar 56100-56900 hisobvaraqlarida aks ettiriladi

Quyida bankning xarajat hisobvaraqlarining qoldiq summalarini 31206-“sof foyda (zarar)” hisobvarag'ining debetiga olib borish orqali yopamiz va quyidagi buxgalteriya yozuvini amalga oshiramiz.

Debet –31206-“Sof foyda (zarar)” 145000000,00

Kredit -50108- “Xususiy tijorat bankilar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatning TQOS (talab qilib olinguncha saqlanadigan) depozitlari bo'yicha foizli xarajatlari” 5000000,00;

Kredit -51108- “Xususiy tijorat bankilar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatning muddatli depozitlar bo'yicha foizli xarajatlari” 50 000 000,00;

Kredit -51108-“Xususiy tijorat bankilar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatning jamg'arma depozitlar bo'yicha foizli xarajatlari” 5 000 000,00;

Kredit -53101-“O'zR MB dan olingan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar” 15000000,00;

Kredit -56795- “Boshqa operatsion xarajatlar” 5000000,00

Kredit -56795- “Boshqa operatsion xarajatlar” 8000000,00

Kredit -52101- “Boshqa banklarning vakillik hisobvaraqlari bo'yicha bo'yicha foizli xarajatlari” 5000000,00

Kredit -52102- “Ish haqi” 25000000,00

Kredit -56118- “Ijtimoiy himoya bo'yicha xarajatlar” 2 000 000,00

Kredit -56202- "Ijara to'lovlari"

Kredit -56210- "Suv to'lovi"

Kredit -56210- "Elektr energiyasi va isitish tarmoqlari xarajatlari" 5000 000,00

Kredit -56214- "Ta'mirlash va ta'minot xarajatlari"

Kredit -56218- "Qo'riqlash xizmati xarajatlari"

Kredit -56302- "Xizmat safari xarajatlari"

Kredit -56306- "Xizmat safaridagi kunlik xarajatlari" 5 000 000,00

Kredit -56314- "Yoqilg'i xarajatlari" 5 000 000,00

Kredit -56402- "Reklama va e'lon xarajatlari" 5 000 000,00

Kredit -56418- "Kitob, gazeta va boshqa davriy nashriyotlar bo'yicha xarajatlar" 5 000 000,00

Yuqoridagi buxgalteriya yozuvlari orqali bankning xarajat hisobvaraqlaridagi qoldiq summalar 31206-"sof foyda (zarar)" hisobvarag'iga to'liq yopiladi.

Depozitlarga foizlar qoldiq summa doirasida har kuni hisoblanadi va quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi yordamida aks ettiriladi:

Debet 51106 – «Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar» 54493,15 so'm;

Kredit 22405 – «Muddatli depozitlar bo'yicha hisoblangan foizlar» 54493,15 so'm.

Qimmatli qog'ozlar diskont bilan chiqarilganda diskont sotish sanasida aks ettiriladi va qimmatli qog'ozlarning muomala muddati ichida real foiz stavkasi usuli bo'yicha amortizatsiya qilinadi:

Debet 54200 – «Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli xarajatlar»;

Kredit 23698 – «Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha diskont»;

Kredit 22414 – «Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisoblangan foizlar».

Qimmatli qog'ozlar mukofot bilan chiqarilganda mukofot sotish sanasida aks ettiriladi va diskont singari qimmatli qog'ozlarning muomala muddati ichida real foiz stavkasi usuli bo'yicha amortizatsiya qilinadi:

Debet 23696 – «Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha mukofot (premiya);

Debet 54200 – «Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli xarajatlar»;

Kredit 22414 – «Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisoblangan

foizlar».

Ko'pchilik xizmat ko'rsatuvchilar xozirgi kunda to'lovlarni oldindan to'lashni talab etadi. Agar ushbu xarajatlar oldindan to'langansa quyidagi tartibda hisobga olinadi:

Debet 19907 – «Xizmatlar uchun oldindan qilingan xarajatlar» yoki 19925 – «Oldindan to'langan xarajatlar»;

Kredit Mablag' oluvchining hisobvarag'i.

Xizmat ko'rsatilgandan so'ng oldindan to'langan to'lov xarajatlar tarkibiga o'tkaziladi va quyidagicha hisobga olinadi:

Debet 55100 – «Foizsiz xarajatlar»;

Kredit 19907 – «Xizmatlar uchun oldindan qilingan xarajatlar» yoki 19925 – «Oldindan to'langan xarajatlar».

Bankning daromadlar va xarajatlar hisobvaraqlari hisobot yili ohirida yopilganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari bajariladi:

Debet 40000 Daromadlar 42100 mln. so'm;

Kredit 31206 – «Sof foyda (zarar) (aktiv–passiv)» 42100 mln. so'm.
hamda

Debet 31206 – «Sof foyda (zarar) (aktiv–passiv)» 38240 mln. so'm;

Kredit 50000 Xarajatlar 38240 mln. so'm.

Nazorat savollari va topshiriqlar.

1. Bank daromadlari nima va u qanday shakllanadi?
2. Bank xarajatlariga nimalar kiradi?
3. Bank foydasi nima va u qanday tashkil topadi?
4. Foizli xarajatlar va ularning hisobi qanday yuritiladi?
5. Foizsiz xarajatlar va ularning tarkibi nimalardan iborat?
6. Foizli daromadlar hisobi qanday yuritiladi?
7. Foizsiz daromadlar tarkibi va ular hisobining tashkil etilishini ko'rsating.

XI bob bo'yicha masala va mashqlar

1-masala

ATB "Ipotekabank"ning Yunusobod filiali bank ichki operatsiyalari bo'limida avgust oyda quyidagi operatsiyalar bajarildi:

1. Bank xizmatchilariga 152000000 so'm miqdorida ish haqi xisoblandi.
2. Ish haqidan quyidagilarga ajratmalar hisoblanib tegishli idoralarga

o'tkazib berildi:

❖ Daromad solig'i budjetga o'tkazildi -22200000 so'm

❖ Nafaqa fondiga - 2445500 so'm

3. Bank kassasidan bank xodimiga safar xarajatlari uchun avans berildi-5000000 so'm

4. Shundan 4500000 so'm sarflanganligi to'g'risida xodimning hisoboti qabul qilindi.

Talab qilinadi:

1. Bu operatsiyalar qanday xujjatlar yordamida rasmiylashtiriladi.

2. Buxgalteriya provodkalarini bajaring.

2-masala

2019 yil 15 sentyabrdan boshlab bank o'zining binosini bir qismini ijaraga berdi. Ijarachi bilan tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq ijarachi 1 yillik ijara haqini oldindan to'lashga kelishilgan. 15 sentyabrda 24 mln. so'm ijara haqi oldindan olingan. Yarim oylik ijara haqi bo'yicha 1 mln so'm mablag' 30 sentyabrda daromadga o'tkazildi. 31 oktyabrda to'liq bir oylik 2 mln so'm ijara haqi arenda daromadi sifatida hisobga olindi.

Talab etiladi:

1. Oldindan olingan 1 yillik ijara haqiga buxgalteriya provodkasi rasmiylashtiring.

2. Bir oylik ijara haqini hisobga olishga doir operatsiyaga provodka tuzing.

3-masala

Milliy bank filiali 100000000 so'mlik uskuna sotib oldi. Bank hamma summani to'liq to'lashga imkoniyati bo'lmaganligi sababli, sotuvchi korxonaga 3 yil muddat ichida 240000000 so'm to'lash bo'yicha majburiyatni imzoladi.

Hisob-kitob nuqtai nazaridan uskunalarini sotib olish sanasiga 100000, 0 ming so'm qiymatda aks ettirdi. Majburiyat summasi 140000 ming so'm deb aks ettirgan.

Uskunalarini qiymati 3 yildan keyin to'lanadi. Bank buxgalteriyasida uskunalar uchun foiz xarajatlari har yilda aks ettiriladi va to'lanmagan foiz summalariga majburiyatlar oshadi. 3 yil muddatdan so'ng bank mol etkazib beruvchiga 140000000 so'm mablag' to'ladi. (Shundan 100000000 so'm pul uskuna qiymati, 40000000 so'm pul hisoblangan foiz summasi.)

Milliy bank har yillik foiz xarajatlarini aniqlash uchun foiz stavkasini topish zarur. Uni quyidagicha hisoblash mumkin.

1. Foiz stavkasi koeffitsenti

Joriy qiymat / kelgusi qiymat = koeffitsent

$$1000000 / 1400000 = 0,711743$$

3 yillik koeffitsent 12% stavkaga mos keladi.

Talab qilinadi:

1. Foiz stavkasi koeffitsentini hisobga olgan holda 3 yil davomida (har yili) to‘lanadigan majburiyat summasini aniqlang va jadvalda aks ettiring.

2. Uskunalarni sotib olish bilan bog‘liq operatsiyalarning buxgalteriya provodkalarini bering.

4-masala.

MBning dollarga nisatan sum kursi 1usd = 10377 uzs balsa, A bank tomonidan bankomatlarida sotib olish kursini 10400 kilib belgilagan. 28 oktyabrda jami bankomat orqali sotib olingan summa 78 Ming usd buldi.

Talab kilinadi:

1. Provodkalarini bering

2. Nima uchun A bank MB belgilagan kursdan bankomatlarida balandrok kurs urnatgan?

Testlar

1. 31203 – hisobvarag‘ining nomi nima?

- a. Joriy yil sof foydasi
- b. Taqsimlanmagan foyda
- c. Daromad
- d. Xarajat

2. Xarajatlarni yopish provodkasini ko‘rsating?

- a. Debet-31206, Kredit-52100
- b. Debet-20208, Kredit-16309
- c. Debet-20200, Kredit-45257
- d. Debet-52100, Kredit-31206

3. YaTTga uzoq muddatli kreditiga foiz hisoblansa qanday provodka beriladi?

- a. Debet-16309, Kredit-44100
- b. Debet-31206, Kredit-52100
- c. Debet-20208, Kredit-16309
- d. Debet-44100, Kredit-16309

4. Foizlar summasi undirilganda qanday provodka beriladi ?

- a. Debet-20208, Kredit-16309

b. Debet-31206, Kredit-52100

c. Debet-20200, Kredit-45257

d. Debet-31206, Kredit-45257

5. Chet el valyutasidagi zararlar qaysi hisobvarag'larda yuritiladi?

a. 55302, 55306

b. 55100, 54902

c. 52100, 52106

d. 52100, 54902

6. MB hisobvaraqlari bo'yicha foizli harajatlar foyda hisobidan qoplanganda qanday provodka beriladi?

a. Debet-31206, Kredit-51600

b. Debet-20200, Kredit-45257

c. Debet-20208, Kredit-16309

d. Debet-31206, Kredit-45257

7. Inkasso operatsiyalarini bajarganlik uchun haq olinganda qanday provodka beriladi ?

a. Debet-20200, Kredit-45257

b. Debet-31206, Kredit-51600

c. Debet-20208, Kredit-16309

d. Debet-31206, Kredit-16309

8. Bank daromadlari necha turga bo'linadi ?

a. 2 c. 5

b. 4 d. 6

9. Bank harajatlari necha turga bo'linadi?

a. 4 c. 3

b. 5 d. 6

10. Bank foydasi(zarari) qaysi formula orqali aniqlanadi?

a. Bank daromadlari –Bank harajatlari= Bank foydasi(zarari)

b. Bank daromadlari +Bank harajatlari= Bank foydasi(zarari)

c. Bank harajatlari - Bank daromadlari = Bank foydasi(zarari)

d. To'g'ri javob berilmagan

11. Faktoring operatsiyasidan olingan foyda bankning qaysi daromad turiga kiradi?

a. Vositachilik operatsiyalari bo'yicha

b. Xorijiy valyutalardagi

c. Tijorat operatsiyalaridan

d. Kassa operatsiyalaridan

XII BOB. BANKNING BUDJET VA BUDJETDAN TASHQARI TO‘LOVLARI HISOBI

Tayanch so‘z va iboralar. Budjetga to‘lovlar, soliq turlari, soliqqa solish bazasi, soliq ob‘ekti, majburiy ajratmalar, imtiyozlar, soliq summasi,

12.1. Tijorat banklarning soliq to‘lovlarini hisoblash va hisobga olish

Tijorat banklari yuridik shaxs sifatida davlat budjetiga quyidagi soliqlar to‘laydi va ajratmalarni amalga oshiradi (*O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019 yilda O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti parametrlari va asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi haqida”gi 28.12.2018 yildagi PP-4086-sonli Qarori*):

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;
- mol-mulk solig‘i;
- er solig‘i;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- qo‘shilgan qiymat solig‘i;
- soliq solish manbasidan to‘lanadigan soliq;
- jismoniy shaxslarning daromad solig‘i;
- fuqarolarning budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari (*Xalq bankining tegishli bo‘limlariga o‘tkaziladi*);
- davlat maqsadli jamg‘rmalariga majburiy ajratmalar
- yagona ijtimoiy to‘lov.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining hisobi. Banklarda foyda solig‘i stavkasi 20% qilib belgilangan (*O‘zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 28.12.2018 yildagi PP-4086-sonli Qarori, 7-ilovasi*).

Ushbu qarorga muvofiq, obodonlashtirish va ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirish solig‘i foyda solig‘i bilan qo‘shib yuborildi . Ushbu soliqni to‘lashda banklar kelgusi chorakning boshida chorak davomida olinadigan foyda miqdorini oylar kesimida bashorat qilib, davlat soliq inspeksiyalariga ma‘lumot taqdim etiladi. Bashorat qilingan soliq summasi oyning boshida davlat budjetining tegishli hisobvarag‘iga o‘tkaziladi va bunda,

Debet 19931 – “Muddati uzaytirilgan soliqlar”,

Kredit 23402 – “Respublika budjetining mablag‘lari” hisobvarag‘i.

Oy davomida to'langan foyda soliq summasi har chorakning oxirida bankning tegishli xarajatlar hisobvarag'iga o'tkaziladi.

a). Agar chorak uchun bashorat qilingan foyda soliq summasi haqiqatga to'g'ri kelsa,

Debet 56902 – “Daromad solig'ini baholash”,

Kredit –19931- “Muddati uzaytirilgan soliqlar” hisobvarag'i.

b). Agar choraklik uchun oldindan to'langan foyda solig'i summasi bankning haqiqatdagi foyda solig'i summasidan kam bo'lsa, kam to'langan qismi bankning 22502- hisobvarag'iga o'tkaziladi va ushbu hisobdan davlat budjetiga o'tkazib beriladi.

- kam to'langan summaga,

Debet 56902 – “Daromad solig'ini baholash”,

Kredit 22502 – “Hisoblangan daromad (foyda) soliqlari” hisobvarag'i.

- kam to'langan summa davlat budjeti hisobvarag'iga o'tkazilganda,

Debet 22502 – “Hisoblangan daromad (foyda) soliqlari”,

Kredit 23402 – “Respublika budjetining mablag'lari” hisobvarag'i.

Agar oldindan to'langan foyda solig'i summasi haqiqatda aniqlangan foyda soliq summasida ko'p bo'lsa, ushbu farq keyingi oylarda o'zaro hisob-kitob qilish asosida tartibga solinadi. Chorak boshida bashorat qilingan foyda solig'i summasi haqiqatda kam yoki ko'p to'langanligi chorakning oxirida soliqqa tortiladigan bazaga nisbatan 20% miqdorida hisoblab aniqlanadi. Banklarda foyda solig'i soliq bazasi bankning hisobvaraqlar rejasining 4 bo'limidagi daromadlar hisobvaraqlaridagi qoldiqlar asosida aniqlanadi. Soliq bazasini hisoblashda 4 bo'limdagi hisobvaraqlardagi daromad summasida Soliq kodeksida belgilangan imtiyozlari mavjud bo'lgan daromad turlari va boshqa chegirmalar ayirib tashlanadi.

Mol-mulk solig'i hisobi. Tijorat banklari barcha yuridik shaxslar kabi mol-mulk solig'i to'laydilar, hozirgi paytda ushbu soliq stavkasi mol-mulkning umumiy summasiga nisbatan 5 foizni tashkil etadi (*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.12.2017 yildagi PP-3454-sonli Qaroriga muvofiq, 17-ilovasi*). Mol-mulk solig'i uchun soliq davri qilib kalendar yil belgilangan. Banklarda mol-mulk solig'i uchun soliqqa tortiladigan bazani aniqlashda 16509+16515+16529+16535+ +16541+16549- hisobvaraqlarida mavjud qoldiq summaları olinadi, (16549 hisobvaraqda hisobga olingan ijrada teminallar uchun soliqdan imtiyoz mavjud va ular soliq bazasidan chegiriladi). 16601- hisobvaraqda aks ettirilgan nomoddiy qimmatliklar bo'yicha ham imtiyoz mavjud va ular ham soliq bazasiga

kiritilmaydi. Banklar yilning barcha choraklari uchun avans hisobotini soliq organlariga taqdim etadi. Bank tomonidan oylik to'lanadigan mol-mulk solig'i hisoblanib, 22504-hisobvarag'ida jamlanib boriladi va quyidagicha buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi:

Debet 56714 – "Soliq (daromad solig'idan tashqari) va litsenziyalar",

Kredit 22504 – "Hisoblangan boshqa soliqlar (alohida ochilgan analitik hisobda)" hisobvarag'i.

Hisobot davri tugagach, haqiqatda hisoblangan bir yillik mol-mulk solig'i to'lab beriladi va yanvar oyining 25-sanasisigacha to'langan soliq summasi bo'yicha hisobot topshiriladi. Mol-mulk solig'i to'langanda quyidagi buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi.

Debet 22504 – "Hisoblangan boshqa soliqlar (alohida ochilgan analitik hisobda)"

Kredit 23402 – "Respublika budjetining mablag'lari" hisobvarag'i.

Mol-mulk solig'i to'langandan so'ng yanvar oyining 25-sanasisigacha to'langan soliq summasi bo'yicha hisobot topshiriladi.

Er solig'i hisobi. Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida er uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan banklar er solig'ini to'lovchilari hisoblanadi (*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.12.2017 yildagi PP-3454-sonli Qaroriga muvofiq, 19-ilovasi*). Ko'chmas mulk bank tomonidan ijaraga berilgan taqdirda, ijaraga beruvchi, ya'ni bank er solig'ini to'lovchi bo'ladi. Er uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs birgalikda foydalangan taqdirda, har bir yuridik shaxs er uchastkasining foydalanilayotgan maydonidagi o'z ulushi uchun er solig'ini to'laydi. Er solig'i har bir soliq davrining 1 yanvariga bo'lgan holatga ko'ra hisoblab chiqariladi va er solig'ining hisob-kitobi er uchastkasi joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilining 15 fevraliga qadar taqdim etiladi. Er solig'ini to'lash, banklar tomonidan yilning har choragida, yil choragi ikkinchi oyining 15-kuniga qadar teng ulushlarda amalga oshiriladi.

Banklar amaliyotda er solig'ini davlat soliq inspeksiyalari tomonidan Toshkent shahri va viloyatlarda zonalar bo'yicha 1 kv.m.ga o'rnatilgan soliq stavka haqida taqdim etgan tartiblar asosida to'laydilar. Bank binosi joylashgan joy qaysi zonaga taalluqli ekanligi kadastr hujjatlari asosida aniqlanadi. Soliq baza aniq bo'lgandan keyin bank binolari joylashgan hududning maydoni hajmi aniqlanadi va belgilangan stavkalar asosida soliq summasi aniqlanadi. Aniqlangan er solig'i summasi belgilangan tartib va

muddalarda davlat budjetining tegishli hisobvaraqlariga to'lab beriladi. Hisoblangan er solig'i summasiga,

Debet 56714 – "Solliq (daromad solig'idan tashqari) va litsenziyalar",

Kredit 22504 – "Hisoblangan boshqa soliqlar (alohida ochilgan analitik hisobda)" hisobvarag'i.

Er solig'i to'langanda,

Debet 22504 – "Hisoblangan boshqa soliqlar (alohida ochilgan analitik hisobda)",

Kredit 23402 – Respublika budjetining mablag'lari" hisobvarag'i.

Soliq solinadigan bazada soliq davri mobaynida o'zgarish bo'lganda banklar bir oylik muddat ichida davlat soliq xizmati organiga er solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini taqdim etadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarning hisobi. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq yil boshida o'tgan yilda to'langan sumмага nisbatan bashorat qilinib joriy yil uchun yillik avans to'lovi haqida ma'lumotnoma taqdim etiladi (*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.12.2018 yildagi PP-4086-sonli Qaroriga muvofiq, 13-ilovasi*).

Joriy to'lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq bank joriy soliq davrining 25 yanvarigacha bankda suvda foydalanish bo'yicha yangidan joriy etilganlari esa - davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'ttiz kundan kechikreditirmay, suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyidagi davlat soliq xizmati organlariga mo'ljallanayotgan soliq solinadigan bazadan (foydalaniladigan suv hajmidan) va suv resurslaridan foydalanganlik uchun belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadilar. Ma'lumotnomaga asosan hisoblangan avans summasi oldindan to'lanadi,

Debet 19931 – "Muddati uzaytirilgan soliqlar (alohida ochilgan analitik hisobda)",

Kredit 23402 – "Respublika budjetining mablag'lari" hisobvarag'i.

Soliq davri mobaynida mo'ljallanayotgan soliq solinadigan baza o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchi suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi to'g'risida aniqlashtirilgan ma'lumotnoma taqdim etishga haqli. Bunda soliq davrining qolgan qismi uchun joriy to'lovlarga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning o'zgarish summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi. Soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash joriy to'lovlar hisobga olingan holda soliq to'lovchilar

tomonidan, suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyida, hisob-kitob taqdim etiladigan muddatdan kechikreditirmay amalga oshiriladi.

Soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha joriy to'lovlar summasi hisob-kitobga ko'ra, budjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq miqdorga kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to'lovlarni suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qaytadan hisoblab chiqadi. Bunda er usti va er osti suv resurslaridan foydalanilganligi uchun foiz nisbati olinadi, ya'ni haqiqatda ishlatilgan suv hajmi to'g'risida ma'lumotnomaga asosan uni 88,6% - er osti suvi (*1 m/kub -120 so'm*), 11,4% er usti (*1 m/kub-150 so'm*) suviga ajratiladi. Ushbu nisbatlar bo'yicha oldindan amalga oshirilgan to'lov summasiga, *Debet 56714 – "Soliq (daromad solig'idan tashqari) va litsenziyalar"*, *Kredit –19931- "Muddati uzaytirilgan soliqlar(alohida ochilgan analitik hisobda)" hisobvarag'i.*

Soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun oldindan to'langan soliq summasi haqiqatda to'langan summadan kam bo'lsa, kam to'langan qismi bankning 22504-hisobvarag'iga o'tkaziladi va ushbu hisobdan davlat budjetiga o'tkazib beriladi.

-kam to'langan summasiga,

Debet 56714 – "Soliq (daromad solig'idan tashqari) va litsenziyalar",

Kredit 22504 – "Hisoblangan boshqa soliqlar" hisobvarag'i.

-kam to'langan summa davlat budjeti hisobvarag'iga o'tkazilganda,

Debet 22504 – "Hisoblangan boshqa soliqlar",

Kredit 23402 – "Respublika budjetining mablag'lari" hisobvarag'i.

Agar oldindan to'langan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi haqiqatda to'lash lozim bo'lgan summadan ko'p bo'lsa, ushbu farq keyingi oylarda o'zaro hisob-kitob qilish asosida tartibga solinadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i hisobi. Ushbu soliq turi 20 foizdan iborat (*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.12.2018 yildagi PP-4086-sonli Qarori, 3-punkt 7-bandi*). Tijorat banklari "Boshqa daromadlar" hisobvaraqlarida aks ettirilgan daromadlar hisobidan, xususan "Paynet" xizmati bo'yicha olingan daromadlar, asosiy vositalarni sotishdan olingan daromadlar va qonunchilikda belgilangan boshqa daromadlardan to'laydi. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lanadigan operatsiyalar bo'yicha har oying yakuni bo'yicha to'lov miqdori aniqlanib, keyin to'lov amalga oshiriladi.

Masalan, bank asosiy vositasini (yuk mashinasi) mijozga bir yilga ijaraga

berish hisobidan 5,0 mln. soʻm daromad oldi. Olingan daromaddan quyidagi tartibda QQS hisoblanganda,

a). Mijoz yuk mashinasidan foydalangani uchun ijara toʻlovi bankka oʻtkazilganda,

Debet 20208- "Mijozning muddatli depozit hisobvaragʻi"- 500 ming soʻm,

Kredit 29802 – "Tovar-moddiy qimmatliklar va koʻrsatiladigan xizmatlar uchun toʻlovlar" -500 ming soʻm.

b). QQS summasi ($833333,33 = 5000000 / 120 \times 20$) hisoblandi:

Debet 29802- "Tovar-moddiy qimmatliklar va koʻrsatiladigan xizmatlar uchun toʻlovlar" - 833333,33 soʻm,

Kredit 22504 – "Hisoblangan boshqa soliqlar" – 833333,33 soʻm.

v). Hisoblangan summa budget hisobiga oʻtkazilganda,

Debet 22504 – "Hisoblangan boshqa soliqlar"- 833333,33 soʻm,

Kredit 23402 – "Respublika budgetining mablagʻlari" - 833333,33 soʻm.

g). Mijoz yuk mashinasidan foydalangani uchun ijara toʻlovidan QQS summasi ($833333,33 = 5000000 / 120 \times 20$) chiqarib tashlangandan soʻng, bank qolgan summa bank daromadiga olinganda,

Debet 29802- "Tovar-moddiy qimmatliklar va koʻrsatiladigan xizmatlar uchun toʻlovlar" - 4166666,67 soʻm,

Kredit 45901 – "Bank asosiy vositalarining ijarasidan olingan daromadlar" - 4166666,67 soʻm.

Bank asosiy vositalarni ijaraga bergan toʻlov hisobidan olgan daromadidan QQSni toʻlagani kabi asosiy vositalar yoki kam baholi va tez eskiruvchi buyumlarni sotishdan olingan daromadlar hisobidan ham yuqorida keltirilgan tartibda QQS hisoblaydi va tegishli buxgalteriya yozuvlari asosida toʻlovlar amalga oshiriladi.

Hisobot oyi yopilgach, jami qoʻshilgan qiymat soligʻi toʻlashga asos boʻluvchi daromadlar summasini qoʻshib, 20% QQS toʻlovini amalga oshiramiz. Davlat soliq inspeksiyasiga toʻlangan QQS boʻyicha hisobot topshiriladi.

Soliq solish manbasidan toʻlanadigan soliq (SSMTs) 10 foizni tashkil etadi. Tijorat banklari faoliyati davomida mijozlaridan oladigan daromadi soliq solish manbasidan toʻlanadigan soliq hisoblanadi. Banklar ijaraga olingan asosiy vositalarga toʻlaydigan toʻlovlari (xarajatlar), shuningdek, boshqa banklardan olgan depozit mablagʻlari boʻyicha qiladigan foiz toʻlovlari (xarajatlari) hisobidan 10 foiz miqdorida ushbu soliqlarni toʻlaydi.

Masalan, bank shartnoma asosida mijozning binosida mini bank ochdi. Shartnomaga ko'ra oylik ijara to'lovi 7000 ming so'mni tashkil etadi va to'lov oyning 5 sanasiga qadar to'lab beriladi. Bank ijara to'lovini to'lab berishdan oldin SSMTsni aniqlaydi. Ushbu summa 700 ming so'm bo'lib, u quyidagicha hisoblanadi $700\ 000,00 = (7000000 \times 0,10)$ va buxgalteriya yozuvi bilan rasmiylashtiriladi.

a). Mijozga ijara to'lovi summasidan SSMTs (7000000 - 700000) chegirib tashlandi va vujudga kelgan summa ijara xarajati sifatida mijozga to'lab berildi.

Debet 19925 – “Oldindan to‘langan xarajatlar” – 6300000 so‘m,

Kredit 20206 – “Jismoniy shaxsning muddatsiz depoiti hisobvarag‘i” - 6300000 so‘m.

b). Davlat budjetiga to'lash uchun hisoblangan SSMTs summasi tranzit hisobvarag'iga kirim qilindi,

Debet 19925 – “Oldindan to‘langan xarajatlar” – 700000 so‘m,

Kredit 22506 – “To‘lash uchun ushlab qolingani soliqlar” - 700000 so‘m.

v). Hisoblangan SSMTs summasi davlat budjetiga to'lab berilganda,

Debet 22506 – “To‘lash uchun ushlab qolingani soliqlar” – 700000 so‘m,

Kredit 23402 – “Respublika budjetining mablag‘lari” - 700000 so‘m.

g). Bank tomonidan ijara to'lovi uchun to'langan xarajatlar, soliq summasi bilan birgalikda tegishli xarajatlar hisobvarag'iga olib borildi,

Debet 56202 – “Ijara to‘lovi” - 7000000 so‘m,

Kredit 19925 – “Oldindan to‘langan xarajatlar” – 7000000 so‘m.

Banklar boshqa banklardan jalb qilgan muddatli depozitlari yoki kreditlari bo'yicha to'lanadigan xarajatlar bo'yicha ham xuddi shu tartibda SSMTs summasini aniqlaydi va buxgalteriya yozuvlarini amalga oshiradi. Faqat xarajatlar depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar hisoblangan, 50600 yoki 51100 hisobvaraqlarida, kreditlar bo'yicha 53100 yoki 54100 hisobvaraqlarida aks ettiriladi. Tijorat banklari ushbu soliqlar bo'yicha davlat soliq inspeksiyalariga har chorakda hisobot beradi.

Jismoniy shaxslarning daromad solig‘i. Banklar xodimlarning ish haqi, mukofot va boshqa ko'rinishdagi daromadlaridan quyidagi shkala asosida daromad solig'i to'laydi hamda har oyda davlat budjetining tegishli hisobvaraqlariga o'tkazib beradi (*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.12.2018 yildagi PP-4086-sonli Qarori*).

Soliq solinadigan daromadlar guruhlarini bo'yicha soliq solish shkalasi yil boshiga belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqib aniqlanadi va

eng kam ish haqi miqdorining yil davomida o'zgarishiga qaramasdan qayta ko'rib chiqilmaydi.

2019 yil 1 yanvardan boshlab jismoniy shaxslarning daromad solig'i stavkasi 12 foiz qilib belgilandi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasini hisoblab chiqarish maqsadida eng kam ish haqining miqdori yil boshidan ortib boruvchi yakun bilan hisobga olinadi. Tijorat banklari yagona ijtimoiy to'lovni, ya'ni, Budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi (PJ), Fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya (FShJBP) hisobvaraqlariga o'tkaziladigan to'lovlar, Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashiga (KUFK) to'lovlarni amalga oshiradi.

Bank xodimlari ish haqidan daromad solig'i va boshqa ajratmalarni amalga oshirish tartibini quyida ko'rib chiqamiz (yanvar oyi uchun). 2020 yil 1 fevraldan 223000 so'm qilib belgilangan bo'lib, ushbu summa (JShDS) summasini hisoblash 2020 yil uchun amal qilinadi.

Fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya (FShJBP) 0,1 foiz miqdorida belgilangan.

Yagona ijtimoiy to'lov stavkasi mikrofirma va kichik korxonalar uchun-15%, jumladan: -budgetdan tashqari Pensiya fondiga -14,8%; -ish bilan ta'minlash davlat fondiga -0,1%; -O'zbekiston kasaba uyushmasi federatsiyasiga -0,1%.

Boshqalar uchun -25 foizdan, jumladan: -budgetdan tashqari Pensiya fondiga -24,8%; -ish bilan ta'minlash davlat fondiga -0,1%; -O'zbekiston kasaba uyushmasi federatsiyasiga -0,1% (*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.12.2017 yildagi PP-3454-sonli Qarori, 23-ilovasi*).

13-jadval

Ish haqi va u bilan bog'liq boshqa majburiy ajratmalarning stavkalari

	1997	1998	1999	2000	2001	2002	2003	2004	2005	2006	2007	2008
Dar/sol 5 okladgacha						13,0%	13,0%	13,0%	13,0%	13,0%	13,0%	13,0%
Dar/sol 10 okladgacha						23%	22%	21%	11%	20,0%	18,0%	18,0%
Dar/sol 10 okladdan yuqori						33%	32%	30%	30%	29,0%	25,0%	25,0%
Pensiya fondi	1,2%	1,5%	2,0%	2,5%	2,5%	2,5%	2,5%	2,5%	2,5%	2,5%	2,5%	2,5%
JBPT (NPS)									1%	1%	1%	1%
YalT (ESP)						40%	37,2%	33%	31%	25%	24%	24%

ASOS:	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020
Dar'sol 5 okladgacha	12,0%	11,0%	10,0%	9,0%	8,0%	8,0%	8,5%	7,5%	0 - 7,5%	0 - 7,5%	12,0%	12,0%
Dar'sol 10 okladgacha	17%	17%	16%	16%	16%	17%	17%	17%	17%	16,5%		
Dar'sol 10 okladan yuqori	22%	22%	22%	22%	22%	22%	23%	23%	23%	22,5%		
Pensiya fondi	3,5%	4,0%	4,5%	5,5%	6,0%	6,5%	7,0%	7,5%	8,0%	8,0%		
JBPT (INPS)	1%	1%	1%	1%	1%	1%	1%	1%	1%	2%	0,1%	0,1%
YalT (ESP)	24%	24%	25%	25%	25%	25%	25%	15%	15%	15%	12%	12%
ASOS:												

Misol. Bank xodimi A.A.Abdullaevga yanvar oyi uchun ish haqi hisoblandi va undan quyidagi soliq hamda ushlanmalar ushlab qolindi:

A.A. Abdullaevga hisoblangan ish haqi va mukofot pulining jami -5000,0 ming so‘m bo‘lib, qo‘lga olinadigan summa 4350,0 ming so‘mni tashkil etdi. Bunda, hisoblangan jami summaga,

Debet 56102 –“Ish haqi” - 5000,0 ming so‘m,

Kredit 29803 –“Bank xodimlari bilan hisob - kitoblardagi to‘lanishi lozim bo‘lgan mablag‘lar” -4350,0 ming so‘m,

Kredit 22506–“To‘lash uchun ushlab qolingani mablag‘lar” -600,0 ming so‘m,

Kredit 22512–“Bandlik va boshqa fondlar bilan hisob-kitoblar” (1 foiz kasaba uyushmasi) -50,0 ming so‘m.

Yagona ijtimoiy to‘lov stavkasi 25 foizdan iborat bo‘lib, u bo‘yicha 1250000,0 = (5000000,0 x 25,0 / 100) so‘m hisoblandi,

Debet 56114 –“Ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha badallar” – 1250,0 ming so‘m,

Kredit 22510 –“Nafaqa fondi (pensiya) bilan hisob-kitoblar” - 1250,0 ming so‘m.

Bank xodimining ish haqi bo‘yicha hisoblangan soliq to‘lovlari va yagona ijtimoiy to‘lov summaları belgilangan tartibda to‘landi.

a). Bank xodimiga ish haqi to‘landi,

Debet 29803 –“Bank xodimlari bilan hisob- kitoblardagi to‘lanishi lozim bo‘lgan mablag‘lar” -4350,0 ming so‘m,

Kredit 10101- Aylanma kassadagi naqd pullar – "Aylanma kassadagi naqd pullar" -2175,0 ming so'm,

Kredit 29896– "Boshqa majburiyatlar" (plastik kartochkaga) – 2175,0 ming so'm.

b). Bank xodimining ish haqidan hisoblangan daromad solig'i va FShJBP to'lab berildi.

Debet 22506– "To'lash uchun ushlab qolingan mablag'lar" - 600,0 ming so'm,

Kredit 23402 – "Respublika budjetining mablag'lari" -595,0 ming so'm,

Kredit 22628– "Fuqarolarning shaxsiy jamg'arma pensiya hisobvarag'idagi mablag'lar" - 5,0 ming so'm.

v). Ish haqi hisobidan yagona ijtimoiy to'lov (25%) summasi to'lab berildi.

Debet 22510– "Nafaqa fondi bilan hisob-kitoblar" – 1250,0 ming so'm,

Kredit 20205 – "Budjetdan tashqari fondlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari" – 1250,0 ming so'm.

12.2. Banklarning budjetdan tashqari ajratmalarining hisobi

Tijorat banklari ushbu soliqlar bo'yicha davlat soliq inspeksiylariga har chorakda hisobot beradi. Fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya (FShJBP) hisobvaraqlariga o'tkaziladigan to'lovlar. Belgilangan stavkalaridan kelib chiqib hisoblangan, budjetga to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi, fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o'tkaziladigan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadigan daromadlaridan 2% miqdorida hisoblab chiqariladigan har oylik majburiy badallar summasiga kamaytiriladi. FShJBPni to'lash bo'yicha buxgalteriya yozuvini amalga oshirish tartibi yuqorida keltirilgan.

Tijorat banklari budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar, Respublika yo'l jamg'armasi va ta'lim va tibbiyot muassasalari moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasiga ajratmalar miqdori -3,2 foiz qilib belgilangan (*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.12.2017 yildagi PP-3454-sonli Qarori, 24-ilovasi*). Uni taqsimlash quyidagicha tartibda belgilab qo'yilgan:

- budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratma - 46,88%;
- budjetdan tashqari Respublika yo'l jamg'armasiga ajratma - 43,75%;

– taʼlim va tibbiyot muassasalari moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamgʻarmasiga ajratma -9,37% tashkil etadi.

Tijorat banklari ushbu soliqlar boʻyicha davlat soliq inspeksiyalariga har chorakda hisobot beradi.

Nazorat savollari va topshiriqlar.

1. Banklarning budjet va budjetdan tashqari toʻlovlarini hisoblash va hisobining yuritilishni misollar yordamida tushuntiring va provodkasini bering.

2. Tijorat banklari tomonidan toʻlanadigan soliqlarni hisoblash va hisobining yuritilishni misollar yordamida tushuntiring va provodkasini bering.

3. Banklarning pensiya fondiga toʻlanadigan toʻlovlari turlari, ularni hisoblash va toʻlash tartibini tushuntiring.

4. Tijorat banklarining foizli xarajatlariga nimalar kiradi va ularning hisobi qanday tartibda yuritiladi?

5. Soliqlar va majburiy toʻlovlarning bankning moliyaviy faoliyatiga salbiy tomonlari bormi?

6. Korxonalar va banklar tolaydigan soliq stavkalari bir xilmi?

7. Banklar mulk soligʻini toʻlaydimi?

8. Banklar yagona soliq toʻlaydimi?

XII bob boʻyicha masala va mashqlar.

1-masala

“Kapital bank”da 2020 yil may oyida quyidagi operatsiyalar bajarilgan.

1. *1 may* Oddiy aktsiyalarni chiqarishdan 80000,0 ming soʻm pul mablagʻi oldi.

2. *3 may*. Bank 100 mln. soʻmlik kompyuter jihozlari oldi.

3. *3 may*. Bank arzon va tez eskiruvchi buyumlar uchun mol sotuvchiga 5000,0 ming soʻm toʻladi.

4. *4 may*. Bank mijozga 15 mayda asosiy qarzni va yillik 24 % daromadni qaytarish sharti bilan 5000,0 ming soʻm kredit berdi.

5. *15 may*. Mijozdan 4 mayda berilgan 5000,0 ming soʻm kredit foizi tshchlab berildi.

6. *16 may*. 100 mln. soʻmga qarzga olingan kompyuter jihozlari uchun mablagʻ toʻlandi.

7. 17 may. Mahalliy gazetadagi reklama uchun bank 1500,0 ming soʻm toʻladi.

8. 28 may. Mijozga xizmat koʻrsatganlik uchun 4020,0 ming soʻm mablagʻ olindi.

9. 29 may. Bank soatbay ishlaydigan material buxgalterga 850,0 ming soʻm ish haqi hisobladi.

10. 30 may. Bank lizing kompaniyasini 6000,0 ming soʻmlik aksiyalarini sotib oldi.

11. 31 may. Bank telefon kompaniyasiga 2500,0 ming soʻm toʻlovni amalga oshirdi.

12. 31 may. 2000,0 ming soʻm dividend toʻlandi.

13. 31 may. 8850.0 ming soʻm ish haqi toʻlandi.

Talab qilinadi:

1. Operatsiyalar uchun jurnal oching
2. Bank daromadlari va xarajatlari boʻyicha boʻyicha provodkalar tuzing.
3. Bankning oy oxirida sof foydasini hisoblang va bankning foyda soligʻini topib tegishli buxgalteriya oʻtkazmalarni bering.

Testlar

1. Banklarning hisoblangan soliq majburiyatlari qaysi boʻlimda hisobi olib boriladi?

- a) I boʻlim
- b) II boʻlim
- c) III boʻlim
- d) V boʻlim

2. Banklarning hisobvaraqlar rejasi:

- a) Olti boʻlimdan iborat
- b) Ikki boʻlimdan iborat
- c) Toʻqqiz boʻlimdan iborat
- d) Besh boʻlimdan iborat

3. Banklarda soliq hisobi boʻyicha toʻliq javob koʻrsating?

- a) banklarda soliqlar va yigʻimlar bilan bogʻliq boʻlgan buxgalteriya hisobi
- b) banklarda yigʻimlarga doir operatsiyalar bilan bogʻliq boʻlgan hisobi
- c) soliqlar va yigʻimlarni budjetga oʻtkazishni taʼminlash bilan bogʻliq boʻlgan moliyaviy hisobi

d) banklarda soliqlar va yig'implarni o'z vaqtida to'g'ri hisobga olish, soliqlarni o'z vaqtida budjetga o'tkazishni ta'minlash va soliq imtiyozlarini qo'llash

4. Bank soliq hisobi hisobvarag'ini toping?

- a) 20206, 20208, 20210, 20212
- b) 10201, 40205, 40404, 40409
- c) 90300, 90900, 91500, 96300
- d) 23400, 23402, 22500, 22502

5. Bank ish haqidan Yagona ijtimoiy to'lov hisoblendi.

- a) Debet-56406; Kredit-19921;
- b) Debet-56104; Kredit-22502;
- c) Debet-56114; Kredit-22510;
- d) Debet-56102; Kredit-22510.

XIII BOB. BANKLARDA BALANS DAN TASHQARI OPERATSIYALAR HISOBI

Tayanch soʻz va iboralar. balansdan tashqari operatsiyalar, bank kafolatlari, Muddatli bitimlar, qimmatliklarni saqlash, REPO, plastik kartalari, terminallari, bankomatlari va infokioskalari

13.1. Tijorat banklarida balansdan tashqari hisobvaraqlari tavsifi, ularning mazmuni va mohiyati

Yo. Abdullaev, T. Qoralievlar balansdan tashqari hisobvaraqlarga quyidagicha taʼrif bergan: “Balansdan tashqari moddalar balans aktivlari va passivlariga aloqasi boʻlmagan boyliklar, hujjatlar, topshiriqnomalarni hisobga olish maqsadida qoʻllaniladi”. Ushbu taʼrifdan koʻrinib turibdiki balansdan tashqari hisobvaraqlarda bank balansiga aloqador boʻlmagan operatsiyalar hisobga olinadi.

Korobova G.G.ning fikricha, balansdan tashqari hisobvaraqlar qatʼiy hisobda turuvchi blankalar va qimmatli qogʻozlar, toʻlov hujjatlari, kredit, lizing va xalqaro operatsiyalar boʻyicha hujjatlarni hisobga olishga moʻljallangan, yaʼni balansning aktivi yoki passiviga kiritilishi mumkin boʻlmagan qiymatliklar va hujjatlardir.

Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 13 avgustda 773-17-son bilan roʻyxatga olingan, Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2007 yil 17 iyuldagi 15/3-son qarori bilan tasdiqlangan Oʻzbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasining oxirgi 6 boʻlimi “Koʻzda tutilmagan holatlar” deb ataladi. Bank balansining mazkur boʻlimida bank tomonidan barcha turdagi balansdan tashqari hisoblari amalga oshiriladi va aks ettiriladi.

«Koʻzda tutilmagan holatlar» boʻlimiga operatsiyalarni ikki yoqlama yozuv uslubi boʻyicha aks ettirish va amalga oshirilgan operatsiyalarning toʻgʻriligini qoʻshimcha nazorat qilish imkonini beruvchi kontr-aktiv hisobvaraqlar kiritilgan.

Balansdan tashqari hisobvaraqlar bank balansining aktiv qismi tarkibiga kiradi.

Bankning balansdan tashqari hisobvaraqlarida quyidagilar aks ettiriladi:

- toʻlovga yaroqsiz va ekspertizaga qabul qilingan banknot va tangalar;
- hujjatli qimmatli qogʻozlar blankalari va hujjatsiz qimmatli qogʻozlar;

bankning plastik kartalari, terminallari, bankomatlari va infokioskalari;

- savdoga oid moliyalashlar;
- aktivlar bo'yicha foizlar va vositachilik haqlari;
- bankning kredit va lizing majburiyatlari;
- qarzdorlarning kredit va lizing majburiyatlari;
- hosilaviy instrumentlar bo'yicha transaksiyalar;
- qimmatli qog'ozlar bo'yicha muddatli bitimlar;
- saqlanayotgan qimmatli qog'ozlar va boshqa qimmatbaho buyumlar;
- garov sifatidagi qimmatli qog'ozlar, mulklar va mulkiy huquq(talab)lar.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasining 17.01.2011 yildagi №773-29-son o'zgarishiga asosan tijorat banklarining ko'zda tutilmagan holatlar bo'yicha hisobvaraqlari quyidagilardan iborat;

- 90100 To'lovga yaroqsiz va ekspertizaga qabul qilingan banknot va tangalar;
- 90300 Hujjatli qimmatli qog'ozlar blankalari va hujjatsiz qimmatli qog'ozlar;
- 90400 Bankning plastik kartalari, terminallari, bankomatlari va infokioskalari;
- 90900 Savdoga oid moliyalashlar;
- 91500 Aktivlar bo'yicha foizlar va vositachilik haqlari;
- 91800 Bankning kredit va lizing majburiyatlari;
- 91900 Qarzdorlarning kredit va lizing majburiyatlari;
- 92700 Hosilaviy instrumentlar bo'yicha transaksiyalar;
- 92800 Qimmatli qog'ozlar bo'yicha muddatli bitimlar;
- 93600 Saqlanayotgan qimmatli qog'ozlar va boshqa qimmatbaho buyumlar;
- 94500 Garov sifatidagi qimmatli qog'ozlar, mulklar va mulkiy huquq(talab)lar;
- 95400 Boshqa ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlari;
- 96300 Ko'zda tutilmagan holatlar kontr-hisobvaraqlari.

90100 hisobvaraqdan 95400 hisobvaraqqacha bo'lgan hisobvaraqlar aktiv hisobvaraqlar hisoblanadi. Shu sababli ularning ko'payishi debetda kamayishi esa kreditda bo'ladi. Ushbu hisobvaraqlarga kontr-hisobvaraqlar bo'lib 96300 hisobvaraqlar hisoblanadi.

Ekspertizaga qabul qilingan pullar ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlari orderlari asosida 90141 "Ekspertizaga qabul qilingan banknot va

tangalar” hisobvarag’iga o‘z nominal qiymati bo‘yicha kirim qilinadi.

Inkassatsiya qilingan pul tushumini qayta sanash vaqtida yoki taftish, tekshiruv va boshqa hollarda ularning to‘lovga yaroqliligiga shubha tug‘diradigan pul va tangalar ham aynan shu hisobvaraqqa kirim qilinadi.

Debet 90141 - Ekspertizaga qabul qilingan banknot va tangalar

Kredit 96303 — Banknot, tanga va boshqa qiymatliklar xarakati bo‘yicha kontr-hisobvaraqq

To‘lovga yaroqli deb topilgan pul va tangalar eskirgan pullar toifasiga o‘tkaziladi hamda bir vaqtning o‘zida 90141 “Ekspertizaga qabul qilingan banknot va tangalar” hisobvarag‘idan chiqim qilinadi.

Debet 96303 — Banknot, tanga va boshqa qiymatliklar xarakati bo‘yicha kontr-hisobvaraqq

Kredit 90141 - Ekspertizaga qabul qilingan banknot va tangalar

To‘lov hujjatlari ko‘zda tutilmagan hisobvaraqlarda to‘lov muddatini kutayotganda yoki o‘z muddatida to‘lanmaganda hisobga olinadi. Buning uchun 2 ta kartoteka ochilgan bo‘lib, ularning biri kartoteka 1 ya‘ni To‘lov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari kartotekasi, ikkinchisi kartoteka 2 muddatida to‘lanmagan hisob-kitob hujjatlari kartotekasidir.

Ular quyidagi hisobvaraqlarda hisobga olinadi:

90962- To‘lov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari

90963- Muddatida to‘lanmagan hisob-kitob hujjatlari

Ushbu hisobvaraqlar aktiv hisobvaraqlardir, ularning kontr-hisobvaraqlari mos ravishda:

96319- To‘lov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari bo‘yicha kontr- hisobvaraqq

96321- Muddatida to‘lanmagan hisob-kitob hujjatlari bo‘yicha kontr-hisobvaraqlari hisoblanadi.

90962- To‘lov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari hisobvaraqq’ida to‘lov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlarining hisobi olib boriladi (Kartoteka №1). Hisobvaraqqning debetida to‘lov muddatini va/ yoki to‘lovchining aktseptlashini (roziligini) kutayotgan hisob-kitob hujjatlarining summasi aks ettiriladi. Hisobvaraqqning kreditidato‘lov muddati kelgan hisob-kitob hujjatlarining summasi aks ettiriladi. Tahliliy hisob har bir mijoz bo‘yicha alohida shaxsiy hisobvaraqlarda olib boriladi. Hisobvaraqqda to‘lov muddatini kutayotgan aktseptli to‘lov talabnomasi, akkreditivga ariza, hisob-kitob cheki hisobga olinadi.

Kartoteka №1 ga to‘lov hujjatlari kirim qilinganda quyidagi buxgalteriya

o'tkazmalari amalga oshiriladi:

Debet 90962- To'lov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari

Kredit 96319- To'lov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari
bo'yicha kontr- hisobvaraq

To'lov hujjatlarining muddati etib kelganda esa teskari buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 96319- To'lov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari
bo'yicha kontr- hisobvaraq

Kredit 90962- To'lov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari

Kartoteka № 2 ga to'lov hujjatlari kirim qilinganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:

Debet 90963- Muddatida to'lanmagan hisob-kitob hujjatlari

Kredit 96321-Muddatida to'lanmagan hisob-kitob hujjatlari bo'yicha
kontr-hisobvaraq

To'lov hujjatlarining muddati etib kelganda esa teskari buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 96321-Muddatida to'lanmagan hisob-kitob hujjatlari bo'yicha
kontr-hisobvaraq

Kredit 90963- Muddatida to'lanmagan hisob-kitob hujjatlari

13.2. Tijorat banklarida kredit va lizing operatsiyalarga doir balansdan tashqari hisobvaraqlar bo'yicha hisob-kitoblar

Bank tomonidan beriladigan kreditlar muddatiga ko'ra qisqa va uzoq muddatli bo'lishi mumkin. Qisqa muddatli kreditlar 1 yil muddatga, uzoq muddatli kreditlar 1 yildan ortiq muddatga beriladi. Qisqa muddatli kreditlarning ham xar xil turlari mavjud, ular bir biridan kredit berish shartlari, ta'minlash tarzi, qoplash muddatlari bilan farq qiladi.

Hozirgi kunda qisqa muddatli kreditlar hisobi Adliya vazirligi tomonidan 2004 yil 17 dekabrda № 1435 son bilan ro'yxatga olingan, Markaziy banki Boshqaruvining 2004 yil 27 noyabrdagi 25/9-sonli Qarori bilan tasdiqlangan № 594 sonli "Tijorat banklarida kreditlarning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risida"gi Nizom va boshqa Markaziy bankning me'yoriy hujjatlariga asosan tashkil etilgan.

Tijorat banklari tomonidan berilayotgan va olinayotgan kreditlar bo'yicha majburiyatlar balansdan tashqari hisobvaraqlarda hisobga olinadi
91800 - Banking kredit va lizing majburiyatlari

- 91809 - Bankning kredit va lizing berish majburiyati
- 91816 - Bankning kredit va lizing olish majburiyati
- 96351 - Bankning kredit berish majburiyati bo'yicha kontr-hisobvaraqa
Tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar bo'yicha garov sifatida olingan qimmatli qog'ozlar, mulklar va mulkiy huquq(talab)lar balansdan tashqari hisobvaraqlarda hisobga olinadi
- 94500 - Garov sifatidagi qimmatli qog'ozlar, mulklar va mulkiy huquq(talab)lar
- 94501 - Garov sifatida olingan qimmatli qog'ozlar
- 94502 - Garov sifatida olingan mulklar va mulkiy huquq(talab)lar
- 94503 - Garov sifatida olingan kafolat va kafilliklar
- 94504 - Olingan kreditlar va lizinglar bo'yicha garov sifatida berilgan qimmatli qog'ozlar
- 96381 - Garov sifatida olingan qimmatli qog'ozlar, mulklar va mulkiy huquq(talab)lar bo'yicha kontr-hisobvaraqa
Tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar bo'yicha garov sifatida olingan qimmatli qog'ozlar, mulklar va mulkiy huquq(talab)lar bo'yicha hujjatlar balansdan tashqari hisobvaraqlarda hisobga olinadi
- 93600 - Saqlanayotgan qimmatli qog'ozlar va boshqa qimmatbaho buyumlar
- 93609 - Saqlanayotgan qimmatbaho buyumlar
- 96379 - Saqlanayotgan qimmatli qog'ozlar va boshqa qimmatbaho buyumlar bo'yicha kontr-hisobvaraqa
Tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar bo'yicha qarzdorlarning kredit va lizing majburiyatlari balansdan tashqari hisobvaraqlarda hisobga olinadi
- 91900 - Qarzdorlarning kredit va lizing majburiyatlari
- 91901 - Qarzdorlarning qisqa muddatli kreditlar bo'yicha majburiyatlari
- 91905 - Qarzdorlarning uzoq muddatli kreditlar va lizinglar bo'yicha majburiyatlari
- 91907 - Qarzdorlarning Hukumatdan olingan uzoq muddatli kreditlari va lizinglar bo'yicha majburiyatlari
- 96345 - Qarzdorlarning qisqa muddatli kreditlar bo'yicha majburiyatlari kontr-hisobvarag'i
- 96349 - Qarzdorlarning uzoq muddatli kreditlar va lizinglar bo'yicha majburiyatlari kontr-hisobvarag'i
Tijorat banklarida kredit berish bo'yicha buxgalteriya o'tkazmasi

berilmasdan oldin ta'minot balansdan tashqari hisobvaraqlarda hisobga olinadi:

Debet 94501- Garov sifatida olingan qimmatli qog'ozlar

Debet 94502- Garov sifatida olingan mulklar va mulkiy huquq(talab)lar

Debet 94503- Garov sifatida olingan kafolat va kafilliklar

Kredit 96381 Garov sifatidagi qimmatli qog'ozlar, mulklar va mulkiy huquq(talab)lar bo'yicha kontr-hisobvaraqlar

Bunda kafillik, qimmatli qog'ozlar, mulklar va mulkiy huquqlar to'liq summada hisobga olinadi.

Tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar bo'yicha garov sifatida olingan qimmatli qog'ozlar, mulklar va mulkiy huquq(talab)lar bo'yicha hujjatlar balansdan tashqari hisobvaraqlarda hisobga olinadi (shartli 1 so'm qiymatida)

Debet 93609 - Saqlanayotgan qimmatbaho buyumlar

Kredit 96379 - Saqlanayotgan qimmatli qog'ozlar va boshqa qimmatbaho buyumlar bo'yicha kontr-hisobvaraqlar

Shu bilan birgalikda berilgan qisqa muddatli kredit summasi balansdan tashqari hisobvaraqlarda quyidagicha hisobga olinadi:

Debet -91901 - Qarzdorlarning qisqa muddatli kreditlar bo'yicha majburiyatlari

Kredit - 96345 - Qarzdorlarning qisqa muddatli kreditlar bo'yicha majburiyatlari kontr-hisobvaraqlari

Uzoq muddatli kredit bo'yicha esa:

Debet - 91905 - Qarzdorlarning uzoq muddatli kreditlar va lizinglar bo'yicha majburiyatlari

Kredit - 96349 - Qarzdorlarning uzoq muddatli kreditlar va lizinglar bo'yicha majburiyatlari kontr-hisobvaraqlari

Tijorat banki tomonidan kreditlar ajratilganda va lizing xizmatlari ko'rsatilgan vaqtda rasmiylashtirilgan kredit va lizing shartnomalari summalari bo'yicha bankning mijozlar oldida va mijozlarning tijorat banki oldida majburiyatlar hosil bo'ladi va quyidagi tartibda balansdan tashqari hisobvaraqlarda aks ettiriladi.

Debet - 91809 Bankning kredit va lizing berish majburiyati.

Kredit - 96351 Bankning kredit berish majburiyati bo'yicha kontr - hisobvaraqlar.

Hisoblangan foizli daromadlarni ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlariga o'tkazilishi quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari orqali

amalgama oshiriladi:

Debet Tegishli foizli daromadlar hisobvaraqlari

Kredit 16300 - Olinishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar

Debet 91500 - Aktivlar bo'yicha foizlar va vositachilik haqlari

Kredit 96333 - (Qimmatli qog'ozlar bo'yicha) Olinishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar kontr-hisobvarag'i yoki 96335 - Aktivlar bo'yicha foizlar va vositachilik haqlari kontr-hisobvarag'i

Shuningdek, faktoring summasi balansdan tashqari hisobvaraqda hisobga olinadi:

Debet 90966 - Sotib olingan debitorlik qarzlari - Faktoring

Kredit 96331 - Sotib olingan debitorlik qarzlari-Faktoring bo'yicha kontr-hisobvaraq

13.3. Banklarda qimmatbaho buyumlar va qat'iy hisobda turadigan blankalarni balansdan tashqari hisobvaraqlarda hisobga olinishi

Tijorat banklarida ko'zda tutilmagan hisobvaraqlarda foydalanishga topirishilgan bank mulklari hisobi ham yuritiladi. Bunda xozirgi kunda ommalashib borayotgan plastik kartochkalar va ularga xizmat ko'rsatuvchi bankomat, terminal va infokiosklar hisobga olinadi. Ularni hisobga olish uchun quyidagi hisobvaraqlardan foydalaniladi:

90400 - Bankning plastik kartalari, terminallari, bankomatlari va infokioskalari

90402- Bank tomonidan muomalaga chiqarilgan jismoniy shaxslarning plastik kartalari

90404 - Bank tomonidan muomalaga chiqarilgan yuridik shaxslarning korporativ plastik kartalari

90406- Bank tomonidan muomalaga chiqarilgan yakka tartibdagi tadbirkorlarning korporativ plastik kartalari

90410- Bank tomonidan o'rnatilgan terminallar

90412- Bank tomonidan o'rnatilgan bankomatlar

90414- Bank tomonidan o'rnatilgan infokioskalar

90402, 90404, 90406 hisobvaraqlarda bank tomonidan muomalaga chiqarilgan bank plastik kartalari hisobi olib boriladi. Bank tomonidan muomalaga chiqarilgan plastik kartalar "donasi 1 so'm" bo'lgan shartli bahoda hisobga olinadi. Ushbu hisobvaraqlar uchun 96311 - "Bank tomonidan muomalaga chiqarilgan plastik kartalar bo'yicha kontr-hisobvaraq" kontr-

hisobvaraqlar hisoblanadi.

Hisobvaraqlarning debetida bank tomonidan muomalaga chiqarilgan plastik kartalarning “donasi 1 so‘m” bo‘lgan shartli bahodagi qiymati aks ettiriladi.

Banklarda ko‘zda tutilmagan hisobvaraqlarda shuningdek, qimmatli qog‘ozlarning blankalari ham hisobga olinadi. Umuman olganda tijorat banklarida qimmatli qog‘ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning buxgalteriya hisobi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 19 yanvarda 1885-son bilan ro‘yxatga olingan “Tijorat banklarida qimmatli qog‘ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnoma asosida amalga oshiriladi.

Tijorat banklari tomonidan aksiyalar hujjatsiz shaklda depozitariyning hisobga olish registrlaridagi yozuvlar elektron tarzida chiqariladi.

Qimmatli qog‘ozlar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandan so‘ng hamda chiqarilgan aksiyalar Markaziy depozitariyda hisobga olingandan so‘ng, depozitariyning hisobotiga asosan quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 90329 - «Bankning hujjatsiz qimmatli qog‘ozlari»

Kredit 96314 - «Bankning qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha kontr-hisobvaraqlar».

Tijorat banklari o‘zlari chiqargan aksiyalarini bekor qilish istagida qayta sotib olgan vaqtda ham ularning hisobini bankning balansdan tashqari hisobvaraqlarida yuritadi va quyidagi o‘tkazma amalga oshiriladi.

Debet 90327 - «Bankning qimmatli qog‘ozlari blankalari»;

Kredit 96314 - «Bankning qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha kontr-hisobvaraqlar».

Debet 90329 - «Bankning hujjatsiz qimmatli qog‘ozlari»

Kredit 96314 - «Bankning qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha kontr Agar banklar sotish uchun yoki mijoz topshirig‘iga asosan sotib olingan qimmatli qog‘ozlarni hisobini yuritish uchun quyidagi balansdan tashqari hisobvaraqlardan foydalanadi.

Debet 93616 - «Davlatning shartli tarzda saqlanayotgan qimmatli qog‘ozlari», 93623 - «Saqlanayotgan xususiy qimmatli qog‘ozlar/tijorat hujjatlari».

Kredit 96379 - «Saqlanayotgan qimmatli qog‘ozlar va boshqa qimmatbaho buyumlar bo‘yicha kontr-hisobvaraqlar».-hisobvaraqlar».

REPO (qayta sotib olish sharti bilan qimmatli qog‘ozlarning oldi-soldi bitimlari to‘g‘risidagi kelishuv) bitimi deganda ma’lum muddatdan

so'ng oldindan kelishilgan bahoda sotib olish majburiyati bilan qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha tuzilgan bitim tushuniladi. REPO bitimlari quyidagi tamoyillarning biri bajarilgan holda moliyalashtirish operatsiyalari sifatida hisobga olinadi:

1) avval sotilgan qimmatli qog'ozlarning o'zi qayta sotib olinsa;

2) agar qayta sotib olinayotgan qimmatli qog'ozlar barcha jihatlariga ko'ra sotilgan qimmatli qog'ozlarga o'xshasa

Debet 92802 - «Qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha muddatli bitimlar».

Kredit 96374 - «Qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha muddatli bitimlar kontr-hisobvarag'i».

92802 - «Qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha muddatli bitimlar» hisobvarag'ida qimmatli qog'ozlar REPO operatsiyasining birinchi qismiga muvofiq, qimmatli qog'ozlarning sotilish sanasidan boshlab, bank tomonidan REPO operatsiyasining ikkinchi qismiga muvofiq, qimmatli qog'ozlarni sotib olish muddatigacha hisobga olinadi.

REPO operatsiyasining ikkinchi qismi amalga oshirilgandan so'ng, buxgalteriya o'tkazmasi teskari holatda amalga oshiriladi.

Bank tomonidan sotib olingan va qayta sotib olish sharti bilan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi bitimlari to'g'risidagi kelishuvning ikkinchi qismini bajarishda bank sotishi lozim bo'lgan qimmatli qog'ozlar qiymatiga ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlarida quyidagi buxgalteriya o'tkazmasini amalga oshiradi:

Debet 92806 - «Qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha muddatli bitimlar».

Kredit 96376 - «Qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha muddatli bitimlar kontr-hisobvarag'i».

92806 - «Qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha muddatli bitimlar» hisobvarag'ida qimmatli qog'ozlar REPO operatsiyasining birinchi qismiga muvofiq qimmatli qog'ozlarni sotib olish sanasidan boshlab bank tomonidan REPO operatsiyasining ikkinchi qismiga muvofiq qimmatli qog'ozlarni sotish muddatigacha hisobga olinadi.

Hisobdan chiqarilgandan so'ng kelishuvning ikkinchi qismi bo'yicha qimmatli qog'ozlarni qayta sotish bahosi va kelishuvning birinchi qismi bo'yicha qimmatli qog'ozlarni sotib olish bahosi o'rtasidagi farq amortizatsiyasi ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlarida hisobga olinadi:

Debet 95411 - «Olinishi lozim bo'lgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisoblangan foizlar».

Kredit 96333 - «Olinishi lozim bo'lgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisoblangan foizlar kontr-hisobvarag'i».

Ko'zda tutilmagan holatlar hisobvarag'ida yuritiladigan hisob REPO kelishuvining ikkinchi qismi bajarilganidan so'ng to'xtatiladi:

Debet 96333 - «Olinishi lozim bo'lgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisoblangan foizlar kontr-hisobvarag'i».

Kredit 95411 - «Olinishi lozim bo'lgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisoblangan foizlar».

Xulosa qilib aytganda tijorat banklarida qimmatbaho buyumlar va qat'iy hisobda turadigan blankalarni balansdan tashqari hisobvaraqlarda to'g'ri hisobga olinishi bank faoliyatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Nazorat savollari va topshiriqlar.

1. Bankning balansdan tashqari operatsiyalari hisobini yuritilishini misollar yordamida tushuntiring va provodkasini bering.

2. Tijorat banklarida balansdan tashqari hisobvaraqlari tavsifi, ularning mazmuni va mohiyati tushuntiring va provodkasini bering.

3. Tijorat banklarida kredit va lizing operatsiyalarga doir balansdan tashqari hisobvaraqlar bo'yicha hisob-kitoblarini tushuntiring.

4. Tijorat banklarning balansdan tashqari operatsiyalariga nimalar kiradi va ularning hisobi qanday tartibda yuritiladi?

5. Bankning balansdan tashqari operatsiyalarining bankka salbiy tomonlari bormi?

6. Bankning balansdan tashqari yangi operatsiyalarini sanang?

13 bob bo'yicha masala va mashqlar.

1-masala.

Asaka bank o'z portfelida «Uzdonmahsulot» AJning 60000000 so'mlik aktsiyalarini qayta sotib olish sharti bilan REPO shartnomasiga asosan Agrobankga berdi. Shartnoma muddati 2 oy. Aktsiyalar sotish qiymati - 60000000 so'm, qayta sotib olish qiymati - 60100000 so'm.

Topshiriqlar:

1. REPO operatsiyalarining mohiyatini tushuntirib bering.

2. Buxgalteriya provodkalarini tuzing. Bunda balansdan tashqari hisobini ham bering.

2-masala.

Tijorat banki REPO shartnomasi bo'yicha 12000000 so'mlik qimmatli qog'ozlarni sotib oldi. Shartnoma muddati 1 oy. Sotib olish narxi 1500000 so'm, qayta sotish narxi 13500000 ming so'm.

Topshiriqlar:

1. Moliyaviy natijani aniqlang;
2. Buxgalteriya provodkalari tuzing. Bunda balansdan tashqari hisobini ham bering.

3-masala.

A bankning A filialiga tegishli bulgan balans koldik qiymati 280 mln sumlik bankomatini shu bankning B filialiga utkazish kerak. Ushbu bankomat 1 yildan beri ishlatililib kelinyapti.

Talab qilinadi:

1. Asosiy vositalar xisobidagi provodkalarini bering (ikkala filial tomonidan)
2. Balansdan tashqari provodkalarini bering (ikkala filial tomonidan)
3. Ushbu amaliet kay xollarda bulishi mumkin? B filial yangi ochilgan bulsachi? Bankomat uchun utgan yilda nalogoviy lgota kulanilgan bulsachi, unda Nima buladi?

Testlar

1. Banklarning balansdan tashqari oeratsiyalari hisobi qaysi bo'limda hisobi olib boriladi?

- a) I bo'lim
- b) II bo'lim
- c) III bo'lim
- d) VI bo'lim

2. Banklarning ko'zda tutilmagan holatlar bo'limidagi balans hisobvaraqlari hususiyatiga ko'ra qanday hisobvaraqlar?

- a) Passiv hisobvaraq
- b) Aktiv hisobvaraq
- c) Aktiv-passiv hisobvaraq
- d) Kontr-passiv hisobvaraq

3. Aktseptli to'lov talabnoma qachon kartoteka 1 ga kirim qilinadi??

- a) kartoteka № 1 ga kuyilmaydi;
- b) kelib tushgandan so'ng, mijoz ogoxlantirilgandan keyin;
- c) kelib tushgan kuning ikkinchi kuni;
- d) keyingi ish kunidan kechiktirmasdan.

4. Qarzdorlarning kredit va lizing majburiyatlari qaysi hisobvaraqda hisobga olinadi?

- a) 90900
- b) 91900
- c) 90300
- d) 96300

5. Kartoteka № 1 ga to'lov hujjatlari kirim qilinganda qanday buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi?

- a) Debet-96319; Kredit-90962;
- b) Debet-96321; Kredit-90962;
- c) Debet-90962; Kredit-96319;
- d) Debet-96321; Kredit-90963.

Tayanch soʻz va iboralar. Moliyaviy hisobotlar, moliyaviy ahvol, aktiv, passiv, daraomad, xarajat, foyda, zarar.

14.1. Moliyaviy hisobotlar, moliyaviy ahvol va uni baholash

Moliyaviy hisobotlar – bu xoʻjalik operatsiyalari va hodisalarni turli toifalarga koʻra pul qiymatida aks ettirishdir. Moliyaviy hisobot bank tomonidan bajarilgan barcha operatsiyalar va boshqa hodisalar natijalarini, ularni keng doiradagi umumiy belgilari va iqtisodiy tavsiflariga koʻra maʼlum bir toifalarga birlashtirgan holda aks ettiradi.

Moliyaviy ahvol – bank mulkida boʻlgan iqtisodiy resurslarni mavjudligi va ularga qarama-qarshi boʻlgan jami kapitaldir. Moliyaviy ahvolni faqat maʼlum davrga aniqlash mumkin. Masalan oy, chorak, yil.

Tijorat banklar har yili quyidagi moliyaviy hisobotlarini tuzadi:

- moliyaviy xolat toʻgʻrisidagi hisobot (buxgalteriya balansi);
- foyda va zararlar toʻgʻrisidagi hisobot;
- pul mablagʻlari toʻgʻrisidagi hisobot;
- kapital harakati toʻgʻrisidagi hisobot;
- izohlar va qoʻshimcha maʼlumotlar.

Iqtisodiy resurslarni buxgalteriya hisobida aktivlar deb, kreditorlik qarzlarni esa -majburiyatlar deb ataladi. Bank aktivlari, majburiyatlari va kapitalini hisobga olgan holda bank moliyaviy ahvolining tenglamasi quyidagi koʻrinishga ega boʻladi:

$$\text{Aktivlar} = \text{Majburiyatlar} + \text{Kapital}$$

Bu tenglama balans tenglamasi sifatida buxgalteriyada barcha bankir va umuman, barcha buxgalterlarga maʼlum. Ushbu tenglama bank uchun ham, korxonaga uchun ham birday boʻlib hisoblanadi. Uning ikkala qismi albatta birbiriga teng boʻlishi kerak. Balans tenglamasi bilan bevosita bogʻliq hisobot buxgalteriya balansi deyiladi. Buxgalteriya balansi bank yoki korxonaga moliyaviy ahvolini maʼlum bir sanaga, masalan, hisobot davrining oxiriga taʼriflaydi. Buxgalteriya balansi subʼektning aktivlari, yaʼni resurslari, resurslarga bildirilgan daʼvolar, yaʼni majburiyatlar va mulk egasiga tegishli

ulush bo‘lgan xususiy kapital to‘g‘risida iqtisodiy axborot beradi. Demak, bank balansini umumiy ko‘rinishda quyidagi shaklda ifodalash mumkin:

12-jadval

Bank balansining shakli

Hisobvaraqa raqamlari	Aktivlar	Passivlar (majburiyatlar+ kapital)

Aktivlar likvidlilik darajasining pasayib borishi tartibida, majburiyatlar esa to‘lov muddatining kamayib borishi tartibida va kapital jamlanishining kamayib borishi tartibida guruhlangan.

Balans muayyan sana bilan aks ettirilishi kerak. Masalan, “2014 yil 31 dekabr”. Bunga qarama-qarshi “Foyda va zararlar to‘g‘risida”gi hisobotda esa muayyan vaqt davrini aks ettirish uchun sana qo‘yiladi, masalan. “2014 yil uchun”.

Endi balans aktivlari, majburiyatlari va kapital bo‘limlarining tavsifini ko‘rib chiqamiz.

Aktivlar – kelgusida iqtisodiy naf olinishi kutiladigan, o‘tib ketgan davrlardagi hodisalar natijasida vujudga kelgan va bank yoki korxonada nazoratida bo‘lgan resurslardir. Aktivlar uch asosiy tavsifga ega bo‘lib, ular quyidagilar:

- kelgusi iqtisodiy nafni, ya’ni pul mablag‘lari yoki ularning ekvivalentlarining oqimiga bevosita va bilvosita kiritilgan imkoniyatlarni o‘z ichiga oladi;

- kelgusida olinadigan ushbu iqtisodiy naflarga bank tomonidan nazorat qilish imkoniyati mavjud bo‘lishi kerak;

- bajarilgan xizmat yoki boshqa hodisalarning natijasi hisoblanadi.

1-sonli Buxgalteriya Hisobining Xalqaro Standartlariga muvofiq aktivlar quyidagi holatlarda qisqa muddatli aktiv sifatida turkumlanadi:

1. Aktivni operatsion tsiklning odatiy sharoitlarida sotish yoki sotish uchun saqlash yohud foydalanish uchun saqlashni nazarda tutadi.

2. Aktiv qisqa muddat ichida tijorat maqsadlarida saqlanadi va uni hisobot davridan boshlab 12 oy ichida sotish nazarda tutiladi.

3. U foydalanish uchun cheklovlarga ega bo‘lmagan pul mablag‘lari yoki ularning ekvivalentlari sifatidagi aktivdir.

Boshqa barcha aktivlar uzoq muddatli aktivlar sanaladi.

Balansning ikkinchi tomonidagi asosiy bo'lim majburiyatlar bo'limi bo'lib hisoblanadi. Majburiyatlar – bu o'tgan davr mobaynida sodir etilgan hodisalar yoki bajarilgan operatsiyalar natijasida paydo bo'lgan korxonona yoki bankning qarzdorligidir. Ushbu qarzlarni qaytarish esa korxonalarining va banklarning resurslarini kamayishiga olib keladi. Xuddi aktivlar kabi majburiyatlar ham alohida tavsifga ega va ular quyidagilardir:

1. O'zida hozirgi kunda mavjud bo'lgan majburiyatni ifodalaydi.

2. Buning natijasi aktivlar bilan haq to'lanishi yoki xizmatlarning bajarilishiga olib keladi. Kelgusida paydo bo'ladigan majburiyatlar bunga kirmaydi.

3. Majburiyatni bajarish bank uchun majburiy hisoblanadi va deyarli muqarrar bo'ladi.

4. Majburiyatlar avvalgi davrlarda sodir etilgan hodisalar natijasida yuzaga keladi.

1-sonli Buxgalteriya Hisobining Xalqaro Standartlariga ko'ra majburiyatlar quyidagi holatlarda qisqa muddatli majburiyat sifatida turkumlanadi:

1. Majburiyatni bank yoki korxonaning operatsion tsiklining odatiy sharoitlarida amalga oshirilganini hisobga olgan holda qaytarilishi ko'zda tutilgan bo'lganda;

2. Ushbu majburiyat hisobot davri boshlanishidan boshlab 12 oy ichida qaytirilishiga mo'ljallangan bo'lishi lozim.

Bankning boshqa barcha majburiyatlari uzoq muddatli hisoblanadi va turkumlanadi. Moliyaviy hisobotlarda aktivlar va majburiyatalarning o'zaro qoplanishi ta'qiqlanadi.

Bank passivlarining yana bir qismi bu kapitaldir. Hozirgi kunda ko'p banklarning balansida kapital xususiy kapital ko'rinishida shakllangan.

Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotni ko'pincha moliyaviy-xo'jalik faoliyat natijalari to'g'risidagi hisobot deb ataladi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot berilgan hisobot davrining boshiga va oxiriga bo'lgan balanslar o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in vazifasini bajaradi. Hisobot moliyaviy xo'jalik operatsiyalari (daromadlar va xarajatlar) keltirib chiqargan moliyaviy-xo'jalik faoliyatidagi o'zgarishlarni tushuntirib beradi.

Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda quyidagi ko'rsatkichlar keltirib o'tilgan bo'ladi:

– foizli daromadlar;

- foizli xarajatlar;
- foizsiz daromadlar;
- operatsion xarajatlar;
- sof foyda va boshqalar.

Yuqoridagi xar bir ko'rsatkichlar xam bir nechta elemenlardan tashkil topgan.

Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot investorlar uchun muxim xisobot shakllaridan biri bo'lib hisoblanadi, chunki investorning asosiy maqsadi o'z sarmoyasi orqali daromad olish hisoblanadi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot (7-MXXS) kirish standartlaridan biri hisoblanadi. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot (7-MXXS) standartiga muvofiq, bank pul oqimlari haqidagi o'z hisobotida pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarining o'zgarishi to'g'risidagi axborotlarini yoritib berishi lozim. Ushbu standartga muvofiq, hisobot davri davomida pul mablag'larining harakati quyidagi ko'rinishda tavsiflanishi kerak:

- operatsion faoliyat bo'yicha pul mablag'lari harakati;
- investitsion faoliyat bo'yicha pul mablag'lari harakati;
- moliyaviy faoliyat bo'yicha pul mablag'lari harakati.

Hisobotning sanab o'tilgan har bir bo'limining o'zi ham bir nechta moddalardan iborat bo'lib, hisob-kitob, kassa, qimmatli qog'ozlar va boshqa operatsiyalar moddalar bo'yicha pul mablag'lari harakati batafsil ko'rsatiladi. Bularga quyidagilar kiradi:

- olingan va to'langan foizlar;
- olingan va to'langan vositachilik xaqi;
- xodimlarni ta'minlash xarajatlari, to'langan;
- umumiy, ma'muriy va boshqa operatsion xarajatlar, to'langan;
- O'RMB dagi majburiy zaxira hisobraqami;
- banklar va boshqa moliyaviy institutlardagi hisobraqamlar;
- «repo» kelishuvi bo'yicha olinishi lozim bo'lgan hisobraqamlar;
- soliq to'lagunga qadar operatsion faoliyatdan olingan sof pul mablag'lari kabi elementlari ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Kapital harakati to'g'risidagi hisobot bankning kapital tarkibiga kiradigan elementlar ko'rsatib o'tilgan bo'ladi. Investorlar bevosita kapital tarkibidagi o'zgarishlarga qiziqadi, chunki kelajakta bank biror bir talofatga yuz tutganda, zararni qanchalik tez bartaraf etishi bevosita bank kapitaliga bog'liqdir.

Kapital harakati to'g'risidagi hisobotda:

- ustav kapitali;
- qo‘shilgan kapital;
- sotib olingan o‘z aksiyalari;
- jami aksiyadorlik kapitali;
- zaxiralar;
- taqsimlanmagan foyda;
- jami xususiy kapital kabi elementlar keltirib o‘tilgan bo‘lishi kerak.

Tan olish – bu quyida keltirilgan elementlarni tan olish mezoniga javob beradigan moddalardan birini “Balans hisoboti” yoki “Foyda va zararlar to‘g‘risida”gi hisobotga kiritishdir. Tan olish – moddani so‘z bilan ifodalash va uning pul qiymatida aks ettirish, shuningdek, ushbu summani balans va “Foyda va zararlar to‘g‘risida”gi hisobotda aks ettirishdir. Tan olish mezoniga javob beruvchi summani balans va “Foyda va zararlar to‘g‘risida”gi hisobotda tan olinishi zarur.

Moliyaviy hisobot foydalanuvchilar tomonidan qabul qilinadigan iqtisodiy qarorlar, bank yoki korxonanani pul mablag‘lari va ularni ekvivalentlarini yaratish va ko‘paytirish, shuningdek, bu jarayonni barqarorligi va o‘z vaqtida amalga oshirilishi imkoniyatini baholashni talab etadi. Bu imkoniyat, pirovard natijada, masalan, korxonani o‘z xodimlariga ish haqini to‘lash, mol yetkazib beruvchilarga, foizlar bo‘yicha qarzlarni to‘lash, kreditlarni qaytarish va o‘z mulkdorlariga dividendlarni to‘lash qobiliyatini belgilaydi. Foydalanuvchilar, korxonaning pul mablag‘lari va ularni ekvivalentlarini yaratish qobiliyatini baholashi uchun, korxonaning moliyaviy ahvoli, faoliyat natijalari va moliyaviy ahvoldagi o‘zgarishlarga yo‘naltirilgan ma‘lumotlarga ega bo‘lishi kerak.

Bank nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, bank aktivlarining holati qanday, bank majburiyatlarini o‘z vaqtida to‘lab bera oladimi-yo‘qmi, mijozlarning omonatlari bo‘yicha foizlar qarzlarni o‘z vaqtida to‘lay oladimi, bankning boshqa banklardan yoki mijozlardan olgan kreditlarini qaytara oladimi degan qator savollarga javob berish uchun bankning moliyaviy holati, pul mablag‘larining harakati, moliyaviy faoliyatining natijalari haqida ma‘lumotga ega bo‘lish kerak. Bularni umumlashgan holda bankning moliyaviy ahvoli deyish mumkin.

Moliyaviy ahvol to‘g‘risidagi ma‘lumot, asosan, buxgalteriya balansida beriladi. Bank faoliyatining natijalari haqida ma‘lumot, asosan, foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobotda keltiriladi. Moliyaviy ahvoldagi o‘zgarishlar moliyaviy hisobotda alohida o‘rin egallagan hisobot (xususiy kapitaldagi

o'zgarishlar) orqali ko'rsatiladi. Demak, bankning moliyaviy ahvolini moliyaviy hisobotlardan bilib olish mumkin.

Moliyaviy hisobotning tarkibiy qismlari bir-biri bilan uzviy bog'liq, chunki ular bir xil operatsiyalar va hodisalarni turli jihatlarini aks ettiradi. Hisobotning har bir shakli boshqalardan farq qiladigan ma'lumotni berishiga qaramasdan, hech bir ashyo yakkalanib qolmaydi va foydalanuvchilar uchun muayyan ehtiyojlarini aks ettiruvchi kerakli bo'lgan barcha ma'lumotni yetkazib bera olmaydi. Masalan, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot, balans va moliyaviy ahvolni o'zgarishi haqidagi hisobotlarning ma'lumotlarisiz foydalansa, sub'ektning moliyaviy natijalari haqida to'liq axborotni bera olmaydi.

14.2. Kunlik balans hisobotini tayyorlash va taqdim qilish

Tijorat banklarida har kuni qonun va me'yoriy hujjatlarda belgilangan tartibda bir qator operatsiyalar bajariladi. Banklar operatsiyalarning bajarilishi va ularning buxgalteriya hisobida aks ettirilishi to'g'risida hisobot tuzilishi va ularni tegishli tashkilotlarga taqdim etishi lozim. Tijorat banklari tomonidan tuziladigan eng asosiy hisobot kunlik balansidir.

Banklar kunlik bajarilgan buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'rnatilgan shaklda kunlik balans hisoboti tuzadi. Kunlik balans hisoboti Bosh bank tomonidan butun bank bo'yicha yagona qilib tayyorlanadi.

Bosh bankning Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti (bosh-qarmasi) tomonidan yagona balans hisobotini tuzish ustidan moni-toring o'rnatiladi.

Yagona balans "Bank binosidan tashqarida joylashgan mas'ul ijrochi buxgalter" qoidasi asosida shakllantiriladi. Bunda ma'lumotlarni qayta ishlovchi Bosh server Bosh bankda, filiallarda esa yagona lokal hisoblash tarmog'iga ulangan buxgalter, iqtisodchi, filial rahbariyati va boshqa xodimlarning ishchi stansiyalari joylashgan bo'ladi.

Filiallarda barcha pul hisob-kitob hujjatlari (to'lov topshiriqnomasi, to'lov talabnomasi, inkassa topshiriqnomasi, akkreditivga ariza, memorial orderlar, inkasso qilingan pul tushumlariga ilova ro'yxati, e'lonnoma va pul cheklari) asosida amalga oshirilayotgan operatsiyalar maxsus o'rnatilgan belgilar sifatida Bosh serverga avtomatik uzatiladi va shu zahoti Bosh serverda aks ettiriladi.

Har ish kuni oxirida Bosh bankda kun davomida amalga oshirilgan operatsiyalarning banklararo, filiallararo va ichki bank operatsiyalariga boʻlingan holdagi roʻyxati tayyorlanadi. Bu operatsiyalarning jamlanma summasi kun mobaynida amalga oshirilgan butun bank operatsiyalari summasiga teng boʻlishi lozim.

Bosh bank Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining Axbotrotlashtirish bosh markazidan END faylni olgandan soʻng, kun yopish bilan bogʻliq boʻlgan barcha operatsiyalarni bajaradi va shu zahoti oʻzi-ning filiallariga kun davomida amalga oshirilgan operatsiyalar toʻgʻrisida END faylga mos boʻlgan nazorat faylini yuboradi.

Bank filiallari oʻrnatilgan tartibda kunlik buxgalteriya hujjatlarini yigʻmajildga tikishlari va ularni balans maʼlumotlari bilan solishtirishlari lozim. Har bir hisobot shakli filial rahbari va bosh buxgalteri tomonidan sinchiklab tekshiriladi.

Bosh bank rahbarlari balans boʻlmagan, hisobda tartibga solinmagan tafvutlar chiqqanda va bir kun davomida mijozlarga xizmat koʻrsatilishi taʼminlanmagan hollarda bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur barcha chora-tadbirlarni koʻrishi lozim.

Bank filiallari rahbarlari va bosh buxgalterlari balans chiqmagan-ligi haqida belgilangan muddatda Bosh bankka xabar qilmasalar, ularga nisbatan egallab turgan lavozimlaridan ozod qilishgacha boʻlgan choralar koʻriladi.

Balansning toʻgʻri tuzilganligi quyidagi tartibda tekshiriladi:

– kunlik balansning aktiv va passivlarning qoldiqlar boʻyicha yakunlari tengligi (aktiv hisobvaraqlari qoldiqlarining majburiyatlar hisobva-raqdari qoldiqlari plyus kapital hisobvaraqlari qoldiqlariga tengligi);

– “Koʻzda tutilmagan holatlar” hisobvaraqlari qoldiqlari yakunining toʻgʻriligi, shu hisobvaraqlar bilan ularga tegishli kontr-hisobvaraqlar qoldiqlarining oʻzaro tengligi;

– aktiv hisobvaraqlarda kredit qoldiq (kontr-aktiv hisobvaraqlardan tashqari), passiv hisobvaraqlarda debet qoldiq (kontr-passiv hisobvaraqlardan tashqari) boʻlmasligi;

– aktiv hisobvaraqlarga ochilgan kontr-aktiv hisobvaraqlar qoldigʻi shu aktiv hisobvaraqlar qoldigʻidan ortiq boʻlmasligi, passiv hisobvaraqlarga ochilgan kontr-passiv hisobvaraqlar qoldigʻi shu passiv hisobvaraqlar qoldigʻidan ortiq boʻlmasligi;

– Bosh bankda ochilgan 16100 va 22200 – hisobvaraqlari qoldiqlari hamda ular boʻyicha ochilgan ikkinchi tartibli mos hisobvaraqlar-ning

qoldiqlari o‘zaro teng bo‘lishi;

– asosiy vositalar, daromadlar va xarajatlar hamda bank kapitali hisobi faqat milliy valutada yuritilishini ta‘minlash va balansning rezident va norezident ustunlarini shunga mos ravishda to‘ldirilganligi.

Balansning to‘g‘riligiga ishonch hosil qilgandan so‘ng kunlik buxgalteriya hisoboti sifatida bir nusxa balans chop etiladi. Bosh bankda butun bank bo‘yicha, filiallar esa o‘z filiallari bo‘yicha balans chiqaradilar.

Bankning yagona kunlik balansi bank rahbari va Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti direktori tomonidan imzolanishi lozim.

Filiallar balansi filial boshqaruvchisi va uning bosh buxgalteri tomonidan, kassa operatsiyalari bo‘yicha hisobotlarga ulardan tashqari kassa mudiri yoki mas‘ul kassa xodimi imzo chekadi.

Banklar balansi boshqa zarur ma‘lumotlar bilan birgalikda Markaziy bankka taqdim qilish uchun Bosh serverdan Axborotlash boshqaruv tizimiga uzatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Buxgalteriya hisobi, hisoboti va davlat budjeti kassa ijrosi departamenti tijorat banklari va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hududiy Bosh boshqarmalarining balanslarini alohida jamlab, so‘ngra butun respublika banklari bo‘yicha yig‘ma balans tuzadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank balansi Buxgalteriya hisobi, hisoboti va davlat budjeti kassa ijrosi departamenti tomonidan, tijorat banklari balanslari Kredit tashkilotlarini faoliyatini litsenziyalash va tartibga solish departamenti tomonidan tahlil qilinadi.

Tahlil natijalari bo‘yicha tijorat banklariga tegishli ko‘rsatmalar beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining vakolatli departamentlari ABTdan o‘rnatilgan tartibda balans va boshqa tegishli ma‘lumotlar olishi mumkin.

Kunlik balansdan tashqari bankda boshqa hisobotlar ham tuzib boriladi, har bir hisobotning belgilangan shakllari, ularni topshirish muddati alohida belgilanadi.

Hisobotlarning maqsadi, topshirish muddatlari va shakllari «O‘zbekiston Respublikasi banklarida statistika hisobotlarini tashkil etish qoidalari» sarlavhali 221-yo‘riqnomada bayon etilgan. Bu hisobot shakllariga quyidagilar ilova qilinadi:

• «Tovar-moddiy qiymatliklar uchun to‘langan mablag‘lar» nomli 19909, «Tovar-moddiy qiymatliklar uchun olinadigan mablag‘lar» nomli

29802 hisobvaraqlar, “Tugallanmagan qurilish” nomli 16505-hisobvaraqlar bo‘yicha qoldiqlar qaydnomasi;

- aniqlanguncha o‘zaro hisob-kitoblar bo‘yicha o‘tkazilgan summalar qaydnomasi, shuningdek, qaydnomaga «Kliring transaksiyalari degan 17301, 23202, «Aniqlanish jarayonidagi transaksiyalar 17305, 23206 hisobvaraqlar bo‘yicha qoldiqda turgan har bir summa ham kiritiladi. Yuqorida aytilgan hisobvaraqlarda qoldiq bo‘lmasa, bu haqda balans hisobotiga yozib qo‘yiladi.

Har bir hisobot shakli va qaydnomalarini bank rahbari hamda bosh buxgalteri mufassal ko‘rib chiqishi va imzolashi kerak. Kassa ope-rasiyalari bo‘yicha hisobotlariga ulardan tashqari katta kassir yoki kassa mudiri ham imzo chekadi. Banklarda hududiy viloyat boshqarmalari, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi tegishlicha o‘z banklariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga hisobot topshiradi.

Yuqori banklarga kelib tushgan buxgalteriya hisobotlari tekshiriladi, tahlil qilinadi va uning asosida zarur boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

Hisobot ma’lumotlarida nomuvofiqlik borligi aniqlansa, uning sabablari eng qisqa muddatda topilishi va tartibga solinishi lozim. Banklarning viloyatlardagi (har kuni), respublikalardagi (har oyda) rahbarlari balanslarni ko‘rib chiqishlari hamda bosh buxgalterning ularga qarashli banklarda buxgalteriya ishi, buxgalteriya hisobi va hisoboti ahvoli, shuningdek, bu ishda aniqlangan kamchiliklarni qanday bartaraf etilayotgani to‘g‘risidagi axborotni tinglashi kerak.

Bankning kunlik balans hisobotini tuzish bo‘yicha bitta misol ko‘rib chiqamiz.

ATB “Kapitalbank”ning Mirobod filialini 2020 yil 2 oktyabr *kun boshiga* bank balansi (so‘m hisobida)

H/v kodi	Ko‘rsatkichlar nomi	Qoldiq	
		Aktiv	Passiv
	Aktivlar		
10100	Kassadagi naqd pul va boshqa to‘lov hujjatlari	59000000	
12500	Jismoniy shaxslarga berilgan qisqa muddatli kreditlar	1990000	
12600	Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar	29900000	
12700	Davlat korxon va muassasalariga berilgan qisqa muddatli kreditlar	100000000	
12900	ChEKIdagi korxonalariga berilgan qisqa muddatli kreditlar	79800000	
13100	Xususiy korxonalar va jamiyatlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar	159000000	
14900	Jismoniy shaxslarga berilgan uzoq muddatli kreditlar	19960000	
15000	Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan uzoq muddatli kreditlar	20340000	
15100	Davlat korxon va muassasalariga berilgan uzoq muddatli kreditlar	39930000	

15300	ChEKIdagi korxonalar berilgan uzoq muddatli kreditlar	16200000	
15500	Xususiy korxonalar va jamiyatlarga berilgan uzoq muddatli kreditlar	99800000	
15600	Lizing (Moliyaviy ijara)	10308000	
16100	Bosh ofis/filialdan olinadigan mablag'lar	99800000	
16300	Olinishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar	39900000	
16400	Olinishi lozim bo'lgan hisoblangan foizsiz daromadlar	15000000	
16500	Asosiy vositalar	89800000	
16600	Nomoddiy aktivlar	20500000	
17100	Valyuta savdosi va valyuta pozitsiyalari	1996000	
19900	Boshqa aktivlar	50000000	
	Jami aktivlar	952738000	
20000	Majburiyatlar		
20200	Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar		189200000
20400	Jamg'arma depozitlar		365600000
20600	Muddatli depozitlar		126410000
22200	Bosh ofis/filiallarga to'lanadigan mablag'lar		12800000
22400	To'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar		149900000
22500	Hisoblangan soliqlar		4280000
22600	Mijozlarning boshqa depozitlari		40150000
23200	Kliring transaksionalari		29980000
23400	Hukumat hisobvaraqlari — daromad va boshqa tushumlar		12420000
29800	Boshqa majburiyatlar		28260000
	Jami majburiyatlar		824090000
30000	Xususiy kapital		
30900	Zaxira kapitali		80800000
31200	Taqsimlanmagan foyda		47848000
	Jami xususiy kapital		128648000
	Jami passivlar (majburiyatlar + xususiy kapital)		952738000
	JAMI	952738000	952738000
90000	KO'ZDA TUTILMAGAN HOLATLAR		
90900	Savdoga oid moliyalashlar	45621000	
91500	Aktivlar bo'yicha foizlar va vositachilik haqlari	45000	
91800	Bankning kredit va lizing majburiyatlari	6510000	
91900	Qarzdorlarning kredit va lizing majburiyatlari	590850000	
93600	Saqlanayotgan qimmatli qog'ozlar va boshqa qimmatbaho buyumlar	5000	
94500	Garov sifatidagi qimmatli qog'ozlar, mulklar va mulkiy huquq (talab)lar	752400000	
96300	Ko'zda tutilmagan holatlar kontr-hisobvaraqlari		1395431000
	KO'ZDA TUTILMAGAN HOLATLAR bo'yicha jami	1395431000	1395431000
	HAMMASI	2348169000	2348169000

02.10.2020 yilda ATB “Kapitalbank”ning Mirobod filialida quyidagi bank operatsiyalar amalga oshirilgan va ular boyicha buxgalteriya o'tkazmalari berilgan.

№	Operatsiyalar mazmuni	Summa (so'm)	Korespondensiya	
			Debet	Kredit
1	Inkassatsiya qilingan pul kassaga kirim qilindi.	12000000	10101	19903
2	Boshqa bank mijozidan chet el kapitali ishtirokidagi korxonaga hisobvarag'iga to'lov kelib tushdi (turli hil filial mijoz)	780000	16103	20214
3	Davlat korxonasi pul chekiga asosan ish haqiga naqd pul oldi	15000000	20210	10101
4	Chet el kapitali ishtirokidagi korxonaga nomiga soliq to'lovi uchun inkasso topshiriqnomasi shu bankdagi DSIdan kelib tushdi. (Mijozning hisobvarag'da pul mablag'i etarli)	9640000	20214	23402
5	Xususiy korxonaga DSIda foyda solig'ini to'lash uchun to'lov topshiriqnomasini taqdim etdi. (Mijozning hisobvarag'da pul mablag'i etarli emas)	623000	90963	96321
6	Jismoniy shaxs talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitga nadp pul qo'ydi	1000000	10101	20206
7	Jismoniy shaxs elektr energiyasi uchun naqd pul to'ladi (ikkalasi ham shu bank mijoz)	152000	10101	20210
8	Chet el kapitali ishtirokidagi korxonaga olgan uzoq muddatli kreditini asosiy summasi to'liq qaytardi	7800000	20214	15301
9	Yakka tartibdagi tadbirkor qisqa muddatli kredit uchun hisoblangan foizni to'ladi.	694000	20218	16309
10	Muddatli depozit bo'yicha hisoblangan foizlar jismoniy shaxsga kassadan berildi.	120000	22405	10101

Yuqoridagi bank operatsiyalari bo'yicha qoldiqlarni topib olamiz.

Dt	10100	Kt
590000000		
1) 12000000		3) 15000000
6) 1000000		
7) 152000		10) 120000
13152000		15120000
588032000		

Dt	19900	Kt
50000000		
		1) 12000000
0		12000000
38000000		

Dt	16100	Kt
117764000		
2) 780000		
780000	0	
118544000		

Dt	23400	Kt
	12420000	
	4) 9640000	
0	9640000	
	22060000	

Dt	96300	Kt
	1395431000	
	5) 623000	
0	623000	
	1396054000	

Dt	16300	Kt
39900000		
	9) 694000	
0	694000	
39206000		

Dt	20200	Kt
	189200000	
3) 15000000	2) 780000	
4) 9640000	6) 1000000	
8) 7800000	7) 152000	
9) 694000		
33134000	1932000	
	220402000	

Dt	90600	Kt
45621000		
5) 623000		
623000	0	
46244000		

Dt	15300	Kt
16200000		
	8) 780000	
0	7800000	
8400000		

Dt	22400	Kt
	14990000	
10) 120000		
120000	0	
	14870000	

ATB "Kapitalbank"ning Mirobod filialini 2020 yil 2 oktyabrda bank operatsiyalari bo'yicha aylanma qaydnoma tuzamiz (so'm hisobida).

H/v kodi	Kun boshiga qoldiq		Aylanma		Kun oxiriga qoldiq	
	Aktiv	Passiv	Aktiv	Passiv	Aktiv	Passiv
Aktivlar						
10100	59000000		13152000	15120000	57032000	
12500	1990000				1990000	
12600	29900000				29900000	
12700	100000000				100000000	
12900	79800000				79800000	
13100	159000000				159000000	
14900	19960000				19960000	
15000	20340000				20340000	
15100	39930000				39930000	
15300	16200000		0	7800000	8400000	
15500	99800000				99800000	
15600	10308000				10308000	
16100	117764000		780000	0	118544000	
16300	39900000		0	694000	39206000	
16400	15000000				15000000	
16500	89800000				89800000	
16600	2050000				2050000	
17100	1996000				1996000	
19900	50000000		0	12000000	38000000	
Majbu-riyatlar						
20200		189200000	33134000	1932000		157998000
20400		365600000				365600000
20600		126410000				126410000
22200		12800000				12800000
22400		14990000	120000	0		14870000
22500		4280000				4280000
22600		40150000				40150000
23200		29980000				29980000
23400		12420000	0	9640000		22060000
29800		28260000				28260000
Xususiy kapital						
30900		80800000				80800000

31200		47848000				47848000
Ko'zda tutilmagan holatlar						
90900	45621000		623000	0	46244000	
91500	45000				45000	
91800	6510000				6510000	
91900	590850000				590850000	
93600	5000				5000	
94500	752400000				752400000	
96300		1395431000	0	623000		1396054000
Jami	2348169000	2348169000	47809000	47809000	2327110000	2327110000

ATB "Kapitalbank"ning Mirobod filialini 2020 yil 2 oktyabr *kun oxiriga* bank balansi (so'm hisobida)

H/v kodi	Ko'rsatkichlar nomi	Qoldiq	
		Aktiv	Passiv
	Aktivlar		
10100	Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari	57032000	
12500	Jismoniy shaxslarga berilgan qisqa muddatli kreditlar	1990000	
12600	Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar	29900000	
12700	Davlat korxonona va muassasalariga berilgan qisqa muddatli kreditlar	100000000	
12900	ChEKIdagi korxonalariga berilgan qisqa muddatli kreditlar	79800000	
13100	Xususiy korxonalar va jamiyatlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar	159000000	
14900	Jismoniy shaxslarga berilgan uzoq muddatli kreditlar	19960000	
15000	Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan uzoq muddatli kreditlar	20340000	
15100	Davlat korxonona va muassasalarga berilgan uzoq muddatli kreditlar	39930000	
15300	ChEKIdagi korxonalariga berilgan uzoq muddatli kreditlar	8400000	
15500	Xususiy korxonalar va jamiyatlarga berilgan uzoq muddatli kreditlar	99800000	
15600	Lizing (Moliyaviy ijara)	10308000	
16100	Bosh ofis/filialdan olinadigan mablag'lar	118544000	
16300	Olinishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar	39206000	
16400	Olinishi lozim bo'lgan hisoblangan foizsiz daromadlar	15000000	
16500	Asosiy vositalar	89800000	
16600	Nomoddiy aktivlar	2050000	
17100	Valyuta savdosi va valyuta pozitsiyalari	1996000	
19900	Boshqa aktivlar	38000000	

	Jami aktivlar	931056000	
20000	Majburiyatlar		
20200	Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar		157998000
20400	Jamg'arma depozitlar		365600000
20600	Muddatli depozitlar		126410000
22200	Bosh ofis/filiallarga to'lanadigan mablag'lar		12800000
22400	To'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar		14870000
22500	Hisoblangan soliqlar		4280000
22600	Mijozlarning boshqa depozitlari		40150000
23200	Kliring transaksiyalari		29980000
23400	Hukumat hisobvaraqlari — daromad va boshqa tushumlar		22060000
29800	Boshqa majburiyatlar		28260000
	Jami majburiyatlar		802408000
30000	Xususiy kapital		
30900	Zaxira kapitali		80800000
31200	Taqsimlanmagan foyda		47848000
	Jami xususiy kapital		128648000
	Jami passivlar (majburiyatlar + xususiy kapital)		931056000
	JAMI	931056000	931056000
90000	KO'ZDA TUTILMAGAN HOLATLAR		
90900	Savdoga oid moliyalashlar	46244000	
91500	Aktivlar bo'yicha foizlar va vositachilik haqlari	45000	
91800	Bankning kredit va lizing majburiyatlari	6510000	
91900	Qarzdorlarning kredit va lizing majburiyatlari	590850000	
93600	Saqlanayotgan qimmatli qog'ozlar va boshqa qimmatbaho buyumlar	5000	
94500	Garov sifatidagi qimmatli qog'ozlar, mulklar va mulkiy huquq(talab)lar	752400000	
96300	Ko'zda tutilmagan holatlar kontr-hisobvaraqlari		1396054000
	KO'ZDA TUTILMAGAN HOLATLAR bo'yicha jami	1396054000	1396054000
	HAMMASI	2327110000	2327110000

14.3. Bankning balans hisoboti

Yillik buxgalteriya hisoboti tarkibi, mundariyasi va uni taqdim etish tartibi O'zbekiston Respublikasi banklarining alohida ko'rsatmalari bilan belgilab qo'yiladi. Respublika tijorat banklari buxgalteriya balans-larini nusxasini va boshqa shakldagi hisobotlarni O'zbekiston Respubli-kasi Markaziy bankining tegishli departamentlariga taqdim etadi.

Hozirgi kunda banklar yil tugagandan so'ng «balans hisoboti» deb yuritiladigan hisobot tuzadi.

Balans ikki qismidan, ya'ni aktiv va passiv qismlardan iborat. Ak-

tiv va passiv tomonlarning o'zaro tengligi balans to'g'ri chiqarilganligi, bank ish kuni to'liq yakunlanganligini bildiradi. Balansning aktiv tomoni naqd pullar, Markaziy bank vakillik hisobvarag'i, xorijiy valutadagi pul mablag'lari, majburiy zaxiralar fondi, qimmatbaho qog'ozlarga qo'yilmalar, kreditlar, sarmoyalar, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar kabi asosiy hisobvaraqlardan tashkil topgan. Passivlar qismi o'z ichiga depozitlar, boshqa banklardan olingan kreditlar, bank chiqargan qarz majburiyatlarini, aksionerlik kapitali kabi hisobvaraqlarni oladi.

Endi bank balansi aktiv va passivlarining qisqacha tavsiflarini ko'rib chiqamiz. Aktivlar tavsifini «naqd pullar»dan boshlaymiz.

Naqd pullar – bank mablag'lari toifasi bo'lib, bankning to'lov faoliyatining ahvolini belgilaydi va mijozlarning naqd pulga bo'lgan talablarini qondirish uchun bankning mijoz oldidagi o'z majburiyatlarini bajarish qobiliyatini ochib beradi.

Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i bo'lib, unda ayni paytda bankda mablag'lar borligi aks ettiriladi. Har qanday bankning hisob-varag'i Markaziy bankda turadi va aktiv hisobvaraqlar hisoblanadi. Mablag' o'tkazish yoki mablag'larning tuzilishi bo'yicha bank amalga oshiradigan hamma operatsiyalar vakillik hisobvarag'ida aks ettiriladi.

Xorijiy valutadagi pul mablag'lari – tijorat banklarining valuta bozoridagi operatsiyalari hajmini belgilaydi.

Majburiy zaxiralar fondi Markaziy bankdagi alohida hisobvarag'ida turadigan bank mablag'lari bo'lib, O'zbekistonning hamma tijorat banklari tomonidan majburiy tartibda zaxiralanadi, bu esa tijorat banki-ning likvidligini saqlab turishiga ma'lum darajada kafolat bo'ladi. Majburiy zaxiralar fondiga ajratmalarning foiz stavkalarini belgilash Markaziy bank tomonidan o'tkaziladigan tijorat banklari likvidligini saqlab turishning eng ta'sirchan mexanizmi hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalarda – tijorat bankining fond bozorida operatsiyalari aks ettiriladi va balans aktivining boshqa ko'rsatkichlari bilan taqqoslanganda, qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalarda bankning amaliy faolligini ifodalaydi. Tijorat bankining qimmatli qog'ozlari emitentlar maqomiga qarab ikki toifaga bo'linadi:

- Hukumat yoki Markaziy bank chiqargan qimmatli qog'ozlar;
- xo'jalik yurituvchi subyektlar chiqargan qimmatli qog'ozlar.

Hukumat yoki Markaziy bank chiqargan qimmatli qog'ozlar yuqori darajada likvidligi bilan ajralib turadi, ammo bu qog'ozlarning daromad-

liligi boshqa emitentlar chiqargan qimmatli qog'ozlarnikidan bir muncha past bo'ladi.

Kreditlar – tijorat banklarining kreditga doir operatsiyalari bo'yicha bank foyda olishining belgilovchi moddasi hisoblanadi. Balansda kredit muddatlari va iqtisodiyotdagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning qaysi mulkchilik shakliga berilishiga qarab tasniflanadi.

Sarmoyalar – bankning xo'jalik yurituvchi boshqa subyektlar, mo-liya tashkilotlari faoliyatidagi ulushli ishtirokini ko'rsatadi. Bank sar-moyalari korxonada faoliyatini boshqarish yo'li bilan foyda, dividendlar yoki boshqa turdagi daromad olish maqsadida bank turli loyihalarga yo'naltirilgan mablag'lar hajmini ifodalaydi.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar – bank aktivlarining asosiy moddalaridan biri hisoblanadi, chunki bank o'z faoliyatini tashkil qilish uchun moddiy bazaga, operatsiyalarni bajarish uchun shart-sharoitga ega bo'lishi lozim. Bankning asosiy vositalariga bino-inshootlariga, kapital qurilish uchun bank tomonidan qilingan xarajatlar, ofis va ish mebeli, ji-hozlar, kompyuter va boshqa hisoblash texnikasi, aloqa vositalari va hokazolar kiradi. Markaziy bank belgilangan me'yorlar tijorat bankining kapital xarajatlari miqdorini bank aktivining 10 foiz miqdorida cheklaydi.

Endi bank balansining passiv qismidagi moddalar bilan tanishib chiqamiz.

Bank balansining passiv qismi depozitlardan boshlanadi. Depozitlar – bankning boshqa subyektlardan xarid qilingan manbalarini ifodalaydi. Ular talab qilib olinadigan, jamg'armali va muddatli depozitlarga bo'linadi. Talab qilib olinadigan depozitlardan tashqari barcha depozitlar kredit resurslarining eng barqaror manbalaridan hisoblanadi. Jalb qilingan manbalardan muddatli depozitlar ulushining oshishi qo'yimalarni uzoqroq muddatga, shu bilan birga, yuqoriroq foiz bilan amalga oshirish imkonini beradi, bu esa bankning omonatlar (depozitlar) bo'yicha foiz xarajatlarni qisqartiradi va foyda olish hamda likvidlik manfaatlariga xizmat qiladi.

Boshqa banklardan olingan kreditlar – tijorat bankning bo'sh mablag'larini qayta taqsimlash borasida boshqa moliya muassasalari bilan o'zaro munosabatlarini ifodalaydi. Ammo banklararo kreditlar bir tomondan boshqa mablag'larga nisbatan olishga osonroq hisoblangani bilan, ikkinchi tomondan, eng qimmat kredit manbalarni sanaladi. Tijorat bankining jalb qilingan mablag'larda banklararo kreditlari ulushining kattaligi uning depozit siyosati yaxshi ishlab chiqilmaganligini ko'rsatadi.

Bank chiqargan qarz majburiyatlari moddasida tijorat banki tomonidan chiqarilgan qarz majburiyatlari aks ettiriladi. Qarz majburiyatlarini chiqarish bankka uzoq muddatli manbalarni bank uchun qulay tarzda shakllantirish imkonini beradi. Bundan tashqari, bu katta hajmdagi qarz mablagʻlari bank uchun qulay hisoblanadi, chunki uning pulini toʻlab va qaytarib olish sanasi oldindan maʼlum boʻladi, bu esa bankning toʻlovga noqobil riskini kamaytiradi.

Bank passivlarining asosiy moddalaridan biri ustav kapitalidir. Tijorat bankining ustav kapitali, bankning oʻz mablagʻlari hajmini ifodalaydi. Markaziy bank tijorat banklarining kapital hosil qilish darajasi va tuzilmasini tartibga solib turadi, bu esa bank operatsiyalarining daromadlilikini yaxshilaydi, umuman tijorat faoliyati muvaffaqiyatli boʻlishini taʼminlaydi.

Bank tizimiga ishonchni mustahkamlash maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat bankining moliyaviy faoliyati sifatini oshirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirib bormoqda. Oʻzbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida»gi qonunining 42-moddasiga, shu bilan birga, «Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki toʻgʻrisida»gi va «Buxgalteriya hisobi» toʻgʻrisidagi qonun-larga muvofiq banklarning eʼlon qilinadigan hisobotlariga doir Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining talablari toʻgʻrisida Nizom ishlab chiqildi. Ushbu Nizomning ishlab chiqilishi Tijorat banklari yillik hisobotlarining ochiq matbuotda eʼlon qilinishi dunyoda muayyan darajada oshkorligi bilan ajralib turadigan bank tizimini yaratish uchun dastlabki qadam boʻldi. Nizomga koʻra barcha banklar oʻz yillik hisobotlarini, jumladan balans hisobotini matbuotda eʼlon qilishlari lozim. Bu esa 1-sonli MHXSlari talablariga mos keladi.

13-jadval

“A” BANKNING YIGʻMA BALANS HISOBOTI
2020-yil 1-yanvar holatiga

Moddalar	2018 yil	2019 yil	Farqi (+,-)
AKTIVLAR			
Naqd pullar	20 770 600	6 187 118	-14 583 482
Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankidan olinishi kerak boʻlgan pullar	58 699 826	93 218 048	34 518 222
Boshqa banklardan olinishi kerak boʻlgan pullar	38 411 790	63 307 758	24 895 968

Sotish uchun mavjud bo'lgan naqd investitsiyalar	13 422 444	5 911 479	-7 510 965
So'ndirilguncha ushlab turilgan investitsiyalar	1 835 211	757 514	-1 077 697
Teskari REPO	0	0	0
Mijozlarga berilgan kreditlar va bo'naklar	333 175 313	525 033 407	191 858 094
Minus; ehtimoliy zararlar bo'yicha zaxiralari	-14 948 881	-21 321 737	6 372 856
Sof kreditlar va bo'naklar	318 226 432	503 711 670	185 485 238
Moliyaviy ijara	10 952 783	7 278 547	-3 674 236
Qaram xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar	0	0	0
Qo'shma korxonalariga investitsiyalar	3 190 526	4 935 777	1 745 251
Gudvill	0	0	0
Asosiy vositalar (sof balans qiymati bo'yicha)	32 898 181	35 495 587	2 597 406
Nomoddiy aktivlar (sof balans qiymati bo'yicha)	310 114	97 726	-212 388
Boshqa o'z mulki	0	0	0
Boshqa aktivlar	6 022 131	6 448 269	426 138
JAMI AKTIVLAR	504 740 038	727 349 493	222 609 455

MAJBURIYATLAR

Depozitlar			
Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar	168 735 576	267 172 257	98 436 681
Jamg'arma depozitlar	66 877 422	98 337 776	31 460 354
Muddatli depozitlar	61 646 984	50 982 281	-10 664 703
Depozit sertifikatlar	187 109	1 669 081	1 481 972
Hukumat hisobvaraqlari	0	0	0
Hamma depozitlar	297 447 091	418 161 395	120 714 304
O'zbekiston respublikasi Markaziy bankiga to'lanishi kerak bo'lgan mablag'lar	6 176 310	4 968 282	-1 208 028
Hukumatga to'lanishi kerak bo'lgan mablag'lar	34 474 601	59 305 568	24 830 967
Boshqa banklarga to'lanishi kerak bo'lgan mablag'lar	23 504 473	49 887 621	26 383 148
REPO va boshqa qarz mablag'lar	74 946 000	90 056 469	15 110 469
Hosila moliyaviy vositalari	0	0	0
Soliq majburiyatlari	300 357	1 023 939	723 582
Boshqa majburiyatlar	2 661 128	2 994 525	333 397

Chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlar	0	0	0
<i>Hamma majburiyatlar</i>	439 509 960	626 397 799	186 887 839
O'Z SARMOYASI			
Oddiy aksiyalar	38 976 705	64 899 962	25 923 257
Imtiyozli aksiyalar	375 015	725 015	350 000
<i>Jami aksiyadorlik sarmoyasi</i>	39 351 720	65 624 977	26 273 257
Qayta baholash zaxiralari	1 849 346	2 649 257	799 911
Taqsimlanmagan foyda (to'planib qolgan taqchillik)	24 029 012	32 677 460	8 648 448
<i>Hamma o'z sarmoyasi</i>	65 230 078	100 951 694	35 721 616
JAMI MAJBURIYATLAR VA O'Z SARMOYASI	504 740 038	727 349 493	222 609 455

Yuqorida banklardan birining balans hisobotini keltirdik. Shunday qilib, e'lon qilinayotgan tijorat banklari balanslarining shakli Markaziy bank tomonidan dunyo andozalariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, xalqaro buxgalteriya hisobi tizimida qo'llaniladigan tuzilmaga ega.

Umuman, tijorat banklari balansining aktivlari ularning likvidlik darajasiga qarab joylashtirilgan bo'lib, turli moliyaviy risklarga duchor bo'lish darajasi ham hisobga olinadi. Balans passivlari esa muddatlilik darajasiga va qiymatiga qarab muayyan tartibda joylashtiriladi.

Bank moliyaviy faoliyati natijasida olingan foyda (zarar) 31200 – «Taqsimlanmagan foyda» balans hisobvarag'i doirasida quyidagi ikkinchi tartibli hisobvaraqlarda aks ettiriladi:

➤ 31203 – «Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv)»

v31206 – «Sof foyda (zarar) (aktiv-passiv)»

Oldingi moliyaviy yillar davomida bank faoliyati natijasida olingan taqsimlanmagan foyda (zarar) lar hisobi 31203 – «Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv)» balans hisobvarag'ida yuritiladi. Ushbu hisobvaraqlarning **kreditida** 31206 - «Sof foyda (zarar) (aktiv-passiv)» balans hisobvarag'idan o'tkazilgan bankning sof foydasi summasi, xamda zaxira kapitali hisobvarag'idan taqsimlanmagan foydaga o'tkazilgan summalar aks ettiriladi. Hisobvaraqlarning **debitida** 31206 - balans hisobvarag'idan o'tkazilgan zararlar, e'lon qilingan dividendlar, xar xil fond (jamg'arma) larga ajratma summaları aks ettiriladi. Tahliliy (analitik) hisob bitta shaxsiy hisobvaraqda yuritiladi.

Hisobot yilida bankning moliyaviy faoliyatidan olingan sof foyda, xamda ushbu davr davomida elon qilingan dividendlar hisobi 31206

